M.Q.Pardayev, S.A.Babanazarova,
O.M.Pardayeva

MEHNAT BOZORI TRANSFORMATSIYASI

O`quv qo`llanma



2025

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining
95 yilligiga bag‘ishlanadi

M.Q.Pardayev, S.A.Babanazarova,
O.M.Pardayeva

MEHNAT BOZORI TRANSFORMATSIYASI

O‘quv qo‘llanma

SAMARQAND – 2025

UO‘K: 339.13(075)
P 21
KBK: 65.2(9) ya73

Pardaev M.Q., Babanazarova S.A., Pardaeva O.M.
MEHNAT BOZORI TRANSFORMATSIYASI *[Matn]:* ***o‘quv qo‘llanma*** */ Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – Samarqand.: “STEP-SEL” MCHJ nashriyoti, 2025 - 338 bet.*

O‘quv qo‘llanmada mehnat bozori transformatsiyasi fani nazariyasi yoritilgan bo‘lib, bunga kirish va uchta nazariy va ettita ilmiy-amaliy boblar kiritilgan. Bunda “Mehnat bozori transformatsiyasi (MBT)” tushunchalarining mazmuni va undan kelib chiqadigan masalalar, uning tegishli boblarida ilmiy-nazariy jihatdan batafsil yoritib berilgan. Mazkur qo‘llanmaning mazmuni, mehnat bozori transformatsiyasi (MBT) tushunchasining nazariy masalalari va mehnat bozori transformatsiyasi (MBT) fanining tarixi yoritilgan. Ushbu fanning tarixi insoniyatning vujudga kelgan davridan tortib, bugungi innovatsion iqtisodiyot sharoitidagi uning inson kapitaligacha bosqichini qamrab oladi. Qo‘llanmada “Mehnat bozori transformatsiyasi (MBT) fanining maqsadi, predmeti, vazifalari va prinsiplari” yoritilgan. MBT fanining maqsadi, MBT fanining predmeti, MBT fanining vazifalari, MBT fanining prinsiplari qarab chiqilgan. Bunda mehnat bozorining muntazam ravishda takomillashib borishi xususida gap yuritiladi.

Taqrizchilar:
F.A.Safarov – SamISI v.b. professori, iqtisodiyot fandlari doktori (DSc).
Sh.O.Quvondiqov – SamISI v.b. professori, iqtisodiyot fandlari doktori (DSc).

O‘quv qo‘llanma institut Kengashining 2025-yil 28-martdagi 8-sonli majlisda muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan. (Ro‘xatga olish raqami 249-28/03).

ISBN: 978-9910-587-05-4

© Pardaev M.Q. va b., SamISI. 2025 y.
© “STEP-SEL” MChJ nashryoti. 2025 y.

MUNDARIJA

KIRISh **8**
I BOB. "TRANSFORMATSIYA" VA "MEHNAT BOZORI TRANSFORMATSIYASI (MBT)" TUSHUNCHALARINING MAZMUNI **13**
1.1. "Transformatsiya" tushunchasining mazmuni. 13
1.2. Mehnat bozori transformatsiyasi (MBT) tushunchasining nazariy masalalari. 16
1.3. Mehnat bozori transformatsiyasi (MBT) fanining tarixi 19
O'zini-o'zi nazorat qilish uchun va takrorlash uchun savollar 23
II BOB. MEHNAT BOZORI TRANSFORMATSIYASI (MBT) FANINING MAQSADI, PREDMETI VA VAZIFALARI **25**
2.1. MBT fanining maqsadi. 25
2.2. MBT fanining predmeti 27
2.3. MBT fanining vazifalari 28
O'zini-o'zi nazorat qilish va takrorlash uchun savollar. 32
III BOB. MEHNAT BOZORI TRANSFORMATSIYASI (MBT) FANINING METODI VA METODOLOGIK ASOSLARI **34**
3.1. Mehnat bozori transformatsiyasi (MBT) fanining metodi 34
3.2. Mehnat bozori transformatsiyasi fanining metodologiyasi va uning tavsifi 41
3.3. Mehnat bozori transformatsiyasi fani metodologiyasining nazariy masalalari 44
O'zini-o'zi nazorat qilish va takrorlash uchun savollar 48
IV BOB. MEHNAT BOZORI TRANSFORMATSIYASI (MBT) FANINING PRINSIPLARI, TARTIBGA SOLISH YO'LLARI VA OBYEKTIV ZARURIYATI **50**
4.1. Mehnat bozori transformatsiyasi (MBT) fanining prinsiplari 50
4.2. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida mehnat bozori transformatsiyasi (MBT) fanining yangi talablar doirasida takomillashuvi 58
4.3. Mehnat bozori transformatsiyasi (MBT) fanida inson resurslarining miqdoriy va sifatiy tavsiflari 62
O'zini-o'zi nazorat qilish va takrorlash uchun savollar 70

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI
№ 73595

V BOB. MEHNAT BOZORI TRANSFORMATSIYASIDA ICHKI VA TASHQI MIGRATSIYA BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI. 71
5.1. Mehnat bozorida malakali kadrlarga talabni o'rganish masalalari 71
5.2. Mehnat bozori transformatsiyasida ichki va tashqi migratsiya bilan bog'liq muammolar va ularning yechimlari 76
5.3. Mehnat bozori transformatsiyasida ishlovchilar va ish beruvchilarning o'zaro munosabatlari 80
O'zini-o'zi nazorat qilish va takrorlash uchun savollar: 85
VI BOB. MEHNAT BOZORI TRANSFORMATSIYASIDA AHOLINIING MALAKASI VA UNGA MOS TA'LIMNI MOSLASHTIRISH YO'NALISHLARI 86
6.1. Inson salohiyati bilan bog'liq iqtisodiy kategoriyalar va ularning MBTga oid nazariy talqini 86
6.2. Inson salohiyatining o'ziga xos xususiyatlari va uning MBTdagi o'rni 95
6.3. MBTda inson salohiyatini shakllantirishda sifatli ta'lim va tarbiyaning uyg'unligini ta'minlash masalalari 103
O'zini-o'zi nazorat qilish va takrorlash uchun savollar: 110
VII BOB. MEHNAT BOZORI TRANSFORMATSIYASIDA ISHLOVCHILAR VA ISH BERUVCHILARNING O'ZARO MUNOSABATLARI 112
7.1. Mehnat bozori transformatsiyasida talab va taklif 112
7.2. Mehnat bozori transformatsiyasida ishsizlik va ish bilan ta'minlanganlik darajasini oshirish imkoniyatlari 115
7.3. MBTda xodimlarning huquq va majburiyatlari va ularni ifoda etadigan me'yoriy hujjatlar 121
O'zini-o'zi nazorat qilish va takrorlash uchun savollar: 134
VIII BOB. MEHNAT BOZORI TRANSFORMATSIYASINING INNOVATSION IQTISODIYOTGA VA RAQAMLASHTIRISH SHAROITIGA MOSLIGI 135
8.1. Mehnat bozori transformatsiyasida texnologik va demografik o'zgarishlar hamda boshqa zamonaviy talablardan kelib chiqadigan yondoshuvlar 135

8.2. MBTda iqtisodiy notekislik, ijtimoiy muloqot va korrupsiyaga qarshi kurash masalalari 144
8.3. Mehnat bozori transformatsiyasini zamonaviy o‘zgarishlarga mos holda rivojlanish omillari 154
O‘zini-o‘zi nazorat qilish va takrorlash uchun savollar: 159
IX BOB. MEHNAT BOZORI TRANSFORMATSIYASIDA AHOLINIING RUHIY VA IJTIMOIY DARAJALARINING TA’SIRI..... 161
9.1. MBTda raqamli ta’lim xizmatlarini takomillashtirish konsepsiyasi va tarbiyaning ruhiy va ijtimoiy darajasiga ta’siri 161
9.2. MBTda raqamli iqtisodiyotning Janubiy Koreya tajribasi va undan O‘zbekistonda ta’lim jarayonida foydalanish istiqbollari 173
9.3. Banklarda raqamli iqtisodiyotdan foydalanish orqali yashirin iqtisodiyotning oldini olishning ruhiy holatga ta’siri 181
O‘zini-o‘zi nazorat qilish va takrorlash uchun savollar: 188
X BOB. MEHNAT BOZORI TRANSFORMATSIYASINING GLOBALLASHUV SHAROITIDAGI O‘ZGARISHLARI..... 190
10.1. Globallashuv sharoitda mehnat bozori transformatsiyasida turizmni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari 190
10.2. Globallashuv sharoitida mehnat bozori transformatsiyasida Yaponiya tajribasidan foydalanishning ibratli jihatlari 200
10.3. Mehnat bozori transformatsiyasida “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirishga mos kadrlarni tayyorlash 206
O‘zini-o‘zi nazorat qilish va takrorlash uchun savollar: 214
XI BOB. MEHNAT BOZORI TRANSFORMATSIYASIDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH BILAN BOG‘LIQ IQTISODIY OMILLAR TA’SIRI 216
11.1. Raqamli iqtisodiyotning ta’rifi va uning MBTda foydalanishidan maqsadi 216
11.2. MBTda raqamli iqtisodiyotga o‘tishning obyektiv zarurligi 219
11.3. Raqamli iqtisodiyotning mohiyati va uni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari 224
11.4. Raqamli iqtisodiyotning ijobiy va salbiy tomonlari va uning MBTga ta’siri 229

11.5. MBTda raqamli iqtisodiyotning qo‘llanilishi mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining muhim omili 232
O‘zini-o‘zi nazorat qilish va takrorlash uchun savollar: 239
XII BOB. MEHNAT BOZORI TRANSFORMATSIYASIDA ZAMONAVIY TALABLAR VA KELIB CHIQADIGAN YONDOSHUVLAR. 240
12.1. Mehnat bozori transformatsiyasining raqamli iqtisodiyot afzalliklarining namoyon bo‘lishi 240
12.2. Mehnat bozori transformatsiyasining raqamli iqtisodiyotga mos holda rivojlanishi. 245
12.3. MBTda raqamli iqtisodiyotdan foydalanish orqali yashirin iqtisodiyotning oldini olish imkoniyatlari 253
O‘zini-o‘zi nazorat qilish va takrorlash uchun savollar: 262
XII BOB. MEHNAT BOZORI TRANSFORMATSIYSIDA INSON KAPITALINING O‘RNI VA KREATIV YONDOSHUVLARNING AHAMIYATI..... 263
13.1. Mehnat bozori transformatsiyasida inson kapitalining o‘zgarish tendensiyalari 263
13.2. Mehnat bozori transformatsiyasida zamon talabiga mos inson kapitalini shakllantirish masalalari 264
13.3. Mehnat bozori transformatsiyasini optimallashtirishda kreativ yondashuvlar. 267
O‘zini-o‘zi nazorat qilish va takrorlash uchun savollar: 271
XIV BOB. MEHNAT BOZORI TRANSFORMATSIYASINI OPTIMALLASHTIRISHDA KREATIV YONDASHUVLAR ... 272
14.1. Mehnat bozori transformatsiyasida kreativ iqtisodiyotning prinsiplarini moslashtirish masalalari 272
14.2. Kreativ iqtisodiyot industriyasini mehnat bozori transformatsiyasiga moslashtirish masalalari 279
14.3. Mehnat bozori transformatsiyasini optimallashtirishda kreativ yondashuvlar. 289
14.4. Kreativ iqtisodiyot sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari va mehnat bozori transformatsiyasiga mosligini ta’minlash masalalari 295
O‘zini-o‘zi nazorat qilish va takrorlash uchun savollar: 305

XV BOB. MEHNAT BOZORI TRANSFORMATSIYASIDA (MBT) SWOT TAHLILIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI 307
15.1. SWOT tahlil tushunchasi va uning MBTda qo‘llanilishi.....307
15.2. Iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlarga, xususan MBTga ham baho berishda SWOT tahlildan foydalanish 309
15.3. Ko‘rilayotgan masalaning kuchli tomonlari.....312
15.4. Ko‘rilayotgan masalaning zaif tomonlari.....315
15.5. Ko‘rilayotgan masalaning imkoniyatlari.....318
15.6. Ko‘rilayotgan masala bo‘yicha tahdidlar 321
15.7. SWOT tahlilni o‘tkazish bo‘g‘inlari va strategik maqsadlari 325
O‘zini-o‘zi nazorat qilish va takrorlash uchun savollar: 328
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:..... 329

KIRISh

Bugungi kunda mehnat bozori transformatsiyasi fanining o‘qish jarayoniga kiritilishi obyektiv zaruriyatga aylandi. Chunki mehnat bozori ham boshqa jarayonlar singari keskin o‘zgarishlar davrini boshidan kechirmoqda. Bu borada bir qancha me’yoriy hujjatlar ham qabul qilinmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli farmoni qabul qilindi. Ushbu hujjatda ham qo‘l mehnatini quyidan tortib yuqorigacha sanoatlashgan muhnatga aylantirish bo‘yicha strategik vazifalar qo‘yilmoqda. Xususan, mazkur hujjatning **56-maqsadida** “Oilaviy tadbirkorlik asosida bandlikni ta’minlashda oddiy “qo‘l mehnati”dan – sanoatlashgan ishlab chiqarish bosqichiga o‘tish”[1] masalasi qo‘yilgan.

Hozirgi sharoitda mehnat bozori ham globallashuv jarayoni bilan hamohang tarzda globallashib bormoqda. Bu masala ham yuqoridagi hujjatni chetlab o‘tgan emas. Uning **95-maqsadi**da ta’kidlanishicha “Tashqi mehnat migratsiyasi tizimini takomillashtirish, xorijda mehnat faoliyatini yuritayotgan fuqarolarga har tomonlama ko‘mak ko‘rsatish”[2] masalasi o‘z ifodasini topgan.

Bulardan ko‘rinib turibdiki, mehnat bozori transformatsiyasi nafaqat mamlakatimizda, balki global masshtabda ham dolzarb masalalardan biriga aylanib ulgurdi. O‘quv qo‘llanmada mehnat bozori transformatsiyasi fani nazariyasi yoritilgan bo‘lib, bunga kirish va uchta nazariy va ettita ilmiy-amaliy boblar kiritilgan. Bunda “Mehnat bozori transformatsiyasi (MBT)” tushunchalarining mazmuni va undan kelib chiqadigan masalalar, uning tegishli boblarida ilmiy-nazariy jihatdan batafsil yoritib berilgan.

Qo‘llanmaning birinchi bobi “Transformatsiya” va “Mehnat bozori transformatsiyasi (MBT)” tushunchalarining mazmuniga bag‘ishlangan bo‘lib, unda “Transformatsiya” tushunchasining mazmuni, mehnat

---

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi, «O‘zbekiston — 2030» strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli farmoni. // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023 y., 06/23/158/0694-son.

[2] O‘sha joyda.

bozori transformatsiyasi (MBT) tushunchasining nazariy masalalari va mehnat bozori transformatsiyasi (MBT) fanining tarixi yoritilgan. Ushbu fanning tarixi insoniyatning vujudga kelgan davridan tortib, bugungi innovatsion iqtisodiyot sharoitidagi uning inson kapitaligacha bosqichini qisqagina qamrab oladi. Shu jihatdan ushbu jarayon muntazam ravishda o‘zgarib turishi mumkinligi xususida gap yuritilishi mumkin.

Mazkur qo‘llanmaning ikkinchi bobida “Mehnat bozori transformatsiyasi (MBT) fanining maqsadi, predmeti, vazifalari va prinsiplari” yoritilgan. Ushbu bobda MBT fanining maqsadi, MBT fanining predmeti, MBT fanining vazifalari, MBT fanining prinsiplari qarab chiqilgan. Bular ham mehnat bozorining muntazam ravishda takomillashib borishi xususida gap yuritiladi.

Ishning uchinchi bobi “Mehnat bozori transformatsiyasi (MBT) fanining metodi va metodologik asoslariga bag‘ishlangan. Ushbu bob mehnat bozori transformatsiyasi (MBT) fanining metodi, MBT fanining metodologik asoslari, MBT fani metodologiyasi turlarining nazariy masalalariga bag‘ishlangan. Ushbu fanda ham induksiya va deduksiya, makon va zamon, analiz va sintez, sabab va oqibat, shakl va mazmun, miqdor va sifat kabi uslublardan foydalanish mumkinligi ham ochib berilgan.

O‘quv qo‘llanmaning to‘rtinchi bobi “Mehnat bozori transformatsiyasi (MBT) fanining prinsiplari, tartibga solish yo‘llari va obyektiv zaruriyati”ga bag‘ishlangan. Ushbu bobda mehnat bozori transformatsiyasi (MBT) fanining prinsiplari, innovatsion iqtisodiyot sharoitida mehnat bozori transformatsiyasi (mbt) fanining yangi talablar doirasida takomillashuvi, mehnat bozori transformatsiyasi (MBT) fanida inson resurslarining miqdoriy va sifatiy tavsiflari yortilgan.

Ishning beshinchi bobi bevosita “Mehnat bozori transformatsiyasida ichki va tashqi migratsiya bilan bog’liq muammolar va ularning yechimlari”ga bag‘ishlangan. Bunda mehnat bozorida malakali kadrlarga talabni o‘rganish masalalari, mehnat bozori transformatsiyasida ichki va tashqi migratsiya bilan bog‘liq muammolar

va ularning yechimlari, mehnat bozori transformatsiyasida ishlovchilar va ish beruvchilarning o‘zaro munosabatlari qarab chiqilgan.

Qo‘llanmaning oltinchi bobida “Mehnat bozori transformatsiyasida aholiniing malakasi va unga mos ta’limni moslashtirish yo‘nalishlari” bilan bog‘liq muammolarga bag‘ishlangan bo‘lib, bunda inson salohiyati bilan bog‘liq iqtisodiy kategoriyalar va ularning mbtga oid nazariy talqini, inson salohiyatining o‘ziga xos xususiyatlari va uning MBTdagi o‘rni, MBTda inson salohiyatini shakllantirishda sifatli ta’lim va tarbiyaning uyg‘unligini ta’minlash masalalari yoritilgan.

Kitobning ettinchi bobida “Mehnat bozori transformatsiyasida ishlovchilar va ish beruvchilarning o‘zaro munosabatlari” qarab chiqilgan. Ushbu bobda mehnat bozori transformatsiyasida talab va taklif, mehnat bozori transformatsiyasida ishsizlik va ish bilan ta’minlanganlik darajasini oshirish imkoniyatlari, MBTda xodimlarning huquq va majburiyatlari va ularni ifoda etadigan me’yoriy hujjatlari qarab chiqilgan.

Ishning sakkizinchi bobida “Mehnat bozori transformatsiyasining innovatsion iqtisodiyotga va raqamlashtirish sharoitiga mosligi” qarab chiqilgan. Mazkur bobda mehnat bozori transformatsiyasida texnologik va demografik o‘zgarishlar hamda boshqa zamonaviy talablardan kelib chiqadigan yondoshuvlar, MBTda iqtisodiy notekislik, ijtimoiy muloqot va korrupsiyaga qarshi kurash masalalari, mehnat bozori transformatsiyasini zamonaviy o‘zgarishlarga mos holda rivojlanish omillari qarab chiqilgan.

Qo‘llanmaning to‘qqizinchi bobi “Mehnat bozori transformatsiyasida aholiniing ruhiy va ijtimoiy darajalarining ta’siri” ga bag‘ishlangan. Ushbu bobda MBTda raqamli ta’lim xizmatlarini takomillashtirish konsepsiyasi va tarbiyaning ruhiy va ijtimoiy darajasiga ta’siri, MBTda raqamli iqtisodiyotning Janubiy Koreya tajribasi va undan O‘zbekistonda ta’lim jarayonida foydalanish istiqbollari, banklarda raqamli iqtisodiyotdan foydalanish orqali yashirin iqtisodiyotning oldini olishning ruhiy holatga ta’siri o‘rganilgan.

Qo‘llanmaning navbatdagi o‘ninchi bobi “Globallashuv sharoitida mehnat bozori transformatsiyasida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar” qarab chiqilgan. Mazkur bobda globallashuv sharoitda mehnat bozori transformatsiyasini turizmni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari, globallashuv sharoitida mehnat bozori transformatsiyasiga Yaponiya tajribasidan foydalanishiing ibratli jihatlari, globallashuv sharoitida mehnat bozori transformatsiyasida “Yashil” iqtisodiyotni rivojlantirishga mos kadrlarni tayyorlash, masalalari qarab chiqilgan.

Kitobning o‘n birinchi bobi “Mehnat bozori transformatsiyasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bilan bog‘liq iqtisodiy omillar ta’siri”ga bag‘ishlangan bo‘lib, ushbu bobda raqamli iqtisodiyotning ta’rifi va uning MBTda foydalanishidan maqsadi, MBTda raqamli iqtisodiyotga o‘tishning obyektiv zarurligi, raqamli iqtisodiyotning mohiyati va uni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari, raqamli iqtisodiyotning ijobiy va salbiy tomonlari va uning MBTga ta’siri, MBTda raqamli iqtisodiyotning qo‘llanilishi mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining muhim omili yoritilgan.

Qo‘llanmaning o‘n ikkinchi bobida “Mehnat bozori transformatsiyasida zamonaviy talablar va kelib chiqadigan yondoshuvlar”ga qarab chiqilgan. Ushbu bobda mehnat bozori transformatsiyasining raqamli iqtisodiyot afzalliklarining namoyon bo‘lishi, mehnat bozori transformatsiyasining raqamli iqtisodiyotga mos holda rivojlanishi, MBTda raqamli iqtisodiyotdan foydalanish orqali yashirin iqtisodiyotning oldini olish imkoniyatlari yoritilgan.

O‘quv qo‘llanmaning o‘n uchinchi bobida “Mehnat bozori transformatsiyasida inson kapitalining o‘rni va kreativ yondoshuvlarning ahamiyati”ga bag‘ishlangan. Ushbu bobda mehnat bozori transformatsiyasida inson kapitalining o‘zgarish tendensiyalari, mehnat bozori transformatsiyasida zamon talabiga mos inson kapitalini shakllantirish masalalari, mehnat bozori transformatsiyasini optimallashtirishda kreativ yondashuvlar yoritilgan.

Qo‘llanmaning navbatdagi o‘n to‘rtinchi bobi “Mehnat bozori transformatsiyasini kreativ iqtisodiyotning yo‘nalishlariga moslashtirish masalalari”ga bag‘ishlangan bo‘lib, bunda mehnat bozori

transformatsiyasida kreativ iqtisodiyotning prinsiplarini moslashtirish imkoniyatlari, kreativ iqtisodiyot industriyasini mehnat bozori transformatsiyasiga moslashtirish masalalari, mehnat bozori transformatsiyasini optimallashtirishda kreativ yondashuvlar, kreativ iqtisodiyot sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari va mehnat bozori transformatsiyasiga mosligini ta’minlash masalalari qarab chiqilgan. Ushbu bob bo‘yicha ham oxirida o‘zini-o‘zi nazorat qilish va takrorlash uchun savollar berilgan.

O‘quv qo‘llanmaning o‘n beshinchi bobi “Mehnat bozori transformatsiyasida (MBT) SWOT tahlilidan foydalanish imkoniyatlari”ga bag‘ishlangan. Bu bobda SWOT tahlil tushunchasi va uning MBTda qo‘llanilishi, iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlarga, xususan MBTga ham baho berishda SWOT tahlildan foydalanish, ko‘rilayotgan masalaning kuchli tomonlari, ko‘rilayotgan masalaning zaif tomonlari, ko‘rilayotgan masalaning imkoniyatlari, ko‘rilayotgan masala bo‘yicha tahdidlarlari qarab chiqilgan.

O‘quv qo‘llanma “Inson resurslarini boshqarish” mutaxassisligi bo‘yicha o‘qiyotgan magistrlarga mo‘ljallangan. Bundan professor-o‘qituvchilar, ilmiy xodimlar va iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlar bilan bog‘liq sohalarga qiziquvchilar ham foydalanishlari mumkin.

I BOB. “TRANSFORMATSIYA” VA “MEHNAT BOZORI TRANSFORMATSIYASI (MBT)” TUSHUNCHALARINING MAZMUNI

1.1. “Transformatsiya” tushunchasining mazmuni.

1.2. Mehnat bozori transformatsiyasi (MBT) tushunchasining nazariy masalalari.

1.3. Mehnat bozori transformatsiyasi (MBT) fanining tarixi.

1.1. “Transformatsiya” tushunchasining mazmuni.

“Transformatsiya” ingliz tilidagi “transformation” so‘zidan olingan bo‘lib, o‘zgarish, qayta shakllanish, rivojlanish jarayondarini anglatadi. Ushbu termin ko‘pincha turli sohalarda va kontekstlarda qo‘llaniladi, va uning ma’nosi ham maqsadga ko‘ra doimiy ravishda o‘zgarib turadi. Transformatsiyaning asosiy ma’nolari quyidagilarni qamrab oladi:

Birinchidan, texnik va innovatsion transformatsiya. Bular bevosita texnikaning takomillashuvi natijasida texnologiyalarning ham takomillashuvi sodir bo‘lishi tushuniladi. Bevosita **texnologik o‘zgarishlar** o‘z ichiga yangi texnologiyalar va innovatsiyalar orqali mavjud tizimlarning, mahsulotlarning yoki xizmatlarning to‘liq qayta shakllanishini qamrab oladi. Masalan, sanoat 4.0 texnologiyalari orqali ishlab chiqarish jarayonlarining avtomatlashtirilishi.

Sanoat 4.0 - bu sanoat zamonaviy talablarga javob berishi asnosida raqamlashtirishini, avtomatlashtirish, intellektual tizimlarni va internetdagi barcha qirralarni o‘z ichiga olgan texnologiyalar to‘plamini qamrab oladi. Ushbu konsepsiya, asosan, 2011-yilda Germaniyada rag‘batlantirila boshlangan bo‘lib, sanoatdagi inqilobni tushuntirish uchun joriy etilgan.

Sanoat 4.0 texnologiyalari ishlab chiqarish jarayonlarini yanada samarali yo‘nalishlarda tizimla ravishda takomillashtirishga xizmat qiladi. Bu resurslardan samarali foydalanish va tezkor qarorlar qabul qilib, uning ijrosini ham tezkorlik bilan ta’minlashni o‘z ichiga oladi. Ushbu texnologiyalarning tatbig‘i bir vaqtning o‘zida fermerlikdan, logistikaga, transport orqali manzilgacha bo‘lgan jarayonlarni va

boshqa sohalarni ham takomillashtirishga xizmat qiladi. Shuning uchun ular global iqtisodiyotning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ko'rinib turibdiki, Sanoat 4.0 texnologiyalari bir qancha yangi yo'nalishlar va elementlardan tarkib topadi.

Ikkinchi yo'nalish raqamlashtirish masalasini qamrab oladi. Bunga xizmatlar va biznes jarayonlarini raqamli formatda qayta tashkil qilish masalalarini kiritish mumkin. Bunga misol qilib, elektron savdo yoki shu bilan bog'liq onlayn xizmatlarni keltirish mumkin.

Uchinchi yo'nalish ijtimoiy transformatsiyani ham qamrab oladi. Bunga bir qancha ijtimoiy o'zgarishlarni kiritish mumkin. Jumladan, mehnat bozorida ijtimoiy tarkiblar (strukturalar) va munosabatlarning o'zgarishi kabilarni misol qilib olish mumkin. Bular tarkibiga ijtimoiy tenglik, ijtimoiy adolat va ijtimoiy harakatlarni kiritish mumkin. Ijtimoiy tenglik – bu jamiyatdagi barcha odamlar orasidagi muloqot, imkoniyatlar va resurslardan foydalanishdagi tenglikni ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladi. U ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarda ham izohlanishi mumkin. Ijtimoiy tenglik fuqarolarning haq-huquqlari, ilm-asoslar, xizmatlarning bir xil darajada taqsimlanishi va ularning hayot standartlari orasidagi farqlarni kamaytirishga qaratilgan.

Ushbu prinsip jamiyatning barqarorligi va rivojlanishi uchun asosiy omil hisoblanadi. Chunki ijtimoiy tenglik jamiyatdagi cheklovlarni kamaytirish, ijtimoiy adolatni ta'minlash va har bir insonning salohiyatini ro'yobga chiqarish imkonini beradi. Ijtimoiy transformatsiyaning bir yo'nalishi **ma'naviy va madaniy o'zgarishlarni** ham qamrab oladi. Bu juda ko'p madaniy va ma'rifiy normalarda, insonlarning hayot tarzidagi o'zgarishlarda namoyon bo'ladi. Bir paytlar diniy va milliy qadriyatlardan butunlay uzoqlashtirilgan edik, endilikda bularning hammasiga erkin amal qilish imkoniyatlari yaratildi.

To'rtinchi yo'nalish iqtisodiy transformatsiya bo'lib, bu o'z ichiga iqtisodiy rivojlanish va sanoatni qayta tashkillashtirish borasidagi o'zgarishlarni qamrab oladi. **Iqtisodiy rivojlanish** bevosita iqtisodiy strategiyalar va modellar bo'yicha to'liq qayta shakllanishni anglatadi. Masalan, mamlakatlarning iqtisodiy siyosatlarini

modernizatsiya qilish yoki iqtisodiyotni erkinlashtirish, ya'ni davlat mulkidan xususiy mulkka o'tkazish kabilarni misol keltirish mumkin. Ushbu yo'nalishda **sanoatni qayta tashkillashtirish borasidagi o'zgarishlar** ham muhim ahamiyatga ega. Bunga sanoat sohasidagi tarkibiy o'zgarishlari va innovatsion usullarni joriy etishni, ya'ni ilk bor mexanizatsiyalashgan sanoat, keyingi bosqichda avtomatlashtirilgan sanoat, hozirda robotlashgan sanoat, kelajakda (buning ayrim jihatlari paydo bo'lgan) sun'iy intelektlashgan sanoatni misol tariqasida keltirish mumkin.

Beshinchi yo'nalishga korxona va tashkilotlar transformatsiyasini ham keltirish mumkin. Bunga yakka tadbirkorlar, oilaviy tadbirkorlik, fermer xo'jaliklari, klasterlarning paydo bo'lishi, korporativ o'zgarishlar, yirik kompaniyalarning vujudga kelishini misol keltirish mumkin. Bular tarkibidan **korporativ o'zgarishlarni** oladigan bo'lsak, bu bevosita tashkilotlarning ichki jarayonlarini, tarkibini va strategik yo'nalishlarini qayta shakllantirishni anglatadi. Masalan, faoliyat samaradorligini oshirish uchun qayta tashkil etish yoki reinjeneriya jarayonlarini misol keltirish mumkin.

Oltinchi yo'nalish sifatida shaxsiy transformatsiya*ni* olish mumkin. Bu bevosita har bir shaxsning mas'uliyati bilan bog'liq. Mas'uliyat o'zining oldida, oilasi, mehnat jamoasi, millati va vatani oldidagi burchlarida namoyon bo'ladi. Buning negizida **shaxsning o'zgarishi** turadi. Insonning shaxsiy hayotidagi o'zgarishlarga, misol qilib, shaxsiy rivojlanish, ta'lim olish yoki yangi ko'nikmalarni o'rganish kabilarni keltirish mumkin. Masalan, insonning o'z oldidagi burcha – insoniyatga foydasi tegadigan birorta kasbni egallash va u bilan muntazam shug'ullanib borish va bilimini, tajribasini takomillashtirish, yaratuvchanlik salohiyatini qo'lga kiritish kabilarni keltirish mumkin. Shu yo'l bilan o'zi ham takomillashada, oilasi ham farovon bo'ladi, mamlakati raqobatbardosh, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyotga ham ega bo'ladi.

Yettinchi yo'nalish bevosita ekologik transformatsiya bilan ham bog'liqdir. Odatda **ekologik o'zgarishlar** qattiq atrof-muhit muhofazasi va ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan o'zgarishlarni

qamrab oladi. Bunga misol tariqasida yangi ekologik texnologiyalarni joriy etishni keltirish mumkin. Shuni inobatga olish joizki, ko‘pincha transformatsiya o‘zgarish jarayonida radikal (tubdan o‘zgarish) va tizimli o‘zgarishlarning (oddiylikdan murakkablik sari) amalga oshirilishi bilan bog‘liq bo‘ladi, va bu jarayonlar yangi imkoniyatlar yaratish yoki muammolarni hal qilishga yordam beradi.

1.2. Mehnat bozori transformatsiyasi (MBT) tushunchasining nazariy masalalari.

Mehnat bozori transformatsiyasini fan sifatida o‘rganish uchun uning o‘zining mazmunini aniqlab olishni taqozo qiladi. Tadqiqotlarimiz natijasida, **Mehnat bozori transformatsiyasi deganda, mehnat bozorining tarkibi, funksiyalari va mexanizmlaridagi o‘zgarishlar va rivojlanish jarayonlari tushuniladi,** degan ta’rif ishlab chiqildi. Bu transformatsiya bir necha omillar ta’sirida yuzaga kelishi mumkin. Ushbu tushuncha mehnat bozoridagi ayrim asosiy tushunchalarni qamrab oladi. Mehnat bozori transformatsiyasining asosiy jihatlari quyidagilardan iborat.

Birinchi galda texnologik innovatsiyalarni keltirish mumkin. Ushbu jarayon o‘z ichiga **avtomatlashtirish va robotlashtirish** kabi o‘zgarishlarni qamrab oladi. Yangiliklar va texnologiyalarning rivojlanishi mehnat vaziyatlarini o‘zgartirishi mumkin, ayniqsa, bunga hunar va ish amaliyotlarini avtomatlashtirish orqali erishilishini mumkinligini qayd etish kifoya, deb o‘ylaymiz.

Bu jarayonlarning yorqin namunasi **onlayn (masofadan) ishlash**dan iboratdir. Bugungi kunda internet va raqamli texnologiyalar orqali uydan ishlash, frilans va distansion ishlashning o‘sishi sodir bo‘lmoqda. Bunga Prezidentimizning ma’lum yo‘nalish bo‘yicha o‘tkazilgan selektorini oddiy misol qilib olish mumkin. Oldin bunday majlisga barcha viloyatlardan o‘nlab mutasaddi rahbarlar borib, majlisda ishtirok etib qaytar edi. Bular yuzlab kilometr masofani bosib o‘tishi bilan birga, qancha vaqt va energiya sarflar edi. Endi hamma mutasaddilar o‘zlarining joylarida turib, qatnashmoqda, zarur hollarda shu masofadan o‘z fikrlarini ham bildirmoqda.

Ikkinchi yo'nalish iqtisodiy o'zgarishlardan iborat. Bu o'z ichiga xalqaro mehnat bozori, iqtisodiy kon'yunktura, mamlakatlar va hududlarning iqtisodiy rivojlanishidagi raqobatchilik kabilarni ham qamrab oladi. Iqtisodiy o'zgarishlar **xalqaro mehnat bozori** bilan ham bog'liq. Bunga mehnat migratsiyasi va xalqaro kompaniyalar faoliyatining ko'payishi, globallashuvning ta'siri katta. Globallashuv o'z o'rniga davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy raqobatlarni kuchaytiradi. Raqobatning kuchayishi natijasida ayrim korxonalarning rivojlanishi va ayrimlarining bankrot holiga tushib qolishi tabiiy hold. Bu oldin korxonalar o'rtasida so'ngra hududlar o'rtasida va nihoyat davlatlar o'rtasida ro'y beradi.

Global raqobat global **iqtisodiy kon'yunkturaga** olib keladi. Bu o'z navbatida turli iqtisodiy davrlarda krizislarni, mehnat bozoridagi ish joylarining qisqarishi (ayrimlarida ko'payishi) va maoshlarning ham o'zgarishiga ta'sir qiladi.

Iqtisodiy o'zgarishlar bevosita **tartibga soluvchi huquqiy o'zgarishlar** bilan ham bog'liq. Bunga erishish uchun **qonunchilikdagi o'zgarishlar**ni amalga oshirishga to'g'ri keladi. Bunda asosiy e'tibor mehnat qonunchiligi, mehnat shartnomalari va ishlash sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan siyosatlarning o'zgarishiga qaratish ham lozim bo'ladi. Bunday o'zgaruvchi sharoitga mos **ijtimoiy himoya** tizimini ham muntazam ravishda takomillashtirib borishni taqozo qiladi. Bunda mehnatkashlarning ijtimoiy himoyani tizimlarini takomillashtirish va ta'minotini rivojlantirishni ham yo'lga qo'yishni taqozo qiladi.

Uchinchi yo'nalish, mehnat ko'nikmalari va mehnat salahiyatlaridan samarali foydalanish lozimligidir. Bunda eng avvalo, **kasbiy rivojlanish**ga ahamiyat berilishi lozim. Mehnatkashlarning ko'nikma va malakalarini rivojlantirish va o'zgarishlarga moslashishtirish ham har bir zamonning o'ziga xos talablaridan biridir. Chunki ayrim kasblar yo'qolib ketishi bilan birga ayrimlari yangidan paydo bo'ladi. Yangi zamonga moslakshish uchun kadrlar o'qitilib sertifikatlarga va diplomlarga ega bo'ladi. Shu tariqa ularning malaka kategoriyasi va tajribalarini oshirishga erishiladi. Bunda yana bir

73595

ahamiyatli masala **yangi ish uslublari**ning joriy qilinishi bo‘lib hisoblanadi. Shu tufayli zamonaviy kadrlar kasbiy sohalarda yangi talablar va muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni doimiy ravishda qo‘lga kiritib borishlari lozim bo‘ladi.

To‘rtinchi yo‘nalish ijtimoiy va demografik o‘zgarishlar*dan* iborat. Bu yo‘nalish o‘z navbatida **aholining yoshini** ham inobatga olinishini taqozo qiladi. Aholi yoshi o‘zgarishi mehnat bozorining talab va takliflariga ta’sir qiladi. Tajribali xodimlarning nafaqaga chiqishi va hali tajribasi to‘liq shakllanmagan yoshlarning ishga joylashishi ushbu o‘zgarishlardagi biroz murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Shu tufayli ishga joylashtirishda ham, ish jarayonida ham **ijtimoiy adolat** tamoyiliga katta e’tibor berish maqsadga muvofiq. Adolat bor joyda ish bilan ta’minlashga va ishlashga bo‘lgan qiziqish katta bo‘ladi. Bunday mulohazalar ijtimoiy va demografik o‘zgarishlarga olib keluvchi omillarga ham e’tiborni qaratishni taqozo qiladi.

Beshinchi yo‘nalish xodimning ishlash madaniyati bilan bog‘liq. Chunki, **har bir sohadagi o‘zgarishlar** bevosita ish joyidagi madaniyat, ishlash uslublari va jamoaviy ishlashning o‘zgarishilari bilan bog‘liqdir. Bunda har bir xodimning **ishlash sharoitlari**ni Xalqaro va mahalliy ishlash shartlari va muhiti.

Oltinchi yo‘nalish bevosita ***mehnat jamoalari va ish beruvchilarning rollari*** bilan bog‘liqdir. Shu tariqa **mehnat jamoalari** shakllanadi. Ushbu jarayonda mehnat jamoalari va kasaba uyushmalarining rivojlanishi va ta’siri sezilarli bo‘lishi maqsadga muvofiq. Chunki ko‘pincha **ish beruvchilarning talablari** inobatga olinadi. Bu ish beruvchilarning yangi talablari va ish joylarini tashkil qilish usullarini ham yangilab borishga asos bo‘ladi. Ammo hozirgi sharoitda xodimlarning talablari va ularning ehtiyojlari ham inobatga olinishini ta’minlashni taqozo qiladi. Bular:

1. Sanoat 4.0 texnologiyalari mahsulotlarga, mashinalarga va boshqa qurilmalarga internetga ulanish imkonini berganligi tufayli bularni etishtiruvchilarga real vaqtida ma’lumotlarni yig‘ish va ularni tahlil qilish imkonini yaratidi.

2. Masofaviy nazorat qilishni yo‘lga qo‘yish orqali mahsulotlarning va uskunalarning holatini nazorat qilish va ularni samarali ravishda ta’mirlash imkonini beradigan mexanizmlarni yaratish tavsiya qilinmoqda.

3. Hozirgi zamonaviy talablardan kelib chiqib, alohida mahsulotlar va xizmatlarni iste’molchilarning individual talablariga moslashtirish lozimligi tavsiya qilinmoqda. Bu o‘z navbatida har qanday korxona faoliyati samaradorligini oshirishga imkoniyat yaratib beradi.

4. Mashina ta’limotlari: Sohada avtomatlashtirilgan holatdada tadqiqotlarni masofadan turib amalga oshirish va o‘z faoliyatini yaxshilash uchun ma’lumotlarni tahlil qilish yo‘llari takomillashtirish bilan bog‘liq tavsiya asoslandi.

5. Ishlab chiqariladigan mahsulotning yoki jarayonlarning raqamli modelini yaratish tavsiya qilindi. Chunki ushbu tavsiya real vaqtda natijalarni tezkor va sifatli tarzda tahlil qilishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, mehnat bozori transformatsiyasi iqtisodiy rivojlanish, texnologiyalar, ijtimoiy o‘zgarishlar va qonunchilikdagi o‘zgarishlardan kelib chiqadi va bu jarayonlar xodimlarning ish topish, ishlash shartlari va umumiy mehnat bozoriga ta’sir ko‘rsatadi. Bu transformatsiyalar mehnat bozorining samaradorligi va muvozanatini ta’minlash, shuningdek, xodimlarning hayot sifati va professional rivojlanishini yaxshilash uchun ham muhimdir.

1.3. Mehnat bozori transformatsiyasi (MBT) fanining tarixi

Barcha fanlar singari **Mehnat bozori transformatsiyasi (MBT)** fanining tarixi ham o‘ziga xos yo‘nalishga ega. Ushbu fan asosan mehnat bozorining rivojlanishi, o‘zgarishlari va ularga ta’sir qiluvchi omillarning takomillashuvi bilan bog‘liq jarayonlar tahlilini o‘z ichiga oladi. Bu fanning tarixi bir nechta asosiy bosqichlardan iborat. Bu bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarga va uning rivojlanishlariga asoslangan. Ushbu fanning tarixi asosan quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

Birinchi yo‘nalish industrial revolyusiyaga qadar bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Bu davr qadimgi davrdan, ya’ni dunyo shakllanib

boshlagan davrdan boshlanadi. Bu davrda mehnat bozori rasmiy yoki tizimli ko‘rinishga ega bo‘lmagan. Mehnat bozori stixiyali bo‘lib, unda, qat’iy belgilangan tartib mavjud emas edi. Asta sekinlik bilan turli xil mexanizmlar orqali tartibga solinib borilgan. Qadimgi davrlarda qanday jamiyatligidan qat’i nazar, mehnat asosan agrar soha va ayrim hunarmandchiliklarga asoslangan.

Ikkinchi davr MBT rivojlanishi industrial revolyusiya (18-19 asr) davrini o‘z ichiga oladi. Ushbu davrni boshlang‘ich transformatsiya davriga to‘g‘ri keladi. Bunda industrial revolyusiya shakllandi. Bu mos ravishda mehnat bozorida katta o‘zgarishlarga olib keldi. Mashinalar va texnologiyalarning kirishi ishlash shartlarini, mehnat turlarini va iqtisodiy modellarni o‘zgartirish imkoniyatlarini yaratdi. Bu mehnat bozoriga texnika va texnologiyalarni biladigan kadrlarning kirib kelishlariga asos bo‘ldi. Bu davrda ish joylari va ishchilar huquqlari degan tushunchalar shakllana boshladi. Industrializatsiya davrida ish joylaridagi sharoitlar yaxshilanmadi va xodimlarning huquqlari masalalari ham to‘liq tartbga solinmagan edi. Bularni tartibga solish va ishchilar huquqlarini tiklash maqsadida ushbu davrda kasaba uyushmalarining tashkil topishi boshlandi.

Uchinchi davr 20-asrning boshlariga to‘g‘ri keladi. Bu davrda **mehnat qonunchiligi** shakllana boshladi. Jamiyatda mehnat qonunchiligining rivojlanishi, ishchilarning huquqlari va ishlash sharoitlarini yaxshilashga, muhofaza qilishga oid davlat siyosatlari va shunga oid qonunlar qabul qilindi. Mehnatkashlar orasida, ayniqsa mehnat jamoalarida **ijtimoiy himoya** tushunchasi ham paydo bo‘la boshladi. Natijada ijtimoiy ta’minot va ishlovchi xodimlarning ijtimoiy himoyasiga oid tadbirlardan ham foydalanish boshlandi. Shu tariqa mehnat bozori transformatsiyasiga bir qancha qulayliklar tug‘dirildi.

To‘rtinchi davr 20-asrning o‘rtalariga to‘g‘ri keladi. Bu davrda insonlar faoliyatiga kompyuterlashtirish, avtomatlashtirish va raqamli texnologiyalar keng joriy qilindi. Bu mehnat bozoridagi jarayonlarni, ish joylari va kasblarni o‘zgartirishga olib keldi. Chunki insonlar faoliyatini avtomatlashtirish yangi kasblarni talab qildi. Bu bilan ayrim kasblar o‘z mohiyatini yo‘qotib, tubdan o‘zgarishlar sodir qilishni talab

qildi. Masalan, buxgalterlarning oddiy hisob-kitoblari soatlar schyotlar orqali amalga oshirilar edi. Keyinchalik bu bir lahzada amalga oshadigan bo‘ldi. Boshqa sohalarga ham yangi texnologiyalarning joriy qilinishi natijasida innovatsion o‘zgarishlarning sodir bo‘lishi, juda ko‘p ishlarni qilishga vaqtni qisqartirishga va mos ravishda kasblarni takomillashtirishga olib keldi.

Shu davrda dunyo miqyosida integratsion jarayonlar ham sodir bo‘lib, xalqaro savdo va investitsiyalarning o‘sishi ro‘y berdi. Bu ham mehnat bozoriga global ta’sir ko‘rsatib ancha o‘zgarishlarga olib keldi. Bu ayniqsa ehnat migratsiyasini ham yuzaga keltirdi. Oqibatda barcha jarayonlarda globallashuv yuz berib, kadrlar bo‘yicha ham xalqaro raqobat shakllandi. Bu ham MBTga katta ta’sir ko‘rsatmoqda.

Beshinchi yo‘nalish 20-Asrning oxirlari va 21-asrni qamrab oladi. Bu davrga kelib juda ko‘p ishlar mohiyatan yangilandi. Jumladan masofadan ishlashga to‘g‘ri kelib qoldi. Bunda internet va raqamli texnologiyalar mehnat bozorini o‘zgartirishni davom ettirdi. Hozir xalqaro maydonda faoliyat ko‘rsatadigan **frilansing** kasb sohiblari ham shakllanib ulgurdi. Bular masofadan ishlashning o‘sishiga olib kelmoqda.

Shu davrning o‘ziga xos jihatlaridan biri shaxsiy va professional rivojlanish bilan ham bog‘liq bo‘lmoqda. Mehnat bozoridagi o‘zaro munosabatlar va ishchilarning kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga oid muhim jarayonlari har bir kishini bitta kasb bilan chegaralanib qolmaslikka undamoqda. Hozir qanday kasb bo‘lmasin, axborot texnologiyalarini, internetdan foydalanish imkoniyatlarini bilishlari lozim. Ko‘p kasblar globallashuv jarayonidan kelib chiqib, xorijiy tillarni ham yaxshi o‘zlashtirishi lozim bo‘lmoqda.

Oltinchi yo‘nalish modern mehnat bozorining (2000-yillar va keyin) shakllanish jaryonini qamrab oladi. Muxtasar qilib aytganda “modern” so‘zi yangi va innovatsion yondashuvlarni, jamiyatning rivojlanish jarayonlarini va ijodiy izlanishlarni ifodalaydi. Bu jarayonda innovatsion texnologiyalarning keskin o‘sishi ro‘y berdi. Natijada har bir sohada yangiliklar va texnologik rivojlanishlar, xususan, ishlab

chiqarishda robotlashtirish va sun'iy intellektning keng tarqalishi ham ro'y bermoqda.

"Modern mehnat bozori" termini, odatda, zamonaviy iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik sharoitlardagi mehnat munosabatlari va bozorini anglatadi. Ushbu konsepsiya, globallashuv, raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirish va jamiyatdagi ijtimoiy o'zgarishlarning ta'sirida shakllanmoqda. Modern mehnat bozori mazmuni quyidagilarni o'z ichiga olgan holda tahlil etiladi:

Bu raqamli transformatsiya bo'lib, raqamli texnologiyalar, internet va mobil qurilmalar orqali mehnat bozorini o'zgartirib, masofaviy ishlash, frilansing kabi yangi kasblarni yaratib, an'anaviy ish jarayonini o'zgartirdi. Bunday sharoitda mehnat raqobati yuzaga keladi. Natijada zamonaviy mehnat bozorida ish beruvchilar va ishlovchilar o'rtasidagi raqobat yuqori darajaga ko'tariladi. Ish beruvchilar yuqori malaka va yuqori kasb va tajribaga ega bo'lgan mutaxassislarni tanlab olish imkoniyati kengayadi.

MBTga globallashuv ham ta'sir qiladi. Bunda irqiy, milliy, madaniy va geografik maydonning kengayishi mehnat resurslarini bir joyga jamlash imkonini yaratadi. Bu esa turli mamlakatlardagi mehnat bozorlari o'rtasidagi aloqalarni va hamkorlikni kuchaytirdi. Barcha xodimlarga bir xil tilni bilishni taqozo qiladi. Bu turli xalqlarni bir-biriga yaqinlashtirish evaziga ular o'rtasidagi tafovutlarni ham tenglashtirilishiga olib keladi.

MBTning global masshtabda shakllanishiga innovatsion jarayonlarni yaqinlashtirish bilan birga ta'limni ham bir-biriga muvofiqlashtirishni talab qiladi. Yangilantirayotgan texnologiyalar, qo'llanilayotgan qurilmalar va sohadagi o'zgarishlar ko'pincha yangi malaka va tajribaga ega bo'lgan mutaxassislarni talab qiladi. Unga moslashtirish uchun albatta ta'lim va malaka almashinuvini bir-biriga yaqinlashtirib, o'qish jarayonida yangi yo'nalishlarni shakllantirishni talab qiladi.

Globallashuv jarayoni mehnat munosabatlarini ham zamonaviy mehnat bozorida shakllantirishni taqozo qiladi. Bunda turli mamlakatlarda bir-biriga yaqin mehnat shartnomalarini, ularning

huquqlari va majburiyatlarini yangi tashkil qilingan global talabga javob beradigan mehnat munosabatlarini shakllanishini ham talab qilinadi. Globallashuv jarayonida xalqaro mehnat bozori ham shakllanadi. Bu bevosita xalqaro migratsiya va xalqaro mehnat bozoridagi integratsiya jarayonlarini ham muvofiqlashtirishga olib keladi. Oqibatda ijtimoiy tendensiyalar, xususan, ijtimoiy tenglik, yashash standarti va ekologik muammolar mehnat bozoridagi transformatsiyalarga ta'sir ijobiy ta'sir qiladi.

Har qanday jarayonning barqarorligini ta'minlash va samaradorligini baholash uchun ushbu jarayonlarni tahlil qilishni taqozo qiladi. Mehnat bozoridagi o'zgarishlarni tushunish va tahlil qilish uchun statistik va empirik ma'lumotlardan foydalaniladi. Shu yo'l bilan mehnat bozori transformatsiyasining samaradorligini baholash va natijada tegishli tavsiyalar va takliflarni ishlab chiqib, boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyati yaratiladi.

Mehnat bozoridagi ijtimoiy va ma'naviy o'zgarishlarni tahlil qilish va shular asosida tegishli xulosalarni chiqarib, boshqaruv qarorlarini qabul qilish xodimlarning ish muhiti va ishchanliklarining umumiy holatiga, mehnat bozoridagi o'zgarishlarga, rivojlanishlariga, transformatsiya jarayonlarining taraqqiyotni o'zgartirishlarga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda ushbu omillar zamonaviy mehnat bozorini shakllantirib, uning mazmunini yangilashda muhim rol o'ynaydi. Xususan, jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy va raqamli o'zgarishlar fuqarolarning mehnat qilish usullari va tajribasini o'zgartirishga ham olib keladi.

O'zini-o'zi nazorat qilish uchun va takrorlash uchun savollar

1. "Transformatsiya" tushunchasining mazmuni.
2. Mehnat bozori transformatsiyasi (MBT) tushunchasining mazmuni.
3. Sanoat 4.0 texnologiyalari ishlab chiqarish jarayonlari.
4. Mehnat bozorini raqamlashtirishning ijobiy yo'nalishlari.

5. Korxona va tashkilotlardagi ijtimoiy iqtisodiy va shaxsiy transformatsiyasi tushunchalari.

6. Korxona va tashkilotlardagi ekologik transformatsiyasi tushunchalari.

7. Korxona va tashkilotlardagi texnologik innovatsiyalar transformatsiyasi tushunchalari.

8. Aholi yoshi o‘zgarishi mehnat bozorining talab va takliflariga ta’siri.

9. Ekologik barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan o‘zgarishlar.

10. Mehnat bozori transformatsiyasi (MBT) tushunchasining nazariy masalalari.

11. Ijtimoiy ta’minot va ishlovchi xodimlarning ijtimoiy himoyasiga oid tadbirlar.

12. Mehnat bozori transformatsiyasi (MBT) fanining tarixi.

13. Mehnat bozoridagi o‘zaro munosabatlar.

14. Zamonaviy mehnat bozorini shakllantirish.

15. Mehnat bozori transformatsiyasi (MBT) tarixining ham o‘ziga xos yo‘nalishlari.

II BOB. MEHNAT BOZORI TRANSFORMATSIYASI (MBT) FANINING MAQSADI, PREDMETI VA VAZIFALARI

2.1. MBT fanining maqsadi.
2.2. MBT fanining predmeti.
2.3. MBT fanining vazifalari.

2.1. MBT fanining maqsadi.

Bugungi kunda mehnatning mazmuni inson kapitalining shakllanishi va rivojlanishi bilan birga keskin o‘zgarmoqda. Bu mos ravishda uning bozoriga ham ta’sir qiladi. Shu jihatdan mehnat bozori transformatsiyasi (MBT) o‘ta dolzarb mavzulardan biriga aylandi. Yana bir jihat MBT o‘ta keng qamrovli bo‘lganligi tufayli ushbu jarayonni fan sifatida shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Zero, **mehnat bozori transformatsiyasi (MBT)** fanining maqsadi mehnat bozoridagi o‘zgarishlarni tushunish, ularning ta’sirini tahlil qilish va samarali siyosatlar, strategiyalar va yechimlarni ishlab chiqishdan iborat. Bu, o‘z navbatida, mehnat bozorini rivojlantirish va ijtimoiy adolatni ta’minlashga ham yordam beradi. Ushbu zaruratdan mazkur fanning maqsadi shakllanadi. Buni bir qancha yo‘nalishlarga ajratish mumkin.

Birinchidan, ushbu fanda **MBT o‘rganiladi va tahlil** qilinadi. Mehnat bozoridagi o‘zgarishlarni tahlil qilishda ushbu masalaga global va mahalliy doirada tahlil qilinadi. Bunda shu masalaga oid yangi tendensiyalar va kasbiy salohiyatlarning rivojlanishini ham o‘rganiladi va tahlil qilinadi. Bunda tahlil natijasi asosan MBTni yaxshilash bo‘yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun asos bo‘ladi.

Bunda mehnat bozorini tartibga solish siyosatatini ishlab chiqish uchun ma’lumotlar va tavsiyalar ham taqdim etiladi. Mehnat siyosati, qonunchilik va ijtimoiy himoya mexanizmlarini ishlab chiqish va ishga kiritish uchun ham asos bo‘lib hisoblanadi. Chunki xodimning mehnat qilishi, unga maosh to‘lash, uni rag‘batlantirish yoki jozalash hamma hammasi ma’lum qonunlar asosida amalga oshiriladi. Shu tufayli MBT mazmuning o‘zgarishi bilan qonunlar ham shunga mos tarzda o‘zgarishni talab qiladi.

Ikkinchidan, xodimlarni **o‘qitish va maqsadlarga moslashtirish** masalasi ham o‘z yechimini kutayotgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Bu o‘z navbatida xodimlarning kasbiy ko‘nikmalarini va malakalarini yaxshilashni taqozo qiladi. Buning uchun esa, ta’lim va trening dasturlarini ishlab chiqish ham lozim bo‘ladi. Xullas, mehnat bozoridagi o‘zgarishlarga moslashish, xodimlarni shunga yo‘naltirish ham o‘ziga xos nozik masalalardan biri hisoblanadi.

Uchinchidan, ushbu jarayonda **iqtisodiy modellar tuzish** ham zarur masalalardan biri sifatida maydonga chiqadi. Mehnat bozori transformatsiyasi (MBT)ning iqtisodiy modellarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq qilish ham sohada to‘g‘ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun asos bo‘ladi. Ushbu yo‘nalishda yangi ish o‘rinlari yaratish orqali kasblarning iqtisodiy va ijtimoiy ta’sirlarini baholab, tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilish mexanizmi ham ishlab turishi maqsadga muvofiqdir.

To‘rtinchi yo‘nalish MBT fanida **innovatsiyalar va texnologik tahlilni** amalga oshirishga qaratilgan. Bunda yangi texnologiyalarning mehnat bozoriga ta’siri va ularni qo‘llash usullarini tahlil qilinadi. Chunki yangi texnologiyadan foydalanish uchun xodim oldingi kasbi va ko‘nikmasi bilan yaramasligi mumkin. Shu tufayli har qanday texnologiya samarali ishlashi uchun uni ishlatadigan malakali xodim bo‘lishi kerak.

Innovatsion yechimlarni ishlab chiqish va ularning mehnat bozoridagi samaradorligini tekshirish ham MBTning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki raqobat sharoitida bir xil texnologiya bilan ishlash ham ushbu sohaning orqada qolib ketishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu tufayli har qanday o‘zgarish innovatsion yondoshuvni talab qiladi. O‘z navbatida oldindan yaratilgan innovatsiya aynan ishlab chiqarish jarayonlarini o‘zgartirishga olib keladi va mos ravishda rivojlanish jarayoni ta’minlanadi.

Xulosa qilib aytganda, mehnat bozori transformatsiyasi fani mehnat bozorining o‘ziga xos transformatsiya jarayonlari, ya’ni o‘zgarishlari va rivojlanishini o‘rganadigan fan sifatida vujudga kelmoqda va shakllanmoqda. Ushbu fan mehnat bozoridagi o‘sishlar,

yangi tendensiyalar va ularning ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik ta'sirlarini tahlil qilib, ushbu jarayonni yaxshilash bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilishi imkoniyatini yaratadi.

2.2. MBT fanining predmeti

Har qanday fanning predmeti shu fanning o'rganadigan asosiy mavzusi yoki sohasidan iborat bo'ladi. Buning umumiy mazmuni shu sohaga doir asosiy konsepsiyalarni, prinsiplarni, mexanizmlarni va talablarini o'z ichiga oladi. Fanning predmeti shu fanning maqsadi va vazifalarini aniqlash uchun ham asos bo'ladi. Shuningdek, fanning predmeti ilmiy tadqiqotlar, nazariy va amaliy ishlar uchun asosiy yo'nalishlarni belgilab beradi. Buning uchun ushbu tushunchaning ta'rifini ishlab chiqish lozimdir.

MBT fanining predmeti deganda, mehnat bozorining subyekti, tarkibi, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy, kasbiy, tashkiliy kabi ilg'or va innovatsion o'zgarishlarni qamrab oladigan munosabatlarning majmui tushuniladi.

Ushbu ta'rifdan kelib chiqib MBTda o'rganiladigan masalalarga qisqa to'xtalishni maqsad qildik. Birinchi galda bunga **mehnat bozori subyekti va tarkibini** o'rganish lozimdir. Mehnat bozori subyektiga mehnatga qobiliyatli ishchi xodimlar kiradi. Mehnat bozori tarkibining asosiy elementlariga ish beruvchilar, ishchilar, ish o'rinlari kabilar kiradi. Buni tahlil qilishda mehnat bozorida mavjud ish joylari, kasblar va sohalar bo'yicha taqsimoti o'rganiladi.

MBT fanining predmetida turli o'zgarishlar ham o'rganiladi. Buning asoslaridan biri texnologik o'zgarishlarni tashkil qiladi. Bu **texnologik o'zgarishlar** o'z ichiga yangi texnologiyalar va innovatsiyalar, ularning mehnat bozoriga ta'siri va transformatsiyasi bilan bog'liq jarayonlarni oladi. Ushbu jarayonlar avtomatlashtirish, raqamlashtirish va robotlashtirishlar bilan bog'liqdir. Aynan ushbu fanning predmetida bularning mehnat bozoriga ta'siri o'rganiladi.

Yana bir yo'nalish **iqtisodiy transformatsiyalardan (o'zgarishlardan)** iborat. Bunda iqtisodiy o'zgarishlar va globallashuvning mehnat bozoriga ta'siri kabi masalalar ham

o‘rganiladi. Aynan ushbu yo‘nalishda iqtisodiy inqirozlar (krizislar), barqaror, jadal kabi rivojlanish turlari va boshqa iqtisodiy omillarni ham qamrab oladi.

Ushbu fanning predmetiga **ijtimoiy o‘zgarishlar** ham kiradi. Bunda mehnat bozoridagi ijtimoiy dinamika, migratsiya va demografik o‘zgarishlar qamrab olinadi. Shuningdek, ushbu bo‘limda ijtimoiy tenglik, va ijtimoiy himoya mexanizmlaridagi o‘zgarishlar ham inobatga olinadi. Har bir fandagi kabi ushbu fanda ham **huquqiy va tartibga soluvchi o‘zgarishlari** ham o‘rganiladi. Bunda asosan mehnat qonunchiligi, ishlash shartnomalari va qonunlardagi o‘zgarishlarga ham e’tibor qaratiladi. Mazkur bo‘limga mehnat bozorini tartibga solish bilan bog‘liq normativ-qonunchilik masalalari ham kiritiladi.

MBT fanining predmetida xodimning **shaxsiy va professional rivojlanish**i ham e’tiborga olinadi. Bunda xodimlarning kasbiy ko‘nikmalarini va malakalarini rivojlanishi, shaxsiy rivojlanish, ta’lim va qayta ta’lim olib, tajriba orttirib ish jarayonlarida yuqori sifatga erishganlik darajasi ham o‘rganiladi. Ushbu fanda mehnat bozoridagi samarali strategiyalarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirish bo‘yicha ham asosiy yo‘nalishlar o‘rganiladi.

2.3. MBT fanining vazifalari

Mehnat bozori transformatsiyasi fanining vazifalari mehnat bozoridagi o‘zgarishlar, ularning ijtimoiy va iqtisodiy ta’siri, texnik va texnologik inovatsiyalar, ijtimoiy adolat va kasbiy rivojlanishni hisobga olishdan iborat bo‘lib, bu fan mehnat bozorining rivojlanishini ishonchli, samarali va barqaror ta’minlashga qaratilgan.

Mehnat bozori transformatsiyasi fanining vazifalari ushbu bozorning turli aspektlarni qamrab oladi. Bunda mehnat bozoridagi o‘zgarishlarni tahlil qilish, ularga moslashish va samarali siyosatlar ishlab chiqish masalalari o‘rganiladi. Bu fanning asosiy vazifalari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Mehnat bozorining o‘zgarishlarini tahlil qilish.
2. Texnologik va iqtisodiy o‘zgarishlarga moslashish.
3. Ijtimoiy o‘zgarishlarni hisobga olish.

4. Huquqiy va tartibga solish bilan bog‘liq o‘zgarishlarini qo‘llash.
5. Kasbiy rivojlanish va ta’lim.
6. Siyosat va strategiyalarni ishlab chiqish.
7. Strategiya modellar va prognozlash.
8. Ish joylarini rivojlantirish.
9. Ijtimoiy va psixologik tahlil.
10. O‘rganish va kuzatish.

Yuqorida keltirilgan mehnat bozori transformatsiyasi (MBT) fanining vazifalarining har biriga qisqacha izoh beriladi.

Birinchi eng muhim vazifa bevosita **mehnat bozorining o‘zgarishlarini tahlil qilish**ga qaratilgan. Bunda mehnat bozoridagi turli o‘zgarishlarni asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshiriladi. Xususan, xodimlarning ma’lumotlari bo‘yicha (oliy, o‘rta, maktab ta’limi va h.k), ularning yoshi bo‘yicha (misol uchun 30 yoshgacha, 40 yoshgacha, 50 yoshgacha, 60 yoshgacha va pensiya yoshida va h.k.), mutaxassislari (texnik va texnologik yo‘nalishlar, iqtisodiyot yo‘nalishlari, axborot texnologiyalari bo‘yicha raqamli texnologiyalar va h.k.) bo‘yicha o‘rganiladi.

Hozirgi sharoitdan kelib chiqib, mehnat bozorining rivojlanish tendensiyalarini, asosan yangi kasblar, ish joylari va texnologiyalarni ham tahlil qilish vazifasi ham muhim hisoblanadi. Bunda ularning o‘zgarish tendensiyalari, tarkibiy o‘zgarishlar ham o‘rganiladi. Ishsizlik darajasi, ishlovchilarning kasbiy ko‘nikmalari va mehnat sharoitlariga oid statistik ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish ham aynan shu shu vazifalar guruhida ko‘riladi.

Ikkinchisi, mehnat bozorini **texnologik va iqtisodiy o‘zgarishlarga moslashish** masalasi ham o‘rganish katta ahamiyatga ega. Bunda **innovatsion** texnologiyalarga mos kadrlarning mosligi ham muhim yo‘nalish hisoblanadi. Shu yo‘nalishda yangi texnologiyalarning mehnat bozoriga ta’sirini tadqiq qilish, robotlashtirish, avtomatlashtirish va raqamli transformatsiyalarni o‘rganish ham zarur masalalardan biridir. Bunda eng e’tiborli jihat xodimlarning dunyo miqyosidagi globallashuv sharoitida iqtisodiy inqirozlar va raqobatning mehnat bozoriga ta’sirini tahlil qilish masalasi hisoblanadi.

Uchinchi vazifa, mehnat bozoridagi **ijtimoiy o‘zgarishlarni hisobga olish** masalasi ham muhim hisoblanadi. Bunda xodimlar faoliyati bilan bog‘liq ijtimoiy himoya yo‘nalishida ijtimoiy adolatga amal qilish masalasi ham o‘rganiladi. Chunki adolat bor joyda samaradorlik yuqori bo‘ladi. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda xodimlarning ijtimoiy himoyasini ta’minlash mexanizmlari o‘rganilib, ushbu masala muntazam ravishda takomillashtirilib boriladi. Shu yo‘l bilan **ijtimoiy tenglik** ham ta’minlanadi. Ijtimoiy o‘zgarishlardagi yana muhim yo‘nalish ijtimoiy tenglikni ta’minlash bilan birga kambag‘allikka qarshi kurashish bo‘yicha tegishli yo‘nalishlar ham ishlab chiqiladi. Bunda ko‘p o‘lchovli kambag‘allik masalasiga e’tibor qaratish lozim, chunki faqat me’yor darajasidagi daromad bilan ta’minlash hali kambag‘allikdan butunlay chiqqanlikni ifoda etmaydi. Demak barcha jihatlarini inobatga olgan holda xodimlarga munosib yashash sharoitining yaratilishiga ko‘maklashishning ham strategik yo‘nalishlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

To‘rtinchi vazifa bevosita xodimlarning **huquqiy** masalalarini va ularni tartibga solish bilan bog‘liq o‘zgarishlarini qo‘llashga qaratilgan. Buning uchun asosiy hujjat amaldagi mehnat qonunchiligi hisoblanadi. Xodimlar bo‘yicha mehnat bozorida mehnat qonunchiligini va ishlash shartnomalarini tartibga solish va shu asosda faoliyatining samaradorligini baholash lozim bo‘ladi. Bunda mehnat bozorini tartibga solish, odilona va samarali boshqarish siyosatlarini ishlab chiqib, zamon talabiga mos holda har bir xodimni ko‘p jihatdan qo‘llab-quvvatlash ham lozimdir.

Beshinchi vazifa xodimlarning mehnat bozorida **kasbiy rivojlanishi** va bularga ta’lim berish hamda tajribalarni oshirish masalalarini tahlil qilish bilan bog‘liqdir. Bunda xodimlarning **kasbiy ko‘nikmalari** muhim ahamiyatga ega. Ishchilarning kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun ta’lim va trening dasturlarini ishlab chiqib, ularni qo‘llash ham shu vazifalar tarkibiga kiradi. Xodimlarni ish joyida va boshqa muassasalarda o‘qitish masalasi ham ularning zamonaviylashuvida muhim ahamiyatga ega. Buning uchun yangi

kasblar va ish joylariga mos keladigan o‘qitish metodologiyalarini yaratish lozim bo‘ladi.

Oltinchi vazifa mehnat bozorining o‘zgarishiga oid **strategiyalarni ishlab chiqish**dan iboratdir. Bunda muhim yo‘nalish mehnat bozoridagi o‘zgarishlarga mos keladigan ijtimoiy siyosatlarni ishlab chiqish va amalga oshirishdan iboratdir. Mehnat bozoridagi ijtimoiy siyosat davlatning mehnat bozori bilan bog‘liq ijtimoiy sohadagi faoliyati, ya’ni jamiyatdagi iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy qarorlarni qabul qilish va amalga oshirishni qamrab oladi. Uning asosiy maqsadi aholining ijtimoiy himoyasini ta’minlash, ijtimoiy adolatni ta’minlash, iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantirish va jamiyatning barqarorligini saqlashdan iboratdir. Bu yerda ijtimoiy adolat bevosita fuqarolarning huquqlari, imkoniyatlari va resurslariga teng kirishni ta’minlash maqsadida yangi usullardan foydalanishni ko‘zda tutadi.

Yettinchi vazifa mehnat bozorining **strategik modellari** orqali prognozlash masalalarini qamrab oladi. Mehnat bozori transformatsiyasi bo‘yicha iqtisodiy modellarini ishlab chiqish va tahlil qilishda uning turli yo‘nalishlar bo‘yicha o‘zgarishlarini qarab chiqadi. Bunda asosiy e’tibor mutaxassislarning innovatsion kasblarni egallaganliklariga e’tibor qaratiladi. Shu tufayli o‘rta maxsus va oliy ta’lim muassasalarida ta’limning salmoqli qismini yangi innovatsion kasblarni o‘rgatishga qaratish lozim. Shu jarayonda har bir mutaxassis raqamlashtirish va raqamli iqtisodiyotni yuritish uchun raqamli texnologiyalardan foyldalanishlari lozim. Buning uchun ta’lim sifatini oshirishda dual ta’lim usulidan foydalanish ham maqsadga muvofiq. Ushbu vazifalar tarkibida mehnat bozoridagi kelajakdagi o‘zgarishlarni inobatga olgan holda prognoz qilish va ularga moslashish strategiyalarini ham ishlab chiqish lozim bo‘ladi.

Sakkizinchi vazifa mehnat bozorida **ish joylarini rivojlantirish** masalasiga qaratilgan. Bunda ish o‘rinlari tahlil qilib, zarur hollarda yangi ish o‘rinlari va kasblarning rivojlanishi, ish o‘rinlarini tashkil etish lozim bo‘ladi. Shu yo‘nalishda ishchilarning talabini o‘rganish, ish joylarining sifati va sharoitlarini yaxshilash masalasiga ham e’tibor qaratiladi.

To‘qqizinchi vazifa mehnat bozorida **ijtimoiy va psixologik** tahlilni amalga oshirish bilan bog‘liq jarayonlarni qamrab oladi. Bunda xodimlarning ruhiy (emotsional va psixologik) holatga e’tibor qaratiladi. Bunda ishchilarning emotsional va psixologik holatlarini tadqiq qilish, va shunga mos ish muhitini yaxshilash masalasi ustuvorlikni tashkil qiladi. Shuningdek ushbu vazifa tarkibiga ijtimoiy munosabatlar ham kiradiki, bularni tahlil qilish orqali ularni yaxshilash yo‘llari ham ishlab chiqiladi.

O‘ninchi vazifa mehnat bozorida sodir bo‘layotgan jarayonlarni **o‘rganish va kuzatish** bilan bog‘liqdir. Bundi eng avvalo, jarayon kuzatiladi. Mehnat bozoridagi o‘zgarishlarni kuzatish va haqiqay holatlardan kelib chiqib xulosalar qilinadi va boshqaruv qarorlari ham qabul qilinadi. Ushbu vazifalar tarkibiga yangi tendensiyalar va mexanizmlarni tadqiq qilish, natijalarni qabul qilish orqali mehnat bozoridagi holatiga munosib baho beriladi.

Xulosa qilib aytganda, mehnat bozori transformatsiyasi fanining vazifalari turli yo‘nalishlarni qamrab olish bilan birga mehnat bozoridagi turli o‘zgarishlarni ham qamrab olishi mumkin ekan. Bularning ijtimoiy va iqtisodiy ta’siri, texnik va texnologik innovatsiyalar bilan bog‘liq jihatlari ham masalaning bugungi kunda nechog‘lik dolzarbligidan dalolat beradi. Shuningdek, ijtimoiy adolat va kasbiy rivojlanishni hisobga olish ham bu fan mehnat bozorining rivojlanishini ishonchli, samarali va barqaror ta’minlashga qaratilgan vazifalarni bajarish imkoniyatlarini yaratadi.

O‘zini-o‘zi nazorat qilish va takrorlash uchun savollar.

1. Mehnat bozori transformatsiyasi (MBT) fanining maqsadi.
2. Mehnat bozori transformatsiyasi (MBT) fanining predmeti.
3. Mehnat bozori transformatsiyasi fanining vazifalari.
4. Mehnat bozori transformatsiyasi (MBT) fanining prinsiplari.
5. Texnologik va iqtisodiy o‘zgarishlarga moslashish.
6. Ijtimoiy o‘zgarishlarni hisobga olish.
7. Huquqiy va tartibga solish bilan bog‘liq o‘zgarishlarini qo‘llash.
8. Siyosat va strategiyalarni ishlab chiqish.

9. Ish joyi xavfsizligini ta’minlash.
10. Mehnat bozoridagi o‘zgarishlarni oldindan bashorat qilish.
11. Strategiya modellar va prognozlash.
12. Ijtimoiy va psixologik tahlil.
13. Mehnat bozorini transformatsiya qilinishini ifodalovchi ko‘rsatkichlar.
14. Mehnat bozoridagi ijtimoiy tadqiqotlarning asosiy maqsadlari.
15. MBTda bozor talablarini hisobga olish.
16. Mehnat bozori uchun talabga mos keladigan malakali kadrlarni tayyorlash.

III BOB. MEHNAT BOZORI TRANSFORMATSIYASI (MBT) FANINING METODI VA METODOLOGIK ASOSLARI

3.1. Mehnat bozori transformatsiyasi (MBT) fanining metodi.

3.2. Mehnat bozori transformatsiyasi (MBT) fanining metodologiyasi va uning tavsifi.

3.3. Mehnat bozori transformatsiyasi (MBT) fani metodologiyasining nazariy masalalari.

3.1. Mehnat bozori transformatsiyasi (MBT) fanining metodi

Har bir fanning metodi bo‘ladi. Shunga asosan uning mazmuni shakllanadi va o‘rganiladi. Umuman olganda fanning metodi deganda ijodiy va amaliy ishlarni samarali tashkil etish, muammolarni hal qilish va yangi g‘oyalar yaratish uchun qo‘llaniladigan usullar majmuasi tushuniladi. Ushbu metodlar aksariyat holda fan, pedagogika, ijodiy ishlar va biznes sohalarida ham foydalaniladi. Shu nuqtai nazardan ushbu tushuncha ham keng qamrovli bo‘lib hisoblanadi.

Umuman olganda har qanday fanning metodlari shu fanni o‘rganish va uning usullarini amalga oshirishga xizmat qiladi. Bularning ayrimlari sifatida quyidagilarni misol keltirish mumkin. Jumladan, laboratoriya tadqiqotlari orqali tajriba va eksperimentlar olib boriladi. Bunga asosan hodisa va jarayonnlar va nazariyalar tekshiriladi. Mutaxassislar bilan suhbatlashish, ulardan bilim va tajriba o‘rganish ham ushbu masalaning tarkibiga kiritish mumkin. Shuningdek, real hayotdagi muammolarni tahlil qilish va hal qilish uchun aniq holatlarni o‘rganish va bular asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilish masalasi ham shu fanning metodining shakllanishiga asos bo‘ladi.

Mehnat bozori transformatsiyasi fanining metodi ko‘p tartibli va ko‘plik nuqtayi nazardan yondashuvlarni o‘z ichiga olib, mehnat bozoridagi o‘zgarishlarga ta’sir qiluvchi omillarni inobatga olgan holda tahlil qilish, prognozlash va maqsadli strategiyalarni ishlab chiqish uchun qo‘llaniladi. Fanning asosiy metodlari quyidagilarni qamrab oladi:

1. Tahliliy metod.
2. Statistik metod.
3. Kuzatish metodi.
4. Qiyosiy metod.
5. Modellashtirish.
6. Ko‘rsatkichlarni tahlil qilish.
7. Empirik metod.
8. Ijtimoiy va psixologik tadqiqotlar.
9. Normativ metod.
10. Tarixiy metod.

Fanning metodlari ilmiy izlanishlarni, bilimlarni erishish va ularni amalga oshirish jarayonlarini samarali tashkil etishga yordam beradi. Shu tufayli ushbu metodlarning qisqacha mazmuniga e’tiborni qaratamiz.

Birinchi usul – tahlil metodlar. Bunda mehnat bozoridagi talab va taklif, ishsizlik darajasi, mehnat haqi kabi ko‘rsatkichlarni aniqlash va tahlil qilish uchun qo‘llaniladi. Ushbu metod yordamida bozorning qanday o‘zgarayotgani va kelajakda qanday bo‘lishi mumkinligini ma’lumotlar asosida o‘rganish mumkin. Mehnat bozori haqidagi statistik ma’lumotlar va ma’lumotlar bazasini tahlil qilish orqali mehnatga bo‘lgan talabni qondirish bilan birga, ishsizlikni bartaraf qilish yo‘llari, mehnat sharoitlari va boshqa muammolarni aniqlash uchun foydalaniladi. O‘rganish jarayonida **trendlar tahlilidan** ham foydalaniladi. Bunda uzoq muddat davomida o‘zgarish tendensiyalarini tahlil qilish ko‘zda tutilgan. Bunga misol qilib, mavjud texnologik o‘zgarishlar va demografik o‘zgarishlarni olish mumkin.

Ikkinchi usul - statistik metod bo‘lib, bunda mehnat bozoridagi o‘zgarishlarni raqamlar va faktlar orqali statistik ma’lumotlardan foydalangan holda o‘rganish uchun asos bo‘ladi. Masalan, ish bilan band kishilar soni, ish haqlari, ishsizlik darajasi, qancha ish o‘rni yaratilganligi, qancha mutaxassis kerakligi, qancha ortiqcha ish kuchi mavjudligi kabi ma’lumotlar yig‘ilib, tahlil qilinadi. Shu usuldan foydalanib, mehnat bozorining bir qancha yillarga o‘zgarish dinamikasi, kelajak uchun qator yillarga mo‘ljallangan prognoz

koʻrsatkichlari ham aniqlanadi. Ushbu usulda juda koʻp oʻlchov birliklaridan (son, soʻm, vaqt birligi, odamlar soni, masofa uzunligi va h.k.) ham foydalanadi.

Uchinchi usul – kuzatish metodlari orqali mehnat bozoridagi real holatlarni, ish joylarini va mehnatchilarning harakatlarini bevosita kuzatish mumkin. Bu metod yangiliklar va amaliyotlarni oʻrganishga yordam beradi. Kuzatish doimiy ravishda davom etsa, mazkur obyektda qanday oʻzgarilar yuz berayotganligi xususida aniq xulosalarga kelinadi. Kuzatish metodida statistikada qayd etilmaydigan ma'lumotlarni ham tahlil qilishga toʻgʻri keladi. Bunday holatda aholi oʻrtasida va boshqa guruhlarda **soʻrovnomalar** oʻtkazib, odamlarning fikrlarini **intervyular** orqali ham aniqlash mumkin. Xullas, ish beruvchilar va ishlovchilar bilan intervyular va soʻrovnomalar oʻtkazish, ularning fikrlari va tajribalarini toʻplash orqali ham kuzatish metodini amalga oshirish mumkin.

Toʻrtinchi usul – qiyosiy metod boʻlib, bunda turli subyektlar, hatto mamlakatlar, hududlar yoki davrlar boʻyicha mehnat bozoridagi oʻzgarish holatlari taqqoslanadi. Bu metod rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlardagi mehnat bozorlari oʻrtasidagi farqlarni aniqlashga ham yordam beradi. Chunki qiyoslash orqali oʻzining oʻtmishiga nisbatan qanday oʻzgarganligini, boshqa subyektlar bilan solishtirganda qanday ahvoldaligiga aniq tashxis qoʻyish mumkin. Bu usul bilan ham kerakli ma'lumotlar toʻplanib, holatni oʻnglash boʻyicha tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqish imkoniyatini yaratadi.

Beshinchi usul – modellashtirish metodi boʻlib hisoblanadi. Mehnat bozoridagi oʻzgarishlarni oldindan bashorat qilish uchun matematik va iqtisodiy modellar tuziladi. Ushbu metod kelajakdagi oʻzgarishlarni taxmin qilishda va davlat siyosatiga doir qarorlar qabul qilishda keng qoʻllaniladi. Modellashtirish deganda, mavjud obyektni, tizim yoki jarayonlarning aniq ta'sirini baholash va tushunish maqsadida uning modelini yaratish bilan bogʻliq harakatlar tushuniladi. Modellashtirishda koʻpincha fizika, matematika, geografiya kabi fanlarda koʻp qoʻllaniladi. Hozirgi sharoitda mehnat bozorining **iqtisodiy modellarini** ishlab chiqish va ularning samaradorligini

baholash masalalariga ham tegishli tarzda ahamiyat berilmoqda. Bu modellar iqtisodiy o‘zgarishlar va texnologik inovatsiyalar ta’sirini hisobga olishi uchun quloy dastgoh hisoblanadi. Chunki bunday modellar aslidagi obyektlarning xususiyatlari, ularning o‘zaro ta’siri va vaqt o‘tishi bilan qanday o‘zgarishlar sodir bo‘lishini tadqiq qilish imkonini beradi. Modellashtirish ko‘plab sohalarda, shu jumladan muhandislik, iqtisodiyot, fizika, biologiya va ijtimoiy fanlarda ham qo‘llaniladi.

Har qanday jarayonlarni modellashtirish orqali uning asosiy maqsadlari ham shakllanadi. Bu jarayonni yoki obyektni ko‘rsatishda uning holatini tushunarli va aniq tasvirini shakllantirishda ham keng foydalanish mumkin. Modullashtirishning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri zarur miqdorni avvaldan hisoblab, turli ssenariylarni tuzib, uni tahlil qilish imkoniyatini ham yaratish mumkin. Modeldan foydalanib xulosa chiqarish orqali olingan natijalar asosida qaror qabul qilish yoki kelajakda erishilishi mumkin bo‘lgan ko‘rsatkichlarning prognozlarini yaratish imkoniyati ham tug‘iladi.

Umuman olganda modellashtirish turli jarayonlarni baholashni soddalashtirish, tahlil qilish va optimal qarorlarni qabul qilishga yordam beradi. Shu yo‘l bilan mehnat bozorining kelajagi haqida prognozlar berish uchun statistik va iqtisodiy modellardan ham foydalanish lozim bo‘ladi. Xullas modellashtirish tarkibida iqtisodiy modellar ham prognozlashtirish singari o‘z o‘rning ega bo‘lib ulgurdi.

Oltinchi usul – MBTni ifodalovchi ko‘rsatkichlarni tahlil qilishga bag‘ishlangan. Bunda asosan iqtisodiy ko‘rsatkichlarga e’tibor qaratiladi. Odatda, mehnat bozoridagi iqtisodiy ko‘rsatkichlarga (ish haqi miqdori, ishsizlik darajasi, ish haqiga solinadigan soliqlar, mehnat unumdorligi, samaradorlikni rag‘batlantirish darajasi kabilar) kiradigan ko‘rsatkichlar ham chuqur tahlil qilish. Bundan tashqari, kasbiy ko‘rsatkichlar ham o‘rganiladi. Bunda kasbiy ko‘nikmalar, malakalar, ma’lumotlilik darajasi, ta’lim darajalari kabi ko‘rsatkichlar ham tahlil qilinadi. Mehnat bozorini transformatsiya qilinishini ifodalovchi ko‘rsatkichlarga yuqorida keltirilgan ko‘rsatkichlar bilan birga uning prognozini, tarkibiy tuzilishlarini, o‘zgarish miqdorlarini ham tahlil

qilinadi. Bulardan tashqari shu ko‘rsatkichlarga ta’sir etuvchi omillar ham aniqlanib, tegishli boshqaruv qarorlari qabul qilinadi.

Yettinchi usul – empirik metod bo‘lib, bu real hayotda mehnat bozorini kuzatish va o‘rganish asosida ma’lumotlar yig‘ishni o‘z ichiga oladi. Bu metodning qo‘llanilishiga misol tariqasida ishchilar va ish beruvchilar bilan so‘rovlar o‘tkazish orqali mehnat bozoridagi tendensiyalarni o‘rganish mumkin.

Empirik metod bevosita bilim olish va texnikalarni amalda tadqiq etishga asoslangan usuldir. U ilmiy tadqiqotlarda, psixologik va ijtimoiy fanlarda, shuningdek, tabiatshunoslikda ham qo‘llaniladi. Chunki ushbu Empirik metodning asosiy xususiyatlari keng qirrali bo‘lib, juda keng tarmoqlarni va jarayonlarni qamrab oladi.

Empirik metodning asosiy jihatlaridan biri – mustaqil va nazorat qilingan tajribalar, yoki kuzatuvlar orqali ma’lumot yig‘ish bilan bog‘liqdir. Ushbu usul ma’lum bir jarayonni, xulq-atvorni yoki tabiatni o‘rganishda foydalaniladi. Xuddi shuningdek mehnat bozoridagi tendensiyalarni o‘rganish asosida xulosalar chiqariladi, bu xulosalar amaldagi ma’lumotlarga yoki tajribalarga asoslangan holda qiyoslanadi.

Empirik metod natijalari olingan ma’lumotlarni asosan aniq, real va ishonchli ma’lumotlarga qiyoslash orqali va ulardan tegishli xalosa chiqarish muhim ahamiyatga ega. Bu ijtimoiy jarayonlarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jihatdan mufassal o‘rganishga yordam beradi.

Sakkizinchi usul – ijtimoiy va psixologik tadqiqotlar. Ijtimoiy tadqiqotlar insonlarning mehnat bozoridagi ijtimoiy hayotini, munosabatlarini, jamiyatdagi tarkibiy tuzulishlarini va mehnatga moslashuvlarini o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlarni qamrab oladi. Bu tadqiqotlar insonlar o‘rtasidagi munosabatlar, ijtimoiy tarmoqlar, madaniy an’analar, iqtisodiy jarayonlar, siyosiy strukturalar, ijtimoiy muammolar va ularning yechimi bo‘yicha ma’lumotlar to‘plash va tahlil qilishni o‘z ichiga oladi.

Mehnat bozoridagi ijtimoiy tadqiqotlarning asosiy maqsadlari insonlarning ijtimoiy jamiyatdagi xulqlari va o‘zaro aloqalarni o‘rganish bilan birga ijtimoiy muammolarni aniqlash, jumladan, adolatsizlik, kambag‘allik va shunga o‘xshash masalalar ham tahlil

qilinadi. Bunda insonlar va jamiyat o‘rtasidagi ro‘y beryotgan o‘zgarishlar va tendensiyalar bilan birgalikda ushbu sohadagi ijtimoiy tadqiqotlar natijalari ham inobatga olinadi. Bularning tarkibiga ta’lim, mutaxassisliklar, iqtisodiyot, psixologik va madaniy sohalardagi muhim yo‘nalishlar ham kiradi.

Ijtimoiy tadqiqotlarda mehnat bozoriga daxldor bo‘lgan ijtimoiy omillar va ijtimoiy o‘zgarishlarni ham tadqiq qilinadi. Ushbu yo‘nalishda psixologik tadqiqotlar ham mavjud. Bu bevosita ishchilarning motivatsiyasi, ijtimoiy holatlari va ish muhitiga oid psixologik holatlarni qamrab oladi.

To‘qqizinchi usul - normativ metodni o‘z ichiga oladi. Ushbu usulda davlat siyosatining mehnat bozoriga ta’siri o‘rganiladi. Bu metod davlat tomonidan qo‘llanilayotgan qonunchilik, soliqlar, imtiyozlar va mehnat qonunchiligini o‘rganishda ishlatiladi. Bunga asosan siyosiy strategiyalarni ham ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi. Mehnat bozorini rivojlantirishga oid siyosatlarni ishlab chiqi bilan birga ularning samaradorligini ham baholash imkoniyati yaratiladi. Bu metod sohaga oid siyosatning real holatga mosligini tekshirish uchun ham qo‘llaniladi. Mehnat bozori transformatsiyasiga mos keladigan strategiyalarini ishlab chiqish masalasi ham hamisha dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

O‘ninchi usul –tarixiy metod bo‘lib, bunda mehnat bozorining tarixiy rivojlanish bosqichlari o‘rganiladi. Bu metod orqali mehnat bozoridagi o‘zgarishlarning tarixiy sabablari va ularning bugungi kunga ta’sirini o‘rganish bilan kelajakdagi bo‘ladigan holatga ham tashxis qo‘yish imkoniyati yaratiladi.

Mehnat bozori tarixan bir qancha bosqichlarga bo‘linib, har qanday jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy rivojlanishi bilan bog‘liq holda o‘zgarib boradi. Ushbu bosqichlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

Birinchidan, **andozaviy bosqich** (Eski zamon)dagi shakllanish davri. Ushbu davrda mehnat odamlar orasidagi tabiiy resurslarga va jamiyatning agrar faoliyatiga asoslangan. Mehnat asosan o‘z-o‘zini

ta’minlash maqsadida amalga oshirilgan. O‘shanda oilaviy biznes va hunarmandchilik shakllanib rivojlanishni boshlagan.

Ikkinchi davr **industrializatsiya davri** bo‘lib, bu 19-asr oxiri - 20-asr boshlarini qamrab oladi. Ushbu industrial inqilob vaqtida mexanizatsiyalashtirish va fabrikalarning paydo bo‘lishi bilan mehnat bozorida muhim o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Mehnatkashlar shaharlarga ko‘chib, zavodlarda ishlashni boshladilar. Bu davrda mehnatning sinflashuvi va mehnat huquqlarini himoya qilish masalalar ham paydo bo‘ldi.

Uchinchi davr postindustrial bosqichi bo‘lib, bu 20-asr o‘rtalaridan boshlanadi. Bunda innovatsion texnologiyalarning rivojlanishi, xususan, kompyuterlar va avtomatlashtirishning paydo bo‘lishi bilan xizmat ko‘rsatish sektorining ahamiyati ham muntazam oshib boradi. Ushbu davrda mehnat bozorida yangi kasblar yaratildi, shuningdek, harakatlar va globalizatsiya natijasida jahon mehnat bozoriga kirib bordi.

To‘rtinchi davr **globallashish davri** bo‘lib, bu 21-asrni o‘z ichiga oladi. Bunda asosiy uzviylik, ma’lumot, mahsulot va ishchi kuchining global almashinuvi sodir bo‘lmoqda. Mehnat bozoridagi internatsionallashish turli davlatlar orasida ishchi kuchining migratsiyasining kengayishiga ham olib keldi. Insonlarda yaratuvchanlik (novatorlik) va hamkorlik, gibrid mehnat shakllari paydo bo‘ldi.

Beshinchi davr **karantindan keyingi davr** deb alohida atalmoqda. Bu davr 2020-yildan keyingi davrni o‘z ichiga oladi. Bunda COVID-19 infeksiyasi global mehnat bozorini katta o‘zgarishlarga olib keldi. Distansion ishlash, masofaviy (onlayn) xizmatlar, avtomatlashtirish va raqamli texnologiyalar jadal rivojlandi. Ish beruvchilar va ishchilar mehnat shartnomalari, ijtimoiy huquqlar, sog‘liqni saqlash masalalariga yanada katta e’tibor qaratildi.

Ushbu bosqichlar mehnat bozorining rivojlanishini shuningdek, uning global va mahalliy sharoitlarga moslashuvchanligini ham tezlashtirish imkoniyatini yaratdi. Tarixiy metod natijasida mehnat bozorining turli shakllarini o‘zgarishlarga rag‘batlantiradigan

vaziyatlarni vujudga keltirish bilan birga buning turli vaziyatlarga moslashuvchanligini ham shakllantirdi.

Xulosa qilib aytganda, mehnat bozori transformatsiyasi fanining metodlari mehnat bozoridagi o‘zgarishlarni o‘rganish, tushunish va unga moslashish uchun kompleks yondashuvni ta’minlaydi. Bu metodlar mehnat bozoridagi muammolarni aniqlash, ushbu holatni o‘nglashga qaratilgan samarali siyosatlarni ishlab chiqish va ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik o‘zgarishlarga moslashishga yordam beradi. Shuningdek, mehnat bozori transformatsiyasi fanini o‘rganishda iqtisodiy tahlil, statistik ma’lumotlar, qiyosiy va tarixiy tahlillar, modellashtirish kabi turli metodlar qo‘llaniladi. Ular birgalikda mehnat bozoridagi o‘zgarishlarni tushunish va kelajakdagi ehtimoliy o‘zgarishlarni bashorat qilishda asqatadi.

3.2. Mehnat bozori transformatsiyasi fanining metodologiyasi va uning tavsifi

Iqtisodiy tahlilning metodi va metodologiyasini farqlamoq lozim. **Metod** deganda asosan shu fanning predmetini o‘rganish usuli tushuniladi. **Metodologiya** deganda, sodda qilib aytganda, shu fanning predmetini o‘rgatish usuli bilan birga, unda qo‘llaniladigan yondashuvlar, barcha usullar majmui tushuniladi.

Iqtisodiy tahlilning metodologik asosi, ya’ni uni o‘rgatishda qo‘llaniladigan yondashuvlar turli yo‘nalishda bo‘lishi tabiiy. Shu tufayli ularni, eng avvalo, to‘g‘ri tasniflash lozim bo‘ladi. Fikrimizcha, ularni o‘rganishda qanday yondashishiga qarab ikki guruhga bo‘linadi:

1. O‘rganilayotgan obyektga dialektika nuqtai nazaridan yondashish.

2. O‘rganilayotgan obyektga tizimli uzluksizlikni ta’minlagan holda yondashish.

Birinchi yondashish bo‘yicha tahlil qilinsa barcha, iqtisodiy jarayonlar bir-biri bilan o‘zviy bog‘liqlikda, harakatda va doim o‘zgarishda, deb qarash lozim bo‘ladi. Bundan kelib chiqadigan bo‘lsa shuni ta’kidlash joizki, iqtisodiy jarayonlarni ifodalaydigan ko‘rsatkichlar ham bir-biri bilan o‘zviy bog‘liqlikda va o‘zgarishda deb

qaraladi. Bu yondashuv, ayniqsa, natijaviy koʻrsatkichlarning omilli tahlilda qoʻlaniladi. Ushbu yondashuv natija koʻrsatkichiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlashda keng qoʻllaniladi.

Ikkinchi yondashuv boʻyicha tahlil qilinganda oʻrganilayotgan obyektni murakkab iqtisodiy jarayonlar majmuasidan iborat deb baholab, ularning barcha qismlari bir-biri bilan oʻzaro oʻzviy bogʻliqlikdaligidan kelib chiqib, ularni oʻrganishda barcha jihatlarini tartibga solgan holda yaxlit xulosaga kelguncha qilinadigan hodisalarga uzluksiz ravishda sistemali tarzda yondashish lozimligini taqozo qiladi. Bunga oʻrganilayotgan obyektni detallashtirish, tizimlashtirish (tartiblashtirish) va umumlashtirish orqali erishish mumkin.

Oʻrganilayotgan obyektni **detallashtirish** deganda, murakkab iqtisodiy jarayonlarni soddalashtirish va ulardan toʻgʻri va yaxlit xulosa qilish uchun ularni alohida boʻlaklarga boʻlib oʻrganish tushuniladi. Alohida boʻlaklarga boʻlish natijasida amalga oshiriladigan jarayon tahlildan iboratdir. Chunki u yaxlit predmet yoki jarayon (hodisa)larni detallashtirish orqali amalga oshiradi.

Tizimlashtirish (tartiblashtirish) deganda, oʻrganilayotgan obyektni oʻrganish uchun unga mantiqan ketma-ketlikni ta'minlagan holda tartibga solish tushuniladi. Chunki har qanday iqtisodiy jarayonlar oʻta murakkab boʻlib, bir-biri bilan uzviy bogʻliqlikda va aloqada sodir boʻladi. Shu tufayli ularni har tomonlama, chuqur oʻrganish uchun ketma-ket ravishda tartiblashtirib, batafsil tahlil qilish lozim boʻladi. Masalan, natija koʻrsatkichi oʻzgarsa juda koʻp omillar ta'sir qilgan boʻladi. Barcha omillar natijaga ijobiy yoki salbiy ta'sir qilishi mumkin. Bularning ta'siri ketma-ket ravishda hisoblab chiqiladi va batafsil tahlil qilinadi. Aynan shu holat iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlarni, ularning oʻzgarishlarini tahlil qilishni taqozo qiladi.

Oʻrganilayotgan obyektni tahlil qilganda umumlashtirish usulidan ham foydalaniladi. **Umumlashtirish** deganda, obyekt yoki jarayonning barcha jihatlarini atroflicha oʻrganib, yaxlit xulosaga kelish tushuniladi. Bu xulosalar oʻrganilayotgan obyektni rivojlantirish uchun asos boʻladi. Bular esa, tahlilning boshqaruv funksiyasidan kelib chiqadi. Boshqaruv uchun tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqishda tahlil ma'lumotlaridan

foydalaniladi. Yaxshi ko‘rsatkichlarni qanday saqlab qolish yo‘llari, salbiy ta’sir qilgan omillarni qanday ijobiy holatga aylantirish masalasi qarab chiqiladi. Shular orqali o‘rganilayotgan obyekt haqida tegishli va asosli xulosaga kelib, boshqaruv qarorlari qabul qilinadi.

Iqtisodiy tahlilning metodologik asoslarining tasnifi qo‘yidagi chizmada keltirilgan (3.1-chizma).



3.1. - chizma. Iqtisodiy tahlil metodologiyasi tasnifi

Ushbu chizmada birinchi yo‘nalish bo‘yicha keltirilgan kategoriyalarning qisqacha mazmuni shundaki, o‘rganilayotgan barcha iqtisodiy jarayonlar bir-biri bilan uzviy bog‘liqlikda, harakatda va o‘zgarishda deb qaraladi. Bular tarkibiga induksiya va deduksiya, sabab va oqibat, shakl va mazmun, miqdor va sifat kabi bilish nazariyasida qo‘llaniladigan kategoriyalar kiradi.

Bundagi ikkinchi yo‘nalish, bevosita o‘rganilayotgan obyektga uzluksizlikni ta’minlagan holda tizimli yondashishdan iboratdir. O‘rganilayotgan obyektni murakkab iqtisodiy jarayonlar majmuidan iborat deb baholab, ularning barcha qismlari bir-biri bilan o‘zaro uzviy bog‘liqlikdaligidan kelib chiqib, ularni o‘rganishda barcha jihatlarini tartibga solgan holda yaxlit xulosaga kelguncha qilinadigan hodisalar iqtisodiy tahlilning tizimli yondashish metodologiyasini tashkil qiladi. Bu detallashtirish, tizimlashtirish va umumlashtirishdan iborat.

Mazkur yondashuvlar tahlil jarayonida quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi: obyektni o‘rganish uchun axborotlar to‘plash, axborotlarni

turli yondashuvlar bo‘yicha qayta ishlash, ijobiy va salbiy xulosalarga kelish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqish va bularning ijrosini ta’minlash bo‘yicha nazoratni amalga oshirish. Mazkur holatning barcha bosqichlarida axborotlardan foydalaniladi. Shu tufayli tahlilning to‘g‘ri amalga oshirilishida haqqoniy axborotlarning ahamiyati katta.

3.3. Mehnat bozori transformatsiyasi fani metodologiyasining nazariy masalalari

Induksiya va deduksiya kategoriyalari iqtisodiy tahlilning muhim metodologik asoslari sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu kategoriyalar iqtisodiy tahlilning ketma-ketligini ta’minlaydi. Masalan, induksiya deganda o‘rganilayotgan obyektning xususiylikdan umumiylikga qarab o‘rganilishi tushuniladi. Bunga misol qilib mehnat unumdorligi tahlilini olish mumkin. Unga vaqt nuqtai nazaridan qaraydigan bo‘lsak uni bir soatlik mehnat unumdorligi, bir kunlik, o‘n kunlik, bir oylik, bir choralik, yarim yillik, to‘qqiz oylik, bir yillik mehnat unumdorligi darajasigacha umumlashtirish mumkin. Yoki aynan ushbu ko‘rsatkichni makon nuqtai nazaridan qaraydigan bo‘lsak, oldin bir kishining mehnat unumdorligi, bir bo‘linmaning mehnat unumdorligi va butun mehnat jamoasining umumiy mehnat unumdorligi darajasigacha o‘rganish mumkin.

Deduksiya metodida tahlil qilinayotgan obyekt umumiylikdan xususiylik sari, ya’ni umumiy ko‘rsatkichlardan xususiy (kichik) ko‘rsatkichlarga qarab o‘rganish tushuniladi. Bu usulga misol qilib birlashmada foyda rejasining bajarilishini olish mumkin. Ushbu ko‘rsatkich oldin butun birlashma bo‘yicha o‘rganiladi, so‘ngra uning alohida korxonalari (firmalari) bo‘yicha, ularning alohida bo‘linmalari bo‘yicha ketma-ketlikda o‘rganilib, umumiy natijaga qaysi bug‘in va bo‘linmalarning ijobiy yoki salbiy ta’sir qilganligi to‘g‘risida xulosa qilinadi.

Induksiya va deduksiya usullarining bir-biri va amaliyot bilan bog‘liqligini quyidagi chizmada ifodalash mumkin:

INDUKSIYA	DEDUKSIYA
Obyektni xususiylikdan umumiylik sari o‘rganish	Obyektni umumiylikdan xususiylik sari o‘rganish

Makon va zamon kategoriyalari ham iqtisodiy tahlilning muhim metodologik asoslaridan biridir. Zero, barcha iqtisodiy jarayonlar makonda (xo‘jalik yurituvchi subyektda) ma’lum bir zamon doirasida (vaqt mobaynida) sodir bo‘ladi. Shu tufayli zamonning o‘tishi bilan makondagi natija o‘zgaradi va uning teskarisi, ya’ni makonning o‘zgarishi bilan zamon o‘tgandan keyin natija boshqacha bo‘lishi mumkin.

Masalan, makonga korxonalarni, ish joylarini, firma kabi xo‘jalik yurituvchi subyektlarni misol keltirish mumkin. Bular tahlilining obyekti. Zamon deganda esa ularning ma’lum bir hisobot davri tushuniladi. Makonda sodir bo‘lgan jarayonlar ma’lum bir hisobot davri (zamon) o‘tgach jamlanadi va umumlashtiriladi. Bu ham shu hisobot davrini tahlil qilish uchun ma’lumot manbai bo‘lib hisoblanadi.

Makon va zamon o‘rtasidagi hamda ularning amaliyot bilan bog‘liqligini quyidagicha ifodalash mumkin:

MAKON	ZAMON
Korxonalar, firmalar kabi xo‘jalik yurituvchi su’bektlar	Hisobot davri (oy, chorak, yarim yillik va yillik)

Analiz va sintez. (Tahlil va umumlashtirish) kategoriyasi ham iqtisodiy tahlilning metodologik asoslaridan biri hisoblanadi. Tahlil deganda bir butun yaxlit predmetni alohida bo‘laklarga bo‘lib o‘rganish tushuniladi. Umumlashtirish (sintez) esa o‘rganilayotgan obyekt to‘g‘risida yaxlit xulosaga kelish uchun foydalaniladi. Unda obyektning barcha bo‘laklari bo‘yicha qilingan xulosa umumlashtiriladi.

O‘rganilayotgan obyekt yoki iqtisodiy jarayon haqida yaxlit va aniq xulosaga kelishi uchun u tahlil qilinadi va barcha xulosalar

umumlashtiriladi. Tahlil bor joyda umumlashtirish, umumlashtirish uchun esa tahlil qilish lozim. Shu tufayli ushbu kategoriyalar bir-biri bilan uzviy bog‘liqlikda qaraladi.

Ammo shuni e’tirof etish lozimki, tahlilning turi juda ko‘p. U tabiatda, jamiyatda va inson tafakkurida sodir bo‘ladigan jarayonlarni o‘rganadi. Biz o‘rganadigan tahlil iqtisodiy tahlilning faqat mikroiqtisod darajasiga mansub xolos. Demak, ko‘rinib turibdiki, tahlil keng ma’noda qaralar ekan. Lekin bozorli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy tahlil, tahlillar tizimida muhim o‘rin egallaydi.

Tahlil bilan umumlashtirish o‘rtasidagi bog‘liqlikning iqtisodiy tahlilga tegishli qismini quyidagicha ifoda etish mumkin:

TAHLIL (analiz)	**UMUMLASHTIRISH (sintez)**
Hisobot yilining natijasi xususiylik sari: choraklari, oylari bo‘yicha o‘rganiladi.	Hisobot yilining umumiy natijasi bo‘yicha o‘rganiladi.
Korxona faoliyati va uning alohida bo‘linmalari, bo‘limlarning ham qismlari bo‘yicha o‘rganiladi.	Korxonaning umumiy natijasi bo‘yicha o‘rganiladi

Sabab va oqibat kategoriyasi ham bevosita iqtisodiy tahlilning metodologik asosi sifatida namoyon bo‘ladi. Iqtisodiy tahlilda natija va omillar tushunchasi mavjud. Iqtisodiy faoliyat natijasini ifoda etgan birorta ko‘rsatkich natija ko‘rsatkichi bo‘lib hisoblanadi. Buni falsafiy jihatdan qaraydigan bo‘lsak oqibatdir. Ammo shu oqibat o‘z-o‘zidan sodir bo‘lmaydi. Uning zamirida birqancha sabablar bor. Bu sabablarni iqtisodiy tahlilda omillar deb qaraladi. Masalan, ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi (oqibat) birqancha omillarga, ya’ni xodimlar soni, ularning malakasi, mehnat unumdorligi, qo‘llanilayotgan texnalogik jarayoni, xom ashyoning o‘z vaqtida sifatli ta’minoti kabi omllarga (sabablarga) bog‘liq.

Iqtisodiy tahlilda natija o‘zgarishiga omillar ta’siri aniq ma’lumotlar asosida aniqlanadi. Demak, sababning oqibatga ta’siri

o‘rganiladi. Bular o‘rtasidagi bog‘liqlikni quyidagicha ifodalash mumkin:

SABAB	OQIBAT
OMILLAR	**NATIJA**
Xodimlar soni, mehnat unumdorligi, asosiy vositalar va ular samaradorligi va h.k.	Mahsulot hajmi

Sabab oqibatga olib kelganidek, omillar ta’siri ham biror natijaga olib keladi. Ijobiy sabab yaxshi oqibat, ijobiy omil yuqori natijaga olib kelganidek, salbiy sabab yomon oqibatga, omillarning salbiy ta’siri natijaning pasayishiga olib keladi.

Shakl va mazmun kategoriyasi ham bevosita iqtisodiyotga, xususan, iqtisodiy tahlilga aloqador. Shaklning o‘zgarishi mazmun o‘zgarishiga, mazmunning o‘zgarishi shakl o‘zgarishiga olib keladi. Iqtisodiyotda ushbu bog‘liqlik juda yorqin namoyon bo‘ladi. Masalan, ayollar sumkasining shakli chiroylik va chidamlik bo‘lishi uchun, unga qimmatbaho materiallar, turli bezaklar ishlatiladi. Natijada uning mazmuni chidamliligi, narxining nisbatan qimatliligi bilan o‘zgaradi. Yoki oddiy material o‘rniga sifatli material ishlatib uning mazmunini boyitish kerak bo‘lsa albatta shakli ham o‘zgaradi.

Shu jihatdan iqtisodiy tahlilda shakl va mazmun bir-biri bilan uzviy dialektik aloqada bo‘lganligi bilan ham metodologik asos sifatida qo‘llaniladi. Masalan, biror birlashma tarkibida korxonalar soni uning shaklini tashkil qilsa, ularning nima bilan shug‘ullanishi, qanday texnologiya ishlatilishi, qanaqa kadrlar bilan ta’minlanganligi kabi jihatlar uning mazmunini tashkil qiladi. Bular o‘rtasidagi bog‘liqlikni quyidagicha ifodalash mumkin:

SHAKL	MAZMUN
Mahsulot turi	Uning sifati, tarkibi va x.k.

Miqdor va sifat kategoriyasi ham iqtisodiy tahlilda ayniqsa iqtisodiy jarayonlar natijasini ko‘rsatkichlarda ifodalashda keng qo‘llaniladi. Ko‘rsatkichlar mazmuni bo‘yicha miqdor va sifat

koʻrsatkichlariga boʻlinadi. Masalan, korxonada band boʻlgan xodimlar soni miqdor koʻrsatkichi boʻlsa, ularning mehnat unumdorligi sifat koʻrsatkichidir. Korxonaning foydasi muhim natijaviy koʻrsatkich. Ammo u iqtisodiy mazmuni jihatidan miqdor koʻrsatkichi boʻlsa, rentabellik darajasi uning sifat koʻrsatkichidir. Yana boshqa bir misol. Jamoa xoʻjaligining bir yilda etishtirgan paxtasi 50,0 ming tonnani tashkil qildi. Bu miqdor koʻrsatkich. Uning 60 foizi birinchi nav, 20 foizi ikkinchi, 15 foizi uchinchi va 5 foizi toʻrtinchi navga qabul qilindi. Bular paxtaning sifat koʻrsatkichlari. Yoki yana shu paxtadan sof tolaning chiqish miqdori 35 foizni tashkil qiladi. Bu ham uning sifat koʻrsatkichlariga misol boʻladi.

Ular oʻrtasidagi bogʻliqlik quyidagicha ifodalanishi mumkin:

MIQDOR	SIFAT
Foyda	Rentabellik
Paxta hajmi	Tolaning chiqish darajasi

Ushbu bobda iqtisodiy tahlilning ayrim metodologik asoslariga toʻxtaldik. Falsafiy kategoriyalar hayot inikosi. Iqtisodiy jarayonlar esa ijtimoiy hayotning bir boʻlagidir. Shu tufayli iqtisodiy jarayonlarni oʻrganishga bagʻishlangan iqtisodiy tahlil shu falsafiy kategoriyalarga asoslanadi.

Oʻzini-oʻzi nazorat qilish va takrorlash uchun savollar

1. Iqtisodiy tahlilning metodologik asoslarini tadqiq qilish nima uchun kerak?
2. Iqtisodiy tahlil metodining mazmuni boʻyicha qanaqa qarashlar mavjud?
3. Iqtisodiy tahlil metodining ta’rifi.
4. Iqtisodiy tahlilning metodi boʻyicha XXI asrdagi olimlar fikrlari.
5. Iqtisodiy tahlil metodologiyasi va ularning ta’snifi.
6. Inson resurslarini shakllantirishda ta’lim sohasining ahamiyati.
7. Tashkilotning kadrlarga boʻlgan ehtiyojlarini aniqlash.
8. Iqtisodiy tahlil metodologiyasi tavsifi.
9. Mehnat bozorida gender tengligini ta’minlash.

10. MBTda induksiya va deduksiyaning ahamiyati.
11. MBT tahlilida analiz va sintez.
12. Makon va zamonning iqtisodiy tahlildagi vazifalari.
13. Sabab va oqibat.
14. MBTda miqdor va sifat ko‘rsatkichlari.
15. MBTda shakl va mazmunning ahamiyati.

IV BOB. MEHNAT BOZORI TRANSFORMATSIYASI (MBT) FANINING PRINSIPLARI, TARTIBGA SOLISH YO‘LLARI VA OBYEKTIV ZARURIYATI

4.1. Mehnat bozori transformatsiyasi (MBT) fanining prinsiplari.

4.2. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida mehnat bozori transformatsiyasi (MBT) fanining yangi talablar doirasida takomillashuvi.

4.3. Mehnat bozori transformatsiyasi (MBT) fanida inson resurslarining miqdoriy va sifatiy tavsiflari.

4.1. Mehnat bozori transformatsiyasi (MBT) fanining prinsiplari

Mehnat bozori transformatsiyasi (MBT) fanining prinsiplari mehnat bozorini va umumiy iqtisodiy vaziyatni takomillashtirish, innovatsiyalar va texnologiyalarni joriy etish, inson resursarini rivojlantirish, ijtimoiy hamkorlikni mustahkamlash, mehnat muhofazasi va huquqlarini himoya qilish kabi masalalarni qamrab oladi. Ushbu prinsiplar mehnat bozorining samarali intizomi va rivojlanishini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Mehnat bozori transformatsiyasi, ya’ni mehnat bozorining o‘zgarishi va rivojlanishi, bir qancha asosiy prinsiplarga asoslanadi. Ushbu prinsiplar mehnatning samaradorligini oshirish, shuningdek, iqtisodiy shart-sharoitlarga moslashishni talab etadi. Mehnat bozorining transformatsiyasining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

Birinchi prinsip innovatsion rivojlanishdan iborat. Mehnat bozorini transformatsiya qilish jarayonida innovatsion texnologiyalar va metodlarni joriy etish mukim iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda katta ahamiyatga ega. Innovatsion rivojlanish bevosita iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda yangilanish, takomillashtirish va yangi texnologiyalarni joriy qilish jarayonlari bilan bog‘liq. Bunda mahsulotlar, xizmatlar, biznes modellari va tashkilotlar yetakchi, ta’sirchan va samarali rivojlanishini ta’minlash yaratiladi.

Innovatsion rivojlanishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat. Eng avvalo, texnologik innovatsiyalarni inobatga olish lozim. Bunda yangi texnologiyalar, jarayonlar va mahsulotlar yaratiladi. Bunga misol qilib, raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt, biotexnologiya kabi yangiliklarni olish mumkin.

Shuningdek, boshqaruvdagi innovatsiyalarni olish mumkin. Bunda tashkilotlarda boshqarish usullari, strategik rejalashtirish, marketing va operatsion jarayonlarni takomillashtirishga erishiladi. Yana bir yo‘nalish moliyaviy innovatsiyalardir. Bunda yangi moliyalashtirish mexanizmlari, investitsiya modellari va iqtisodiy rivojlanish bo‘yicha turli takliflarni kiritish mumkin.

Ushbu guruhda ijtimoiy innovatsiyalarga ham e’tiborni qaratish lozim. Ushbu yo‘nalish ijtimoiy masalalarni hal qilishga yordam beruvchi yangicha yondashuvlardan foydalanishni taqozo qiladi. Bunga ijtimoiy tadbirkorlik, barqaror rivojlanish, ta’lim va sog‘liqni saqlashni takomillashtirish masalalarini kiritish lozim. Yana o‘zgarishlarga moslashuvchanlik masalasini ham inobatga olish lozim bo‘ladi. Chunki innovatsion rivojlanish jarayoni o‘zgaruvchan muhitga moslashish va yangi shartlarga tezda javob berish qobiliyatini talab qiladi.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion rivojlanish ishlab chiqarish samaradorligini, raqobatbardoshlikni, iqtisodiy o‘sishni ta’minlash bilan birga ijtimoiy farovonlikni oshirishga ham yordam beradi. Shunday ekan, hozirgi jadal o‘zgarishlar paytida mamlakatlar, tashkilotlar va muassasalar innovatsion rivojlanishni strategik ahamiyatga ega omil sifatida qarashlari muhimdir.

Ikkinchi prinsip inson resurslarini shakllantirish bilan xarakterlanadi. Bunda mehnat bozori uchun talabga mos keladigan malakali kadrlarni tayyorlash va ularning ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Chunki inson resurslarini shakllantirish orqali tashkilotning natijadorligini va samaradorligini ta’minlashga erishiladi. Ushbu jarayon bilan bog‘liq bo‘lgan asosiy bosqichlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Birinchi galda tashkilotning kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlarini aniqlash, kadrlar bo‘yicha strategik maqsadlarni belgilash lozim

bo‘ladi. Buni aniqlab, obyektning strategik rejalarini belgilash mumkin. Shuningdek, maqsadli mehnat bozorini tahlil qilish orqali samarali o‘zgarish strategiyalarini ishlab chiqish va ularni amalga oshirish imkoniyatlari ham yaratiladi.

Kadrlarni jalb qilishda hozirgi holatdan kelib chiqib, tanlov jarayonini ham amalga oshirish va bunda rezyumelarni ko‘rib chiqish, suhbatlar o‘tkazish va nomzodlarni malakaviy tajribalarini baholash tadbirlari ham muhim hisoblanadi.

Inson resurslarini shakllantirishda ta’lim sohasining ahamiyatidan kelib chiqib, xodimlarning kasbiy mahoratini oshirish uchun treninglar, seminarlar va master-klasslarni tashkil etish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ish samaradorligini oshirish va faoliyatni rivojlantirishda motivatsiya va rag‘batlantirish ham muhim tadbirlar sirasiga kiradi. Bunda xodimlarning ish natijalarini rag‘batlantirish uchun samarali mukofotlash tizimini yaratish lozimligini har bir xodim his qilishlari lozim.

Mazkur masalaning samarali amalga oshirilishida tashkilotdagi madaniyatning shakllanganligi ham muhim ahamiyatga ega. Chunki ish joyida pozitiv va ijobiy muhit yaratish hamda hamkorlikni rag‘batlantirish masalasi ham ahamiyatlidir. Bunda xodimlarning fikrlari va takliflarini inobatga olish, ularni tashkilotga moslashtirish bo‘yicha ham tegishli tadbirlarni amalga oshirish lozim bo‘ladi.

Ko‘rinib turibdiki, tashkilotlarda inson resurslarining shakllanishida kadrlarni boshqarish bo‘yicha samarali usullar va metodlarni qo‘llash lozimdir. Inson resurslarini shakllantirish jarayonida zamonaviy texnologiyalardan ham foydalanish lozimdir. Chunki HR-texnologiyalaridan foydalanish ham jarayonni engillashtiradi.

Uchinchi prinsip mehnatni bozorini rivojlanirishga qaratilgan. Mehnat bozorining barqaror o‘sishi va ish o‘rinlarini optimallashtirish uchun ish jarayonlarini modernizatsiyalash qilish va avtomatlashtirish masalasini ham inobatga olish lozim. Chunki hozirgi sharoitda ayrim kasblar yo‘qolib, o‘rniga butunlay yangi kasblar paydo bo‘lmoqda. Bunday sharoitda texnik o‘zgarishlarni oldindan inobatga olib,

texnologik o‘zgarishlar boshlanishdan oldin kadrlar tayyorlangan bo‘lishiga erishish ham maqsadga muvofiq.

To‘rtinchi prinsip ijtimoiy hamkorlikdan iborat. Mehnat bozori transformatsiyasida davlat, xususiy sektor va fuqarolik jamiyati o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni ta’minlangan bo‘lishi lozim. Mehnat bozori, iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u ishchi kuchi va ish beruvchilar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Bular o‘rtasidagi ijtimoiy hamkorlik mehnat bozori doirasida bir qator masalalarni hal qilishda muhim rol o‘ynaydi. Quyida mehnat bozorida ijtimoiy hamkorlikning ayrim jihatlari keltirilgan:

Bunda asosiy o‘rin ishchilar va ish beruvchilar o‘rtasidagi muloqotda namoyon bo‘ladi. Chunki ijtimoiy hamkorlik ishchilar va ish beruvchilar o‘rtasidagi o‘zaro ishonch va munosabatlarni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Bu, o‘z navbatida, mehnat sharoitlarini yaxshilashga, ish samaradorligini oshirishga va ishchilar huquqlarini himoya qilishga ham yordam beradi.

Ijtimoiy hamkorlik tarkibiga tashkilotlar bilan davlat o‘rtasidagi hamkorlik ham kiradi. Bu davlat va xususiy sektor o‘rtasida ijtimoiy hamkorlik, mehnat qonunchiligini takomillashtirishda, ish bilan ta’minlashni oshirishda va ijtimoiy himoya tizimlarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, ijtimoiy sheriklik dasturlari ham xodimlarning malakasini oshirishga, kasb-hunarga yo‘naltirishga va yangi ish o‘rinlarini yaratishga qaratilgan bo‘lishi mumkin.

Mehnat bozorida gender tengligini ta’minlashda ijtimoiy hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Bu yo‘nalishda erkaklar va ayollar o‘rtasida teng imkoniyatlarni yaratish, ularning mehnat bozorida faol qatnashishiga erishish uchun har tomonlama hamkorlik ta’minlanishi lozim bo‘ladi. Ijtimoiy hamkorlik yangi g‘oyalar va innovatsiyalarni amalga oshirishda, ishchilarning malakalarini oshirishda va yangi texnologiyalarni ish faoliyatiga joriy etishda innovatsion rivojlanishlar qulayliklarni yaratishga yordam beradi. Shu sababli, mehnat bozorida ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirish, iqtisodiy o‘sish va barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Beshinchi prinsip tenglik va adolatda namoyon bo‘ladi. Mehnat shart-sharoitlari mexanizmlarini takomillashtirish orqali ayollar, keksalar va nogiron odamlarning mehnat bozoridagi imkoniyatlarini kengaytirish bilan birga ular o‘rtasidagi tenglikni ham ta’minlash maqsadga muvofiq. Mehnat bozorida tenglik va adolatni ta’minlash jamiyatning rivoji uchun muhim masalalardan biri. Bu ikki prinsip insoniy huquqlar, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish, har bir insonning mehnat faoliyatida teng imkoniyatlarga ega bo‘lishiga aloqadordir.

Turli tabaqalar o‘rtasida teng imkoniyatlarga ega bo‘lish barcha insonlarga mehnat bozorida teng shartlarda ishtirokini ta’minlanishi uchun asos bo‘ladi. Bunda kimningdir huquqlarini cheklashga yo‘l qo‘yilmaydi. Bu borada, texnologik rivojlanishlardagi tenglik ham muhimdir. Shu bilan mehnat bozorini modernizatsiyalash va raqamlashtirishda barcha ishtirokchilarning teng imkoniyatlaridan foydalanishini ta’minlanadi.

Nozik masalalardan biri xodimlar o‘rtasida mehnat haqini belgilash adolatli bo‘lishi kerak. Insonlarning mehnati va qo‘shadigan hissasiga muvofiq pul topishi, uning qobiliyatlari va ta’limiga ko‘ra tabaqalangan bo‘lishi zarur. Mehnat bozorini muhofaza qilish va ijtimoiy adolatsizliklarga yo‘l qo‘ymaslik uchun ijtimoiy siyosatlarga ham moslashish ham zarur bo‘lar ekan. Bu ishsizlikka qarshi kurashish, ajratilgan mablag‘larni adolatli taqsimlash va mehnat huquqlarini himoya qilishni o‘z ichiga oladi.

Mehnat bozorida tenglik va adolatni ta’minlash, ko‘pincha, davlat, biznes va jamiyatning hamkorligini talab etadi. Farqli vaziyatlarda ham insonlarning huquqlari va qadr-qimmatini hurmat qilish muhimdir. Tenglik va adolat prinsiplarining maqsadi – barcha uchun munosib shart-sharoitlar yaratib, insonlarning farovonligi va xotirjamligini ta’minlashga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Oltinchi prinsip ish haqi va mehnat muhofazasi bilan bog‘liq. Mehnat shart-sharoitlarini yaxshilash, ish haqlarini adolatli ta’minlash va mehnat huquqlarini himoya qilish masalasi ham muhim prinsiplar sirasiga kiradi. Ish haqi va mehnat muhofazasi ishchilarning huquqlari,

ularning mehnat shartlari, ish haqi va boshqa ijtimoiy kafolatlarni qamrab oluvchi masalalardan biridir.

Ish haqi bevosita ishchilarning o‘z mehnati uchun oladigan maoshidir. Ish haqi miqdori ko‘p omillarga bog‘liq: ishning xususiyati, ishchiining malakasi, ish joyi, iqtisodiy va siyosiy holat va hokazo. Ish haqi to‘lashda adolatli va aniq tizimlarni o‘rnatish, mahalliy va global standartlarga muvofiq bo‘lishi kerak. Mehnat muhofazasi bevosita ishchilarning hayoti, sog‘lig‘i va huquqlarini muhofaza qilishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimidan iboratdir. Bu masala bo‘yicha amal qilishi lozim bo‘lgan asosiy qoidalar tarkibiga quyidagilar kiradi:

Birinchi galda, ish joyi xavfsizligini ta’minlashdan iborat. Bunga erishish uchun ishchilarning sog‘lig‘iga zarar etkazmasligi kerak. Bunga erishish uchun xavfsizlikning o‘lchovlari, yetarli himoya vositalari va ta’lim berish mexanizmlarini ham to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish lozim. Shuningdek, ishchilarning huquqlari ham ta’minlangan bo‘lishi lozim. Bunda mehnat shartnomalari, ish vaqti, dam olish kunlari va boshqa ijtimoiy imkoniyatlar to‘liq inobatga olinishi lozim.

Xodimlar ish joyida o‘z huquqlari buziladigan bo‘lsa shikoyat qilishlari uchun tegishli sharoit yaratilgan bo‘lishi lozim. Har qanday tashkilot shaxsiy va professional xavfsiz muhitni ta’minlash uchun tegishli tartib qoidalaga amal qilishi ta’minlangan bo‘lishi ham maqsadga muvofiq. Xodimlarning ijtimoiy muhofazasi, ya’ni bemorlik, nogironlik, pensionerlik va boshqa ijtimoiy masalalar kabi holatlar ham albatta inobatga olinib, hamisha e’tiborda bo‘lishligini ta’minlash kerakdir.

Xulosa qilib aytganda, mehnat muhofazasi va ish haqi har doim mehnat munosabatlarini yaxshilash, ishchilarning huquqlarini himoya qilish, ish joylarida xavfsizlikni ta’minlash va ularning turmush sharoitlarini yaxshilash uchun muhimdir. Bu bir vaqtning o‘zida iqtisodiy samaradorlikni ham oshirilishini ta’minlash bilan birga xodimlar farovonligini ham oshirish imkoniyatini yaratadi.

Yettinchi prinsip MBTda bozor talablarini hisobga olishni qamrab olgan. Ushbu masaladagi asosiy maqsad, mehnat bozorining talablari va ta’minotlari o‘rtasidagi muvozanatni saqlashga qaratilgan.

Mehnat bozorining transformatsiyasi iqtisodiy talab va taklifning o‘zgarishiga mos ravishda sodir bo‘ladi. Bu prinsip mehnat resurslarining samarali va optimal ishlatilishiga asos bo‘lib hisoblanadi. Mehnat bozorida bozor talablarini hisobga olish va tahlil qilish juda muhim ahamiyatga ega. Mehnat bozorida samarali faoliyat yuritish uchun quyidagi usullar va strategiyalarni o‘rganish mumkin:

Mehnat bozoridagi talab va taklifni aniqlash uchun tibbiy, iqtisodiy va ijtimoiy tadqiqotlarni o‘tkazib, bu borada statistik ma’lumotlar, soha tadqiqotlari va mehnatga oid anjumanlaridan foydalanish muhim. To‘plangan ma’lumotlarni tahlil qilish, barqaror muvozanatni saqlash choralari ko‘riladi.

Mehnat bozori talablari haqidagi ma’lumotlarni olish uchun onlayn platformalar, ish bilan ta’minlash veb-saytlari va ijtimoiy media manbalarida izlanish olib borish uchun internet va axborot texnologiyalaridan foydalaniladi. Qanday malakalar va bilimlarga ega kadrlar kerakligini aniqlash uchun ish beruvchilar tomonidan e’lon qilingan bo‘sh joylarni to‘ldirish choralari ko‘riladi.

Kadrlar masalasi bo‘yicha mutaxassislar bilan hamkorlikda ish bilan ta’minlash agentliklari, mehnat birlashmalari va tibbiy muassasalar bilan o‘zaro aloqalarni yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq. Bugungi kunda mehnat bozorini to‘g‘ri segmentlash va har bir segmentning talablarini alohida tahlil qilish orqali mehnat bozorining segmentatsiyasiga erishiladi.

Bozor talablarini hisobga olishda tadqiqotlar va seminarlar o‘tkazib turish ham ahamiyatli tadbirlardan hisoblanadi. Bunda ish beruvchilar, mutaxassislar va tadqiqotchilar bilan seminarlar yoki tajriba almashish treninglari tashkil etish masalaning to‘g‘ri yechimini topish imkoniyatlarini yaratadi. Bunda ish beruvchilarning talablari va ehtiyojlarini aniqlash maqsadida ular bilan doimiy va samarali muloqot olib borishi ham lozim. Bunda xodimlarning fikr-mulohazalarini olib, ularni potensial xodimlar ishchilarning fikrlarini o‘rganish, uslubi va talablarini hisobga olish.

Shuningdek, mehnat bozorini faol monitoring qilib, uning o‘zgarishlarini va tendensiyalarini doimiy kuzatib baholab borish lozim

bo‘ladi. Xullas, mehnat bozori talablarini hisobga olish, ish beruvchilar va tashkilotlar uchun muhim strategik rejalar va qarorlar qabul qilishda yordam beradi, bu esa mehnat resurslarini samarali boshqarish imkonini yaratadi.

Sakkizinchi prinsip uzluksiz ta’lim bilan bog‘liq. Ustuvor ravishda ta’limni va malaka oshirishni ta’minlash, bu esa iqtisodiyotning talablariga mos keladigan kadrlarni tayyorlashga qaratilgan bo‘ladi. Uzluksiz ta’limda har bir o‘quvchini qiziqishiga qarab, o‘z yo‘nalishida o‘qitishga kirishadigan vaqt keldi. Masalan, bola yoshligidan tibbiyotga qiziqadigan bo‘lsa yoki ikkinchisi iqtisodchi bo‘lishni xohlasa, shunga mos ravishda dasturlar ishlab chiqib, shu yo‘nalishda o‘qishni tashkil qilish lozim bo‘ladi.

To‘qqizinchi prinsip malaka va bilimlarning rivojlanishi bilan bog‘liq. Mehnat bozorining transformatsiyasi malaka va bilimlarning o‘sishiga va yuqori sifatiga e’tibor qaratiladi. Ishchilarning o‘qitilishi va malaka oshirish dasturlari talabga javob berishi kerak. Buning uchun bugungi global iqtisodiy aloqalarga mos holda amalga oshirish lozim. Bu mehnat bozori transformatsiyalarini tezlashtiradi. Xalqaro migratsiya, transmilliy kompaniyalarning faoliyati va xalqaro savdo mehnat bozorining tarkibini o‘zgartirilishi ham mumkin.

O‘ninchi prinsip yangi mehnat shakllarini yuzaga keltirish bilan bog‘liq. Risklar, frilansing, mojarolar va masofaviy ishlash kabi yangi mehnat shakllari mehnat bozorining transformatsiyasini talab qiladi. Bu, ishchilar va ish beruvchilar uchun yangi mexanizmlar va shartlarni taqdim etadi. Innovatsiyalar va texnologik rivojlanishi yangi zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishi mehnat bozorini o‘zgartiradi. Yangi texnologiyalar ish joylarining ko‘payishi yoki kamayishiga, shuningdek, ishchilarning malaka talablarining o‘zgarishiga olib keladi. Ushbu holat sotsial ta’minot va huquqlarni amaldagi mehnat bozoriga moslashtirishni taqozo qiladi. Xullas, mehnat bozorining transformatsiyasi ishchilarning huquqlari, ijtimoiy kafolatlar va mehnat shartnomalariga ta’sir ko‘rsatadi. Ular mehnat bozorida aqlli va adolatli o‘zgarishlarni ta’minlash uchun o‘ta muhim masalalardan biridir.

Xulosa qilib aytganda, davlat siyosatining mehnat bozoriga ta'siri katta ahamiyatga ega. Mehnat siyosati, iqtisodiy islohotlar va huquqiy tuzalishlar mehnat bozorining transformatsiyasida asosiy o'rin tutadi. Bu prinsiplar mehnat bozorini zamonaviy o'zgarishlarga moslashtirish, iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash va xodimlarning ahvolini yaxshilash uchun muhim omillardan biridir.

4.2. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida mehnat bozori transformatsiyasi (MBT) fanining yangi talablar doirasida takomillashuvi

Mehnat bozori ham davr talabining o'zgarishiga mos ravishda muttasil o'zgarib boradi. Hayotimizga innovatsion iqtisodiyotning kirib kelishi shunga mos kadrlarni talab qiladi. Bu esa mehnat bozoriga aynan shunday kadrlarning qo'yilishini taqozo qiladi. Bugungi kunda xodimlarning jismoniy quvvati hech narsani belgilamaydi. Muhim u aqliy jihatdan baquvvat, chuqur ilmni va tajribani talab qiladi. Shu jihatdan MBTdagi vaziyat ham o'zgarib, shunga mos holda takomillashib bormoqda.

Aholining hayotiy ehtiyojlarini qondirish uchun ming yillar davomida oziq-ovqat mahsulotlarini ma'lum mavsumiy davrda yetishtirilib, uni saqlab va yil davomida ta'minlab kelingan. Hozirgi sharoitda inson ehtiyojlaridan biri axborot resurslari bo'lib qoldi. Buni ham yetkazib berish bilan birga saqlash xizmatlari ham paydo bo'ldi. Bunday xizmatlar bilan aholining axborotlarga bo'lgan ehtiyojni qondirish masalasi hal bo'lmoqda. Ushbu holat aynan innovatsion iqtisodiyotning mahsuloti hisoblanadi.

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida mehnat bozori transformatsiyasi (MBT) fani ham yangi talablar doirasida takomillashuvi lozim bo'ladi. Chunki yangi texnologiyalar yangi mutaxasislarni talab qiladi. Ammo yangi mutaxassislar hamisha tayyor bo'lmasligi mumkin. Shu tufayli bularni shu o'zgarishga moslashtirgan holda tayyorlashni va ishga joylashtirishni taqozo qiladi. Shu tariqa ish kuchiga talab va taklif bir-biriga mos kelsa muntazam ravishda ishsizlik kamayib, kambag'allik ham qisqarib boradi.

Innovatsion iqtisodiyot sharoitda mehnat bozorining xususiyatlari bir nechta muhim omillarbilan belgilanadi. Ulardan biri mehnat bozoridagi talab va taklif jarayoni bilan bog‘liqdir. Ushbu omil turli iqtisodiy jarayonlardan kelib chiqqan holda mehnat bozorining o‘zgarishini, moslashuvchanligi va raqobatbardoshligini ta’minlashga xizmat qiladi. Bu xususiyatlar mehnat sohibining moslashuvchanligini talab qiladi.

Hozirgi sharoitda jamiyatda sodir bo‘layotgan texnologik o‘zgarishlar va ishlab chiqarishning avtomatlashtirilishi kadrlarga bo‘ladigan talabni ham o‘zgartiradi. Innovatsiyalar bilan bog‘liq bo‘lgan texnologiyalar mehnatga bo‘lgan talabni ham o‘zgartiradi. Bu esa, ishga qabul qilish jarayonlarini ham o‘zgartirib, yangi kasblarning shakllanishini va eskilarining yangi texnologiyalarga moslashuvchanligini ta’minlashni talab qiladi. Bunda faoliyat ko‘rsatadigan xodimlarning ham ushbu vaziyatga maxsuslashuvchanligini talab qiladi. Chunki innovatsion iqtisodiyot sharoitida yuqori malakali kadrlarga talab ortib boradi. Kadrlarning innovatsion mahorati, ya’ni yangi texnologiyalar, dasturiy ta’minot va metodologiyalaridan to‘g‘ri foydalanishini talab kiladi. Kadrlarning malakasi ham shunga mos bo‘lishi lozim.

Bugungi kreativ iqtisodiyot sharoitida har bir xodimda ijodkorlik fazilati ham bo‘lishi lozim. Chunki xodimlar o‘rtasidagi raqobat aynan shu ijodkorlikni talab qiladi. Innovatsion muhitda mehnat bozori ijodkorlik va raqobatga asoslangan. Novatorlik g‘oyalari bilan chiqish uchun mehnat bozoridagi ishtirokchilar o‘rtasida raqobat hamisha bo‘lib turishi tabiiydir. Shu tufayli hozirgi paytda mutaxassisning diplomi emas, balki malakasi muhim hisoblanadi.

Hozirgi innovatsion iqtisodiyot sharoitida jarayonlarni moshinalashtirish va masofaviy ish ham kundan kunga rivojlanmoqda. Natijada mehnat bozorida masofaviy ish va frilansing ham shiddat bilan rivojlanmoqda. Bu, o‘z navbatida, kadrlarning ish bilan bandligi va mehnat sharoitlarining ham o‘zgarishiga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatadi. Muhimi ko‘p kasblar uydan chiqmasdan faoliyat ko‘rsatish

imkoniyatini tug‘diradi. Boshqa mamlakatlarga chiqmasdan xizmtlar eksportini ham amlga oshirish imkoniyatlari yaratilmoqda.

Shuni alohida qayd etish joizki, ushbu muvoffaqiyatlarga erishish uchun uzluksiz ta’lim tizimini rivojlantirish ham maqsadga muvofiq. Innovatsion muhitda professional rivojlanish uchun uzluksiz ta’lim bilan birga oldingi o‘qiganlar uchun qayta ta’lim ham muhim ahamiyatga ega. Kadrlar bunday sharoitda doimiy ravishda o‘z bilimlarini yangilab borishlari kerak bo‘ladi.

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida ish beruvchilar va tashkilotlarning strategik rejalari innovatsiyalarga asoslangan bo‘lishi kerak, chunki bu raqobatdoshlikni oshirish va bozordagi o‘rnini mustahkamlash uchun zarur omillardan biridir. Hozirgi sharoitda innovatsion jarayonlarning aksariyati ishlab chiqarish va ijtimoiy hayotni raqamlashtirish bilan bog‘liq bo‘lmoqda. Bunday sharoitda mehnat bozori ham shunga mos holda takmillashib borishi lozimdir.

Mehnat bozorida ijtimoiy tarmoqlar va aloqa vositalari, mahalliy va global miqyosda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Ushbu jarayon, ish beruvchilar va xodimlarning munosabatlarini yangicha namoyon etadi. Zero, ijtimoiy tarmoqlar axborotlashtirishning aksariyat qismini qamrab olganligi bilan ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Shu jihatdan ijtimoiy tarmoqlar kuchli sohalar singari ko‘pgina odamlarning asosiy vaqtini egallab olmoqda. Buning axborotlarni yetkazishda ijobiy tomonlari bilan birga salbiy tomonlari ham yo‘q emas. Chunki xodimlarning asosiy ish vaqtini shunga qaratilishiga ham sabab bo‘lib qolmoqda.

Yana bir muhim jihat, mehnat bozoridagi qonunchilik va davlatning iqtisodiy siyosati ham innovatsion taraqqiyotni va uning mehnat bozoriga ta’sirni hisobga olish kerak bo‘ladi. Zero har qanday iqtisodiy siyosat, real iqtisodiyotdan ayri holda yoki iqtisodiyot siyosatdan ayri holda bo‘lmasligi lozim. Agar ushbu muvofiqlik ta’minlansa iqtisodiy faoliyatlarning samaradorligini ta’minlash imkoniyati yaratiladi. Shu tufayli jamiyatning o‘zgarishi va undagi omillarning ham o‘zgarishiga mos ravishda qonunchilik va siyosatning ham o‘zgarib borishi lozim. Obyektiv o‘zgarishlar ro‘y bergan taqdirda iqtisodiyotni aynan shu qonun va siyosatga ham moslashtirib borishga

to‘g‘ri keladi. Jumladan, rejali iqtisodiyot sharoitida barcha mulklar davlatga qarashli edi. Mustaqillikka erishganimizdan keyin mulklarni xususiylashtirish lozim bo‘ldi. Bunda qonun va siyosatga mos holda qayta ko‘rib chiqib, yangi iqtisodiy munosabatlar vujudga keldi.

Ushbu xususiyatlar mehnat bozorini innovatsion rivojlantirishda o‘zining milliyligini saqlab qolgan holda, global iqtisodiy rivojlanish bilan qarishib, qo‘shilib boradi. Chunki integratsion jarayonlar ushbu holatga kelish uchun obyektiv omil bo‘lib hisoblanadi. Shu jihatdan innovatsion iqtisodiyot sharoitida mehnat bozori transfarmatsiyasi jamiyat taraqqiyotini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida mehnat bozori transformatsiyasi (MBT) fanining yangi talablari doirasida takomillashuvini ta’minlash uchun korxona va tashkilotlarda xodimlarning yo‘nalishlari bo‘yicha tabaqalanishiga alohida ahamiyat berishni taqozo qiladi. Xodimlarning tabaqalanishi quyidagi jadvalda o‘z ifodasini topgan (4.1-jadval).

4.1-jadval

Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda inson resurslarining faoliyati va mulkka egaligi bo‘yicha tabaqalanishi

T/r	Mehnat resurslarining korxona va tashkilotlardagi tabaqalanishlari	Har bir guruhning maqomi va vazifalari
1.	Tashkilotning rahbarlari va o‘rinbosarlari	Bularga korxonaning direktori va ularning o‘rinbosarlari kiradi.
2.	O‘rta bo‘g‘in rahbarlar	Har bir yo‘nalish bo‘yicha rahbarlar kiradi. M: ishlab chiqarish sexlari rahbarlari, saqlash bo‘limi rahbarlari, ta’minot bo‘limi rahbarlari va h.k.
3.	Mutaxassislar	Iqtisodchilar, buxgalterlar, auditorlar, menejerlar va boshqalar
4.	Ishchi xodimlar	Besosita ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish bo‘limlarida ishlaydigan asosiy xodimlar
5.	Yordamchi personallar	Qarovullar, farroshlar, navbatchi elektriklar va h.k.
6.	Korxona egalari	Bevosita korxona tasischisi, aksiyadorlar, davlat va nodavlat mulk sohiblari va h.k.

7.	Hamkorlar	Korxona shtatida bo‘lmagan, lekin korxonaga xizmat qiladigan xodimlar. M: yuk tashuvchi-lar, sovutgich tashkilotlari xodimlari va h.k.

Mazkur jadvalda keltirilgan mehnat resurslarining korxona va tashkilotlardagi tabaqalanishlarining 1-6 bandidagilari mehnat bozorida ishlovchilar sifatida ishtirok etadi. 7-banddagilar ish beruvchi sifatidagi ishtirokchilardir. Bunga tashkilotning rahbarlari (korxonaning direktori) va o‘rinbosarlari ham yordamchi sifatida aralashadi. Ushbu xodimlarning hammasi muntazam ravishda, innovatsion o‘zgarishlarga moslashgan holda o‘z malakalarini oshirib borishlari lozim.

4.3. Mehnat bozori transformatsiyasi (MBT) fanida inson resurslarining miqdoriy va sifatiy tavsiflari

Dunyo miqyosida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar turli yo‘nalishlarga ega bo‘lmoqda. Ayrim hududlarda tug‘ulishning kamayib ketishi natijasida ish kuchi kamayishi ro‘y bermoqda. Bunday hududlarda mehnat bozorida ish kuchining tanqisligi sezilayotgan bo‘lsa, ayrim hududlarda esa, tug‘ulishing ko‘pligi natijasida ish kuchining ortiqchaligi ro‘y bermoqda. Chunki iqtisodiyotda ish kuchiga talab bevosita tug‘ulishga, uning o‘sishiga bog‘liq bo‘lmasdan, balki uning o‘ziga xos rivojlanish qonuniyati mavjud. Bunday sharoitda mehnat bozorida turli notekisliklar vujudga keladi va bu aynan bugungi kunda yaqqol ko‘zga tashlanmoqda.

Ma’lumki dunyoda hamma narsaning o‘lchovi bor. Shundan kelib chiqib, mehnat bozori transformatsiyasi (MBT) fanining ob’ekti bo‘lgan inson resurslarini ham miqdoriy va sifatiy jihatdan tavsiflashni maqsadga muvofiq, deb topdik. Bu borada Gulnora Abdurahmanovaning “Inson resurslarini boshqarish” nomli darsligida[3] tegishli ma’lumotlar keltirilgan. Ushbu g‘oyalarga asoslangan holda o‘z fikrlarimizni ham qo‘shimcha tarzda ifodalashni maqsadga muvofiq, deb topdik. Chunki, mehnat bozori transformatsiyasi (MBT) fanida

[3] Гулнора Абдураҳманова “Инсон ресурсларини бошқариш” (Дарслик) // - Т.: ЎзР ФА “Фан” нашриёти давлат корхонаси, 2021. 120-135 бетлар.

inson resurslarining miqdoriy ko‘rsatkichlari aniqlikni va hisob-kitob bo‘lishini talab qiladi. Masalaning aynan shu jihati ushbu ko‘rsatkichlarning aniq ifodalanishini talab qiladi. Zero, miqdor va sifat bir-biriga hamisha hamohang. Ular falsafiy kategoriya sifatida predmetlarga ham, jarayonlaru hodisalarga ham qo‘llaniladi. Miqdorning o‘zgarishi sifatga va sifatning o‘zgarishi albatta miqdorning o‘zgarishiga ta’sir qiladi.

Mehnat bozori transformatsiyasi (MBT) fanida inson resurslarining miqdoriy tavsiflariga e’tiborni qaratadigan bo‘lsak, buni bir qancha yo‘nalishda baholash mumkin. Bu quyidagi jadvalda o‘z aksini topgan (4.2-jadval).

4.2-jadval

Mehnat bozori transformatsiyasi (MBT) fanida inson resurslarining miqdoriy ko‘rsatkichlari va ularning tavsiflari

T/r	Inson resurslari miqdoriy ko‘rsatkichlari-ning nomi	Inson resurslari miqdoriy ko‘rsatkichlarining tavsifi
1.	Inson resurslari (IR)ning umumiy soni	$\mathbf{Ir_j = \sum IR_i}$; Bunda: Ir_j – inson resurslari jami; $\sum IR_i$ – inson resurslarining alohida turlari
2.	Inson resurslari (IR)ning mutaxassisligi bo‘yicha tarkibiy tuzilishi (IR_{tt})	$\mathbf{Ir_{tt} = IR_i *100/Ir_j}$; Bunda: Ir_j – inson resurslari jami; IR_i – inson resurslarining alohida turlari
3.	Yangi qabul qilingan inson resurslarining ulushi (IR_u)	$\mathbf{Ir_u = IR_{yaq} *100/Ir_j}$; Bunda: Ir_j – inson resurslari jami; IRyaq – yangi qabul qilingan inson resurslarining soni.
4.	Ishdan ketgan inson resurslarining ulushi (IR_{ik})	$\mathbf{Ir_{ik} = IR_{yaq} *100/Ir_j}$; Bunda: Ir_j – inson resurslari jami; IRik – ishdan ketgan inson resurslarining soni.
5.	Tajribali inson resursla-rining ulushi (IR_t)	$\mathbf{Ir_t = IR_t *100/Ir_j}$; Bunda: Ir_j – inson resurslari jami; IRt – tajribali inson resurslarining soni (5 yildan ortiq bir kasbda faoliyat ko‘rsatayotgan xodimlar).
6.	Yangidan paydo bo‘lgan kasb-ga doir inson resurslari-ning ulushi (IR_{yair})	$\mathbf{Ir_{yair} = IR_{yair} *100/Ir_j}$; Bunda: Ir_j – inson resurslari jami; IRyair – yangidan paydo bo‘lgan inson resurslarining soni.
7.	Kerak bo‘lmay qolgan kasb-ga kasbga ega inson resurs-larining ulushi (IR_{kbk})	$\mathbf{Ir_{kbk} = IR_{kbk} *100/Ir_j}$; Bunda: Ir_j – inson resurslari jami; IR_{kbk} – kerak bo‘lmay qolgan kasbga ega inson resurslarining soni.

Ushbu jadvalda keltirilgan biz tavsiya qilgan ko‘rsatkichlarning yutug‘li tomoni shundaki, bulardan iqtisodiyotning barcha darajalarida, xususan, mikro, mezo va makro darajada ham foydalanish mumkin. Mazkur miqdoriy ko‘rsatkichlar natijalarni aniq o‘lchash bilan birga har biri bo‘yicha aniq xulosalar chiqarib, aniq boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyatlarini ham yaratadi.

Bularning qisqacha sharhiga to‘xtaladigan bo‘lsak, inson resurslari miqdoriy ko‘rsatkichlarining dastlabkisi “Inson resurslari (IR)ning umumiy soni” bo‘lib hisoblanadi. Korxona, firma yoki kompaniya o‘zining faoliyatini yuritishi uchun qancha xodim kerak bo‘lishi muhimdir. Chunki bularning har biri bitta ish o‘rni degan ma’noni bildiradi. Ish o‘rinlari qancha ko‘p bo‘lsa aholining bandligi ham shuncha oshib boradi va mos ravishda kambag‘allikning qisqarishi uchun tgishli sharoitlar yaratiladi.

Mehnat bozori transformatsiyasi (MBT) fanida inson resurslarining miqdoriy ko‘rsatkichlari va ularning tavsiflari tarkibida “Inson resurslari (IR)ning mutaxassisligi bo‘yicha tarkibiy tuzilishi (IRtt)” o‘rin olgan. Ushbu ko‘rsatkich inson resurslarining soni va hissasini ifodalaydi. Masalan, korxonada umumiy band insonlar qancha, shulardan menejerlar, yoki buxgalterlar, yoki mexaniklar qanchaligini ushbu ko‘rsatkich orqali aniqlanadi. Yana bir jihat ushbu mutaxassisliklardan qanchasi oliy ma’lumotli, qanchasi o‘rta maxsus ma’lumotga ega ekanliklari ham inobatga olinadi. Shuningdek ish tajribasiga ham tashxis qo‘yish mumk4in, barcha menejerlar ichida ish staji 5 yildan oshganlari qancha va 10 yildan oshganlari qancha va h.k.

MBTda “yangi qabul qilingan inson resurslarining ulushi (IRu)” ham muhim ahamiyatga ega. Chunki har yili mehnat bozoriga minglab oliy va o‘rta maxsus ma’lumotga ega mutaxassislar, oddiy, o‘rta maktabni bitirgan insonlar kirib kelmoqda. Bularni muntazam ravishda ish bilan band qilish mamlakatimizning iqtisodiy-ijtimoiy hayotida muhim ahamiyatga ega. Chunki ishsizlik kambag‘allikni, kambag‘allik esa o‘zi bilan bog‘liq hayot sifatining yomonlashuviga olib keladi. Bu bilan mamlakatimizning barqaror rivojlanishini ta’minlash murakkab bo‘lib qoladi.

Yana bir muhim ko‘rsatkich “Ishdan ketgan inson resurslarining ulushi (IRik)” hisoblanadi. Ishdan ketishning ham bir qancha sabablari bor. Biri oylik maoshining kamligi tufayli o‘z ixtiyori bilan ishdan ketsa, yana bir yo‘nalish hozirgi paytda ayrim kasblarning qisqarishi sodir bo‘lmoqda va mos ravishda yangi kasblarga ehtiyoj paydo bo‘lmoqda, bir qism xodimlar nafaqaga (pensiyaga) chiqishi oqibatida ham ishdan ketishi mumkin. Bu bo‘shagan ish joylarini to‘ldirish unchalik muammo emas, ammo yangi xodimlarni yangi ish o‘rinlarini yaratish evaziga qabul qilish bugungi kunda eng muhim tadbirlardan bo‘lmog‘i lozim. Yangi ish o‘rinlarini yaratib o‘nta va undan ortiq xodimni ish bilan ta’minlagan tadbirkorni ma’lum darajada rag‘batlantirish tizimini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq, de o‘ylaymiz.

Korxonaning barqaror rivojlanishi uchun “Tajribali inson resurslarining ulushi (IRt)” ham muhim ahamiyatga ega. Chunki tajribali insonlar yangi xodimlarga ustozlik qilishadi va o‘zlari ham barqaror faoliyatni ta’minlaydigan ko‘nikmani qo‘lga kiritgan bo‘ladi. Bu esa, yangi xodimlar uchun ibrat maktabi bo‘lib hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, har bir korxonada tajribali inson resurslari ardoqlanadigan, shu korxonaga mehr qo‘ygan holda faolit ko‘rsatadigan ruhiyatga ega bo‘lishlari lozimdir.

Bugungi innovatsion iqtisodiyotning rivojlanishi, raqamli iqtisodiyotning hayotimizga kirib kelishi deyarli har bir korxonada yangi kasblarni paydo qilmoqda. Shu tufayli “Yangidan paydo bo‘lgan kasbga doir inson resurslarining ulushi (IRyair)”ni topib, uni muntazam ravishda tahlil qilib borish ham kasbiy malakalarning oshib borishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu ayniqsa oliy o‘quv yurtlarida yangi kasblarning ochilishiga ularning taraqqiyotga mos holda o‘qitilishiga ham sabab bo‘ladi.

Yaqindagina oliy ma’lumotli, yuqori malakani talab qiladigan kasblar bugungi kunda innovatsion rivojlanish oqibatida kerak bo‘lmasdan qolmoqda. Shu tufayli “Kerak bo‘lmay qolgan kasbga ega inson resurslarining ulushi (IRkbk)”ni ham hamisha o‘rganib borish lozim bo‘ladi. Bunga birgina misol qilib, aholidan muntazam ravishda

soliq yig‘uvchilarni keltirish mumkin. Bular bitta hududda bir qancha bo‘lib, muntazam raishda yil bo‘yi soliq yig‘ish bilan shug‘ullanar edi. Hozir bunday xizmatga umuman ehtiyoj qolmadi. Hammasi raqamlashtirilgan tarzda inson ishttirokisiz amalga oshmoqda. Yana bir misol. Banklardagi kassalarda ham bir qancha xodimlar band edi. Topshirilgan pullarni qabul qilib, tarqatilishi lozim bo‘lgan pullarni tarqatish bilan shug‘ullanar edi. Hozirgi kunda ushbu ish bilan shug‘ullanuvchilarning soni ham minimallashib ulgurdi. Bu ham tezkor tarzda raqamli texnologiyalar orqali amalga oshirilmoqda.

Ko‘rinib turibdiki, MBTda inson resurslarining miqdoriy tasnifi, mehnat resurslarini boshqarishda muhim ahamiyatga ega ekan. Xuddi shunday inson resuslarining sifatiy tavsiflari ham korxonalar faoliyatini barqararor rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Shu tufayli ushbu masalaga ham e’tiborni qaratishni maqsadga muvofiq, deb topdik. Buni alohida qayd etish joizki, inson resurslarining miqdoriy tasnifi ma’lum ko‘rsatkichlar bilan raqamlarda ifodalansa, sifatiy ko‘rsatkichlari raqamlarda ifoda etilmoydi. Ammo insonning kasbini, tabiatini, bilim darajasini, farosati, malakasi va boshqalarni aniqlashda mantiqiy yondoshuv asosida qo‘llaniladi.

4.3-jadval

Mehnat bozori transformatsiyasi (MBT) fanida inson resurslarining sifatiy ko‘rsatkichlari va ularning tavsiflari

T/r	Inson resurslari sifatiy ko‘rsatkich-larining nomi	Inson resurslari sifatiy ko‘rsatkichlarining tavsifi
1.	Inson salomatligi	Inson resurslaridagi muhim sifatik ko‘rsatkich bo‘lib, kasbini bajarishga qodir salomatlikka ega bo‘lishi lozim.
2.	O‘z kasbi bo‘yicha mahorati	Agar xodim mahoratli bo‘lsa, bir kunda ikkita kishining ishini qilish mumkin. Mahoratli xodimda ishning sifati ham yuqori bo‘ladi.
3.	Aqliy qobiliyati va farosatliligi	Har bir insonda u yoki bu darajada aql bor, ammo uni qaerga ishlatishi muhim. Shu nuqtai nazardan farosatli xodim bo‘lsa, bular bebaho hisoblanadi.
4.	Mas’uliyatni (javobgarlikni) his qilishi orqali intizomli	Har bir xodimda mas’uliyat bo‘lmasa va mos ravishda javobgarlikni his qilmasa, bundaylarda intizom kuchli bo‘lmaydi. Intizomsiz odamning

	bo‘lish	o‘zining ishida unum bo‘lmaydi va boshqalarni ham shunga tortib boshlaydi.
5.	Jamoaning e’tiboriga sazovarligi	Jamoaning e’tiboriga sazovarlik uchta darajada bo‘ladi. Biri katta hurmatga sazovar, ikkinchisi bormisan bor, uchinchisi – shuning bo‘lmagani yaxshi edi, degan qarash shakllanadi. Birinchilardan bo‘lishligi oliyjanoblik belgisi.
6.	Yangi innovatsion g‘oyalar bilan yondoshishlik	Hozirgi integratsion sharoitda, raqobat kuchayib turgan pallada innovitsion g‘oyalar bilan yashamaslik – bu yutqazishlik bo‘lib hisoblanadi. Shu tufayli hozir ish tjriba bilan birga ilmni ham egallab, innovatsion ishlanmalarni o‘ylab borishga to‘g‘ri keladi.
7.	Jamoada yetakchilik (liderlik) qobiliyatining mavjudligi	Jamoada insonlar ko‘p, ammo rasmiy rahbar bitta. Biroq rahbar bo‘lmasada yetakchilik qudratiga ega bo‘lsa, odamlar rahbarning ko‘rsatmasi bilan birga shu yetakchi (lider)ning ko‘rsatmalarini ham bajarib boradi.

Ushbu jadvaldan ko‘rinib turibdiki, inson resurslari sifatiy ko‘rsatkichlari ham bir tizimga ega. Bulardan biri va eng muhimi bu – “Inson salomatligi” bo‘lib hisoblanadi. Agar inson salomat bo‘lmasa, boshqa barcha sifatiy ko‘rsatkichlaridan ham samarali natija chiqmasligi mumkin. Shu tufayli inson resurslaridagi muhim sifatiy ko‘rsatkichlardan asosiysi salomatlik bo‘lib hisoblanadi, har bir inson kasbini bajarishga qodir bo‘lgan salomatlikka ega bo‘lishi lozim. Bu degani, masalan, inson nogiron, u yaxshi chopib yura olmaydi, biroq kasbi bir joyda o‘tirib yozish-chizish bilan bog‘liq bo‘lsa, bemalol ushbu kasbning uddasidan chiqishi mumkin.

Korxonada har bir xodim “O‘z kasbi bo‘yicha mahoratli” bo‘lishini taqqozo qiladi. Agar xodim mahoratli bo‘lsa, u qiladigan ishda yoki uchastkada muammo bo‘lmaydi. Bunday insonlar bir kunda ikkita kishining ishini qilishi ham mumkin. Yana bir muhim jihat, mahoratli xodimda ishning sifati ham yuqori bo‘ladi. Shu tufayli inson resurslarining sifatiy tavsifida ushbu jihatga ham katta e’tibor qaratilishi lozim.

Har bir insonga Alloh tomanidan u yoki bu darajada aql berilgan. Ammo shu aqlda hamma insonlar ham maqsadga muvofiq foydalana

olmaydi. Shu tufayli insonning sifatiy tavsiflaridan biri "Aqliy qobiliyati va farosatliligi" hisoblanadi. Ammo barcha insonlar ham uni qaerga ishlatishi bilavermaydi. Biri asosiy e'tiborni molu-dunyo topishga, yana biri boshqa sohaga e'tiborni qaratsa, o'zini unutib qo'ygan insonda farosat yetarli darajada bo'lmaydi. Farosatsiz insonning jamoada qadri ham o'ziga yarasha bo'ladi. Shu nuqtai nazardan farosatli xodim bo'lsa, bular bebaho jamoada hisoblanadi. Chunki ular jamoani o'zining ibrati bilan ham tarbiyalab boradi.

Jamoada faoliyat ko'satadigan har bir xodim "Mas'uliyatni (javobgarlikni) his qilishi" lozim bo'ladi. Chunki har bir xodimda mas'uliyat bo'lmasa va mos ravishda javobgarlikni his qilmasa, bundaylarda intizom kuchli bo'lmaydi. Yuqorida ta'kidlanganidek, intizomsiz odamning o'zining ishida samara va unum bo'lmaydi. Bunday insonlar boshqalarni ham o'ziga jalb qilib intizomsizlikning kuchayishiga olib keladi. Inson resurslarining bunday sifatiy ko'rsatkichi yomon bo'lsa, albatta ishni orqaga tortadigan bo'ladi. Jamoada bundaylarga yo'l qo'ymaslik, bularni tarbiyalash lozim. Agar tarbiyaga moillik bo'lmasa, bundaylardan qutilish kerak bo'ladi.

Har bir insonning sifatiy belgilaridan biri "Jamoaning e'tiboriga sazovarligi" bilakn belgilanadi. Jamoaning e'tiboriga sazovarligi yuqorida ta'kidlanganidek, uchta darajada bo'ladi. Biri katta hurmatga sazovar bo'lib, jamoada e'zozlansa, ikkinchisi bormisan bor bo'lib yuradiganlar. Bundaylar birovning e'tiboriga ham tushmaydi va mos ravishda birovlarga ham e'tibor qilmaydi. Bular atrofga befarq odamlardir. Uchinchisi bezorilar deyish mumkin. Bularning bo'lmagani yaxshi edi, degan qarash shakllanadi. Bundaylarni yetakchi insonlar bilan tarbiyalash lozim bo'ladi, tarbiyaga ham moil bo'lmasa, ulardan qutilgani yaxshi. Nima bo'lganda ham hammani birinchi guruhdagilardan bo'lishligi oliyjanoblik belgisi. Shunga harakat qilib yashash kerak. Oramizda befarqlar ham bo'lmasligi lozim.

Hozirgi innovatsion rivojlanish avj olgan pallada butun dunyoda insonlarning "Yangi innovatsion g'oyalar bilan yondoshishlik" lozimligini taqozo qilmoqda. Hozirgi integratsion iqtisodiyot sharoitda, raqobat kuchayib turgan pallada innovitsion g'oyalar bilan yashamaslik

bir qancha salbiy oqibatlarga olib keladi. Birinchi galda korxona ham, davlat ham taraqqiyotda va raqobatda yutqazadi. Ushbu holat hozirgi sharoitda inqiroz sari qadam bo‘lib hisoblanadi. Shu tufayli hozirgi paytda har bir inson ish tjribasi bilan birga ilmni ham egallab, innovatsion ishlanmalarni o‘ylab topib, ularni amaliyotga tadbiq qilib borishiga to‘g‘ri keladi. Endigi taraqqiyotning, ish bilan bandlikning ham asosiy omili innovatsion bilimlar bo‘lib qoldi va shunday bo‘lib qoladi.Hozirgi sharoitda insonlarning “Jamoada yetakchilik qobiliyatining mavjudligi” uning ulkan muvoffaqiyatlaridan dalolatdir. Ma’lumki, jamoada insonlar ko‘p, ammo rasmiy rahbar bitta. Biroq rahbar bo‘lmasada yetakchilik qudratiga ega bo‘lgan kishilar ayrim hollarda ko‘pchilikni tashkil qiladi. Odatda odamlar rahbarning ko‘rsatmasi bilan birga shu yetakchi (lider)larning ko‘rsatmalarini ham bajarib boradi. Chunki liderlar ishning tez, soz va samarali bo‘lish yo‘llarini biladi va shuni o‘rgatib boradi. Bu albatta jamoani ulkan muvoffaqiyatlarga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda jamiyatning taraqqiyotida, insonlarning komoloatida inson resurslarining miqdoriy va sifatiy tavsiflari bilan belgilanadigan ko‘rsatkichlar muhim ahamiyatga ega ekan. Kelajakda korxonanning, hududning va davlatning muvoffaqiyatli faoliyati va barqaror rivojlanishini ta’minlash uchun inson resurslarining miqdoriy va sifatiy tavsiflariga katta ahamiyat berish lozim, deb hisoblaymiz. Bunga erishish uchun quyidagi tavsiyalarimiznni inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Bular:

Birinchidan, mehnat bozori transformatsiyasida (MBT) inson resurslarining miqdoriy ko‘rsatkichlari va ularning tavsiflarini amaliyotga joriy qilish maqsadga muvofiq. Agar ushbu ko‘rsatkichlar amaliyotda foydalanib, jarayon tahlil qilinsa, natijada aniq xulosalarni chiqarish imkoniyati yaratiladi. Bu esa ta’sirchan va real boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun asos bo‘ladi.

Ikkinchidan, mehnat bozori transformatsiyasida (MBT) inson resurslarining sifatiy ko‘rsatkichlari va ularning tavsiflari ham ta’sirchan boshqaruv qarorlarini qabul qilishga yordam beradi. Jamoada qancha insonlar o‘zlariga ham, ishga ham befarqligi, qancha qismida

mas'uliyatning yo‘qligi kabi bir qancha ko‘rsatkichlarga aniqlik kiritiladi va ushbu holatdan chiqish uchun tarbiya va ma'muriy mexanizmlardan foydalanishga to‘g‘ri keladi. Bularni bartaraf qilish yo‘li bilan ham barcha bo‘g‘in sub'ektlar faoliyatida yuqori samaradorlikka va barqaror taraqqiyotga erishish mumkin bo‘ladi.

O‘zini-o‘zi nazorat qilish va takrorlash uchun savollar:

1. HR-texnologiyalaridan foydalanish.
2. Ish beruvchilarning talablari va ehtiyojlarini aniqlash.
3. Ish o‘rinlarini optimallashtirish va ish jarayonlarini modernizatsiyalash.
4. Ish o‘rinlarini avtomatlashtirishning ahamiyati.
5. Innovatsion iqtisodiyot sharoitda mehnat bozorining xususiyatlari.
6. Xo‘jalik yurituvchi sub'ektlarda inson resurslarining faoliyati va mulkka egaligi bo‘yicha tabaqalanishi.
7. Innovatsion iqtisodiyot sharoitda mehnat bozorining xususiyatlari.
8. Mehnat bozoridagi qonunchilik va davlatning iqtisodiy siyosati.
9. Kreativ iqtisodiyot sharoitida har bir xodimda ijodkorlik fazilati.
10. Innovatsiyalar bilan bog‘liq bo‘lgan texnologiyalar.

V BOB. MEHNAT BOZORI TRANSFORMATSIYASIDA ICHKI VA TASHQI MIGRATSIYA BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI.

5.1. Mehnat bozorida malakali kadrlarga talabni o‘rganish masalalari

5.2. Mehnat bozori transformatsiyasida ichki va tashqi migratsiya bilan bog‘liq muammolar va ularning yechimlari.

5.3. Mehnat bozori transformatsiyasida ishlovchilar va ish beruvchilarning o‘zaro munosabatlari.

5.1. Mehnat bozorida malakali kadrlarga talabni o‘rganish masalalari

Mehnat bozorida malakali kadrlarni tayyorlash va ularning talablariga mos sharoitni yaratish masalalari mamlakatimiz rahbarining doimiy diqqat e'tiborida bo‘lib kelmoqda. Ushbu sohaga oid bir qancha farmon va qarorlar ham qabul qilindi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 8 aprelda "Mehnat migratsiyasi jarayonlarini takomillashtirish hamda xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi Farmoni e'lon qilindi, 2023-yil 12 oktyabrda qabul qilingan "kambag‘allikni qisqartirishda tadbirkorlik subyektlari bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik o‘rnatishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi PF-93-sonli farmoni, 2020-yil 22 oktyabrdagi imzolangan "Xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari va ularning oila a'zolarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish choralari to‘g‘risida"gi PF-5785 farmoni, 2023-yil 26 aprelda "Yoshlarning bandligiga ko‘maklashish hamda ularni doimiy ish bilan ta'minlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi farmoni, 2023-yil 25 yanvarda imzolangan "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi PQ-18-sonli farmoni, 2020-yil 22 oktyabrda imzolangan Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha

chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5812-sonli farmonlari qabul qilingan. Bularning hammasini bajarish ustida katta ishlar amalga oshirilmoqda. Buni tadqiq qilish zaruriyati ham mavjudligi mazkur mavzuning o‘ta dolzarb masalaning yechimiga bag‘ishlanganligidan dalolatdir.

Jamiyat muntazam ravishda rivojlanib borayotgan bir sharoitda kadrlarga bo‘lgan talab ham o‘zgarib boradi. Dastlab iqtisodiyot shakllangan paytda asosan dehqonlar, chorvadorlar zarur bo‘lgan. Asta-sekinlik bilan texnikka joriy qilinishi bilan texnikaga mos kadrlarga zaruriyat paydo bo‘ldi. Shu tariqa rivojlanish malakali kadrlar evaziga sodir bo‘lsa, bu rivojlanish jarayoni malakali kadrlarni ham talab qiladi. Ushbu bog‘liqlik quyidagi rasmda keltirilgan (5.1-rasm).



5.1-rasm. Mehnat bozorida malakali kadrlarning vujudga kelishi va ularning iqtisodiyotning rivojlanishi bilan bog‘liqligi

Rasmdan ko‘rinib turibdiki, malakali kadrlar iqtisodiyotning rivojlanishiga olib kelsa, iqtisodiyotning rivojlanishi malakali kadrlarga talabning oshishiga ham olib keladi. Masalan, yer haydaydigan kishi traktorchi bo‘lishi kerak. Katta tajribaga ega dehqon ham bu traktorni boshqara olmasligi mumkin. Agar zamonaviy holatga keladigan bo‘lsak, juda ko‘p ma’lumotlar axborot texnologiyalari orqali olinmoqda va qayta ishlanmoqda. Buni oddiy shu soha mutaxassislari qila oladi, ammo boshqa soha bo‘yicha professor bo‘lsa ham axborot texnologiyalardan foydalanish ilmini o‘rganmagan bo‘lsa bu ish qo‘lidan kelmaydi. Shu tufayli har bir soha o‘ziga xos malakani talab qiladi.

Malakali kadrlar, ya'ni ma'lum bir sohada professionallashgan kadrlar, turli xil yo'nalishlarda bo'lishi mumkin. Ushbu yo'nalishlarning ayrimlarini qarab chiqamiz. Jumladan, sog'liqni saqlash sohasini oladigan bo'lsak, bunga ham turli yo'nalishdagi mutaxassislar kerak bo'ladi. Sog'liqni saqlash sohasiga oid kadrlar, umuman olganda shifokorlar, hamshiralik bilan shug'ullanuvchilar va tibbiy yordam ko'rsatuvchilar, tibbiy tadqiqotchilar va boshqa sog'liqni saqlash sohasidagi mutaxassislarni misol keltirish mumkin. Bularning har biri yana turli yo'nalishlarga ega. Jumladan shifokorlar terapevtlar, xirurglar, nevropotologlar, allergologlar kabi o'nlab yo'nalishlarga ega. Har bir yo'nalish o'zining kasbini qilishiga to'g'ri keladi. Masalan bitta tumanga 50 ta shifokor kerak. Bu yerda 55 ta shifokor bor. Ammo orasida xirurg bo'lmasa, ushbu soha oqsoq holda bo'ladi. Shu tufayli har bir yo'nalish bo'yicha o'ziga mos kadrlar bo'lish kerakligini taqozo qiladi.

Ko'rinib turibdiki, bitta sohada ham turli yo'nalishdagi malakali kadrlar zarur bo'ladi. Shifokorlarning turlari ixtisosliklari va faoliyat sohalariga asosan shakllanadi. Quyida shifokorlarning asosiy turlarini keltiramiz. Juda ko'p mutaxassis asosan terapevtlar bo'ladi. Bular asosan umumiy kasalliklarni davolash va profilaktika qilish bilan shug'ullanadi. Xirurglar inson tanasidagi kasal nuqtalarni xirurgik operatsiyalarni o'tkazish bilan shug'ullanadi. Xuddi shunday pediatorlar ham o'z yo'nalishiga ega. Bular asosan, bolalarning sog'ligi bilan bog'liq muammolarni hal qiladi. Kardiolog shifokorlar asosiy e'tiborini yurak va qon tomirlari kasalliklarini aniqlash va davolashga qaratadi. Neyropsixiatrlar esa miyaning organik shikastlanishlari natijasida kelib chiqadigan ruhiy kasalliklarni o'rganish va davolash bilan shug'ullanadi. Bular tarkibida otoringologlar (LOR) ham bor. Bular quloq, burun va tomoq kasalliklari bilan bog'liq muammolarni aniqlaydi va davolaydi. Tibbiyotdagi bir yo'nalish dermatolog bo'lib, ular terini va teriga tegishli kasalliklarni davolash bilan shug'ullanadi. Ayollarda mavjud kasalliklarini aniqlash va davolashda maxsus yo'nalish ginekologlar shug'ullanadi. Shunga yaqin kasalliklardan birini, ya'ni jinsiy a'zolari bilan bog'liq kasallarni davolaydigan

urologlar ham faoliyat koʻrsatadi. Endokrinologlar esa asosan, endokrin tizimi va gormonlar bilan bogʻliq kasalliklarni aniqlash va davolash bilan mashgʻul boʻlishadi. Rentgen koʻriklari va boshqa radiologiya usullarini qoʻllab-quvvatlab, diagnoz qoʻyadigan shifokorlar radiolog, deb nomlanadi. Hozirgi paytda ehtiyojdan kelib chiqib, sport shifokori ham paydo boʻldi. Bular sportchilarning sogʻligʻini kuzatish va kasalliklarini davolash bilan shugʻullanadi.

Bugungi kun nuqtai nazaridan, ushbu roʻyxat toʻliq boʻlmasligi mumkin, chunki shifokorlarning turlari va ularning ixtisoslashuvi doimiy ravishda kengayib bormoqda. Masalan, oldin jarrohlik amallari asosan tanani kesib, kasalliklarni olib tashlash bilan shugʻullanar edi. Endilikda koʻpgina jarrohlik amallari kesmasdan amalga oshirilmoqda. Xuddi shunday holat boshqa yoʻnalishlarda ham sodir boʻlmoqda. Demak, mehnat bozorida sodir boʻlayotgan transformatsiya jarayoni uzluksiz oʻzgarishda va takomillashuvda davom etmoqda.

Hozirgi innovatsion iqtisodiyot sharoitida raqamli texnologiyalarga asoslangan yangi tarmoq shakllandi. Bunda asosan IT sohasiga oid kadrlar, xususan, dasturchilar, tizim administratorlari, ma'lumotlar bazasi mutaxassislari kabi strategik kadrlar xizmat qiladi. Ushbu soha MBTda butunlay yangi mutaxassislarga ehtiyojni oshganligini inobatga olib lozimligidan dalolat beradi.

Iqtisodiyotning rivojlanishi bevosita moliyaviy resurslarga ham bogʻliq. Buni yuritadigan va boshqaradigan moliyachilar ham kerak boʻlmoqda. Hozirgi kunda zamon talabiga javob beradigan moliya mutaxassislari, iqtisodchilar, auditorlar va investitsiya maslahatchilari lozim boʻlmoqda. Shu oʻrinda marketing va reklama ishlari uchun ham marketing mutaxassislari, brend menejerlari va marketologlar ham lozim boʻlmoqda. MBTda ushbu kadrlarga ehtiyojni ham inobatga olishni taqozo qiladi.

Hozirgi mamlakatimizning jadal rivojlanayotgan sharoitida boshqa kasblar bilan birga muhandislik kasbini talab qiladigan sohasiga ham talab kuchaymoqda. Qandaydir muhandislik sohasida, jumlalan, qurilish, kimyo, mexanika va elektrotexnika kabi sohalarida ham mutaxassislar kerak boʻladi. Bu yerda shuni inobatga olish lozimki,

umumiy tarzda muhandis kasbi, deb atalgani bilan ular yo‘nalishi va tarmoqlariga qarab bir-biridan keskin farq qiladi. Masalan, qurilish tashkilotlari muhandislari bilan, paxtani qayta ishlaydigan zavodlar muhandislari bir-biridan keskin farq qiladi. Shu tufayli MBTda qayerga qanday kadrlar kerakligi aniq belgilanib olishlari lozim.

Kadrlar tarkibida boshqaruv bilan bog‘liq kadrlar ham muhim rol o‘ynaydi. Bular tarkibiga menejerlar, loyiha menejerlari, kadrlar bo‘limi mutaxassislari kabilarni kiritish mumkin.

MBTda ijodiy sohadagi kadrlar ham o‘ziga xos o‘ringa ega. San’atkorlar, dizaynerlar, musiqachilar va yozuvchilar. Bu kadrlar o‘z sohalarida yuqori malakaga ega bo‘lib, ishlash jarayonida ijodkorliklarini va kasb mahoratlarini namoyon etadilar. Masalaga kreativ yondoshadigan kasblardan biri aynan shulardir.

Bugungi kunda hayotiy zaruriyatdan kelib chiqib, tabiatni o‘rganuvchi malakali kadrlari ham kerak bo‘lmoqda. Bular tabiat manzaralari, hayvonlar, o‘simliklar va ekologik muhitni o‘rgatish uchun safarbar qilinadi. Bunday kadrlarni tayyorlaydigan o‘rta va oliy ta’lim tashkilotlari ham faoliyat ko‘rsatadigan bo‘lishlari lozim.

Yana bir yo‘nalish portretni shakllantiruchi kadrlar bo‘lib hisoblanadi. Bular odamlarning yuz tuzulishi va shu bilan birga shaxsiy xususiyatlarini o‘z ichiga oluvchi kadrlardan iboratdir. Xuddi shunday guruhga peyzaj sohasi bo‘yicha ham kadrlar lozim. Bular keng manzaralarni ko‘rsatuvchi, mukammal tabiatni sur’atlarda namoyish qilish uchun zarurdir. Sport sohasiga oid malakali kadrlar ham, yuqorida ta’kidlanganidek, sport tadbirlarini, harakatini va o‘zgarishlarini ko‘rsatish uchun zarur bo‘lganlardir.

Kashfiyotlarni targ‘ib qiluvchi kadrlar ham yangi topilmalarni, ilmiy tadqiqotlar yoki texnolgiyalarni ko‘rsatish uchun zarur bo‘lgan kadrlardir. Hozirgi paytda kamdan-kam uchraydigan manzaralar va tabiatning chaqmoq lahzalarini tasvirlash uchun hayratlanarli kadrlar ham paydo bo‘lgan. Bular ham maxsus tayyorgarlikdan o‘tishni talab qiladi.

Ko‘rinib turibdiki, hozirgi sharoitda MBTda kadrlarning aksariyat qismi yangi yo‘nalishlarga ega. Bularga erishish uchunalbatta barcha

yangi kasblarning ro‘yxati shakllanib borishi va shunga mos kadrlarni tayyorlash ham ko‘zda tutilishi lozim. Bo‘ladigan, yangilanadigan sohalarga kadrlarni tayyorlash oldindan boshlanishi kerak. Shu tufayli MBTda yangi kadrlarni yarvtishning prognoz ko‘rsatkichlari ham ishlab chiqilgan bo‘lishi lozim.

5.2. Mehnat bozori transformatsiyasida ichki va tashqi migratsiya bilan bog‘liq muammolar va ularning yechimlari

Dunyo miqyosida mehnat bozori transformatsiyasida ichki va tashqi migratsiya bilan bog‘liq muammolar mavjud. Buning ijobiy tomonlari bilan birga ayrim muammolari ham mavjud. Shu tufayli har bir mamlakat o‘zining ijtimoiy-iqtisodiy ahvolidan kelib chiqib ushbu muammolarning yechimlari bilan shug‘ullanib kelmoqdalar. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4 aprelda “Mehnat migratsiyasi jarayonlarini takomillashtirish hamda xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-59 sonli Farmoni e’lon qilindi. Ushbu masala O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining e’tiborida ham bo‘lib kelgan. Xususan, ushbu tashkilotning 2023-yil 20 noyabrda “Tashqi mehnat migratsiyasi jarayonlarini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari haqida” KQ-622-IV-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qarorning 2-ilovasi bevosita “Tashqi mehnat migratsiyasi bilan bog‘liq muammolarni o‘rganish hamda sohaga oid qonunchilikni takomillashtirish masalalari bo‘yicha “YO‘L XARITASI”ga bag‘ishlangan.

Mehnat migratsiyasi deganda, odamlarning mehnat bozorida qatnashishi uchun bir mamlakatdan boshqa mamlakatga ko‘chishi tushuniladi. Ular o‘z mehnat faoliyatini amalga oshirish maqsadida, ya’ni ishlash, moliyaviy manfaat olish, iqtisodiy sharoitni yaxshilash uchun boradi yoki keladi. Mehnat migratsiyasi turli sabablarga bog‘liq bo‘ladi. Bu sabablar quyidagilardan iboratdir.

Birichidan, ko‘plab odamlar ishsiz yoki past maoshli ish joylari bo‘lgan mamlakatlardan boshqa mamlakatlarga borib, ko‘proq maosh olib farovonligini ta’minlash maqsadi bo‘ladi. Bundaylar kattaroq oylik

maosh to‘laydigan va ish o‘rinlariga ega mamlakatlarga borishadi. Shu yo‘l bilan oilasidan bir muddat uzoqda bo‘lsada kelajakda yaxshi shart-sharoitlarga ega bo‘lib oladi. Ushbu holat shu mamlakatdagi boshqa kambag‘al yashayotgan kishilarga ham ibrat bo‘lib, ular ham shunday yo‘lni tutadi. Shu yo‘l bilan oilasining imkoniyatlarini yaxshilab olishadi.

Ikkinchidan, odamlar iqtisodiy vaziyatlarni, jamiyatda amalga oshirilayotgan islohotlarni inobatga olgan holda, yollanma ish haqining yuqori bo‘lishi yoki yashash sharoitlarini yaxshilash uchun vaqtincha boshqa mamlakatlarga borib ishlashga rozi bo‘ladi. Chunki unda ko‘p va samarali mehnat qilish imkoniyati mavjud bo‘lgan paytda foydalananib qolishni, ko‘proq mablag‘ topib kelishni maqsad qilib oladilar. Bunday iqtisodiy vaziyat mehnat bozorida tashqi migratsiyaning vujudga kelishiga sabab bo‘ladilar.

Uchinchidan, mehnat migratsiyasi odamlarning madaniyatlari orasidagi jipsligiga ham bog‘liq bo‘ladi. Masalan, bitta mamlakatda asosiy millatdan tashqari boshqa ko‘pgina millat vakillari ham yashashadi. O‘zining millatidagi mamlakatda ahvol yaxshi bo‘lsa, albatta u bu davlatni tark etib, o‘zining millatiga borish ishtiyoqi bilan ko‘chib ketishi mumkin. Bunga biz mustaqillikka erishgan yillarimizda guvoh bo‘ldik. Birinchi yillarda ko‘p millatlar o‘z yurtiga ko‘chib ketishdi.

To‘rtinchidan, mamlakatdagi ijtimoiy va siyosiy vaziyat ham mehnat migratsiyasiga sabablardan biri hisoblanadi. Bunga mamlakatning notinchligi, aholining farovon va xotirjam yashash imkoniyatining yetarli emasligi kabi yashash muammolarining mavjudligi va siyosiy beqarorliklar ham sabab bo‘lishi mumkin. Ushbu holat ham bir qancha mamlakatlarda mustaqillikning birinchi yillarida ko‘zga tashlandi.

Ko‘rinib turibdiki, mehnat migratsiyasi, albatta, iqtisodiy-ijtimoiy hayotimizga ijobiy va salbiy ta’sirlar ko‘rsatishi mumkin. Misol uchun, mamlakatga kelgan mehnat migrantlari yaxshi mutaxassislar bo‘lsa, iqtisodiyotni rivojlantirishi imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga undan yangi kasblarni, kasbiy mahoratlarni o‘rgaib olish ham mumkin.

Masalan, bugungi kunda bizga yuqori malakali xirurglar kelib, o‘ta murakkab jarrohlik amallarini qilimoqda. Bular bir vaqtning o‘zida bizdan yaxshigina mablag‘ ishlab oladi, Biroq o‘zimizning kadrlarimiz ham ushbu amallarni o‘rganib olishadi. Shu jihatdan mehnat migratsiyasi ham ijobiy, ham salbiy jihatlarga ega.

Mehnat bozoridagi migratsion jarayon ikkita yo‘nalishga bo‘linadi: **tashqi migratsiya va ichki migratsiya**. **Tashqi migratsiya** deganda mamlakatlar o‘rtasida odamlarning ishlashi maqsadida bir mamlakatdan boshqa mamlakatga mehnat qilish uchun tashrif buyurishi tushuniladi. Oldinlari mehnat migratsiyasi stixiyali tarzda amalga oshirilar edi. Natijada juda ko‘p fuqarolarimiz xorijiy mamlakatlarda og‘ir ahvolda qolib ketgan damlari ham bo‘lgan. Endilikda bunga ham davlatimizning katta e’tibori qaratilmoqda. Tashqi migratsiyaga tayyorgarlik jarayonida u yerdagi sharoitlar, mehnat muhiti, qaysi sohalarda ishlashi, unga mutaxassisligining to‘g‘ri kelishi, migrantlarning huquqlari va ularni muhofaza qilish mexanizmi inobatga olinadi. Tashqi migratsiya natijasida odamlar yangi mehnat sharoitlarini, undagi qoidalar, munosabatlar, yashash sharoitlarini o‘rganib ham oladi.

Tashqi migratsiya bilan bog‘liq jarayonlar o‘z ichiga bir qancha sabablarni qamrab oladi.

Ko‘p hollarda mehnat migrantlari o‘z mamlakatlaridagi iqtisodiy vaziyatlarlardan kelib chiqib, tashqi migratsiyani tanlashadi. Endilikda bu jarayon ma’lum ma’noda tartibga olinib, davlatimizning e’tiborida bo‘ladigan holat yuzaga keldi. Hozirgi kunda ayrim mamlakatlar ma’lum kasblardagi mutaxassislarga, yoki oliy ta’limga ega bo‘lgan shaxslarga ehtiyoj sezganligi uchun migrantlar qabul qilish istagini bildirmoqda. Jumladan Germaniya va boshqa Yevropa mamlakatlarida aholining o‘sishi mavjud ish o‘rinlarini band qilishga etishmayotganligi tufayli ularga mehnat migrantlari kerak bo‘lmoqda. U yerda bemalol ishlashi uchun hozir ma’lum kasblarga va tilni o‘rganishga o‘qitilmoqda va tayyorlab jo‘natilmoqda. Ushbu holat ishlashi uchun ham, yashashi uchun ham yaxshigina imkoniyatning yaratilganligidan dalolatdir.

Tashqi migratsiyaning mamlakatimiz iqtisodiy-ijtimoiy hayotiga ham ta'siri katta. Ular ishlab topgan mablag'larining asosiy qismini mamlakatimizga, ya'ni o'z oilalariga yuboradilar. Bu, ko'p mamlakatlar, xususan biz uchun ham muhim iqtisodiy manba bo'lib xizmat qiladi. Bu mablag'lar ish kuchini eksportidan tushgan mabag' sifatida mamlakatimiz YaIMning ham ma'lum qismini (7-10 foizini) tashkil qiladi.

Hozirgi kunda tashqi migratsiya, ayniqsa ilm-fan va texnika sohalarida, mahalliy mehnat bozoriga ham ta'sir qiladi. Hozirgi raqamli iqtisodiyot sharoitida ko'pgina yoshlarimiz frilans sifatida shu yerda turib xorijiy davlatlarda ishlamoqdalar va yaxshigini maoshga ega ham bo'lmoqdalar. Ko'rinib turibdiki, iqtisodiy vaziyatning o'zgarishi insonlarga talabni ham o'zgartirmoqda va mos ravishda insonlarning takomillashuvi iqtisodiyotni ham yuksaltirmoqda.

Mehnat bozorida ichki migratsiya ham ma'lum ma'noda e'tiborni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan ushbu masalaga ham e'tiborni qaratamiz. **Mehnat bozorida ichki migratsiya deganda, odamlarning o'z mamlakatlari ichida bir mintaqadan boshqa mintaqaga o'tib ishlashi tushuniladi**. Mehnat bozorida ichki migratsiya, odatda, hududlardagi mehnat muhitiga, ish o'rinlarining mavjudligiga va iqtisodiy imkoniyatlarning holatiga bog'liq. Shu omillarga qarab, ishlovchilar o'z hududidan boshqa hududga borib ishlashga majbur bo'ladi. Masalan, qurilish ishlarini oladigan bo'lsak, bir hududda bunaqa ishlar yo'q, ammo boshqa hududda juda katta ishlar ketayotgan bo'lsa, albitta o'sha hududga borib ishlash istagi uyg'onadi va buni amalga ham oshiradi.dan. Odamlarning istagi ma'lum miqdorda pul topib, ro'zg'orini but qilish uchun bu imkoniyatdan foydalanish maqsadida amalga oshiriladi.

Shu maqsadda odamlar ko'proq ish haqi yuqori bo'lgan yoki iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlari kengroq bo'lgan hududlarga borib ishlashlari, hatto ko'chib o'tishlari ham mumkin. Bunday holatlar, masalan, shaharlarga yoki sanoat markazlariga ko'chishni o'z ichiga oladi.

Kuzatuvlar ko‘rsatdiki, ichki migratsiya bir vaqtning o‘zida ijobiy va salbiy tomonlariga ham ega. Buning ijobiy tomonlari quyidagilardan iborat:

1. Jamiyatning iqtisodiy rivojlanishiga erishtiradi.

2. Bandlikni ko‘paytirish evaziga ishsizlik darajasining pasayishiga olib keladi.

3. Ish bilan band bo‘lish evaziga kambag‘allik darajasining ham qisqarishi ro‘y beradi.

4. Mehnat resurslarining samarali taqsimotini ta’minlanadi.

Mehnat bozori transformatsiyasida ham ichki migratsiyaning salbiy tomonlari ham mavjud. Bularga quyidagilar kiradi:

1. Migrantlar uchun yangi ishga joylashishda qiyinchiliklar bo‘lishi mumkin.

2. Mahalliy jamoalarda ijtimoiy qurilish va infratuzilmalarda sodir bo‘ladigan bosim ham bo‘lishi mumkin.

3. Mahalliy an’analarning o‘zgarishi ro‘y berishi ham mumkin.

Ichki migratsiya, shuningdek, aholini saqlash, shaharlashtirish va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatadi. Tashqi migratsiyada ayrim hollarda ayrim kishilarning Vatanni tark etishlari uchun ham sabab bo‘lishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, mehnat bozori transformatsiyasida ichki va tashqi migratsiya bilan bog‘liq muammolar ham va ularning yechimlari ham mavjud. Faqat ushbu jarayonga davlatlarning ma’lum darajada e’tiborini kuchaytirish lozim ekanligini ko‘rib turibmiz.

5.3. Mehnat bozori transformatsiyasida ishlovchilar va ish beruvchilarning o‘zaro munosabatlari

Bugungi ish o‘rinlari etishmayotgan bir pallada ishlovchilar bilan ish beruvchilar o‘rtasidagi munosabat o‘ta muhim. Chunki, ish beruvchi xohlagan o‘ziga kerak bo‘lgan mutaxassisni ishga oladi. Biroq unga zarur bo‘lgan mutaxassis bir gala ishga muhtoj kishilar orasida bo‘lmasligi mumkin. Bu ikki tomongan ham murakkablik tug‘diradi. Ishlovchiga ish yo‘q, ish beruvchiga unga kerak bo‘lgan mutaxassis

kadr yo‘q. Endi o‘rtaga ta’limni jalb qilishga to‘g‘ri keladi. Bular o‘rtasidagi munosabat quyidagi rasmda o‘z ifodasini topgan (5.2-rasm).



5.2-rasm. Beruvchilar, mutaxassislar tayyorlaydigan ta’lim tashkilotlari va ishlovchi o‘rtasidagi munosabatlar ketma-ketligi

Ish beruvchilarga o‘zilarining ishlarini qiladigan mutaxassislar kerak. Ammo ishlash istagida juda ko‘p kishilar bo‘lishi mumkin, agar ular orasida tegishli mutaxassis bo‘lmasa, u bilmagan odamni ishga ola olmaydi. Shu tufayli ta’lim tizimi juda zarur soha hisoblanadi. Ammo ta’lim tashkilotlarida ham bunday mutaxassislar tayyorlanmayotgan bo‘lsa, jamiyatning inqiroziga sabab bo‘lishi mumkin. Shu tufayli jamiyatning o‘zgarishi, iqtisodiyotning takomillashib borishi kadrlarning ham ta’lim tizimining ham, o‘qitiladigan mutaxassislarning ham tizimli ravishda takomillashuvini taqozo qiladi. Bu holatga munosib bo‘lish, taraqqiyotning barqarorligini ta’minlaydi. Ko‘rinib turibdiki, mehnat bozori transformatsiyasida ishlovchilar va ish beruvchilarning o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlari dolzarb masalalardan biriga aylangan.

Mehnat bozori transformatsiyasida ishlovchilar va ish beruvchilar o‘rtasida o‘zaro munosabatlar ishlovchilarni ishga olishdan boshlanadi. Ushbu munosabatlar adolatli va samimiy bo‘lsa, ushbu jamoadagi ma’naviy muhit ham talab darajasida bo‘ladi. Bularni to‘g‘ri anglash uchun ishlovchilar va ish beruvchilar kimlar, degan savoga javob berish lozim.

Ishlovchilar deganda, tashkilotlarda, kompaniyalarda yoki korxonalarda belgilangan vazifalarni bajaradigan, mehnat qilish uchun rasman ishga qabul qilingan odamlar tushuniladi. Ularning asl maqsadi – tashkilotning mahsulotlari yoki xizmatlarini mehnat

qilish orqali amalga oshirishdan iboratdir. Ishlovchilarni ikki asosiy kategoriyaga bo‘lish mumkin:

Birinchisi, doimiy ishlovchilar bo‘lib, bu odamlar tashkilotda doimiy ishlaydiganlar hisoblanadi. Bularning mehnati shartnomalar asosida yoki mehnat kodeksida ko‘zda tutilgan tartib-qoidalar asosida amalga oshiriladi. Ularga odatda qat’iy belgilangan maosh, ijtimoiy imtiyozlar, ta’til, va boshqa huquqiy kafolatlar beriladi.

Ishlovchilar tashkilotning barcha darajalarida bo‘lishi mumkin, ular orasida:

- Menejerlar
- Injenerlar
- Moliya mutaxassislari
- Marketing mutaxassislari
- G‘aznachilar
- Texnik xizmatchilar
- Ta’mirlovchi mutaxassislar
- Frilanserlar (musobaqaviy shartlarda ishlaydigan yoki mustaqil faoliyat ko‘rsatadigan) kompyuter bilan masofadan boshqarib turgan holda ishlaydiganlar.

Bundan tashqari, ishlovchilar har qancha soha va lavozimlarda ham faoliyat yuritishlari mumkin, bu ularning malakasi, tajribasi va tashkilotning talablariga bog‘liq bo‘ladi.

Ikkinchisi, yollanib ishlovchilardan iborat. Yollanib ishlovchilar (ingliz tilida: “contract workers” yoki “freelancers”) — biror tashkilotda doimiy ish joyi bo‘lmagan, balki belgilangan loyiha yoki vaqt davomida ishlovchi odamlardir. Ular o‘z mehnatini ta’riflangan shartlar asosida berishadi va odatda maksimal ma’lum muddatga yoki aniq nazarda tutilgan vazifalarni bajarish uchun jalb qilinadi. Bular ma’lum vaqt davomida yoki maxsus loyihalar uchun jalb qilinadi. Bularga mavsumiy ishlaydiganlar ham kirishi mumkin. Bular ham shartnoma (yozma, ayrim hollarda og‘zaki) asosida faoliyat ko‘rsatadi.

Yollanib ishlovchilarga quyidagilar kirishi mumkin:

1. Frilanserlar (buning izohi yuqorida berildi).

2. Loyihaviy ishchilar: Mustaqil holatda tashkilotlarga loyiha asosida ma'lum ishni, ma'lum muddada bajarishga kelishgan holda ishlashadi.

3. Ta'milovchi ustalar: Xonadonlarda, korxonalarda ma'lum jihoz va buyumlarni ta'mirlsh uchun yollanib ishlaydilar.

4. Sohalar bo'yicha xizmat ko'rsatuvchilar: Bular keksa odamlarga qarash, uylarni yig'ishtirish kabi bir martalik xizmatlar bilan shug'ullanadilar.

5. Sotuvchilar: Odamlar tomonidan ishlab chiqilgan ma'lum tovarlarni sotib berish bilan shug'ullanadi.

6. Mardikorlar: Ushbu odamlar asosan taklif qilingan holda biror ish bilan uni tugatguncha shug'ullanishadi va shundan foyda oladilar.

Ish beruvchilar deganda insonlar yoki tashkilotlar, jumladan kompaniyalar, davlat tashkilotlari, notijorat tashkilotlari va boshqa yuridik shaxslar, o'z sohasidagi faoliyatlarni amalga oshirish uchun ishchilarni jalb qiluvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar tushuniladi.

Ish beruvchilarning asosiy vazifalari bir qancha bo'lib, bular jamiyatning barqarorligiga xizmat qiladi.

Birinchi galda ular ish o'rinlari yaratish uchun mas'ul. Ish beruvchilar ish o'rinlarini tashkil qilgan holda ishchilarni jalb qilib, ish bilan ta'minlaydilar. Shu yo'l bilan bular mamlakatimizda ishsizlikni kamaytirish orqali kambag'allikning ham qisqarishiga xizmat qiladi.

Ikkinchi muhim vazifasi ish beruvchilarning jamoani boshqarishdan iborat. Ish beruvchilar ishchilarning ish haqini, shartlarini, manfaatlarini va faoliyatdagi intizomni boshqaradilar. Bunda ish beruvchilar ishlovchilar o'rtasida munosabat sodir bo'ladi. Ishlovchilar bilan ish beruvchilarningg o'zaro munosabatlari ham o'ta samimiy va adolatli bo'lishlari lozim. Aks holda kutilgan samaraga erishish qiyin.

Uchinchi muhim vazifasi ish beruvchining butun faoliyat va jarayonlarda tejamkorlikni ta'minlashga qaratilgan. Bunda korxonalarning moddiy ne'matlari, pul mablag'lari, eng muhimi vaqtni ham tejalishiga katta ahamiyat berilishi lozim.

To‘rtinchidan, har bir kadrlarning rivojlanishi ham taqozo qiladi. Ularning vazifalariga kadrlarni tayyorlash bilan birga malakasini uzluksiz oshirib borish ham lozim bo‘lsa, tayyorgarlik va rivojlantirish kabi ishlar kirishi mumkin.

Ish beruvchilar turli sohalarda bo‘lishi mumkin, biroq Qayerda bo‘lmasin ishlovchilardan samarali foydalani ishlarning muvaffaqiyatga erishishida muhim rol o‘ynaydi.

Ishlovchilar (ishchilar) va ish beruvchilar o‘rtasidagi munosabatlar bir qancha muhim elementlardan iborat bo‘lib, ularning samarali ishlashini va tashkilotning umumiy manfaatlarini ta’minlashini ko‘zada tutadi. Bu munosabatlarning asosiy jihatlari quyidagilardan iborat:

Birinchisi ular o‘rtasida **shartnomalar va turli shakldagi kelishuvlar** bo‘ladi. Ishlovchilar va ish beruvchilar o‘rtasidagi kelishuvlar ishlash shartnomalari, xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha bayonnomalar, ishlash jarayonidagi turli shartlar ham kelishiladi.

Ikkinchidan, **ish haqi va boshqa rag‘batlantirishlar** ham shu ikkala tomonning o‘zaro munosabatlarida muhim rol o‘ynaydi. Ish beruvchi ishlovchilarga ish haqi, bonuslar, nafaqalar, ta’til va boshqa rag‘batlantirishlarni taklif etadi. Bu manfaatlar samaradorlik va ishchanlikni saqlashda muhim rol o‘ynaydi.

Uchinchidan, ular o‘rtasidagi **faoliyat yuritish jarayonidagi aloqa** ham muhim ahamiyatga ega. Ishlovchilar bilan ish beruvchilar o‘rtasida aniq, ochiq va samarali aloqa bo‘lishi kerak. Shuningdek, ish beruvchilar ishchilarning fikrlarini eshitish va ularning muammolariga yechim topishga harakat qilishlari ham ishning samarali kechishida muhim ahamiyatga ega.

To‘rtinchidan, o‘z **xodimlarini malakasini oshirish va o‘qishi** uchun tegishli sharoit yaratib berishlari ham muhim ahamiyatga ega. Ish beruvchilar o‘z ishchilarini rivojlantirish uchun o‘quv dasturlari, seminarlar, treninglar taklif etadilar, bu esa ishchilarning malakasini oshrishga yordam beradi.

Beshinchidan, ular o‘rtasida **intizomiy munosabatlar** ham o‘rnatilgan bo‘lishi lozim. Ish beruvchilar va ishchilarning o‘rtasida

o‘zaro sog‘lom va samimiy munosabatlarni anglay olish, o‘z imkoniyatlari va manfaatlari haqida ikki taraf ham aniq tasavvurga ega bo‘lishlari kerak.

Oltinchidan, ikki tomon ham o‘zlarining **huquqlar va majburiyatlar** doirasida munosabatda bo‘lishlari lozim. Ishlovchilarning huquqlari (masalan, xavfsizlik, mehnat shartlari) va ish beruvchilarning majburiyatlari (masalan, ishlash sharoitlarini yaxshilash) o‘rtasidagi munosabatlarni to‘g‘ri tartibda saqlanishi kerak.

Bular o‘rtasidagi ushbu elementlar ishlovchilar va ish beruvchilar o‘rtasidagi munosabatlarning samaradorligi va uzoq muddatli aloqalarini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

O‘zini-o‘zi nazorat qilish va takrorlash uchun savollar:

1. Mehnat bozorida malakali kadrlarga talabni o‘rganish masalalari.
2. Mehnat bozori transformatsiyasida ichki migratsiya bilan bog‘liq muammolar.
3. Mehnat bozori transformatsiyasida tashqi migratsiya bilan bog‘liq muammolar.
4. Mehnat bozori transformatsiyasida migratsiya muammolarining yechimlari.
5. Kadrlarni tayyorlash bilan birga malakasini uzluksiz oshirib borish.
6. Ish beruvchilar va yollanma ishchilar o‘rtasidagi muammolar va ularning yechimi.
7. Mehnat bozori transformatsiyasida ishlovchilar va ish beruvchilarning o‘zaro munosabatlari.
8. Ish beruvchilarning asosiy vazifalari.
9. Mehnat shartnomasi va unda ko‘zda tutilgan tartib-qoidalar.
10. Mehnat resurslarining samarali taqsimotini ta’minlash.

VI BOB. MEHNAT BOZORI TRANSFORMATSIYASIDA AHOLINIING MALAKASI VA UNGA MOS TA'LIMNI MOSLASHTIRISH YO'NALISHLARI[4]

6.1. Inson salohiyati bilan bog'liq iqtisodiy kategoriyalar va ularning MBTga oid nazariy talqini

6.2. Inson salohiyatining o'ziga xos xususiyatlari va uning MBTdagi o'rni

6.3. MBTda inson salohiyatini shakllantirishda sifatli ta'lim va tarbiyaning uyg'unligini ta'minlash masalalari

6.1. Inson salohiyati bilan bog'liq iqtisodiy kategoriyalar va ularning MBTga oid nazariy talqini

Dunyo insonlar bilan to'la. "2024-yilda Yer aholisining soni o'tgan yilga nisbatan qariyb 82 million kishiga ko'paydi. Bu haqda "ABC News" xabar berdi. AQSh aholini ro'yxatga olish byurosining hisob-kitoblariga ko'ra, 2024-yilda dunyo aholisi 71 milliondan ortiq kishiga o'sdi va 2025-yil boshida 8,09 milliard kishini tashkil etadi. Tashkilotning hisob-kitoblariga ko'ra, aholining eng ko'p ko'payishi Afrikada kuzatilgan. Ekspertlar yaqin yigirma yil ichida ushbu qit'ada yashovchi odamlar soni ikki baravar ko'payishini taxmin qilmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining hisob-kitoblariga tayanilsa, 2037-yilda sayyoramiz aholisi birinchi marta 9 milliarddan oshishi mumkin"[5]. Ammo ularning yaratuvchanlik xususiyatlari bir-biridan farq qiladi. Chunki ularning har birida o'ziga xos alohida xususiyatlar bor. Inson salohiyati zo'r bo'lsa, bir kishi ikki kishining va undan ko'plarining ham ishini qilish mumkin. Salohiyatsiz insonlardan katta samara yoki natija ham kutib bo'lmaydi. Shu tufayli MBTda inson salohiyatiga alohida ahamiyat berish maqsadga muvofiq.

Insonning salohiyati tarkibiga o'zining va jamiyatning ehtiyojini qondirish uchun zarur bo'lgan undagi mavjud aqliy va jismoniy kuchi kiradi. Bularga birinchi galda, insonning salomatligi, bilim darajasi, tajribasi, qobiliyati kabilarni kiritish mumkin. Hamma insonlar salomat

[4] Mazkur bob Q.B.Dilmanov hammuallifligida bajarildi.
[5] https://xs.uz/uzkr/122806

bo‘lishi mumkin. Ammo ularning bilim darajasi turlicha, ish tajribasi ayrimlarda katta va ayrimlarda juda past bo‘ladi. Ilmli kishilar ilmsiz kishilarga nisbatan salohiyatli hisoblanadi. Agar insonning bajaradigan ishi jismoniy kuchni talab qiladigan bo‘lsa, uning salohiyatliligini belgilovchi birinchi mezon uning jismoniy baquvvatligi bilan o‘lchanadi. Yuk ko‘tarish va tashishda jismoniy baquvvat odam salohiyatli hisoblanadi. Ko‘rinib turibdiki, inson salohiyati ham turli yo‘nalishlarda baholanar ekan.

Inson salohiyatini sifat nuqtai narzaridan qaraladigan bo‘lsa, eng salohiyatli insonni “yuqori sifatli inson” deyish ham mumkin. Bunday insonlar barcha sohalarda faol, ya’ni bilimdon, tajribali, farosatli, iymon-e’tiqodli, irodali, halol-pokiza bo‘ladilar. Ushbu xislatlarning darajasi ularning insonlar bilan muloqotida ham sezilib turadi. Shularga qarab insonlarning salohiyatlilik darajasiga baho beriladi. Bu quyidagi rasmda keltirilgan (6.1-rasm).



6.1-rasm. Inson salohiyatining tarkibiy elementlarining o‘zaro bog‘liqligi

Rasmdan ko‘rinib turibdiki, inson salohiyatining tarkibiy elementlariga oltita element kiritilgan. Bularning hammasi o‘zaro bog‘llangan holda inson salohiyatini tashkil qiladi. Salohiyatli inson birinchi galda zamonaviy bilimlarga ega bo‘lishi kerak. Buning uchun mamlakatimizda ta’limning sifati va samaradorligini oshirishni taqozo qiladi. Ikkinchidan, bilimga ega inson jismoniy sog‘lom bo‘lishi lozim. Sog‘lom insongina bor kuch va imkoniyatini ishga solib jamiyatga katta manfaat keltiradi. Uchinchidan, inson sog‘lom bo‘lish bilan birga ma’lum tajribaga ham ega bo‘lishi lozim. Chunki, bilimli odam sog‘lom bo‘lsa, tegishli tajribaga ham ega bo‘lsa, yangi mutaxassislarga nisbatan ancha samarali natija ko‘rsatishi mumkin.

To‘rtinchidan har bir inson ma’naviy yetuk bo‘lishi lozim. Bilimdon bo‘lsayu ma’naviyati buzuq bo‘lsa, bilimini yaxshilikka emas, boshqa salbiy yo‘nalishlarga ham ishlatishi mumkin. Bu sog‘lom bo‘lsayu, ma’naviyati yetarli bo‘lmasa, bunday insondan ham yaxshilik kutish qiyin. Bundaylar birinchi galda o‘z manfaatini ustun qo‘yib, jamiyatga tegishli samara bermasligi mumkin.

Beshinchidan, salohiyatli inson bilimdon, jismoniy sog‘lom, tajribali, ma’naviyatli bo‘lishi bilan birga vatanparvar ham bo‘lishi lozim. Bunday insonlar bor salohiyatini Vatanining ravnaqiga sarflaydi. Agar vatanparvar bo‘lmasa, o‘zining manfaatini o‘ylab xorijiy davlatlarga ham ketib qolishi mumkin.

Oltinchidan, har qanday salohiyatli inson, eng avvalo o‘zini boshqara oladigan bo‘lishi kerak. O‘zini boshqarish deganda, lozim bo‘lgan joyda o‘zini tiyishi, zarur holatlarda o‘zini baxshida qila oladigan bo‘lishi lozim. O‘zini boshqara oladigan odam, eng avvalo o‘zining oldidagi mas’uliyatini, oilasi oldidagi mas’uliyatini, mahallasi, mehnat jamoasi, jamiyat va Vatani oldi dagi mas’uliyatlarini to‘liq anglaydigan kishi bo‘ladi.

Albatta inson salohiyatini mukammal darajada o‘lchash qiyin. Shu tufayli inson salohiyatining ta’rifi deysizmi, ko‘rsatkichlari deysizmi, sifati deysizmi, uning birorta sohasida na xorijiy, na mamlakatimiz olimlari o‘rtasida bir to‘xtamga kelingan holatni uchratish qiyin. Ayrim

olimlarning asarlarida “inson salohiyati” iborasi ishlatilsa, ayrimlarida “inson kapitali” tushunchasi keng tarqalib ketdi. Ba’zi olimlar asarlarida “mehnat salohiyati”, ayrimlarida “kadrlar salohiyati”, “shaxs salohiyati” ham deb yuritiladi. Ushbu tushunchalarning mazmuniga e’tibor qilinsa, ular bir-biridan unchalik farq qilmaydi. Hammasida insonning faolligiga e’tibor qaratilgan. Ammo tub mohiyatiga turli nuqtai nazardan qaralsa, albatta ular bir-biridan nafaqat mazmuni, foydalanish darajasi, hatto tarkibiy tuzilishi bo‘yicha ham farq qiladi. Shu tufayli inson salohiyati bilan bog‘liq tushunchalarga turlicha yondashib bo‘lmaydi. Har birining mazmuniga alohida e’tibo qaratish lozim.

Ushbu tushunchalarning (inson salohiyati, inson kapitali, mehnat salohiyati, kadrlar salohiyati, shaxs salohiyati) farqiga aniqlik kiritish uchun har birining mazmuniga to‘xtalish maqsadga muvofiq, deb topdik. Chunki har birining o‘ziga xos jihatlari aynan shu izoh orqali ma’lum bo‘ladi. Ushbu holatdan kelib chiqib, o‘zimizning izohimizni bermoqdamiz. Bularning izohi quyidagi jadvalda keltirilgan (6.1-jadval).

6.1-jadval

Inson salohiyati bilan bog‘liq iqtisodiy kategoriya va tushunchalarning mazmuni

T/r	Tushunchalar-ning nomi	Tushunchalarning izohi
1.	**Inson salohiyati**	Insonning salomatligi, bilim darajasi, tajribasi, ma’naviy e’tiqodi, ichki va tashqi kuchlarini mujassam etgan keng qamrovli faoliyatni olib borishi mumkin bo‘lgan qobiliyatlar majmuini o‘z ichiga oladi.
2.	**Inson kapitali**	Insonda mujassam bo‘lgan jamiyat va odamlarning ehtiyojini yuqori saviyada, samarali qondirishga xizmat qila oladigan ilmlar majmui, salomatligi, qobiliyati, yetarli tajribasining jamlangan shakli tushuniladi. Inson kapitali bitta shaxsga nisbatan, bitta korxonaga nisbatan va bitta mamlakatga nisbatan ishlatiladi.
3.	**Mehnat salohiyati**	Shaxsning mehnat salohiyati, uning belgilangan mehnatni qilish qobiliyati tushuniladi. Jamiyatning mehnat salohiyati deganda, mehnatga qobiliyatli aholi, ishlayogan pensionerlar va voyaga etmasda faoliyat ko‘rsatayotganlar tushuniladi.
4.	**Kadrlar salohiyati**	Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda, uning faoliyatini

		yurgizishga qodir bo‘lgan mutaxassis kadrlarning mavjudligi tushuniladi.
5.	**Shaxs salohiyati**	Bitta insonga tegishli bo‘lib, uning bilim darajasi, salomatligi, qobiliyati, ya’ni nimaga qodirligi, sohasi bo‘yicha tajribasi jihatidan boshqalardan farqli jihatlari tushuniladi.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, inson salohiyati bilan bog‘liq iqtisodiy kategoriya va tushunchalarning bir qancha nomlanishlari mavjud ekan. Biroq, ularning har birining o‘z mazmuni va mohiyati bor. Jumladan, inson salohiyati keng ma’noni bildiradigan bo‘lsa, uning bir qismi inson kapitalida mujassam. Bunga nisbatan torroq tushuncha mehnat salohiyati bo‘lib, bu faqat mehnat qila oladigan kishilarga qaratilgan. Nihoyat kadrlar salohiyati ham ma’lum vazifalarni bajarishga qaratilgan xodimlardan iborat bo‘lsa, shaxs salohiyati faqat bitta insonning qobiliyati bilan o‘lchanadi.

Iqtisodiyot aniqlikni talab qiladi. Shu tufayli ularning har birini ifodalovchi ko‘rsatkichlar va ularning aniqlanish yo‘llariga e’tiborni qaratamiz. Bular quyidagilardan iborat:

Inson salohiyati (I_s) quyidagicha aniqlanadi:

$$I_s = \boldsymbol{Sh_{bt}} + \boldsymbol{Sh_t} + \boldsymbol{Sh_{ie}} + \boldsymbol{Sh_s},$$

bunda $\boldsymbol{Sh_{bt}}$ – shaxsning o‘z yo‘nalishi bo‘yicha bilim darajasi;

$\boldsymbol{Sh_t}$ – shaxsning o‘zi faoliyat ko‘rsatadigan sohasi bo‘yicha amaliy tajribasi;

$\boldsymbol{Sh_{ie}}$ – shaxsning iymon-e’tiqodi, ma’naviyati, ya’ni tarbiyalanganlik darajasi;

$\boldsymbol{Sh_s}$ – shaxsning salomatlik darajasi.

Tadqiqotlar ko‘rsatdiki, juda ko‘p mamlakatlarda, xususan MDH, ayniqsa, Markaziy Osiyo mamlakatlarida inson salohiyati bilan inson kapitali tushunchalari bir-biri bilan chalkashib ketgan. Inson kapitalini inson salohiyatining o‘zgacha namoyon bo‘lishi, deb talqin qilinadi. Inson salohiyatini xodimning daromad keltirishi nuqtai nazaridan

qarasa, inson kapitaliga unga sarflangan investitsiya nuqtai nazaridan qarash lozim degan g‘oya ilgari surilgan.

Inson salohiyati asosan shaxs nuqtai nazaridan qaraladi. Chunki bir xil ma’lumotga, bir xil ish tajribasiga ega bo‘lgan kishilar bir-biridan iymon-e’tiqodi va ishni bajara olish qobiliyati nuqtai nazaridan ham farq qiladi. Inson salohiyati fenomenini tushunish uchun uning qiymatini qandaydir rasmiy ravishda hisoblash emas, balki ijtimoiy hayot sifatini va mehnatining samaradorligi orqali baholash mumkin. Inson hayotida ijtimoiy tan olingan faoliyati davomida inson salohiyatining shakllanganligi, ko‘p hollarda jamoatchilik fikri bilan baholanadi. Odamlar biror kishiga umumiy baho berishda, bu juda zo‘r salohiyatli inson, bu yaxshi odam, bu kishi muttaham, bu bo‘lmaydigan odam kabi so‘zlar bilan o‘zlarining baholarini beradilar. Inson bilimli, yaxshi mutaxassis bo‘lib, ma’naviy qashshoq bo‘lsa, turli yomonliklardan qaytmaydigan bo‘lsa, odamlar bunday shaxslarni hech mahal yaxshi odam, deb baholamaydi. Demak, inson salohiyatini baholashda uning ma’naviy yetukligiga ham alohida ahamiyat berish lozim, deb hisoblaymiz. Hozirgi mehnat bozorida jamoatchilikning fikri juda muhim. Shu tufayli ko‘p hollarda jamoatchilik kengashlarining ham paydo bo‘lishi bejiz emas.

Ko‘rinib turibdiki, inson salohiyati faqat uning bilim darajasi bilan o‘lchanmaydi. Oliy ma’lumotli bo‘lib, fan doktori ilmay darajasiga ega bo‘lsada, ma’naviy qashshoq bo‘lsa, bunday shaxslar jamiyat taraqqiyotiga ijobiy emas, balki salbiy jihatdan ko‘proq ta’sir qiladi. Ma’naviy qashshoq inson birinchi galda o‘z nafsining quli bo‘ladi, asosan o‘zining manfaatini o‘ylaydi, bunday kishilar imkoniyatdan foydalanib, korrupsiyaning barcha turlaridan foydalanishlari odatiy hol bo‘lib qoladi, imkon topsa xalq mulkini turli yo‘llar bilan o‘zlashtirishdan ham bosh tortmaydi. Bunday kishilarni salohiyatli inson deb atashga hech kimning haqi qolmaydi.

Inson salohiyati bilan bog‘liq navbatdagi iqtisodiy kategoriyalardan biri inson kapitalidir. Bu kategoriya tushunchasining mazmunini ochib berish uchun uni ifodalovchi ko‘rsatkichlarga e’tiborni qaratamiz. **Inson kapitali** (I_k)ning birinchi xususiyati – bir

shaxs yoki xodim doirasida emas, jamoa miqyosida ham baholanishi bilan izohlanadi. Ushbu ko‘rsatkichning hajmi quyidagicha aniqlanadi:

$$I_k = A_{bd} + A_t + A_s + X_i + M_e,$$

bunda A_{bd} – aholining bilimlilik darajasi (sohaga oid oliy ma’lumotli mutaxassislarning umumiy xodimlardagi ulushi);

A_t – aholining (korxonada faoliyat ko‘rsatayotgan xodimlarning) tajribasi;

A_s – aholining salomatlik darajasi;

X_i – xodimlarning (hudud va mamlakat miqyosidagi aholining) intizomlilik darajasi (korrupsiyaga yo‘l qo‘yilmaganlik darajasi);

M_e – xodimlarning ma’naviy yetukligi.

Ko‘rinib turibdiki, inson kapitaliga jamoa misolida qaraydigan bo‘lsak, birinchi galda aholining bilimlilik darajasi (sohaga oid oliy ma’lumotli mutaxassislarning umumiy xodimlardagi ulushi) olinadi. Shuni ta’kidlash joizki, barcha band xodimlarda oliy ma’lumotli kishilar ko‘p bo‘lishi mumkin, ammo ular sohaga oid mutaxassisliklarga ega bo‘lishi kerak. Shu tufayli, umumiy oliy ma’lumotli kishilar bilan birga aynan qancha qismi ushbu sohaga oid mutaxassisliklarga egaligiga ham e’tiborni qaratish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Inson kapitalining yana bir jihati aholining (korxonada faoliyat ko‘rsatayotgan xodimlarning) ish tajribasiga ham bog‘liq. Chunki bir kishi oliy ma’lumotli bo‘lib, hali tajribaga ega bo‘lmasa, tajribali mutaxassisning qilgan ishini qila olmasligi mumkin. Shu tufayli salohiyatli insonlarda tajriba va ko‘nikmalar ham shakllangan bo‘lishi kerak. Odatda kamida uch yil faoliyat ko‘rsatgan xodimlar tajribali xodimlar bo‘lib hisoblanadi.

Odatda zo‘r mutaxassis bo‘la turib, uning salomatligi yetarli bo‘lmasa ham undan samarali natija kutib bo‘lmaydi. Shu tufayli inson kapitalini baholashda aholining salomatlik darajasi ham muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda asosiy e’tibor inson salomatligiga qaratilmoqda. Zero, salomatlik nafaqat ishlab chiqarish yoki iqtisodiyot sohasi uchun, balki butun hayotimiz uchun muhim ko‘rsatkich bo‘lib

hisoblanadi. Mamlakatimizda salomatlikni asrashga va turli kasalliklarning oldini olishga bejiz katta ahamiyat berilmayapti.

Inson kapitalini ifodalovchi yana bir muhim ko‘rsatkich xodimlarning (hudud va mamlakat miqyosidagi aholining) intizomlilik darajasi hisoblanadi. Intizomga amal qilish har bir xodimning hayotiy prinsipiga aylangan bo‘lishi lozimligini taqozo qiladi. Adolat bor joyda intizom bo‘ladi, intizom bor joyda turli korrupsiya holatlariga yo‘l qo‘yilmaydi. Har bir insonda intizomni buzish qonunga xilof, Allohga va jamiyatga xiyonat deb qabul qilishlari lozim.

Inson kapitalini baholaganda iqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan birga xodimlarning ma’naviy yetukligini ham inobatga olish maqsadga muvofiq. Ma’naviy yetuk inson jamoasiga, xalqiga xiyonat qilmaydi. Insonning bu fazilati ham uning takomillashgan-ligidan dalolat beradi. Odamlarning salohiyatliligi ma’naviy olamining kengligi, ya’ni iymon-e’tiqodining mustahkamligi, intizomliligi, birovlarga xiyonat qilmasligi, turli aldov yo‘llar bilan o‘z manfaati uchun odamlarni chalg‘itmasliklari kabi jihatlarni o‘z ichiga oladi. Bunday insonlar yetuk inson kapitali darajasiga ko‘tarilgan insonlar hisoblanadi.

Inson salohiyati bilan bog‘liq iqtisodiy kategoriyalardan yana biri **mehnat salohiyati** ($\boldsymbol{M_s}$) hisoblanadi. Buni soddaroq qilib aytadigan bo‘lsak, insonlarning faqat mehnat qilish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Ushbu kategoriya quyidagicha aniqlanadi:

$$\boldsymbol{M_s = M_{qa} + I_p + I_{o's} + I_n},$$

bunda $\boldsymbol{M_{qa}}$ – mehnat yoshidagi mehnatga qobiliyatli nogironligi bo‘lmagan aholi;

$\boldsymbol{I_p}$ – rasman mehnat qilayotgan pensionerlar;

$\boldsymbol{I_{o's}}$ – rasman mehnat qilayotgan voyaga yetmagan yoshlar (o‘smirlar);

$\boldsymbol{I_n}$ – ishlash imkoniyatiga ega bo‘lgan faoliyat ko‘rsatayotgan nogiron aholi qismi.

Insonning mehnat salohiyatini ifodalovchi ko‘rsatkichlardan biri mehnat yoshidagi (erkaklar 18-60 yosh, ayollar 18-55 yosh) mehnatga qobiliyatli nogironligi bo‘lmagan faoliyat ko‘rsatishga qodir bo‘lgan aholi kiradi. Pensionerlar mehnat salohiyati ro‘yxatidan chiqarilgan bo‘ladi. Ammo bir qism pensionerlar rasman mehnat qilayotgan bo‘lsa, bular ham mehnat salohiyatiga kiradi. Shuningdek, rasman mehnat qilayotgan voyaga etmagan (18 yoshga kirmagan) yoshlar (o‘smirlar) ham mehnat salohiyatining bir ko‘rinishi bo‘lib hisoblanadi. Odatda nogiron aholi davlat tomonidan ma’lum miqdorda ta’minlangan bo‘lib, ulardan ishlash talab qilinmaydi. Ular ishlamasa ham bo‘ladi. Ammo ishlash imkoniyatiga ega bo‘lgan faoliyat ko‘rsatayotgan nogiron aholining bir qismi bevosita faoliyat bilan shug‘ullanib, mehnat salohiyati ro‘yxatiga kiritiladi. Davlat, hudud, mahalla, oila kabi bo‘linmalarda mehnat salohiyati aynan yuqoridagilardan tarkib topadi. Shu tufayli ularni ish bilan ta’minlash har bir hudud rahbarining muhim vazifalaridan biridir.

Bugungi kunda **kadrlar salohiyati** ($\boldsymbol{K_s}$), degan tushuncha ham ko‘p qo‘llaniladi. Ushbu kategoriya ham bir qancha ko‘rsatkichlardan tarkib topgan bo‘lib, buning hajmi quyidagicha aniqlanadi:

$$\boldsymbol{K_s = K_{bd} + K_t + K_s},$$

bunda $\boldsymbol{K_{bd}}$ – mutaxassis kadrlarning bilimlilik darajasi;

$\boldsymbol{K_t}$ – kadrlarning tajribalik darajasi;

$\boldsymbol{K_s}$ – kadrlarning salomatlilik darajasi.

Ushbu kategoriya ham bir qancha ko‘rsatkichlarni qamrab oladi. Bular tarkibiga rahbarlar, ya’ni ishni boshqaruvchilar va mutaxassislar kiradi. Korxona yoki mehnat jamoasining faoliyati bevosita mutaxassis kadrlarning bilimlilik darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Shu tufayli ushbu ko‘rsatkich kadrlar salohiyatining asosini tashkil qiladi. Ishning samaradorligi bevosita kadrlarning tajribasiga ham bog‘liqdir. Shu tufayli ushbu ko‘rsatkichning bir yo‘nalishi kadrlarning tajribalik darajasi olinadi. Yuqorida ta’kidlanganidek, kadrlarning salomatlilik darajasi ham ishning samarali yakunlanishi uchun muhim ahamiyatga

ega. Shu tariqa kadrlar salohiyati ham bir qancha ko‘rsatkichlar asosida shakllanadi.

Xuddi shunga o‘xshash ko‘rsatkichlardan biri **shaxs salohiyati** ($\boldsymbol{Sh_s}$), bo‘lib hisoblanadi. Bunda bitta shaxs ko‘zda tutiladi. Ushbu ko‘rsatkich quyidagicha aniqlanadi:

$$\boldsymbol{Sh_s = M_{qq} + X_{bd} + T_{aj} + X_{ma}};$$

bunda $\boldsymbol{M_{qq}}$ – bir kishining mehnat qilish qobiliyati;

$\boldsymbol{X_{bd}}$ – xodimning bilim darajasi;

$\boldsymbol{T_{aj}}$ – xodimning ish tajribasi;

$\mathbf{X_{ma}}$ – xodimning ma’naviy yetukligi.

Ushbu kategoriya ham bir kishining mehnat qilish qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Bunda bitta o‘rganilayotgan xodimning bilim darajasi bilan birga xodimning ish tajribasi ham kiradi. Ushbu formulalardan ham ko‘rinib turibdiki, biz tahlil qilayotgan inson salohiyati bilan bog‘liq kategoriyalar tarkibi bo‘yicha ham farq qilar ekan. Bularni nazariy jihatdan tadqiq qilganda ham, uni amaliyotda foydalanganda ham ushbu xususiyatlarni inobatga olish lozimligini taqozo qiladi.

Xulosa qilib aytganda, inson salohiyati bilan bog‘liq tushunchalar bir qancha bo‘lib, bir-birini to‘ldirish bilan birga har birining tarkibi ham, mazmuni bo‘yicha xususiyatlari ham turlicha. Ularning har biri bugungi Uchinchi Renessansni shakllantirishda va Yangi O‘zbekistonni barpo etishda muhim ahamiyatga ega. Shu tufayli mehnat bozori tranchfarmatsiyasida ushbu kategoriyalarning har birini o‘ziga xos xususiyatlari bilan inobatga olish lozim bo‘ladi.

6.2. Inson salohiyatining o‘ziga xos xususiyatlari va uning MBTdagi o‘rni

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020-yil 24 yanvarda Oliy Majlisga Murojaatnomasida: “Biz bundan uch yil oldin mamlakatimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida buyuk ishlarni boshlaganmiz. **Xalqimizning aql-zakovati, kuch-**

qudrati va salohiyatiga tayanib (*ta'kid bizniki – Q.D.*), biz bu yo'lda dastlabki, lekin o'ta muhim va salmoqli natijalarga erishmoqdamiz. Endi ana shu yutuqlarimizni mustahkamlab, yanada dadil va ulkan qadamlar tashlashimiz shart. Chunki yurtimizdagi islohot va o'zgarishlar jarayoni ortga qaytmaydigan tus olib, hal qiluvchi pallaga kirmoqda"[6], deb ta'kidlangan edi. Ushbu masala vaqt o'tishi bilan kun tartibidan tushgan emas. Balki uning ahamiyati kundan-kunga oshib bormoqda. Davlatimiz rahbarining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga 2022-yil 20 dekabrdagi navbatdagi Murojaatnomasida ham inson salohiyati haqida gapirib: "Ijtimoiy davlat bu, eng avvalo, **inson salohiyatini ro'yobga chiqarish** (*ta'kid bizniki – Q.D.*) uchun teng imkoniyatlar, odamlar munosib hayot kechirishiga zarur sharoitlar yaratish, kambag'allikni qisqartirish, demakdir. Shu bois, birinchi navbatda, e'tiborni Yangi O'zbekiston uchun eng katta investitsiya bo'lgan ta'limni qo'llab-quvvatlashga qaratamiz"[7], degan fikrni qayd etdi. Bulardan ham ko'rinib turibdiki, inson salohiyatini oshirish bilan bog'liq muammolarning kundan-kunga dolzarbligi oshib bormoqda.

Inson salohiyati bilan bog'liq masalalar dunyo olimlari tomonidan o'rganilib kelinmoqda. Ammo bu joyda inson kapitali, ishchi kuchi, intellektual kapital, inson resurslari va uning mazmun-mohiyati nazariy jihatdan olimlarimiz tomonidan kam tadqiq qilingan. Bularni inobatga olib, ushbu tushunchalarning mazmunini tizimli ravishda qarab chiqishni obyektiv zaruriyat, deb topdik. Chunki, dunyo aholisining sohalarida bandligi, ularning ilmiy va kasbiy salohiyati bevosita aholining kasbiy yo'nalishlariga, ta'limning sifati va samaradorligiga ham bog'liqdir. Bularni inobatga olib ushbu yo'nalishda bir qancha tadqiqotlar olib borilmoqda. Tadqiqot jarayonida inson kapitali, ishchi kuchi, intellektual kapital, inson resurslari kabi tushunchalarning mazmun-mohiyatini ochib berishga e'tibor qaratildi. Chunki, ko'p hollarda ushbu tushunchalarning mazmuni sinonim sifatida ishlatilib kelinadi.

---

[6] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 24 январдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси. // "Халқ сўзи" газетаси. 2020 йил 25 январь. 19-сон. 1-4 бетлар.

[7] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига 2022 йил 20 декабрдаги Мурожаатномаси. // https://president.uz/uz/lists/view/5774

Inson salohiyati va kapitali tushunchalarning nazariy masalalariga aniqlik kiritish o‘ta muhim muammolardan biridir. Chunki hozirgi iqtisodiy adabiyotlarda inson salohiyati tushunchasini inson kapitali, ishchi kuchi, intellektual kapital, deb atashmoqda. Bularni nazariy jihatdan tahlil qiladigan bo‘lsak, quyidagi nazariy xulosalarni qilish mumkin bo‘ladi. Buning uchun birinchi galda “salohiyat” va “kapital” tushunchalarning izohiga nazar tashlaymiz.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida “salohiyat” tushunchasiga quyidagicha izoh berilgan. Ushbu so‘z arab tilidan kelib chiqqan bo‘lib, “(yaroqlilik; vakolat, hukmdorlik; to‘liq hokimiyat) qobiliyat, iqtidor”[8] tushunchalarni ifodalaydi. Ushbu so‘zning ishlatilishi bilan bog‘liq bo‘lgan “salohiyatli” so‘ziga “salohiyatga, katta qobiliyatga ega bo‘lgan; iqtidorli” tushunchalardan iboratligi qayd etilgan. Xullas, salohiyat tushunchasiga badiiy adabiyotlarimizda ham insonga xos tarzda ifoda etilgan. Jumladan, o‘zbek xalqining taniqli yozuvchilaridan biri Odil Yoqubov “Xudovandi karim bu zoti muborakka shunday salohiyat ato qilgankim, tibbiyot bobida uning bilmagan ilmi yo‘qdir”[9]. Demak, salohiyat deganda, katta qobiliyatga ega bo‘lgan, ilmli va mos ravishda iqtidorli kishi tushuniladi.

O‘sha nomi zikr etilgan lug‘atda “kapital” tushunchasiga quyidagicha izoh berilgan. Mazkur so‘z nemis tilidan kelib chiqqan bo‘lib, unga uchta izoh berilgan. “1. *iqtisodiyot nuqtai nazaridan* O‘zini o‘zi ko‘paytirish uchun foydalaniladigan, o‘z egasiga foyda, daromad keltiradigan boylik (qimmatli qog‘ozlar, pul mablag‘lari moddiy mol-mulk va sh.k.). 2. Katta mablag‘, ko‘p pul, boylik. Kapitalning ma’lum shaxslar qo‘lida to‘planishi. 3. Kimgadir katta boylik, qadriyat hisoblangan, muhim ahamiyatga ega bo‘lgan, ahamiyatga molik narsa”[10], deyilgan. Ko‘rinib turibdiki, kapital insonga va barcha jonzotlarga nisbatan umuman ishlatilmagan. Shu tufayli salohiyatli insonni “inson kapitali”, deb atash biroz munozarali bo‘lib hisoblanadi.

---

[8] Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. 3-том. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. – 432 бет.

[9] Ёқубов О. Кўҳна дунё. Роман. – Т.: “Ғофур Ғулом нашриёти”, 2004.

[10] Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси.2-том. Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. – 316 бет.

“Inson kapitali” nazariyasini bevosita odamga qiyos qilgan holda unga qo‘yigan investitsiyalarning miqdorini hisoblaydi. Bu inson kapitali emas, balki inson salohiyatini oshirish uchun qo‘yilgan investitsiya, deb qarash maqsadga muvofiq. Inson kapitali tushunchasining amaldagi nazariyasiga ko‘ra, odamlarga qo‘yilgan sarmoyalar iqtisodiyotning o‘sishiga olib keladi, degan g‘oya mavjud. Bu noto‘g‘ri qarash. Insonga qo‘yilgan investitsiya to‘g‘ridan-to‘g‘ri samara bermaydi. Unga qanchalik sarmoya qo‘ymang, u o‘zini o‘zi safarbar qiladigan salohiyatga, tegishli ishlarni amalga oshiradigan malakaga, bilimga ega bo‘lmasa, bunday nazariya o‘z isbotini topmasligi mumkin.

Ayrim mamlakatlar o‘z xalqiga ko‘proq oliy ma’lumotli aholini etishtirib berish uchun albatta pul sarflaydi. Bu sarflar miqdori 2,0 mlrd. bo‘lsa, inson kapitalining qiymati shuncha, deb baholab bo‘lmaydi. Bu mablag‘lar inson salohiyatini malaka va bilim darajasini oshirish uchun sarf qilingan, aniqrog‘i yo‘naltirilgan investitsiya bo‘lib hisoblanadi. Investitsiyaning miqdorini inson kapitali, deb bo‘lmaydi. Ayrim nazariy qarashlarda inson kapitali o‘rniga “inson resurslari” atamasi ham ishlatiladi. Ammo bu tushunchani ham inson kapitaliga qiyos qilib bo‘lmaydi. Shuni inobatga olish lozimki, hozirgi sharoitda barcha resurslar sotiladi, ammo inson resursi sotilmaydi va uning qiymatini ham belgilash qiyin. Hozirgi paytda ish beruvchilar xodimlarni ishga, ishlatishga oladi. Buni pulga sotib olmaydi, balki ish faoliyati davomida ishlagani uchun ish haqini oladi. Bu xodimning qiymati emas, balki uning mehnati tufayli yaratilgan qiymatning bir qismi xalos. Agar odam malakali, bilimli va tajribali bo‘lsa, ish beruvchilarga ham umuman jamiyatga ham katta foydasi tegadi. Bu foyda inson kapitalini emas, balki yuqori salohiyatiga ega bo‘lgan inson mehnatining mahsuli bo‘lib hisoblanadi.

Inson kapitali bo‘yicha K.Marksning o‘ziga xos nazariyasi mavjud bo‘lib, u inson kapitalini “ishchi kuchi” deb ataydi va ishchining kuchiga inson kapitali, degan ma’no beradi. K.Marks nazariyasi bo‘yicha kapitalistik tizimlarda odamlar daromadlari, ya’ni ish haqi evaziga o‘zlarining ishchi kuchini sotadi, deb ta’kidlaganlar. Aynan shu

sotilgan ish kuchini u inson kapitali, deb ataydilar[11]. Bu yerda bitta xatolik mavjud. Sotilgan kapital bir kishidan ikkinchi kishi ixtiyoriga o‘tishi kerak. Ammo faoliyat ko‘rsatgan xodim ham, uning salohiyati, ya’ni qobiliyati ham xodimning o‘zida qoladi. Bunda sotish jarayoni sodir bo‘lmaydi, balki barcha salohiyati insonning o‘zida mujassamligicha qoladi. Agar insonning qobiliyati, malakasi kapital bo‘lganda kapitalni, boshqa kapitallar singari sotish mumkin edi. Ammo odamda buni sotishning imkoni yo‘q. Bu nazariy qarashlar ham ko‘rsatib turibdiki, inson kapitali emas, inson salohiyati, deb atash to‘g‘ri bo‘ladi.

“Inson kapitali” nazariyasi bo‘yicha juda ko‘pchilik olimlar o‘z fikrlarini aytganlar. Jumladan, Adam Smit g‘oyasiga ko‘ra, inson kapitalini “jamiyatning barcha aholisi yoki a’zolarining egallagan va foydali qobiliyatlari”[12], deb atagan. Smit to‘langan ish haqidagi tafovutlar ishlarni bajargan ishchilarning qobiliyatiga bog‘liqligini nazariy jihatdan talqin qiladi va ular tomonidan bajargan ishlarning nisbatan osonligi yoki qiyinligiga asoslanib baholashni taklif qiladi[13].

Shuni alohida ta’kidlash joizki, quldorlik davrida odamlar (qullar) sotilgan. Bularning narxi uning malakasiga bog‘liq bo‘lmagan. Agar o‘sha paytlarda odamlarni inson kapitali, deb ataladigan bo‘lsa, keyinchalik odam sotish to‘xtatilgan. Bu bilan inson kapitali bozoriga ham barham berildi. Endi insonning sotilishi to‘xtatilgandan keyin uni kapital, deb atash ham shubhali. Shu tufayli eng to‘g‘ri talqin bizning fikrimizcha, “inson salohiyati” tushunchasidir.

Xulosa qilib, shuni ta’kidlash joizki, birinchidan, “inson kapitali” “Inson salohiyati”ni to‘liq ifoda etmaydi. Inson kapitali o‘rniga “inson salohiyati” iborasini ishlatish to‘g‘ri bo‘ladi.

Ikkinchidan, har bir inson o‘zi faoliyat ko‘rsatishi jarayonida biror narsa yaratadi, ish bajaradi va xizmat ko‘rsatadi. Bunda insonning sotilishi ro‘y bermaydi, balki salohiyatini ishlatib, o‘zini safarbar qiladi. Bunda inson o‘zini sotmaydi, balki faoliyat ko‘rsatadi, xolos.

---

[11] Маркс, Карл. Ишчи кучини сотиб олиш ва сотиш: 6-боб. Мархисц.орг

[12] Смит, Адам (1776). Халқлар бойлигининг табиати ва сабаблари тўғрисида сўров. Муаллифлик ҳуқуқи 2007 МетаЛибре.

[13] Ўша жойда.

Uchinchidan, har bir insonning salohiyati turli bo‘lganligi tufayli ularning yaratgan mahsulotlari, bajargan ishlari va ko‘rsatgan xizmatlarining darajasi ham turlicha. Shu tufayli inson salohiyatining natijadorligi ham turli bo‘ladi. Shunga qarab u ish beruvchidan ish haqi oladi. Ish haqi ishchining qiymati emas, balki bajargan ishi uchun beriladigan ish haqi hisoblanadi.

To‘rtinchidan, hozirgi paytda ta’limga qo‘yilgan investitsiyani “inson kapitali”ga qo‘yilgan sarmoya, deb atamoqdalar. Bu inson kapitaliga emas, balki inson salohiyatining oshib borishiga qo‘yilgan sarmoyadir. Inson salohiyati qanchalik yuqori bo‘lsa, bitta inson bir vaqtning o‘zida salohiyatsiz insonga nisbatan juda katta foyda keltirishi, juda ko‘p va sifatli narsa yaratishi mumkin. Bu “inson kapitali”, deb ataladigan qiymatning miqdoriga bog‘liq emas.

Iqtisodiyotning muhim belgilari va xususiyatlaridan biri pul ishlash yo‘li bilan ko‘proq pul topishga qaratilgan. Biror narsaga ega bo‘lish uchun, biror narsani sarf qilishga to‘g‘ri keladi. Ko‘proq daromad qilaman deydiganlar ko‘proq sarflashga ham to‘g‘ri keladi. Sarflangan mablag‘lar ko‘proq samara berishi uchun ishchilarga beriladigan mablag‘lar faqat ish haqi bo‘lib qolmasdan, iqtisodiyotni rivojlantirish uchun rag‘batlantirishga qaratilgan ham bo‘lishi lozim. Bu jarayon o‘z navbatida biznesni boshqarish sohasini ham rivojlantirishga olib keladi. Bunda “inson kapitali” bilan birga “inson resurslari”ni boshqarishni kengayishi lozimligini ham taqozo qiladi. Inson resurslari nazariyasi inson kapitalidan farqli o‘laroq u boshqariladigan subyektlar bo‘lib hisoblanadi. Biroq, bu resurs salohiyati nuqtai nazaridan har xil bo‘lishi mumkin. Buni ham inson kapitali yoki inson salohiyatiga tenglashtirib bo‘lmaydi.

Inson resurslariga jamiyatda mavjud bo‘lgan mehnatga qobiliyatli aholini kiritish mumkin. Korxona nuqtai nazaridan, unda band bo‘lgan ishchi-xodimlar kiradi. Bularning har biri turli salohiyatga ega bo‘lishi ham tabiiy. Lekin maqsadi nuqtai nazaridan hammasining istagi daromad olishga qaratilgan. Bunga erishish uchun ishchilar haqiqatan ham o‘zlarining ongli qobiliyatini va tanalarini (qo‘l-oyoqlarini) ishlatishga to‘g‘ri keladi. Ammo ularda biror ishni bajarish qobiliyati

hajm, vaqt va sifati nuqtai nazaridan turlicha, ular bir xil emas. Buning darajasi har bir insonning ilmiy va malakaviy salohiyatiga bog‘liq.

Inson salohiyati shartnoma asosida ishlatiladi. Buning uchun ishchilar me’yor darajasidagi ish haqini mo‘ljallasa, ish beruvchilar esa bu jarayondan sof foyda olishlarini maqsad qilib oladilar. Boshqacha qilib aytganda, ishchilar o‘zlarining mehnat salohiyatini, ya’ni ish kuchini saqlab qolgan holda aqliy va jismoniy mehnatini sarf qiladilar. Bu ishning natijasi yuqori darajada bo‘lishi uchun samarali ishlashlari kerak bo‘ladi. Buning uchun esa, uning salohiyati yuqori bo‘lishligini taqozo qiladi. Ish beruvchining ish haqiga to‘lagan xarajatlari ularning daromaddan oshib ketmasligi lozim. Agar teskarisi bo‘lsa, inson kapitalini ishlatish muvaffaqiyatsiz tugaydi. Bu albatta barqaror taraqqiyot va samaradorlikni ta’minlash imkonini bermaydi.

Xulosa qilib aytganda, inson salohiyati o‘ziga xos tushuncha bo‘lib, inson kapitali, ishchi kuchi, intellektual kapital, inson resurslari, madaniy kapital, ijtimoiy kapital tushunchalaridan farq qiladi. Bularni quyidagicha izohlash mumkin.

Birinchidan, inson salohiyatini oddiy ish kuchi bilan qiyoslaydigan bo‘lsak, hozirgi paytlarda vaqtincha ishsizlar ham bor. Bular o‘z vaqtlarini bekor o‘tkazmasliklari uchun vaqtincha biror kishiga mardikor bo‘lib ishlashni afzal ko‘radilar. Shu yo‘l bilan ular kunlik daromadga ega bo‘ladilar. Bunday kishilar o‘zlarining ish kuchini sotmaydi, balki belgilangan mehnatni qilib, ishini bajarib beradi.

Ikkinchidan, ushbu jarayonda ular ish beruvchilar bilan mehnat haqi evaziga o‘z malakalarini ishga solish uchun o‘zaro manfaatli bo‘lgan vaqtinchalik shartnomalar tuzadilar. Ish beruvchi xodimlarning ishidan foydalangan holda mahsulot yaratadilar. Aynan shu mahsulot sotilishi mumkin. Xuddi shu tarzda fermerlar ham, boshqa tadbirkorlar ham hosilini sotadilar. Bu sotishda inson salohiyati sotilmaydi, agar u kapital bo‘lganda sotilishi mumkin bo‘lar edi. Bundan xulosa, salohiyat hamisha insonning o‘zida qoladi, inson kapitali bo‘lsa, boshqa kapital singari sotilishi mumkin. Bunda inson sotilmaydi, balki uning mehnati evaziga haq oladi.

Uchinchidan, bir narsani e'tiborga olish mumkinki, inson faqat quldorlik davrida sotilgan. U faqat mehnatkash sifatida inson kapitali, deb baholanishi ham mumkin bo'lgan. Chunki ular insonlar mulkiga aylangan. Ularni kim sotib olsa, o'shaning mulki bo'lgan va unga xizmat qilgan. Bugungi kunga kelib, inson kapitali degan tushunchani ishlatish nazariy jihatdan uning mazmunini to'liq ifoda etmaydi. Shu tufayli inson salohiyati tushunchasidan foydalanish maqsadga muvofiq.

To'rtinchidan, inson salohiyatining qiymatini faqat qiymat nuqtai nazaridan ifodalash mumkin emas. Bundan tashqari, uni faqat miqdoriy jihatdan baholash uchun uning miqdorini ko'paytirish yoki kamaytirish mumkin emas, chunki inson salohiyatini ifodalovchi imkoniyatlarni bevosita o'lchash usullari hali mavjud emas.

Beshinchidan, jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida inson salohiyati fenomenini tushunish uchun uning qiymatini qandaydir tarzda rasmiy ravishda hisoblash emas, balki ijtimoiy hayot sifatini va mehnat yoki boshqa ijtimoiy tan olingan faoliyatda inson salohiyatini shakllantirish va amalga oshirish uchun mavjud iqtisodiy sharoitlarni baholash muhimdir.

Oltinchidan, agar inson salohiyatini baholaydigan sharoitlar mavjud bo'lsa, unda inson salohiyati inson kapitali sifatida amalga oshirilishi mumkin, bu uning tashuvchisi uchun daromad manbai, iqtisodiy o'sish va jamiyat uchun ijtimoiy taraqqiyot manbai bo'lib xizmat qiladi. Inson salohiyati tarkibida ko'zga tashlanmaydigan, o'lchab bo'lmaydigan fazilatlar "kuchlar" mavjudki, uni birovga berib, tuhfa qilib yoki sotib bo'lmaydi. Bunga birgina misol: inson tafakkurining kengligi. Buni o'lchashning ham, birovga berishning ham va mos ravishda birovdan olishning ham imkoni yo'q.

Xulosa qilib aytganda, inson salohiyatining o'ziga xos xususiyatlari uning o'lchashi mumkin emasligi, bu jarayonning o'ta murakkabligi bilan izohlanadi.

6.3. MBTda inson salohiyatini shakllantirishda sifatli ta’lim va tarbiyaning uyg‘unligini ta’minlash masalalari

Bizning yurtimiz buyuk allomalarni etishtirgan salohiyatli insonlar yurti. Jahonda ilk bor uyg‘onish davri bizning yurtimizda boshlangan desak xato bo‘lmaydi. Chunki birinchi Renessans natijasida Xorazmdagi Ma’mun akademiyasida asos solingan bo‘lsa, ikkinchi Renessans Samarqandda Ulug‘bek, Ali Qushchi kabi allomalar ishtirokida yaratilgan koinot maktablarini misol tariqasida keltirish mumkin.

Mamlakat rahbari ta’kidlaganidek, “**Ta’lim sifatini oshirish – Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to‘g‘ri yo‘lidir**”[14]. Ta’lim sifati va samaradorligini oshirmasdan ko‘zlangan muvaffaqiyatga erishib bo‘lmaydi. Ushbu holatni inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2022-yildayoq taraqqiyotning bir qancha muhim omillariga katta ahamiyat berib, bir qancha strategik yo‘nalishlarga kiritdi. Jumladan, 2022-yil 6 iyulda “2022-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi. Shu kuni “2022-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga ham imzo chekildi. Yuqoridagi nomi zikr etilgan Prezident farmoni va qarorida “Respublikada innovatsion rivojlanishni jadallashtirish, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida innovatsiyalar va texnologiyalarni keng tadbiq qilish, inson kapitalini, ilm-fan va innovatsiya sohalarini rivojlantirish”[15] masalasi ustuvor vazifalar sifatida belgilangan edi. Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun juda katta ishlarni bajarish ko‘zda tutilgan va bu borada qizg‘in ishlar ketmoqda.

Biroq, o‘zimizda mavjud bo‘lgan bir qancha kamchiliklarimizni tugatish va muammolarimizni hal qilish choralarini ko‘rishimiz, bularni

---

[14] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси // “Халқ сўзи” газетаси. 2022 йил 21 декабрь. – 1-3 бетлар.

[15] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 6 июлда “2022-2026 йилларда Ўзбекистон Республикасининг инновatsion ривожланиш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Фармони. // “Янги Ўзбекистон” газетаси, 2022 йил 7 июль. 136-сон. – 2 бет.

bartaraf qilish uchun tegishli “Yo‘l xarita”larini ishlab chiqib, ularning bajarilishini kechiktirmasdan amalga oshirishimiz lozim. Shu yo‘l bilan ta’lim sifatini oshirib, inson kapitalini takomillashtirgan holda Uchinchi Renessans poydevorini shakllantirish mumkin.

Mamlakatimizda Uchinchi Renessansning poydevorini shakllantirish bo‘yicha asosiy yo‘nalishlarining markazida ham ta’lim turibdi. Yurtboshimiz o‘zining 2022-yil 20 dekabrdagi xalqimizga qilgan Murojaatnomasida ta’kidlaganidek, “ta’lim jarayonida har bir o‘quvchi o‘zining qobiliyatiga qarab, aniq yo‘nalishlar bo‘yicha chuqur o‘qitiladi, dunyoning nufuzli oliygohlariga kirish imkoniyatlari kengayadi. Shu bois, 2023-yildan maktab ta’limini xalqaro ta’lim dasturlari asosida butunlay isloh qilishni boshlaymiz. Bu ishlarni tizimli yo‘lga qo‘yish, yangi darsliklarni ishlab chiqish, ilg‘or ta’lim standartlari va metodikalarini joriy etish uchun alohida ilmiy institut va laboratoriyalar tashkil qilinadi”[16]. Milliy o‘zligimizni anglab, ajdodlarimizga munosib bo‘lishni xohlagan yoshlarga e’tibor yanada kuchaytiriladi. Chunki, Prezidentimizning “Men doimo ta’lim, ta’lim, muallim, muallim, deb ta’kidlashim bejiz emas. Chunki ta’limni rivojlantirmasdan turib, yuksak taraqqiyotga erisha olmaymiz...”, deb ta’kidlagani bejiz emas. Ushbu fikrni 2024-yil 2 fevralda qabul qilingan “Ta’lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-54-sonli Qarorida yana bir bor ta’kidlab, uni takomillashtirish uchun aniq chora-tadbirlar belgilab berildi. Ushbu qarorda “Ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlarni chuqurlashtirish, ta’lim tashkilotlari faoliyatini ilg‘or xorijiy amaliyotlar asosida tashkil etish, pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, nodavlat ta’lim tashkilotlari faoliyatini qo‘shimcha qo‘llab-quvvatlash”[17] kabi aniq vazifalar belgilanib, ularni amalga oshirish uchun aniq chora-tadbirlar ham ishlab chiqilgan. Qarorda mamlakatimizda zamonaviy bilimli, raqobatbardosh kadrlarni

[16] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси // “Халқ сўзи” газетаси. 2022 йил 21 декабрь. – 1-3 бетлар.

[17] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 2 февралда “Таълим соҳасидаги ислоҳотларни жадаллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-54-сонли Қарори. uza.uz

tayyorlash tizimi takomillashtirishga alohida ahamiyat berilgan. Bunga erishishda asosan quyidagilarga ahamiyat berilishi zarur.

Birinchidan, ta'limning sifati va samaradorligini oshirish uchun eng avvalo, uni amalga oshiradigan pedagoglar tayyor bo'lishi kerak. Shu tufayli pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirishni takomillashtirish lozim bo'ladi. Chunki ta'lim tizimidagi barcha pedagoglarni ham bugungi innovatsion rivojlanishga mos, raqobatbardosh, zamonaviy talabga javob beradi, deb bo'lmaydi.

Ikkinchidan, xalqaro tashkilotlar, ish beruvchilar, nodavlat tashkilotlarini jalb qilish orqali o'qituvchilarning bilimi va qiziqishiga mos bo'lgan tabaqalashtirilgan ta'lim dasturini joriy qilish masalasi ham belgilangan. Bunda pedagoglarning malakasiga mos holda ularni rag'batlantirish mexanizmi ham ishlab chiqilishi va amaliyotda muntazam ravishda qo'llanilishi lozim.

Uchinchidan, oliy ta'lim va umumiy o'rta ta'limda o'qitiladigan ta'lim dasturlarini bir-biri bilan uyg'unlashtirgan holda pedagog kadrlarni tayyorlaydigan oliy ta'lim tashkilotlarini tizimli ravishda takomillashtirib va rivojlantirib borish orqali ta'lim sifatini va samaradorligini oshirish masalalarini ham xalqaro talablarga moslashtirish maqsadga muvofiq.

To'rtinchidan, ta'lim tizimining uyg'unligini ta'minlash maqsadida professonal ta'limdan so'ng oliy ta'limni davom ettirish imkoniyatlarini yanada kengaytirish, bularni uch yillik ta'lim dasturi asosida bakalavriat darajasidagi mutaxassislarni tayyorlashni yo'lga qo'yish ham maqsadga muvofiq. Shu yo'l bilan inson kapitalini tayyorlash tizimi tezlashadi va professionallik darajasi oshib boradi. Chunki professional ta'limda olgan bilimini aynan oliy ta'limda boyitib borish imkoniyatiga ham ega bo'ladi.

Beshinchidan, yuqoridagi vazifani qo'lga kiritish uchun oliy ta'lim muassasalariga qabul jarayonini soddalashtirish ham maqsadga muvofiq. Bunda abiturientlar maktabni tugatmasdan OTMga qabul qilinish tartibi yo'lga qo'yiladi. Ya'ni har chorakda yoki yarim o'quv yilida DTM (Davlat test markazi) tomonidan o'quvchilarning bilimi baholanib boriladi va ular bilim sertifikatlariga ega bo'lishadi. Ushbu

sertifikatdagi ko‘rsatkichlar orqali OTMga qabul qilinadi, bu esa maktabda ham ta’lim sifatining yaxshilanishiga, samaradorligining oshib borishiga olib keladi.

Oltinchidan, o‘quvchilarning qobiliyati, qiziqishlari, nimalarga moyilligini ularning yoshligidan aniqlab olish lozim bo‘ladi. Buning uchun har bir o‘quvchi (talaba)ning ruhiy holatini boshqarishga qaratilgan pedagogik va psixologik ta’sirlardan foydalangan holda ularning o‘zlarini o‘zlari nazorat qiladigan ko‘nikmani hosil qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki o‘zini o‘zi boshqara oladigan o‘quvchida (talabada) bilimga intilish, buning uchun nimalarga ahamiyat qaratish, ushbu jarayon bilan bog‘liq boshqa masalalar ham aniqlab borish qobiliyati ham shakllangan bo‘ladi.

Yettinchidan, ta’limni rivojlantirish uchun o‘quvchi-talabada ham, pedagoglarda ham yuksak xohish va mas’uliyat bo‘lishi lozim. O‘quvchi talabalar o‘qishni eng oliy maqsad qilib olsa, bu ehtiyojni qondiradigan pedagog o‘ta mas’uliyatli bo‘lsa, natija yuqori bo‘ladi. Bu har bir o‘qituvchi qalbiga iftixor bag‘ishlashi, uni yanada mas’uliyat bilan ishlashga undashi tabiiy. Pedagoglar mas’uliyatining oshishi uchun ularga yuksak e’tibor berish ham maqsadga muvofiqdir. Shu yo‘nalishda bularning oylik maoshi bosqichma-bosqich oshib bormoqda. Hozir mamlakatimizdagi 30 ming nafarga yaqin o‘qituvchi yuqori oylik maoshi olib kelmoqda[18]. Bularning sonini yildan-yilga ko‘paytirib borish lozim.

Sakkizinchidan, yoshlarni to‘liq ish bilan band qilish va ularni o‘zini o‘zi ish bilan ta’minlash masalalariga ham katta tayyorgarlik ishlari qilib, amalga oshirilmoqda. Buning uchun barcha yoshlarni birinchi galda, kasb-hunarga yo‘naltirish masalasiga alohida ahamiyat berilmoqda. Agar insonda ma’lum kasbi bo‘lsa, shu kasb bo‘yicha ish joylari bo‘lmagan taqdirda ham, ular o‘zini o‘zi ish bilan band qilish orqali ishsizlar sonini keskin kamaaytirish imkoniyatini yaratadi.

To‘qqizinchidan, barcha ta’lim tashkilotlari faoliyati natijalarini tizimli ravishda baholab borish tadbirlari ham yo‘lga qo‘yilmoqda. Bunda nodavlat tashkilotlari va xalqaro tashkilotlar jalb qilinadi. Ushbu

[18]https://uza.uz/posts/551367

yo‘nalishga ota-otalarning ham fikrlarini inobatga olish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

O‘ninchidan, hozirgi kunda ta’lim sohasida xususiy sektorning ishtiroki va mos ravishda ulushi oshib bormoqda. Ayrim xususiy ta’lim muassasalari yuqori saviyada dars o‘tishni yo‘lga qo‘ygan. Ular qimmatroq bo‘lsada ota-onalar bolalarini shu o‘quv tashkilotlariga topshirmoqdalar. Ammo ayrimlarida ta’lim unchalik yetarli emas. Biroq diplom uchun shu o‘quv muassasalariga kirib, ta’lim emas diplom olib chiqmoqda. Kam bo‘lsada ushbu holatga ko‘z yumib bo‘lmaydi. Shu tufayli xususiy sektordagi ta’lim muassasalarini talab darajasida faoliyat ko‘rsatish uchun ularni boshqarish va nazorat qilishning samarali mexanizmlarini joriy qilish lozimdir.

O‘n birinchidan, Prezidentimiz qarorining “Yo‘l xaritasi”da[19] “Oliy ta’lim tizimining mehnat bozori talablariga muvofiqligini ta’minlash” lozimligi to‘g‘risida keltirilgan bandida kadrlarni tayyorlashda ish beruvchilarni jalb etish dolzarb ekanligi ta’kidlab o‘tilgan. Ushbu jarayonga mamlakatimizning iqtisodiy salohiyatini rivojlantiruvchi: sanoat, qishloq xo‘jaligi, xizmat ko‘rsatish, biznes kabi sohalarni jalb qilish lozimligi ham qayd etilgan. Shuning uchun bu sohalarni yuksaltirishda talabalar, tadqiqotchilar, olimlar bilan hamkorlikni olib borishni ham tizimlashtirish zarur. Ya’ni soha vakillari yoki markazlashgan holda hukumatimiz tadqiqotchilar tomonidan yaratilayotgan innovatsiyalarni amaliyotga joriy qilishni o‘z zimmalari olishlari lozim bo‘ladi. Agar yangi ishlanmalar amaliyotga joriy qilinsa va mualliflar tegishli tarzda rag‘batlantirilsa, bir vaqtning o‘zida davlat ham, korxona va tashkilotlar ham, tadqiqotchilik bilan shug‘ullanib kelayotgan ilmiy xodimlar ham birdek manfaatdor bo‘ladi.

O‘n ikkinchidan, har bir inson dastlabki ta’limni maktabgacha ta’lim muassasasi va maktabdan oladi. Shunday ekan, murabbiy va o‘qituvchilari bilimli, tajribali bo‘lsa bilim poydevori mustahkam quriladi. Maktab o‘qituvchilarini ishga qabul qilishda OTMlari bilan hamkorlikda eng a’lochi o‘qiydigan talabalarni yuqori maosh bilan

[19] Ўзбекистои Ресиубликаси Президеитиииг 2024 йил 2 февралда “Таълим соҳасидаги ислоҳотларии жадаллаштириш бўйича кўшимча чора-тадбирлар тўгрисида”ги ПҚ-54-сои Қарори. II-бўлим, 14-баиди.

ishga qabul qilinsa, bilimli talabalarning ish joylari oldindan aniq bo‘ladi. Ushbu jarayon birinchidan, bo‘lajak pedagoglarda kuchli motivatsiyani rivojlantirish bilan birga, mas’uliyatini ham oshirib boradi. Buning uchun MAKTAB-OTM-MAKTAB tizimini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

O‘n uchinchidan, inson salohiyati inson kapitaliga nisbatan kengroq ma’noni anglatadi. Bunda tegishli bilim va tajriba kabi fazilatlar bilan birga yuksak ma’naviy yetuklik ham mujassam bo‘lishi lozimligidan kelib chiqib, insonga katta tarbiya darsini berish lozimligini ham taqozo qiladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, haqiqiy inson salohiyatiga erishish uchun ta’lim va tarbiyaning uyg‘unligi to‘liq ta’minlangan bo‘lishligi lozim. Buning o‘zaro bog‘liqligi quyidagi rasmda keltirilgan (6.2-rasm).



6.2-rasm. Inson salohiyatini shakllantirishda ta’lim va tarbiyaning uyg‘unligini ta’minalaydigan yo‘nalishlar

Mazkur rasmdan ko‘rinib turibdiki, inson salohiyatini shakllantirishda ta’lim va tarbiyaning uyg‘unligi muhim ahamiyatga ega ekan. Ta’lim jarayonida inson kapitali shakllansa, tarbiyani qo‘shib, inson salohiyatiga erishish mumkin. Biroq, inson salohiyati va uni ta’minlaydigan omillar nafaqat ta’lim muassasalarida, balki oilada va jamoat muhitida shakllanadi. Shu tufayli inson salohiyatini

ta’minalaydigan yo‘nalishlarga ham katta ahamiyat berish lozimligini taqozo qiladi.

Bunga to‘liq erishish uchun ota-onalar birinchi galda bolalarini tarbiyadan boshlaydilar. Ma’lum darajada tarbiyalab keyin ta’lim olish va tarbiyani davom ettirish uchun maktabga topshiradilar. Navbatdagi bosqich maktabdan pofessonal ta’lim tizimiga yoki oliy o‘quv yurtlariga tegishli nazariy va amaliy bilimni olish maqsadida topshiradilar. Ushbu maktablar salohiyatli insonni amaliyot uchun tayyorlab, jamiyatga manfaat keltiradigan xodim sifatida shakllantirib, diplom berib hayotga jo‘natadilar. Ushbu subyektlarning o‘zaro bog‘liqligi quyidagi rasmda keltirilgan (6.3-rasm).



6.3-rasm. Inson salohiyatining shakllanishida ishtirok etadigan subyektlarning o‘zaro bog‘liqliklari

Rasmdan ko‘rinib turibdiki, inson salohiyatining shakllanishida ishtirok etadigan subyektlarning o‘zaro bog‘liqliklari shuni ifoda etadiki, inson salohiyatining shakllanishi oiladan boshlanadi va OTMdan amaliyotgacha bosqichni qamrab oladi. Demak, oilada tarbiya olgan bolalar maktablar uchun, maktabda o‘zlashtirishi yaxshi bo‘lgan o‘quvchilar OTMlar uchun, OTMlarning yaxshi bilimga ega bo‘lgan bitiruvchilari amaliyotga jamiyatga xizmat qilish tayyorlaydi. Ushbu yo‘nalishda tayyorlash prinsipini yo‘lga qo‘yish juda ko‘p muvaffaqiyatlarni qo‘lga kiritish imkoniyatini yaratadi.Hozirgi kunda ta’lim tizimida bir qancha ilg‘or davlatlarning ta’lim usullari qo‘llanilmoqda. Bulardan biri Qashqadaryoda faoliyat olib borayotgan Finlyandiyalik ekspert Petri Lounaskorpi ta’lim to‘g‘risida quyidagilarni aytibdi: “Biz Finlyandiyada o‘qituvchilarga 3 ta savol beramiz: **birinchisi**, “Nima?”. Ya’ni “U beradigan ta’limning mazmuni

nimalardan iborat?", "Qanday faktlar asosiga qurilgan?", "Ta'lim mazmuni o'zaro qaysi nuqtalarda kesishadi?".

Ikkinchisi, "Nima uchun?". Ya'ni "Ushbu dasturdan o'quvchi qanday foyda ko'radi?", "Ta'lim jarayonlari imtihonlar uchunmi?", "Real hayot uchunmi?", "Kelajak uchunmi?", "Kasb uchunmi?".

Uchinchisi esa, "Qanday qilib?", ya'ni "O'quvchilarga ta'lim berish uchun eng yaxshi metod nima?" O'ylaymizki, O'zbekistonda ham mana shu jihatlar e'tiborga olinsa, ta'lim jarayonlarini takomillashtirish osonroq kechadi"[20]. Biz mamlakatimizda ushbu bosqichlarga tarbiya jarayonini qo'shadigan bo'lsak, salohiyatli insonlarning shakllanishiga erishamiz. Har qanday bilim tarbiya bilan uyg'un bo'lmas ekan, u jamiyatga to'g'ri va to'liq xizmat qilmaydi.

Ta'lim va tarbiyaning uyg'unligini ta'minlash bilan bog'liq yondoshuvni mamlakatimizning barcha ta'lim tizimida qo'llash mumkin. Buning uchun professor-o'qituvchilarni shunga mos holda tayyorlash, ularning malakasi va mas'uliyatini oshirish, o'quv dasturlarini ham zamon talabiga moslashtirgan holda takomillashtirish, yangicha dars o'tish metodlarini ishlab chiqish lozim bo'ladi. Chunki oddiy odam salohiyatli insonga aylanishi uchun iqtisodiy-ijtimoiy hayotimizga juda zarur bo'lgan bilimga va tarbiyaga ega bo'lishligi lozim. Buni o'rgatadigan ustozlar, ya'ni pedagoglar ham kerak bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu tavsiya va tadbirlar amaliyotga joriy qilinadigan bo'lsa, mamlakatimiz rivojlanishiga qaratilgan "O'zbekiston – 2030" taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarning amalga oshirilishiga, Yangi O'zbekistonning shakllanishiga va Uchinchi Renessans poydevorining shakllanishiga ilmiy-nazariy va amaliy asos bo'ladi.

O'zini-o'zi nazorat qilish va takrorlash uchun savollar:

1. Inson salohiyati bilan bog'liq iqtisodiy kategoriyalar.
2. MBTga oid inson salohiyati nazariy talqini.
3. Inson salohiyatining tarkibiy elementlarining o'zaro bog'liqligi.

---

[20] https://uza.uz/uz/posts/finlyandiyalik-maslahatchi-talimdagi-islohotlar-mazmuni-eng-quyi-tizimgacha-etib-bormayapti_420686

4. Inson salohiyatining o‘ziga xos xususiyatlari.
5. MBTdagi inson salohiyati o‘rni.
6. “Inson kapitali” nazariyasi.
7. Inson kapitalining asosiy xususiyatlari.
8. MBTda inson salohiyatini shakllantirishda ta’limning roli.
9. Sifatli ta’lim va tarbiyaning uyg‘unligini ta’minlash masalalari.
10. Inson salohiyatining shakllanishida ishtirok etadigan subyektlarning o‘zaro bog‘liqliklari.
11. Iqtisodiy salohiyatni rivojlantirishda inson kapitalining ahamiyati.
12. Inson salohiyatining natijadorligi.

VII BOB. MEHNAT BOZORI TRANSFORMATSIYASIDA ISHLOVCHILAR VA ISH BERUVCHILARNING O‘ZARO MUNOSABATLARI

7.1. Mehnat bozori transformatsiyasida talab va taklif.

7.2. MBTda ishsizlik va ish bilan ta’minlanganlik darajasini oshirish imkoniyatlari.

7.3. MBTda xodimlarning huquq va majburiyatlari va ularni ifoda etadigan me’yoriy hujjatlar.

7.1. Mehnat bozori transformatsiyasida talab va taklif

Hozirgi keskin o‘zgarishlar sharoitida mehnat bozori transformatsiyasida talabi va taklif ham jamiyatda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni anglash uchun muhim ahamiyatga ega. Chunki kechagi talab qilingan mutaxassislik bugungi mehnat bozorida unchalik kerak bo‘lmasligi va mos ravishda bugungi talab qilinayotgan mutaxassisliklar mehnat bozorida yetarli bo‘lmasligi ham mumkin. Ushbu holatlarni tahlil qilish orqali mehnat bozoridagi transformatsiya jarayonlarini, ya’ni o‘zgarishlarning holatini muayyan talabi va taklifga moslashtirish imkonini yaratadi.

MBTda talab bevosita iste’molchi (ish beruvchilar) ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Mehnat bozoridagi talabning asosiy omillaridan biri ish beruvchilarning ehtiyojlaridir. Odatda, bular yangi zamonaviy mutaxassislarga qiziqishadi. Shu tufayli mehnat bozoridagi transformatsiya jarayonida yangi mutaxassislarga talablar uyg‘unlashadi.

Albatta ushbu jarayonda iqtisodiy-ijtimoiy shart-sharoitlar ham muhim hisoblanadi. Zero mavjud bo‘lgan iqtisodiy-ijtimoiy hayotning umumiy holati, ya’ni inflyatsiya, ishsizlik darajasi va boshqa iqtisodiy ko‘rsatkichlar MBT talabiga ta’sir ko‘rsatadi. Chunki, bir tarafdan yangi kasblarning taqchilligi yuzaga kelib turgan bir paytda, shu kasbni bilmaydigan o‘nlab ishsizlarning mavjudligi mehnat bozorida nomuvofiqlikni yuzaga keltiradi.

Bunday nomuvofiqliklarni bartaraf qilish uchun mamlakatimizning barcha hududlarida “Ishga marhamat – MONOMARKAZLAR” faoliyat ko‘rsatmoqda. Ushbu markazlarning asosiy vazifalaridan bri mehnat bozori talabiga mos yangi yo‘nalishdagi kasblarni biladigan kadrlarni tayyorlashdan iboratdir. Albatta bular mamlakatimizda yaratilgan juda yaxshi imkoniyatlar. Ammo har bir talabgar (ishlovchi) o‘zi harakat qilib, tegishli imkoniyatlardan samarali foydalanishlari lozim.

Mehnat bozorida kasbidan qat’iy nazar hammasi bir xil kasblarni ham bilishi lozim jihatlari ham bor. Masalan buxgalter ham, iqtisodchi ham, marketolog ham, menejerlar ham o‘z kasbi bilan birga axborot texnologiyalarini bilishi lozim. Yoki tibbiyotda terapevt ham, xirurg ham, kardiolog ham odam anatomiyasini bilish shart. Bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin. Shu tariqa mehnat bozoridagi tendensiyalar o‘zgarishi talab va taklifning zamon talabiga mos shakllanishiga olib keladi. Yangi tendensiyalar uzluksiz o‘zgartirib borishi tabiiy. Chunki kasblar, faoliyatlar zamonga mos holda kengayib bormoqda.

MBTda taklif ham o‘ziga xos talablarga javob berishni taqozo qiladi. Jumladan, bozorda sotiladigan mahsulotning sifati yuqori, talab darajasida bo‘lishini talab qilgani singari MBTda ham sifatli kadrlarga talab kundan kunga oshib bormoqda. Mehnat bozoridagi taklif, ishchilarning malakalariga bog‘liq. Mehnat bozorida zamonaviy sifatli kadrlarga ko‘proq talab ortib bormoqda. Transformatsiya jarayonida, yangilangan texnologiyalar va ularni boshqarishga qaratilgan eng zamonaviy usullar va ularni amalga oshiradigan kadrlarga ehtiyojlarning oshib borishi ushbu jarayonda takliflarning yaxshilashga yordam beradi.

Barcha bozorlar singari MBTda ham raqobat muhiti mavjud. Bozor raqobati taklifning sifatli bo‘lishini talab qiladi. Agar ushbu bozorda ham ko‘plab taklif beruvchilar mavjud bo‘lsa, bu raqobatni kuchaytiradi, shuning natijasida taklif qilinadigan kadrlarning malakasi yuqori, kadr sifatidagi malakasi oshib borishi tabiiy.

MBTda taklifida o‘zgarishlarga olib keladigan omillardan biri texnik va texnologik innovatsiyalarning hayotimizga jadallik bilan kirib kelishi bilan ham bog‘liqdir. Yangi texnologilar va innovatsiyalar taklifning yagi tomonga o‘zgarishida, uni yaxshilashda muhim rol o‘ynaydi. Transformatsiya jarayonida yangi mutaxassisliklar, ular tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar va ishlatadigan texnologiyalar taklif qilinsa, bu bozordagi mavqeini mustahkamlashga yordam beradi.

Mehnat bozori transformatsiyasida (MBTda) talab va taklifning o‘zaro aloqasi bozorning dinamik rivojlanishini belgilaydi. Ish beruvchichilarning ehtiyojlari, iqtisodiy shart-sharoitlar va shunga mos ehtiyojlar talabni shakllantiradi, texnik innovatsiyalar, raqobat va ish kuchining sifati esa taklifni belgilaydi. Bu ikki omilning o‘zaro ta’siri mehnat bozorni yuqori samaradorlikda rivojlantirish imkoniyatlarini yaratadi va mos ravishda taraqqiyotni, jamiyatning raqobatbardoshligini ta’minlaydi.

Ko‘rinib turibdiki, mehnat bozorining holati bevosita ish beruvchilar va ishlovchilar tomonidan bozorda foydalanish uchun taqdim etiladigan xodimlar va ularning malakalariga bog‘liq ekan. Bu bozordagi holat shu mamlakat yoki hududning iqtisodiy shart-sharoitlariga, rivojlanish darajasiga ham bog‘liq. Aynan ushbu omillar ishlab chiqarish xarajatlarini, texnologik o‘zgarishlarni va ish haqining darajasini belgilaydi.

Barcha bozordagi kabi talab va taklif MBTda ham o‘zaro bog‘liqlik jihatlariga ega. Mavjud bozor narxlari talab va taklif o‘rtasidagi muvozanatga bog‘liq. Agar talab taklifdan yuqori bo‘lsa, narxlar oshishi mumkin va mos ravishda taklif talabdan yuqori bo‘lsa, narxlar pasayishi mumkin. Bu yerda narx o‘rnida xodimlarga to‘lanadigan ish haqi inobatga olinadi. Biroq ish haqining darajasi talab va taklifdan tashqari shu jamiyatdagi iqtisodiy ahvolga, davlat siyosatiga, taraqqiyot darajasi kabi omillar bilan bog‘liqdir. Ushbu holat doimiy ravishda mehnat bozoridagi o‘zgarishlarni yuzaga keltirib turadi. Shu tufayli mehnat bozori juda murakkab bozorlardan biri sifatida aholisining ish bilan ta’minlanishiga, malakalari darajasiga ta’sir qiladi.

Xulosa qilib aytganda, mehnat bozorida ham talab va taklif nazariyasi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishda muhim vosita hisoblanadi. Shu tufayli MBT fanini nazariy va amaliy jihatlarini chqur o‘rganish va uni amaliyotda qo‘llash mamlakatimizda ishsizlikka barham berish, xodimlar malakasini oshirish, kambag‘allikni qisqartirish, davlatning raqobatbardoshligini ta’minlash kabi jihatlarga ijobiy ta’sir qiladi.

7.2. Mehnat bozori transformatsiyasida ishsizlik va ish bilan ta’minlanganlik darajasini oshirish imkoniyatlari

Mamlakatimizda ishsizlikni kamaytirish, kelajakda uni tugatish orqali kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha strategik tadbirlar belgilangan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11 sentyabrda “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli farmonining 28 maqsadida “Mehnatga layoqatli aholini shu jumladan, yoshlar va nogironligi bo‘lgan shaxslarni barqaror va samarali bandligini ta’minlash orqali ishsizlik darajasini tushirish” masalasi qo‘yilgan bo‘lsa, 32-maqsadida “Yoshlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va ishsizlik darajasini kamaytirish” masalasiga bag‘ishlangan. Bunga asosan bir qancha qarorlar va boshqa me’yoriy hujjatlar qabul qilingan. Ushbu hujjatlarda xalqimizning erkin va farovon hayotni ta’minlash, qudratli Yangi O‘zbekistonni barpo etish uchun ularning ish bilan bandligini oshirish va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilangan. Ko‘rinib turibdiki, mazkur masala bugungi kunda o‘ta dolzarb masalalardan biri sanaladi.

Ishsizlik tushunchasining mavjudligi shu aholi o‘rtasida kambag‘allikning hukm surayotganligining bir ko‘rinishi hisoblanadi. Ishlamagan odamning topadigan daromadi bo‘lmaydi va mos ravishda u kambag‘al holatda yashashiga to‘g‘ri keladi. **Ishsizlik deganda**, odamlarning ish bilan ta’minlanmaganligi, ya’ni ularning mehnat faoliyat bilan shug‘ullanmayotgani tushuniladi. Ishsizlik ko‘pincha iqtisodiy muammolar, bizning zamonlarda o‘zgarishlar, texnologik taraqqiyot, ijtimoiy masalalar ichida paydo bo‘lishi mumkin. Ishsizlik

darajasi mamlakatdagi iqtisodiy muhit, davlat siyosatlari, ish o‘rinlari yaratishning samaradorligi va boshqa omillarga bog‘liq bo‘ladi.

Ishsizlikning eng yuqori darajasi Afrika va arab mamlakatlarida kuzatilgan. Xalqaro mehnat tashkilotining «Global bandlik va ijtimoiy istiqbollar: 2023-yildagi tendensiyalar» hisobotiga ko‘ra, joriy yilda dunyoda ishsizlik darajasi oshadi. Tashkilot ma’lumotlariga ko‘ra, o‘tgan yil oxirida dunyoda ishsizlar soni 205,2 million kishini tashkil qilgan. Bu 2021-yilga nisbatan 11,2 million kishiga va pandemiya boshlangan 2020-yilga nisbatan 30 millionga kamdir. Biroq pandemiyadan oldingi davrga (2019-yil) nisbatan bu ko‘rsatkich 13,3 million kishiga ko‘pdir. Xalqaro mehnat tashkilotining bu yilgi prognozlariga ko‘ra, dunyoda ishsizlar soni 3 millionga oshib, 208,2 million kishiga, 2024-yilda esa 210,9 million kishiga etadi[21].

O‘tgan yili dunyoda ishsizlik darajasi 5,8 foizni tashkil qilgan. Bu 2021-yilga nisbatan 6,2 foizga va pandemiya boshlangan yilga nisbatan 6,9 foizga kam. Ammo 2019-yilga nisbatan bu 5,5 foizga yuqori. XMT prognoziga ko‘ra, ishsizlik darajasi 2023-2024-yillarda o‘zgarishsiz qoladi (5,8 foiz). Jinslar nuqtai nazaridan, ishsizlik darajasida sezilarli farq yo‘q. O‘tgan yili ishsizlik ayollar o‘rtasida 5,8 foiz, erkaklarda 5,7 foizni tashkil etgan. 2023-2024-yillarda ishsiz erkaklar darajasi o‘zgarmaydi, 2024-yilda ayollar o‘rtasidagi ishsizlik ko‘payadi va 5,9 foizni tashkil qiladi.

Mintaqalar bo‘yicha ishsizlikning eng past darajasi (5,2 foiz) o‘tgan yili Osiyo-Tinch okeani mamlakatlarida kuzatilgan. 2023-2024-yillarda vaziyat saqlanib qolishi va ko‘rsatkich 5,1 foizga kamayishi kutilmoqda. Shu bilan birga, Lotin Amerikasi va Karib havzasi mamlakatlarida bu ko‘rsatkich 7 foizni, Shimoliy Amerika mamlakatlarida (AQSh va Kanada) 3,8 foizni, Yevropa va Markaziy Osiyoda 6,1 foizni, Afrikada 7,1 foizni tashkil qilgan. Ishsizlikning eng yuqori darajasi arab mamlakatlarida kuzatildi. O‘tgan yili bu ko‘rsatkich 9,3 foizni tashkil etdi[22].

---

[21] https://kun.uz/kr/news/2023/02/04/dunyoda-ishsizlar-soni-205-milliondan-oshdi.
[22] https://kun.uz/kr/news/2023/02/04/dunyoda-ishsizlar-soni-205-milliondan-oshdi.

Ushbu raqamlar dunyo mamlakatlari o‘rtasida o‘rtacha olingan. Ammo ishsizlik turli mamlakatlarda va mintaqalarda turlicha Dunyo miqyosida **ishsizlikning bir necha turlari mavjud**. Bularga quyidagilarni ko‘rsatish mumkin (7.1-jadval).

7.1-jadval

Mehnat bozorida aniqlangan ishsizlikning turlari

T/r	Ishsizlikning turlari	Ishsizlik turlarining izohi
1.	Friksion (qisqa muddatli) ishsizlik	Bu tur ishchilarning oilaviy, tibbiy yoki shaxsiy sabablar bilan ishdan ozod bo‘lganligi tushuniladi. Ayrim hollarda ishchining yangidan ish zahirasi topish uchun vaqtincha ishdan bo‘shagan vaqtida sodir bo‘ladi. Friksion ishsizlik ko‘pincha qisqa muddatli bo‘ladi.
2.	Tarkibiy ishsizlik	Bu ishsizlik – iqtisodiy o‘zgarishlar, texnologiyalar va boshqa omillar sababli ba’zi sohalarda ish o‘rinlari yo‘qolishi natijasida yuzaga keladigan ishsizlik. Bu texnika yoki bozor talablari o‘zgarganda, ayrim yo‘nalishlarda ishchilarga ehtiyoj kamayganligi natijasida vujudga keladigan ishsizlikdan iboratdir.
3.	Siklik ishsizlik	Siklik ishsizlik iqtisodiy siklarning yuqori va pastlari natijasida yuzaga keladi. Iqtisodiy rivojlanish davrida ishsizlik darajasi kamaysa, retsessiya (pasayish) davrida esa ortishi kuzatilishi mumkin.
4.	Mavsumiy ishsizlik	Ayrim soha va faoliyatlar belgilangan davrlarda amalga oshiriladi. Misol uchun, qish faslida qishloq xo‘jaligida (dehqonchilikda) ishsizlik yilning boshqa fasllariga nisbatan ko‘proq uchraydi.
5.	Malakasizlik bilan bog‘liq ishsizlik	Ushbu ishsizlik odatda, malakali yoki maxsus bilimlarga ega bo‘lmagan odamlar orasida yuzaga keladi. Shunday bo‘lganda, ish beruvchilarning talablariga javob berolmaydigan odamlar ishsiz bo‘lib qoladilar.

Bu turlardagi ishsizlikning xususiyatlari ko‘p hollarda bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan holda sodir bo‘ladi. Bularning har biri iqtisodiy va ijtimoiy ahvoga turli tahdidlarni tug‘diradi. Ish bilan ta’minlanmagan aholida kambag‘allik yuzaga keladi. Bularning yashashida xotirjamlik yo‘qoladi. Shu tufayli ishsizlikni bartara qilish har qanday mamlakat

singari bizning mamlakatimizda ham o‘ta dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda ham bu masala davlatimiz e’tiborida. Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ishsizlik darajasi qanday hisoblanishi haqida ma’lumot berdi. Unga ko‘ra, xalqaro mehnat tashkilotining umume’tirof etilgan metodologiyasiga asosan ishsizlik darajasi umumiy mehnat resurslari emas, balki iqtisodiy faol aholi soniga nisbatan hisoblanadi. 2020-yil 1 yanvar holatiga ko‘ra, iqtisodiy faol aholiga nisbatan ishsizlik darajasi 9,0 foizni tashkil etgan[23]. Ko‘rinib turibdiki, ishsiz aholi mamlakatimizda mavjud. Shu tufayli mazkur masalada uni kamaytirish bo‘yicha izchillik bilan choralar ko‘rilmoqda.

O‘zbekistonda 2022-yilning yanvar-iyun oylarida ishsizlik darajasi 8,8 foizni tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 0,9 foizga kamayganligi haqida Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi xabar qildi[24]. Ma’lum qilinishicha, 2022-yilning iyun oyida vazirlik huzuridagi Mehnat bozori tadqiqotlari instituti tomonidan respublikaning 108 ta shahar va tumanlarida navbatdagi ijtimoiy so‘rov o‘tkazildi. Xalqaro mehnat tashkiloti tavsiyalari asosida o‘tkazilgan tadqiqot davomida 500 ta o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, 5,0 ming ta uy xo‘jaliklari hamda 26,5 ming nafar fuqarolar qamrab olindi. 2022-yilning 1-iyun holatida mehnat resurslari soni 19453,3 ming kishini tashkil etib, 2021-yilning shu davriga nisbatan 100,8 foizga yoki 153,7 ming kishiga oshgan[25].

Mamlakatimiz iqtisodiyot tarmoqlarida band bo‘lganlar soni 13773,6 ming kishini tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 1,9 foizga yoki 261,3 ming kishiga oshgan. Agar turlari bo‘yicha e’tibor qaratiladigan bo‘lsak, rasmiy sektorda band aholi soni 6074,4 ming kishini tashkil qilib, 2021-yilning shu davriga nisbatan yuridik shaxslarda band bo‘lganlar soni 4,1 foizga yoki 240,6 ming kishiga oshgani kuzatilgan. Norasmiy sektorda band bo‘lganlar soni

[23] https://darakchi.uz/uz/86268
[24] https://daryo.uz/2022/08/12/ozbekistonda-2022-yilning-birinchi-yarmidagi-ishsizlik-darajasi-malum-qilindi/
[25] https://daryo.uz/2022/08/12/ozbekistonda-2022-yilning-birinchi-yarmidagi-ishsizlik-darajasi-malum-qilindi/

5690,3 ming kishini tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan 8,2 foiz yoki 507,5 ming kishiga kamaygan[26].

Qayd etilishicha, bunda asosan, norasmiy tarzda faoliyat ko‘rsatayotgan fuqarolarning o‘zini-o‘zi band qilgan shaxs sifatida ro‘yxatdan o‘tishi hamda bo‘sh turgan yerlarni ekin maydonlari sifatida dehqon xo‘jaliklarini tashkil qilish uchun ajratib berilishi hisobiga erishilgan. Shuningdek, xorijiy davlatlarga ishlash uchun ketganlar 2008,8 ming kishini tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 528,2 ming kishiga oshishi norasmiy bandlarni kamayishiga sabab bo‘lgan.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra ishga muhtoj bo‘lganlarning umumiy soni 1326,6 ming kishini, ishsizlik darajasi iqtisodiy faol aholi orasida 8,8 foizni tashkil etdi. 2022-yilning yanvarida bu ko‘rsatkich 1441,8 ming kishini (9,6 foizni) tashkil etgandi. 16-30 yoshgacha bo‘lganlar orasida ishsizlik darajasi 14,5 foiz, ayollar orasida ishsizlik darajasi esa 12,8 foizga teng bo‘ldi[27]. Ko‘rinib turibdiki, ishsizlar soni rasmiy ma’lumotlar bo‘yicha hamon anchani tashkil etadi.

Mamlakatimizda iqtisodiy nofaol aholining mavjudligi ham ancha kishini tashkil qiladi. 2022-yilning 1-iyul holatida respublikada iqtisodiy nofaol aholi 4353,2 ming kishini tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 0,9 foizga yoki 38,8 ming kishiga ortishi kuzatildi. Bunda, ishlashni xohlamaydigan yoki darhol ishga joylashishga imkoniyati yo‘qlar o‘tgan yilga nisbatan 183,6 ming kishiga kamaygan bo‘lsa, ishlab chiqarishdan ajralgan holda o‘qiyotgan talabalar hamda tug‘ruq tatilidagi ayollar soni 222,4 ming kishiga oshgan. Ishsizlik oqibatida kam ta’minlangan kambag‘al qatlamni qo‘llab-quvvatlash uchun O‘zbekistonda 6 oyda 20 mingdan ziyod ishsiz fuqaroga 21 mlrd 487 ming so‘m ishsizlik nafaqasi to‘langan.

O‘zbekistonda aholining bandlik darajasi davlatning iqtisodiy siyosati, investitsiyalarning jalb qilinishi natijasida yangi ish o‘rinlarini yaratilishi, ta’lim tizimi va boshqa turli ijtimoiy-iqtisodiy omillarga

[26] https://daryo.uz/2022/08/12/ozbekistonda-2022-yilning-birinchi-yarmidagi-ishsizlik-darajasi-malum-qilindi/
[27] https://daryo.uz/2022/08/12/ozbekistonda-2022-yilning-birinchi-yarmidagi-ishsizlik-darajasi-malum-qilindi/

bog‘liq bo‘lib ta’sir ko‘rsatadi. 2023-yilga kelib, O‘zbekistonda bandlik darajasini oshirish va ishsizlikni kamaytirish maqsadida yangi ish o‘rinlarining yaratilishi bilan bog‘liq ko‘plab tadbirlar amalga oshirilmoqda. Davlat ishsizlikni kamaytirish, bandlikni oshirish maqsadida bir qator dasturlar va loyihalarni amalga oshirmoqda. Buning uchun kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va ta’lim tizimini raqamlashtirish kabi chora-tadbirlar ko‘rilmoqda. Xullas, ishsizlik darajasi har yili o‘zgarib boradi va bu ko‘pincha iqtisodiy holat, global iqtisodiy tendensiyalar hamda mahalliy iqtisodiy taraqqiyot darajasidan kelib chiqadi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda bandlik darajasi dunyo mamlakatlari singari ma’lum miqdorga ega. Buni bartaraf qilish orqali kambag‘allik darajasini qisqartirish imkoniyatlarini ham yaratish mumkinligi mamlakatimizning har bir fuqarosining e’tiborida bo‘lmog‘i lozim. Bunga erishish uchun bir qancha vazifalarni amalga oshirishga to‘g‘ri keladi. Bular, bizning fikrimizcha quyidagilardan iborat:

Birinchidan, aholining farovonligina ta’minlab, kambag‘allikni keskin qisqartirish uchun ishsizlikka barham berish choralarini ko‘rish uchun har bir shaxsning ish bilan bandligina ta’minlashga qaratilgan mas’uliyatini oshirish lozim bo‘ladi. Buning uchun tegishli tashviqot va targ‘ibot ishlarini ham amalga oshirish lozim, deb hisoblaymiz.

Ikkinchidan, ishsizlikning turlarini, xususan friksion (qisqa muddatli) ishsizlik, tarkibiy ishsizlik, siklik ishsizlik, mavsumiy ishsizlik, malakasizlik kabilarni mamlakatimizning har bir mahallasida aniqlab, shu yo‘nalishlar bo‘yicha yangi ish o‘rinlari yaratib, ishsizlikni tugatish choralarini ko‘rish lozim bo‘ladi, deb hisoblaymiz.

Uchinchidan, ishsizlikni kamytirish uchun barcha ta’lim muassasalarida nazariya bilan amaliyot uyg‘unligini ta’minlab, dual ta’limni joriy qilish va ularni mehnat bozoriga tayyor holda chiqarish lozim. Shunda har qanday bosqichda o‘qishni bitirgan bo‘lsa, tayyor ish bilan shug‘ullanish uchun imkoniyat va malaka shakllangan bo‘ladi.

Umumiy xulosa tarzida ta’kidlash joizki, ushbu takliflarning amalga oshirilishi mamlakatimizda Yangi O‘zbekistonni

shakllantirishga mo‘ljallangan «O‘ZBEKISTON – 2030» strategiyasida ko‘zda tutilgan xalqimizning erkin va farovon hayotini ta’minlash uchun ish bilan bondlikni oshirib, ishsizlikni kamaytirish kabi vazifalarning bajarilshiga xizmat qiladi.

7.3. MBTda xodimlarning huquq va majburiyatlari va ularni ifoda etadigan me’yoriy hujjatlar

Mehnat bozori transformatsiyasi (MTB) deganda ishchilar va ish beruvchilar o‘rtasidagi aloqalarning iqtisodiy-ijtimoiy omillar evaziga o‘zgarishlarini tartibga soluvchi mexanizm tushuniladi. Bu bozordagi o‘zgarishlarda xodimlarning mehnat huquqlari va majburiyatlari ham muhim ahamiyatga ega. Chunki barcha jarayonlar, shu jumladan, MBTsidagi o‘zgarishlar ham ma’lum tartib-qoidalar asosida amalga oshiriladi. Bu esa amaldagi me’yoriy hujjatlar asosida boshqariladi.

Bunda ishchilarning va ish beruvchilarning huquqlari mavjud. Bu huquqlar har bir tomonning manfaatlarini o‘zida ifoda etadi.

Birinchi yo‘nalish, ishchilarning huquqlari ham bir qancha yo‘nalishda ifodalanadi. Bularga:

* aniq belgilangan mehnat shartlari;
* o‘z huquqlarini himoya qilishi;
* nafaqa va belgilangan kompensatsiyalarni olish;
* mehnat jarayonida sog‘ligi va xavfsizligining kafolatlanganligi.

Bularga qisqagina izoh berish lozim, deb topdik.

Aniq belgilangan mehnat shartlari bevosita ishchilar bilan tuzilgan mehnat shartnomasida aniq belgilangan bo‘ladi. Bunda aniq ish vaqti, ish hajmi, ish haqi, rag‘batlantirish shartlari, xavfsizligining ta’minlanishi kabi shartlari aniq belgilangan bo‘ladi.

O‘z huquqlarini himoya qilish ham ikki tomon uchun ham muhim ahamiyatga ega. Bunda ishchilar o‘z huquqlarini himoya qilish va qonunan belgilangan imkoniyatlardan foydalanish huquqiga egaligi ham me’yoriy hujjatlarda o‘z aksini topgan bo‘ladi. Xodimda ishlash huquqi bor, lekin ish vaqtida sababsiz ishlamaslik ma’lum tartib-qoidani buzgan hisoblanadi. Yaxshi ishlaganligi uchun rag‘batlantirish

talab qilinsa, qoidani buzganligi uchun jazo ham muqarrar. Shu jihatdan qonun hujjatlari jamoani boshqarishda muhim ahamiyatga ega.

Nafaqa va belgilangan kompensatsiyalarni olish masalasi ham ishlovchilar uchun ahamiyatlidir. Ishlovchilar amaldagi me'yoriy hujjatlarga binoan mehnat shartnomasida barcha huquq va majburiyatlari aniq belgilangan bo'ladi. Bunga binoani vaqti kelganda nafaqalarni talab qilish va belgilangan kompensatsiyalarni olish huquqiga ham egadir. Shu tufayli ish beruvchi bu shartlarni bajarishga majbur. Ko'rinib turibdiki, xodimlarning huquq va majburiyatlari qonun bilan kafolatlangan.

Mehnat jarayonida ishlovchilarning sog'ligiga va xavfsizligining ta'minlanganligi ham muhim ahamiyatga ega. Bu masala ham me'yoriy hujjatlarda o'z aksini topgan. Shunga asosan ishlovchilar mehnat joylarida o'zlarining xavfsizligi va sog'lig'ini saqlash shartlarini talab qilish huquqiga egadir. Chunki har bir sohada o'ziga xos ish sharoitlari mavjud. Bunda birinchi galda insonlarning salomatligining muhofazasi turishi lozim. Buning uchun maksimal sharoit yaratib berilishi maqsadga muvofiq.

Ikkinchi yo'nalish ish beruvchilarning huquqlaridan iborat.Bular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

* ishni boshqarish;
* shartnoma tuzish;
* intizomni talab qilishi kabilar.

Ishni boshqarish jarayonini menejment deb ataydilar. Bu o'z ichiga tashkilotning oldidagi tegishli maqsadlarga erishish uchun inson, resurs va jarayonlarni samarali boshqarish bilan bog'liq turli usullarni qamrab oladi. Bu quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

Eng avvalo ish **rejalashtiriladi**. Bunda aniqlash maqsadlar va strategiyalar hamda ularni bajarish mexanizmlari ishlab chiqiladi. Bu tadbirlar korxona va tashkilotlarning mavjud resurslarini va muhitini hisobga olgan holda ishlovchilarning faoliyatini yo'naltiradi. Masalan bog'da ishlayotgan bo'lsa, bahorda daraxtlarning tagini choptiradi, kuzda hosilini terdiradi va h.k.

Ikkinchi yo‘nalish korxonada ishlovchilar, shuningdek, moddiy, moliyaviy va axborot resurslarni samarali boshqarish uchun tegishli tizimni **tashkil qilish**dan iborat. Bu vazifa tegishli jamoalarda va ular o‘rtasidagi aloqalarni qanday o‘rnatilishini aniqlash kabi jarayonlarni o‘z ichiga oladi.

Navbatdagi yo‘nalish korxonada va tashkilotning funksiyalarini **boshqarish** hamda jamoa a’zolari va muassasalar o‘rtasida aloqalarni o‘zaro bog‘liqligini ta’minlashga qaratilgan. Bu bosqichda umumiy rahbarlik, rag‘batlantirish (motivatsiya) va bularni amalga oshirish kabi jarayonlar qamrab olinadi.

Tashkil etilgan rejalar va maqsadlarni ishlab chiqish, faoliyat natijalari, bajarilgan ishlarni nazorat qilish ko‘rsatkichlarni tekshirish bevosita **nazorat qilish** orqali amalga oshiriladi. Bu jarayonda samaradorlikni baholash va zarur bo‘lsa, yaxshi natijalarga erishish uchun takliflarni kiritish ham lozim bo‘ladi.

Ishni boshqarishda **rag‘batlantirish** (motivatsiya) ham muhim o‘ringa ega. Shu yo‘l bilan xodimlarning faolligini, ijodkorligi va ishga bo‘lgan munosabatini yaxshilash imkoniyati yaratiladi. Bunga erishish uchun samarali va odilona rag‘batlantirish mexanizmlaridan foydalanish yuqori samara beradi. Shuningdek, hayotdagi o‘zgarishlar va shunga mos yuqori malakali kadrlarni jalb qilish ham muhim omillardan biri hisoblanadi.

Ishni boshqarishning samaradorligi tashkilotning uzoq muddatli mo‘ljallari va muvafaqqiyatiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Tashkilotda menejment jarayonini samarali amalga oshirish, jamoaga moslashgan rahbarlik uslublarini va imkoniyatlarni yaratish orqali ijobiy natijalarga erishish mumkin. Chunki ish beruvchilar o‘z korxonasida ishni boshqarish va tashkil qilish huquqiga ega.

Uchinchi yo‘nalish, shartnoma tuzish bilan bog‘liq jarayonlarni qamrab oladi. Ish beruvchilar ishlovchilar bilan mehnat shartnomasini tuzishda mustaqil rejalarni amalga oshirish uchun tegishli tadbirlarni qonun doirasida, kelishib olish va uni shartnomaga kiritish huquqiga egadir. Shartnoma tuzish, yuridik va huquqiy yetuklikni talab etadi. Bunda eng avvalo **shartnomaning nomi** belgilanib olinadi. Masalan,

“Xizmat ko‘rsatish shartnomasi”, “Sotuv shartnomasi”, “Yetkazib berish shartnomasi” kabilar. Bu hujjatda shartnomaga ishtirok etuvchi **tomonlar** va **ishtirok etuvchi taraflar** ham aniq ko‘rsatilishi lozim, Masalan, bir tomonda “Sotuvchi” va ikkinchi tomonda “Xaridor” to‘g‘risida ma’lumotlar aniq ifoda etilgan bo‘lishi lozim.

Bunda shartnoma predmeti asl maqsadi va nima bo‘yicha kelishuv qilinganligi ham aniq ko‘rsatiladi. Bunda aniq shartlar ham qo‘yiladi, ya’ni unda to‘lanadigan mablag‘, xizmatlar muddati va boshqa muhim shartlar o‘zining aniq ifodasini topadilar. Shartnomada ifodalanadigan shartlardan biri taraflarning mas’ulliklari va shartnoma buzilganda qanday choralar ko‘rilishi mumkinligi ham shu yerda qayd etilishi lozim.

Shartnomaning yana bir muhim talabi, unda shartnoma qanday shartlar va vaziyatlarda tugatilishi mumkinligi ham aniq ko‘rsatiladi. Agar shartnoma biror narsa ishlab chiqarishga yoki ish bajarishga qaratilgan bo‘lsa, uning tegishli talablarga mosligi ham inobatga olinadi. Agar maxsus talablar va litsenziyalar mavjud bo‘lsa, buning talablariga albatta amal qilish ham lozim bo‘ladi. Ushbu hujjatning oxirgi bosqichi, uni tayyorlash va imzolash bilan bog‘liq. Shartnoma tuzilgan sana, joy va tomonlarning imzolari qo‘yilib, muxrlangan paytdan boshlab bu hujjat kuchga kiradi.

To‘rtinchi yo‘nalish intizomni talab qilishi bilan bog‘liq. Ish beruvchilar ish joyida tegishli intizomni talab qilish huquqiga ega. Bu bevosita ma’lum qonun va qoidalarga, belgilangan tartiblarga amal qilgan holda faoliyat ko‘rsatishni o‘z ichiga oladi.

Ishlovchilarning majburiyatlari. Ishlovchilarning majburiyatlari har xil lavozimlarga bog‘liq holda o‘zgarib turadi, ammo umumiy majburiyatlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi. Ularn ing umumiy majburiyatlariga o‘z vazifalarini samarali va sifatli bajarishlari kiradi. Buning uchun vaqtni to‘g‘ri boshqarish lozim bo‘ladi. Bunda vaqtdan to‘g‘ri foydalangan holda belgilangan ishlarni belgilangan muddatlarda tugatish va talab darajasida bajarish ham kerak bo‘ladi.

Albatta ushbu jarayonda ishlovchilar o‘zlarining huquq va majburiyatlarni bilishi uchun mehnat qonunlari, ish beruvchi talablari

va tashkilotning ichki tartib qoidalari haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lishlari ham zarurdir.

Odatda ishchilar jamoaviy ishlarni bajarish bilan mashg‘ul bo‘ladi, shunga ko‘ra, ular boshqalar bilan samarali aloqa o‘rnatishlari ham kerak. Bu o‘z navbatida ko‘pchilik bilan hamkorlik qilish zaruriyatini tug‘diradi. Bunda har bir inson odob-axloq qoidalariga amal qilgan holda, birovning ham asabiga tegmasdan, o‘zining ham asabini buzmaydigan bo‘lishi lozim. Asabbuzarlikka yo‘l qo‘yilganda albatta sabr qilish ham odobdan hisoblanadi. Shu tufayli har bir ishlovchi xodim faoliyatiga mos etika va odob-axloq qoidalariga amal qilgan holda ish joyida ma’naviy qoida, me’yor va standartlarga rioya qilish, hamkasblar bilan muhitni salbiy holatga olib kelmasliklari lozim.

Ishlovchi xodim hozirgi zamon talabidan kelib chiqib, o‘zining kasbiy bilimlarni muntazam ravishda oshirib borishi uchun doimiy ravishda o‘zining tajribasi va ko‘nikmalarini ham moslashtirgan holda takomillashtirib borish ham maqsadga muvofiq. Butun faoliyati davomida har bir xodim xavfsizlik talablariga rioya qilishi, ish joyidagi ushbu masalaga oid qoidalariga rioya etish ham maqsadga muvofiq.

Ishlovchilarning majburiyatlari, shunchaki, oddiy vazifalar bilan chegaralanib qolmaydi, balki jamoada yaxshi muhit yaratish va kasbiy (professional) rivojlanish uchun ham muhimdir.

Ishlovchilarning majburiyatlari tarkibiga ishni bajarish vazifasi ham kiradi. Qonun-qoidalar bo‘yicha ishlovchilar o‘z vazifalarini talab darajasida to‘liq bajarishga majburdir. Bunga erishish uchun intizom muhim ahamiyatga ega. Bunda ishlovchilar ish joyida odobni saqlash va beriladigan topshiriqlarga to‘liq rioya qilish majburiyatiga egaligini unutmasliklari lozim. Bunda, yuqorida ta’kidlanganidek, xavfsizlik qoidalariga ham to‘liq rioya qilishlari lozim. Buning uchun ishlovchilar xavfsizlik choralariga amal qilish va sog‘liqni saqlash shartlarini ta’minlash majburiyatiga ham egaligini unutmasliklari lozim.

Ushbu bo‘limda **ish beruvchilarning ham majburiyatlari** muhim. Bunda sharoitlarda ko‘rsatilgan shartlarga to‘liq amal qilish, xususan, ish beruvchilar ishlovchilar uchun xavfsiz va sog‘lom mehnat shartlarini ta’minlash majburiyatiga egaligini unutmasliklari lozim.

Ushbu majburiyatlar tarkibida ishlovchilarga to‘lovlarni adolatli amalga oshirilishi ham muhim ahamiyatga ega. Bunda ish beruvchilar ishchilarga belgilangan haqlarni yoki kompensatsiyalarni to‘lash majburiyatiga egaligini ham unutmasliklari lozim. Yana bir muhim vazifa ishchilarni himoya qilishdan iboratdir. Ish beruvchilar oilaviy hamda mehnat munosabatlari sohasidagi huquqlarni himoya qilish majburiyatiga egadir.

Xulosa qilib aytganda, mehnat bozorida huquq va majburiyatlarni to‘g‘ri tushungan holda, ishchilar va ish beruvchilar orasida ishonchli va samarali munosabatlar o‘rnatishga erishilsa, mazkur xo‘jalik yurituvchi subyektlarda mehnat munosabatlarining sog‘lom, samarali va adolatli bo‘lishiga yordam beradi.

Mamlakatimizda 7 ta bo‘lim, 34 bob, 581 moddadan iborat “O‘zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi” qabul qilingan. Bunga bir qancha o‘zgartirishlar kiritilgan (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.10.2022 y., 02/22/798/0972-son; 12.04.2023 y., 03/23/829/0208-son; 29.11.2023 y., 03/23/880/0905-son; 22.02.2024 y., 03/24/911/0142-son; 04.07.2024 y., 03/24/934/0469-son; 21.09.2024 y., 03/24/963/0735-son). Shuningdek, bir qancha qonunosti hujjatlari ham amal qilib kelmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 6-sentyabrdagi “Mehnat bozorida mehnat munosabatlarini tartibga solishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 743-sonli qarori O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining o‘z ahamiyatini yo‘qotgan ayrim qarorlarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘z ahamiyatini yo‘qotgan qonunchilik hujjatlarini qayta ko‘rib chiqish tizimini joriy etish orqali mamlakatda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 27-sentyabrdagi PF-6075-son Farmoni)

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Mehnat bozori va ushbu sohaga oid bir qancha qarorlari qabul qilingan. Ularning ro‘yxatini keltiramiz.

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 12-sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini xorijda uyushgan holda ishga joylashtirish tizimini yanada takomillashtirish va tubdan qayta ko‘rib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 725-son Qarori;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 10-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida majburiy mehnatga barham berishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 349-son Qarori;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1066-son Qarori;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 12-maydagi “Imtiyozli shartlarda pensiyaga chiqish huquqini beruvchi ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko‘rsatkichlarning ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 250-son Qarori;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 6-iyuldagi “O‘zbekiston Rspublikasida yangi mehnat daftarchalarini joriy qilish to‘g‘risida”gi 402-son Qarori;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 5-dekabr “Mehnatni muhofaza qilish sohasida yakka tartibda va jamoa tartibida himoya qilish vositalarini yaratish hamda ishlab chiqarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 450-son Qarori;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 11-mart “O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan normativ hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 133-son Qarori;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 6-iyundagi “Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 286-son Qarori;

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 12-yanvar “O‘zbekiston Respublikasining idoralararo tusdagi xalqaro shartnomalarini tuzish, bajarish, to‘xtatib turish, to‘xtatish va bekor qilish tartibi to‘g‘risida”gi 15-son Qarori;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 12-iyuldagi “Mehnatni muhofaza qilishga doir me’yoriy hujjatlarni qayta ko‘rib chiqish va ishlab chiqish to‘g‘risida”gi 267-son Qarori;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 18-may O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Vaqtinchalik bir martalik ish bilan ta’minlash byurolarini tashkil etish to‘g‘risida”gi 71-son Qarori;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 11-fevraldagi “Xodimlarga ularning mehnat vazifalarini bajarish bilan bog‘liq holda jarohatlanishi, kasb kasalliklariga chalinishi yoki salomatlikning boshqa xil shikastlanishi tufayli etkazilgan zararni to‘lash qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 60-son Qarori;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 12-noyabrdagi “Korxonalar, tashkilotlar va muassasalarda mehnatni muhofaza qilish jamg‘armasini tashkil etish va uning mablag‘laridan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 245-son Qarori;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 24-iyundagi “Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida”gi 177-son Qarori;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 20-iyuldagi “Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 153-son Qarori;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 5-yanvardagi “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun tashkilotlar faoliyatini to‘xtatib qo‘yish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 1-son Qarori;

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 7-apreldagi “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga hamda O‘zbekiston Respublikasining “Mehnat kodeksiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash haqida 107-son Qarori;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 1-iyuldagi “Tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari tomonidan fuqarolarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirishga, nogironlikni va kasbiy mehnatga layoqat yo‘qotilishi darajasini aniqlashga yo‘naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 195-son Qarori;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 26-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan Zo‘rlab ishlatish yoki majburiy mehnat to‘g‘risidagi Konvensiyani hamda bolalar mehnatining og‘ir shakllarini taqiqlash va yo‘q qilishga doir shoshilinch choralar to‘g‘risidagi konvensiyani 2012-2013-yillarda amalga oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar haqida” 82-son Qarori;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 18-oktyabrdagi “O‘rindoshlik asosida hamda bir necha kasbda va lavozimda ishlash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 297-son Qarori;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 28-noyabrdagi “Koreya Respublikasi bilan investitsion hamkorlikni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 331-son Qarori;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 15-fevraldagi “Kam ta’minlangan oilalarga ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordam tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida”gi 44-son Qarori;

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 15-sentyabrdagi “Xodimlar mehnatini muhofaza qilish chora-tadbirlarini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 263-son Qarori;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 31-maydagi “Xususiy tadbirkorlar tomonidan xodimlarni yo‘llagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 219-son Qarori;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 27-apreldagi “Mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar bozorini yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi 246-son Qarori;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 4-iyuldagi “Jismoniy shaxslarning mehnat stajini elektron hisobga olishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 462-son Qarori;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-oktyabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi Jamoat ishlari jamg‘armasi faoliyatini tashkil qilish to‘g‘risida”gi 799-son Qarori;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 28-oktyabrdagi “Mehnat bozorining joriy va istiqboldagi ehtiyojlarini hisobga olib ish o‘rinlarini tashkil etish va kadrlar tayyorlash davlat buyurtmasini shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 877-son Qarori;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining aholi, birinchi navbatda, yoshlar va xotin-qizlar bandligini ta’minlashga doir faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 964-son Qarori;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va

zaxiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 965-son Qarori;

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-dekabrdagi “Ishga joylashtirishga muhtoj aholi sonini aniqlash, shu jumladan, uy xo‘jaliklarini mehnat bilan bandlik masalalari bo‘yicha o‘rganishlar o‘tkazish, shuningdek, mehnat resurslari, bandlik va aholini ishga joylashtirish balansini shakllantirish metodikasini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 1011-son Qarori;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 15-yanvardagi “Tuman (shahar) aholi bandligiga ko‘maklashish markazlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 27-son Qarori;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-yanvardagi “Yo‘lovchi avtotransportida favqulodda vaziyatlar profilaktikasi va ularning oldini olish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Davlat chegarasidan tashqariga chiqadigan fuqarolar xavfsizligini ta’minlashga doir shoshilinch chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 42-son Qarori;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 10-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida majburiy mehnatga barham berishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 349-son Qarori;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-maydagi “2018 – 2020-yillarda Xalqaro mehnat tashkilotining o‘zbekiston respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan konvensiyalarini amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 407-son Qarori;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 12-sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini xorijda uyushgan holda ishga joylashtirish tizimini yanada takomillashtirish va tubdan qayta ko‘rib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 725-son Qarori;

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 20 oktyabrdagi “2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 841-son Qarori;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 7-noyabrdagi “Nazorat qiluvchi organlar mansabdor shaxslarini tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirish huquqini berish yuzasidan attestatsiyadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 920-son Qarori;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1066-son Qarori;
- Prezidentning 16.09.2021-yildagi PQ-5245-son qarori bilan Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi ishtirokchi davlatlarining aholi bandligiga ko‘maklashish sohasida hamkorlik to‘g‘risidagi bitim tasdiqlandi. Mazkur hujjat 2021-yil 28-may kuni Minsk shahrida MDH ishtirokchi davlatlarining Hukumat rahbarlari kengashi yig‘ilishida imzolangan. Ushbu hujjat aholi bandligi sohasidagi birinchi ko‘p tomonlama xalqaro shartnoma hisoblanadi.

Bu ishda Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi shartnomani amalga oshirish yuzasidan mas’ul vakolatli organ etib belgilandi. Bitimning maqsadi quyidagilardan iborat:

- umumiy mehnat bozorini nshakllantirishda muammolarni hal qilish va mavjud to‘siqlarni bartaraf etish bo‘yicha yondashuvlarni kelishilgan holda ishlab chiqish;
- bitim ishtirokchi davlatlarida aholi bandligiga ko‘maklashish va ishsizlar sonini qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlar, dasturlar va xizmatlarni ishlab chiqishda va ularning samaradorligini oshirishda hamkorlik qilish va o‘zaro ko‘maklashish;
- fuqarolarning davlatlararo erkin harakatlanishini hamda mehnat faoliyatini amalga oshirish huquqlarini ta’minlash.

Bitim doirasida quyidagi yo‘nalish bo‘yicha hamkorlik qilish nazarda tutilmoqda:

1. umumiy mehnat bozorini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

2. mehnat migratsiyasini tartibga solish va aholi bandligi muammolarini hal etishga qaratilgan chora-tadbirlar, dasturlar va xizmatlar samaradorligini oshirish;

3. kommunikatsion to‘siqlarni, shu jumladan MDH ishtirokchi davlatlarining mehnat migrantlari uchun ishga joylashtiriladigan davlatning tili, tarixi, madaniyati va huquqlari asoslari va o‘ziga xos jihatlarini o‘rgatish bo‘yicha dasturlarni ishlab chiqish orqali bartaraf etish;

4. xalqaro standartlar bo‘yicha amaliyotga yo‘naltirilgan kichik ta’lim dasturlarini ishlab chiqish va tatbiq etish;

5. xalqaro metodikalar bo‘yicha mustaqil baholash natijalariga ko‘ra malakani o‘zaro tan olish tizimini yaratish;

6. ish topishda qiyinchiliklarga duch kelgan aholining ayrim guruhlarini ishga joylashish imkoniyatlarini kengaytirish;

7. mehnat resurslarining mobilligini oshirish;

8. axborot tizimlarini rivojlantirish va integratsiya qilish;

9. norasmiy bandlikni qisqartirish.

MDH ishtirokchi davlatlari hududlarida vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun MDH ishtirokchi davlatlaridan mehnat migrantlarini tashkillashtirilgan tarzda tanlab olish va jalb etish tizimini joriy qilish va rivojlantirish;

Nolegal mehnat faoliyatiga, shu jumladan mehnat migrantlari tomonidan shunday faoliyatning amalga oshirilishiga to‘sqinlik qilish.

Hujjat Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasida e’lon qilingan va 16.09.2021-yildan kuchga kirdi”[28].

Ko‘rinib turibdiki, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi ishtirokchi davlatlarining aholi bandligiga ko‘maklashish sohasida hamkorlik to‘g‘risidagi bitim tasdiqlangan. Ushbu hujjatlar MDH

[28] Эльмира Сиразиева. https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda_yangi/umumiy_mehnat_bozori_shakllantiriladi.

mamlakatlarning barchasiga bir xil amal qiladi. Bu ham mehnat migratsiyasiga ijobiy ta'sir qiladi.

O'zini-o'zi nazorat qilish va takrorlash uchun savollar:

1. Mehnat bozori transformatsiyasida talab va taklif.
2. MBTda ishsizlik va ish bilan ta'minlanganlik darajasini oshirish imkoniyatlari.
3. Mehnat bozorida aniqlangan ishsizlikning turlari.
4. Aholining bandlik darajasi iqtisodiy siyosatga ta'siri.
5. Mehnat jarayonida ishlovchilarning sog'ligi xavfsizligining ta'minlanganligi.
6. Mehnat bozorining holati bevosita ta'sir qiluvchi omillar.
7. Ishni boshqarishda rag'batlantirish (motivatsiya)ning o'rni.
8. MBTda xodimlarning huquqlarini ifoda etadigan me'yoriy hujjatlar.
9. MBTda xodimlarning majburiyatlari va ularni ifoda etadigan me'yoriy hujjatlar.
10. Aniq belgilangan mehnat shartlari nimalar?
11. Ish beruvchilarning majburiyatlari tarkibiga bevosita nimalar kiradi?
12. Norasmiy sektorda faoliyat ko'rsatayotgan fuqarolar kimlar?

VIII BOB. MEHNAT BOZORI TRANSFORMATSIYASINING INNOVATSION IQTISODIYOTGA VA RAQAMLASHTIRISH SHAROITIGA MOSLIGI

8.1. Mehnat bozori transformatsiyasida texnologik va demografik o‘zgarishlar hamda boshqa zamonaviy talablardan kelib chiqadigan yondoshuvlar.

8.2. MBTda iqtisodiy notekislik, ijtimoiy muloqot va korrupsiyaga qarshi kurash masalalari.

8.3. Mehnat bozori transformatsiyasini zamonaviy o‘zgarishlarga mos holda rivojlanish omillari.

8.1. Mehnat bozori transformatsiyasida texnologik va demografik o‘zgarishlar hamda boshqa zamonaviy talablardan kelib chiqadigan yondoshuvlar

Bugungi kunda jahon miqyosida mehnat bozori transformatsiyasiga texnologik va demografik o‘zgarishlar ta’siri sezilarli darajada bo‘lmoqda. Shu bilan birga yana bir qancha zamonaviy talablardan kelib chiqadigan yondoshuvlar ham vujudga kelmoqda. Bular xodimlar malakasiga ham mutaxassisliklariga ham ta’sir qiladi. Bundan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 22-oktyabrda imzolangan “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashti-rishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida PF-5812-sonli Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 6 sentyabrda qabul qilingan 743-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-dekabrda qabul qilingan “Ishchi kasblar bo‘yicha kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5140-sonli qarorlari kabi me’yoriy hujjatlar qabul qilindi.

Mehnat bozori transformatsiyasini yaxshilash orqali ishsizlikni kamaytirish, aholining bandlik daradasini oshirish evaziga kambag‘allikni qisqartirish masalalari ham bugungi kunda “O‘zbekiston - 2030” strategiyasining aosiy yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Ushbu strategik vazifalarni amalga oshirish uchun mazkur

mavzuda qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Chunki mavzuning dolzarb muammoning yechimiga bag‘ishlanganligi ushbu holatni taqozo qiladi. Shu jihatdan ushbu mavzu ham, o‘z vaqtida tanlangan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Zamonaviy dunyoda mehnat bozori jadal sur’atlar bilan o‘zgarib bormoqda. Globallashuv, texnologik taraqqiyot, demografik o‘zgarishlar va boshqa omillar ta’sirida mehnat bozorida yangi tendensiyalar paydo bo‘lmoqda va eski yondashuvlar o‘z ahamiyatini yo‘qotmoqda. Bugungi kunda mehnat bozorida muvaffaqiyat qozonish uchun yangicha fikrlash, moslashuvchanlik va doimiy ravishda o‘z ustida ishlash talab etiladi.

Ushbu bobda biz mehnat bozori transformatsiyasi jarayonida yuzaga kelayotgan zamonaviy talablar va ularga mos yondashuvlarni batafsil ko‘rib chiqamiz.

Eng avvalo, **texnologik o‘zgarishlar va ularning mehnat bozoriga ta’siriga e’tibor qaratiladi**. Texnologik taraqqiyot mehnat bozoriga eng katta ta’sir ko‘rsatayotgan omillardan biridir. Avtomatlashtirish, robotlashtirish, sun’iy intellekt va boshqa texnologiyalarning rivojlanishi ko‘plab kasblarning yo‘qolib ketishiga va yangi kasblarning paydo bo‘lishiga olib kelmoqda.

Masalan, bir paytlar keng tarqalgan zavod ishchilari, xaznachilar, haydovchilar kabi kasblar bugungi kunda avtomatlashtirish tufayli o‘z ahamiyatini yo‘qotmoqda. Shu bilan birga dasturchilar, ma’lumotlar tahlilchilari, robototexnika mutaxassislari kabi yangi kasblarga talab ortib bormoqda[29]. Bu sharoitda mehnat bozorida muvaffaqiyat qozonish uchun doimiy ravishda o‘z malakasini oshirib borish, yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish va kelajakda talab yuqori bo‘ladigan kasblarga yo‘naltirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Texnologik o‘zgarishlar va ularning mehnat bozoriga ta’siri haqiqatan ham dolzarb ekanligini yuqorida qayd etilganidek, avtomatlashtirish, robotlashtirish va sun’iy intellekt kabi texnologiyalar ko‘plab kasblarga ta’sir ko‘rsatmoqda. Kasblarning bir qismi o‘z

[29] Schwab, K. (2017). The fourth industrial revolution. Currency.

mohiyatini va zururiyatini yo‘qotish bilan birga bir qismi yangi kasblarni kashf etishni taqozo qilmoqda. Bunga bir misola, AQShda 2000-yildan 2010-yilgacha bo‘lgan davrda ishlab chiqarish sohasidagi 5,6 million ish o‘rni yo‘qolgan, va buning asosiy sabablaridan biri aynan robotlashtirish bo‘lgan[30]. Bu kabi jiddiy o‘zgarishlar ishchilardan yangi ko‘nikmalarga ega bo‘lishni va o‘zlarini boshqa sohalarga moslashtirishni talab qiladi.

Shu bilan birga, texnologik taraqqiyot yangi imkoniyatlarni ham yaratmoqda. Masalan, internet va mobil texnologiyalar rivoji tufayli frilanserlik, onlayn ta’lim va elektron tijorat kabi yangi sohalarda ko‘plab ish o‘rinlari paydo bo‘ldi.

Bugungi kunda dasturlash, ma’lumotlar tahlili, raqamli marketing kabi sohalarda mutaxassislarga talab yuqori. Shuning uchun, kelajakda mehnat bozorida muvaffaqiyat qozonish uchun raqamli savodxonlikni oshirish va yangi texnologiyalarni o‘zlashtirishga alohida e’tibor qaratish lozim bo‘lmoqda. Bu o‘z navbatida boshqa kasblarning ham paydo bo‘lishiga olib keladi.

Mehnat bozori transformatsiyasi jarayonida yuzaga kelayotgan zamonaviy talablar asosida ularga mos yondashuvlar ham o‘zgarib bormoqda. Bulardan biri globallashuv sharoitida mehnat migratsiyasidagi o‘zgarishlardir. Ushbu masalani ham ko‘rib chiqashni maqsadga muvofiq, deb topdik.

Yana bir yo‘nalish globallashuv sharoitida mehnat migratsiyasi bilan bog‘liq o‘zgarishlar hisoblanadi. Bunda dunyo miqyosida sodir bo‘layotgan globallashuv jarayoni mehnat bozorini ham chetlab o‘tmayapti. Bugungi kunda ishchi kuchi xalqaro miqyosda erkin harakatlanmoqda va kompaniyalar o‘z xodimlarini dunyoning istalgan nuqtasidan jalb qilish imkoniyatiga ham ega bo‘lmoqda. Natijada ushbu holat mehnat migratsiyasining kuchayishiga olib kelmoqda. Bu o‘z navbatida, mahalliy mehnat bozorlaridagi raqobatni ham

[30] Acemoglu, D., & Restrepo, P. (2017). Robots and jobs: Evidence from US labor markets. NBER Working Paper No. 23285.

kuchaytirmoqda. Shuningdek, migrantlarning malakasi, tajribasi va madaniyati mahalliy ishchi kuchiga ham ta'sir ko'rsatmoqda[31].

Mehnat bozorida globallashuv sharoitida muvaffaqiyat qozonish uchun xorijiy tillarni o'rganish, xalqaro tajribaga ega bo'lish va turli millat va madaniyat vakillari bilan ishlash qobiliyatini rivojlantirish ham muhimdir. Albatta, bugungi kunda mehnat bozoridagi umumbashariy tendensiyalarni hisobga olmaslikning iloji yo'q. Masalan, Jahon bankining hisobotiga ko'ra, 2022-yilda dunyo bo'yicha 281 milliondan ortiq odam o'z vatanidan tashqarida ishlayotgan ekan[32]. Bu raqamlar dunyo miqyosida mehnat migratsiyasining keng tarqalganligini va globallashuv jarayonining mehnat bozoriga ta'siri qanchalik kuchli ekanligini ko'rsatadi. Ushbu holat albatta dunyo miqyosida ko'p o'zgarishlarga, kasblarning yangilanishlariga olib keladi.

Tadqiqotlardan ma'lumki, migratsiyaning sabablari turlicha bo'lishi mumkin ekan. Dunyo miqyosidagi migrantlar ko'pchilik rivojlangan davlatlarga yuqori maosh va yaxshiroq turmush sharoiti borligi uchun ketadi. Masalan, O'zbekistondan Rossiyaga ketayotgan migrantlar orasida qurilish va xizmat ko'rsatish sohalarida ishlovchilar ko'pchilikni tashkil qiladi. Bu sohalarda Rossiyada ish haqi O'zbekistonga nisbatan ancha yuqori[33] ekanligi aniq. Shu bilan birga, migratsiya tufayli malakali mutaxassislarning ketishi natijasida salohiyatli xodimlarning ham ketishib qolish muammosini ham keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, har yili yuzlab yosh olimlar va IT mutaxassislar O'zbekistondan AQSh, Yevropa va boshqa davlatlarga ketishmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri – o'sha yurtlarda ilmiy tadqiqotlar uchun qulay sharoitning mavjudligi va yuqori ish haqining to'lanishi[34] bo'lib qolmoqda. Bunday kadrlarni o'zimizda saqlab qolish uchun bilimdon mutaxassislarga yuqori miqdorda ish haqi to'lashni yo'lga qo'yish lozim. Bunga imkoniyatlarimiz bor, chunki xorijdan

[31] Castles, S., Haas, H. de, & Miller, M. J. (2014). The age of migration: International population movements in the modern world. Palgrave Macmillan

[32] World Bank. (2023). *Migration and Remittances Data*.

[33] Rosstat. (2022). *Mehnat va bandlik*.

[34] UNESCO. (2021). *Global Flow of Tertiary-Level Students*.

kelib ishlayotgan yuqori malakali mutaxassislarga bir necha borabor yuqori ish haqi to‘layotganligimiz ham sir emas.

Xulosa qilib aytganda, globallashuv sharoitida mehnat bozorida muvaffaqiyat qozonish uchun doimo o‘z ustimizda ishlashimiz, yangi bilim va ko‘nikmalarni egallashimiz va raqobatbardoshligimizni oshirishimiz lozim bo‘ladi. Buning uchun xorijiy mutaxassislarni jalb qilgandan ko‘ra o‘zimizning kadrlarni xorijga jo‘natib malakasini oshirtirib, o‘zimizda ishlatishimiz lozim. Chunki xorijliklar ma’lum vaqtdan keyin albatta o‘z yurtiga qaytib keladi. O‘zimizniki esa, doimiy ravishda shu yerda qolishi bilan birga keksaygan chog‘ida ham ustozlik qilib yosh kadrlar malakasining oshirilishiga xizmat qiladi. Zero bugungi kunda demografik o‘zgarishlar ham jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda.

MBTdagi muhim yo‘nalishlardan biri demografik o‘zgarishlar bilan bog‘liqdir. Bunda dunyo aholisining qarishi va tug‘ilish darajasining pasayishi mehnat bozorida jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Ko‘plab rivojlangan mamlakatlarda ishchi kuchi etishmasligi kuzatilmoqda va bu iqtisodiy o‘sishga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda[35]. Demografik o‘zgarishlar sharoitida mehnat bozorida faol bo‘lish uchun uzoq vaqt davomida ishlashga tayyor turish, o‘z sog‘lig‘iga e’tibor berish va pensiya yoshiga etgandan keyin ham faol hayot tarzini olib borish muhimdir. Buning uchun inson kapitaliga, uning takomillashib borishiga ham katta ahamiyat qaratish lozim.

Dunyo aholisining qarishi va tug‘ilish darajasining pasayishi, yuqorida ta’kidlanganidek, mehnat bozorida jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Mamlakatimizda yoshlarning mehnat bozoriga kirib kelishi yaratilayotgan ish o‘rinlaridan ko‘pligi tufayli, bir qismi ishsizlar qatoridan joy olishga majbur. Ammo ko‘plab rivojlangan mamlakatlarda tug‘ishning kamayib ketganligi tufayli ishchi kuchi etishmasligi kuzatilmoqda. Masalan, Yaponiyada 2022-yilda mehnatga layoqatli aholi soni 75 million kishini tashkil etdi, bu 1995-yildagi

[35] Bloom, D. E., Canning, D., & Fink, G. (2010). Implications of population ageing for economic growth. Oxford Review of Economic Policy, 26(4), 583-612.

koʻrsatkichdan 10 millionga kamdir[36]. Bunday vaziyat iqtisodiy oʻsishga salbiy taʼsir koʻrsatadi, chunki korxonalar oʻz faoliyatini kengaytirish va yangi ish oʻrinlari yaratish uchun yetarli xodim topa olmayapti. Shu tufayli ular migrantlarni jalb qilish evaziga rivojlanishi mumkin xolos.

Jumladan Germaniyada ham xuddi shunday holat kuzatilmoqda. 2021-yilda bu mamlakatda 400 mingdan ortiq boʻsh ish oʻrinlari mavjud boʻlgan[37]. Buning natijasida ish beruvchilar malakali mutaxassislarni jalb qilish uchun koʻproq maosh toʻlashga majbur boʻlmoqdalar, bu esa mahsulot va xizmatlar narxining oshishiga ham olib keladi. Chunki demografik jarayonlarning ijobiy va salbiy taʼsirlari ham bir-biri bilan uzviy ravishda bogʻliq.

Demografik oʻzgarishlar sharoitida mehnat bozorida faol boʻlish uchun oʻz sogʻligʻiga eʼtibor berish va pensiya yoshiga etgandan keyin ham faol hayot tarzini olib borish muhimdir. Shu yoʻl bilan uzoq vaqt davomida ishlashga tayyor turishini taʼminlash mumkin. Buning uchun sogʻlom turmush tarziga rioya qilgan holda tegishli ratsion bilan ovqatlanish, jismoniy faollik bilan shugʻullanish va stressni boshqarish koʻnikmasiga ham ega boʻlishni taqozo qiladi. Ushbu holat yashash tarzi va kasbiy yoʻnalishi boʻyicha ham doimiy ravishda yangi bilim va koʻnikmalarni egallashi zarur boʻladi.

Bugungi kunda yana bir muhim masalalardan biri, davlat tomonidan pensiya yoshini oshirish, kasbga qayta tayyorlash dasturlarini yaratish va migratsiya siyosatini takomillashtirish kabi choralarni koʻrilishi kerak. Demak, barcha tomonlarning ish beruvchi va ishlovchilarning hamkorligi orqaligina mehnat bozoridagi demografik muammolarni hal etish va shu yoʻl bilan barqaror iqtisodiy oʻsishni taʼminlash mumkin.

Aholi qarishi muammosi ayniqsa rivojlangan mamlakatlarda yaqqol namoyon boʻlmoqda. Yevropa Ittifoqida 2021-yilda 65 yoshdan oshganlar ulushi 20,8% ni tashkil etgan[38]. Bu esa pensiya tizimiga va

---

[36] **Statista Research Department.** (2023). *Japan - labor force*.
[37] **Federal Employment Agency.** (2022). *Job vacancies in Germany*.
[38] **Eurostat.** (2023). Population structure and ageing. https://ec.europa.eu/eurostat/statistics-explained/index.php?title=Population_structure_and_ageing

sog‘liqni saqlash tizimiga jiddiy bosim o‘tkazmoqda. Yaponiyada esa bu ko‘rsatkich yanada yuqori – 28,7%[39]. Natijada, ishchi kuchi kamayib, soliq tushumlari ham pasaymoqda. Shuningdek, tug‘ilish darajasining pasayishi ham mehnat bozoriga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Janubiy Koreyada 2022-yilda tug‘ilish koeffitsienti 0,8 ga tushib ketdi, bu dunyodagi eng past ko‘rsatkich hisoblanadi[40]. Bu kelajakda ishchi kuchi etishmasligi muammosini yanada chuqurlashtiradi. Ushbu holat boshqa davlatlarda ham sodir bo‘lmoqda. Shu tufayli mehnat bozori talabini tizimli ravishda barcha davlatlarda qondirib borish yildan-yilga murakkablashib bormoqda.

Bunday sharoitda davlatlar mehnat bozoridagi muvozanatni saqlash uchun turli choralar ko‘rmoqda. Masalan, Kanada va Avstraliya kabi mamlakatlar malakali migrantlarni jalb qilish orqali ishchi kuchi etishmasligi muammosini hal etishga harakat qilmoqda[41]. Ayrim davlatlar esa ayollar va keksa yoshdagilarni mehnat bozoriga jalb qilish uchun qulay sharoitlar yaratmoqda.

Xulosa qilib aytganda, dunyo aholisining qarishi va tug‘ilish darajasining pasayishi mehnat bozorida jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bu muammolarni hal etish uchun davlatlar, ish beruvchilar va fuqarolarning o‘zaro hamkorligi zarur bo‘lmoqda.

Shu bilan birga, texnologik taraqqiyot ham mehnat bozoriga o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. Robotlar va sun’iy intellekt ko‘plab sohalarda inson mehnatini almashtirmoqda. Bu esa ayrim kasblarning yo‘qolib ketishiga va yangi kasblarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Jahon iqtisodiy forumining hisobotiga ko‘ra, 2025-yilga kelib 85 million ish o‘rni iqtisodiy-ijtimoiy sohalarni avtomatlashtirilishi tufayli yo‘qolishi mumkin[42]. Bunday sharoitda odamlar doimiy ravishda o‘z malakalarini oshirib borishlari va yangi texnologiyalarga moslashishlari kerak. Davlatlar esa aholini kasbga qayta tayyorlash dasturlari bilan

[39] **Statista Research Department.** (2023). *Japan - labor force.*
[40] **World Bank.** (2023). *Fertility rate, total (births per woman).* https://data.worldbank.org/indicator/SP.DYN.TFRT.IN
[41] **OECD.** (2022). *International Migration Outlook 2022.*
[42] World Economic Forum. (2020). The Future of Jobs Report 2020. http://www3.weforum.org/docs/WEF_Future_of_Jobs_2020.pdf

ta’minlashlari va raqamli savodxonlikni oshirishga qaratilgan choralar ko‘rishlari lozim.

Xulosa qilib aytganda, mehnat bozoridagi vaziyat doimiy ravishda o‘zgarib bormoqda. Demografik o‘zgarishlar, texnologik taraqqiyot va global iqtisodiy tendensiyalar mehnat bozoriga o‘ziga xos ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu sharoitda moslashuvchanlik, doimiy o‘qish va o‘z ustida ishlash muvaffaqiyat kaliti hisoblanadi.

Bundan tashqari, mehnat bozorida ishchi kuchi mobilligining oshishi kuzatilmoqda. Globallashuv jarayoni tufayli ayrim mamlakatlardagi insonlar ish izlab boshqa shaharlarga, hatto boshqa mamlakatlarga ko‘chib o‘tmoqda. Bu esa mehnat bozorida raqobatni kuchaytiradi va ish beruvchilarga xodimlarni jalb qilish va ushlab qolish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratadi. Masalan, AQShda har yili o‘rtacha 40 million kishi ish joyini o‘zgartiramoqda[43] ekan. Mehnat bozoridagi bunday o‘zgarishlar xodimlardan yangi ko‘nikmalarni talab qiladi. Bunday sharoitda har bir xodim xorijiy tillarni bilish, madaniyatlararo muloqot qilish, boshqa millatlar qadriyatlarini o‘rganish qobiliyatini takomillashtirish, moslashuvchanlik va mustaqil qaror qabul qila olish kabi ko‘nikmalarni shakllantirish bugungi kunda juda muhim hisoblanadi. Shu tufayli bunday o‘zgarishlarga dunyo davlatlari, xususan ish kuchi etishmayotgan va ortiqcha ish kuchiga ega bo‘lgan davlatlar ham hozirlik ko‘rib borishlari lozim.

Shuningdek, **“frilansing” va masofaviy ish** kabi yangi ish shakllarining ommalashuvi ham mehnat bozoridagi o‘zgarishlardan biridir. Upwork frilans platformasining ma’lumotlariga ko‘ra, 2022-yilda dunyo bo‘yicha 73 million frilanser faoliyat yuritgan[44]. Bu esa xodimlarga ish vaqti va joyini erkin tanlash imkoniyatini beradi. Bunday xodimlar biznig mamlakatimizda ham paydo bo‘ldi va muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatmoqda.

Mehnat bozoridagi raqobat kuchayib borayotgan bir paytda, shaxsiy brending tushunchasi ham tobora dolzarb bo‘lib bormoqda.

---

[43] **United States Bureau of Labor Statistics.** (2021). *Job openings and labor turnover survey*. https://www.bls.gov/jlt/

[44] **Upwork.** (2023). *Freelancing in 2023: An In-Depth Look at the Future of Work*.

LinkedIn ma’lumotlariga ko‘ra, kuchli shaxsiy brendga ega bo‘lgan nomzodlar ishga qabul qilinish ehtimoli 3 marta yuqori[45]. Buning uchun o‘z malakalari va yutuqlarini namoyish etish, professional tarmoqlarda faol bo‘lish va o‘zini doimiy ravishda rivojlantirish muhimdir.

Bundan tashqari, “yumshoq ko‘nikmalar” yoki “soft skills” deb ataluvchi ko‘nikmalar ham tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jamoada ishlash, muammolarni hal qilish, kreativ fikrlash va stressni boshqarish kabi ko‘nikmalar har qanday sohada muvaffaqiyatga erishish uchun zarurdir.

Ish beruvchilar ham xodimlarni jalb qilish va ushlab qolish uchun yangi usullarni qo‘llamoqda. Masalan, Google, Facebook kabi kompaniyalar xodimlarga qulay ish sharoitlari, moslashgan ish grafigi va turli imtiyozlarni taklif qilmoqda[46]. Bunday kompaniyalar yuqori maosh to‘lash bilan birga eng qulay ish sharoitini yaratib berishi ham ularning nufuzini oshirmoqda. Shu yo‘l bilan bunday subyektlar dunyo miqyosida o‘zlarining raqobatbardoshligini ham ta’minlash imkoniyatlarini qo‘lga kiritmoqda.

Xulosa qilib aytganda, mehnat bozori dinamik va murakkab tizim bo‘lib, dunyo miqyosida doimiy ravishda o‘zgarib bormoqda. Bulardan kelib chiqib, bir qancha tavsiyalarni keltirishni maqsadga muvofiq, deb topdik.

Birinchidan, bugungi kunda muvaffaqiyatga erishish uchun faqatgina kasbiy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish yetarli emas. Moslashuvchanlik, doimiy o‘qish, shaxsiy brendni rivojlantirish va “yumshoq ko‘nikmalar”ni egallash ham muhim ahamiyat kasb etishini inobatga olib, ushbu tadbirlarga katta ahamiyat berish maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, MBTdagi muhim yo‘nalishlardan biri demografik o‘zgarishlardan kelib chiqib, endilikda tashqariga mehnat qilishni istagan fuqarolarimizni mamlakatimizda ularga kerak bo‘lgan kasblarga tayyorlash o‘sha davlatning tiloini bilishini ta’minlab, oddiy ishchi

[45] **LinkedIn.** (2022). *The Power of Personal Branding*.
[46] **Fortune.** (2023). *100 Best Companies to Work For*. https://fortune.com/best-companies/

sifatida emas, yuqori maosh oladigan malakali mutaxassis qilib tarbiyalab jo‘natish maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, bugungi kunda qobiliyatli yoshlarni kompyuter texnologiyalarini o‘zlashtirishga imkoniyat yaratib, ularni “frilansg” va masofaviy ish bilan ta’minlash tizimini joriy qilish orqali shu mamlakatda turib, xizmatlarni eksport qilish imkoniyatini yaratib berishga kirishish ham bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Ushbu tavsiyalarning amalga oshirilishi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan vazifalarning amalga oshirilishiga xizmat qiladi.

8.2. MBTda iqtisodiy notekislik, ijtimoiy muloqot va korrupsiyaga qarshi kurash masalalari

MBTda iqtisodiy notekislik, ijtimoiy muloqot va korrupsiyaga qarshi kurash masalalari ham o‘ta dolzarb masalalar sirasiga kiradi. Shu tufayli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi “Aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-228-sonli Qarori, O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-210-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktorining 2022-yil 13-may “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholashni mustaqil amalga oshiruvchi ekspertlar guruhi tarkibini shakllantirish va uning faoliyatini tashkil etish tartibini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 41-son buyrug‘i (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2022-yil 13-mayda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3368), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-noyabrdagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-200-sonli

Farmoni kabi bir qancha me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Ko'rinib turibdiki, mazkur masalani tadqiq qilish o'ta dolzarb hisoblanadi. Bu obyektiv zaruriyatdan kelib chiqib, ushbu masalaga alohida ahamiyat berishni maqsadga muvofiq deb topdik.

Jahon iqtisodiyotidagi notekisliklar ham mehnat bozoriga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Iqtisodiy inqirozlar davrida ishsizlik darajasi ortadi va ko'plab odamlar ish topishda qiynaladi. Chunki, eski ish o'rinlarilari keraksiz holatga kelganda xodimlar yangi mutaxassislarga tayyor bo'lmaydi. Oqibatda bir tomonda xodimlar bekor, ikkinchi tomonda xodimlarga muhtojlik sezilmoqda. Shu tariqa iqtisodiy notekislik sharoitida mehnat bozorida moslashuvchan bo'lish, turli sohalarda ishlashga tayyor turish va zarur bo'lganda o'z kasbini o'zgartirishga ham tayyor turishi muhim tadbirlardandir.

Jahon iqtisodiyotidagi notekisliklar mehnat bozoriga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, iqtisodiy inqirozlar davrida ishsizlik darajasi keskin oshishi kuzatiladi. Masalan, 2008-yildagi global moliyaviy inqiroz AQShda ishsizlik darajasini 10% gacha etkazgan[47]. Xuddi shunday ahvol 2019-2020-yillardagi pandemiya sharoitida ham yuz berdi. Hozirgi davrda turli mamlakatlarda notinchlik natijasi ham aynan ushbu holatga olib kelmoqda.

Bundan tashqari, iqtisodiy notekisliklar ish haqiga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, Yevropa Ittifoqida 2010-2014-yillardagi iqtisodiy inqiroz davrida real ish haqi o'rtacha 2% ga pasaygan[48]. 2015-2024-yillarda ham real ish haqidagi o'zgarishlar dunyo davlatlari o'rtasida bir xil emas. Ayrim mamlakatlarda ish haqi oshirilgani bilan bu inflyatsiya darajasini qoplay olmaydi. Oqibatda dunyo miqyosida iqtisodiy notekisliklar saqlanib qoladi.

Iqtisodiy notekislik sharoitida mehnat bozorida moslashuvchan bo'lish juda muhim. Bu turli sohalarda ishlashga tayyor turishni va zarur bo'lganda o'z kasbini o'zgartirishga tayyor turishni anglatadi. Masalan, texnik taraqqiyot tufayli ba'zi kasblar yo'qolib ketishi

[47] Blanchard, O., & Diamond, P. (2011). The Euro zone crisis. *Brookings Papers on Economic Activity*, 2011(2), 207-281

[48] European Commission. (2015). *Employment and Social Developments in Europe 2015*. Publications Office of the European Union

mumkin, shuning uchun yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish va yangi ko‘nikmalarni egallash muhimdir.

Shuningdek, iqtisodiy notekislik davrida tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. O‘z biznesini boshlash ishsizlik muammosini hal qilish va daromad manbaini diversifikatsiya qilishning samarali yo‘li bo‘lishi mumkin. Jahon bankining ma’lumotlariga ko‘ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda kichik va o‘rta biznes korxonalari yangi ish o‘rinlarining 60% dan ortig‘ini yaratadi[49]. Ushbu holat aynan mamlakatimizda ham sodir bo‘lmoqda.

Bundan tashqari, ijtimoiy himoya tizimi ham muhim rol o‘ynaydi. Ishsizlik nafaqasi va boshqa ijtimoiy yordam dasturlari iqtisodiy notekislik davrida aholining eng muhtoj qatlamlarini qo‘llab-quvvatlashga yordam beradi. Masalan, Germaniyadagi ishsizlik sug‘urtasi tizimi ishsiz qolgan fuqarolarga avvalgi ish haqining 60-67 % miqdorida nafaqa to‘laydi va kasbga qayta tayyorlash kurslarini moliyalashtiradi[50]. Natijada ishsiz, o‘z kasbini o‘zgartiraman degan aholi yangi kasblarga bepul o‘qitiladi.

Iqtisodiy notekisliklarning mehnat bozoriga ta’sirini yumshatish uchun davlat tomonidan faol mehnat bozori siyosati olib borilishi lozim. Bu kasbga yo‘naltirish, kasbga qayta tayyorlash va ishga joylashtirish xizmatlarini takomillashtirishni, shuningdek, yangi ish o‘rinlari yaratishni rag‘batlantirishni o‘z ichiga oladi. Jahon bankining tadqiqotlariga ko‘ra, faol mehnat bozori siyosati ishsizlik darajasini pasaytirish va ishchi kuchining malakasini oshirishga yordam beradi[51]. Shu tufayli faol mehnat bozorini mamlakktimizda ham rivojlantirishga katta ahamiyat berish maqsadga muvofiq.

Ishchi kuchining raqobatbardoshligini oshirish uchun ta’lim tizimini rivojlantirish va investitsiyalarni jalb qilish ham muhimdir. Zamonaviy iqtisodiyot talablariga javob beradigan malakali mutaxassislarni tayyorlash ishsizlik muammosini hal qilish va iqtisodiy

[49] World Bank. (2020). *Small and Medium Enterprises (SMEs) Finance*.
[50] Bundesagentur für Arbeit. (2023). *Unemployment insurance in Germany*.
[51] World Bank. (2013). *World Development Report 2013: Jobs*.

o‘sishni ta’minlashga yordam beradi. Masalan, Finlyandiyada ta’lim tizimiga katta mablag‘ ajratiladi va bu mamlakat dunyodagi eng raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirgan davlatlardan biri hisoblanadi[52].

Iqtisodiy notekisliklar sharoitida mehnat migratsiyasi ham mehnat bozoridagi notekisliklarni yumshatishga yordam berishi mumkin ekan. Chunki, ishchi kuchi ortiqcha bo‘lgan mamlakatlardan ishchi kuchi etishmayotgan mamlakatlarga mehnat migrantlari oqimi iqtisodiy o‘sish va bandlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, O‘zbekistondan Rossiyaga mehnat migrantlarining pul o‘tkazmalari O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun muhim daromad manbai hisoblanadi[53]. Bu ma’lum darajada aholi farovonligining oshirilishiga ham xizmat qiladi.

Albatta, mehnat bozoridagi vaziyatni yaxshilash uchun ish beruvchilar ham o‘z hissalarini qo‘shishlari kerak. Xususan, xodimlarning malakasini oshirishga investitsiya kiritish, moslashuvchan ish grafigini joriy etish va ish o‘rinlarini saqlab qolish choralarini ko‘rishi ham muhimdir. Masalan, Yaponiyada ko‘plab kompaniyalar xodimlarini umrbod ish bilan ta’minlashga intiladi va bu ishchilarning sodiqligi va samaradorligini oshirishga yordam beradi[54]. Agar inson umrbod bir joyda ishlashiga ishonchi komil bo‘lsa, o‘sha joyga sadoqat bilan xizmat qiladi.

Texnologik o‘zgarishlar mehnat bozoriga katta ta’sir ko‘rsatayotgan hozirgi sharoitda, xodimlarning yangi texnologiyalarni o‘zlashtirishi va raqamli savodxonligini oshirishi juda muhim. Buning uchun davlat va xususiy sektor hamkorlikda onlayn ta’lim platformalarini rivojlantirishi va aholining barcha qatlamlari uchun raqamli ko‘nikmalarni egallash imkoniyatlarini yaratishi lozim. Masalan, Estoniyada raqamli savodxonlikni oshirishga qaratilgan davlat dasturlari tufayli aholining internetdan foydalanish darajasi va raqamli

[52] World Economic Forum. (2019). *The Global Competitiveness Report 2019*.
[53] International Organization for Migration. (2021). *World Migration Report 2022*.
[54] The Economist. (2017). *Japan's lifetime employment system is breaking down*.

koʻnikmalari yuqori[55]. Shu yoʻl bilan ham ish oʻrinlarining notekisligiga barham berish mumkin.

MBTda ijtimoiy muloqot va korrupsiyaga qarshi kurash masalasi ham ushbu sohadagi muhim yoʻnalishlardan biri hisoblanadi. Chunki muvaffaqiyatlarni qoʻlga kiritishda mehnat bozori transformatsiyasida ijtimoiy muloqot va korrupsiyaga qarshi kurash masalasi ham samarali usullardan biri hisoblanadi. Jumladan, mehnat bozoridagi muammolarni hal qilishda ijtimoiy muloqot va hamkorlik muhim rol oʻynashini xorijiy davlatlar tajribasidan ham koʻrish mumkin. Bunda hukumat, kasaba uyushmalari va ish beruvchilar oʻrtasidagi konstruktiv muloqot ijtimoiy sheriklikni mustahkamlash va mehnat bozoridagi muammolarning hal boʻlishiga va uning barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi. Masalan, Shvesiyada "Shvesiya modeli" deb nomlanuvchi ijtimoiy sheriklik tizimi samarali faoliyat yuritadi va bu mamlakatda ishsizlik darajasi va ijtimoiy tengsizlik boshqa davlatlarga nisbatan ancha past[56]. Qayerda ishsizlik darajasi va ijtimoiy tengsizlik past boʻlsa, oʻsha joyda ma'naviy muhit ham talab darajasida yuqori boʻladi.

Shu bilan birga, mehnat bozorida adolatli raqobat muhitini yaratish masalasi ham oʻta dolzarb masalalar sirasiga kiradi. Bunda korrupsiyaga qarshi kurashish ham muhim ahamiyatga ega. Chunki korrupsiya yoʻq joyda shaffof va adolatli mehnat bozori shakllanadi va bu barcha fuqarolar uchun teng imkoniyatlar yaratadi. Yuqoridagi holatlar pirovardida iqtisodiy oʻsishning barqarorligini ta'minlaydi va uni ragʻbatlantiradi. Bu borada Singapur tajribasini oʻrganish foydali boʻlishi mumkin. Singapurda korrupsiyaga qarshi kurash samarali olib boriladi va bu mamlakat jahondagi eng raqobatbardosh iqtisodiyotlardan biriga ega davlatlardan biri hisoblanadi[57]. Singapurda korrupsiya yoʻq. Unga yoʻl qoʻyganlar qattiq jazolanadi. Oqibatda insonlar ruhiyatida ham korrupsiyaga umuman chalgʻimaydigan holat shakllangan.

---

[55] European Commission. (2022). *Digital Economy and Society Index (DESI) 2022.*
[56] OECD. (2020). *OECD Economic Surveys: Sweden 2020.*
[57] Transparency International. (2022). *Corruption Perceptions Index 2022.*

Korrupsiyasiz Singapur juda tez rivojlandi. Jumladan, 1959-yilda YaIM aholi jon boshiga 400 AQSh dollariga teng bo‘lgan bo‘lsa, 1990-yilda 2200 AQSh dollaridan oshib ketdi. “1999-yilda mamlakat YaIMning 22000 AQSh dollariga etishi jahonda siyosiy va iqtisodiy o‘zgarishlar bo‘layotgan paytda yuz beradi”[58]. Ko‘rinib turibdiki, jamiyatning rivojlanishida korrupsiyasiz davlat katta muvaffaqiyatlarga erishar ekan.

Globallashuv jarayoni mehnat bozoriga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lish uchun mamlakatlar iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishi va qonunchilik bazasini takomillashtirishi lozim. Masalan, Vetnam so‘nggi yillarda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishni rivojlantirish orqali iqtisodiyotining jadal o‘sishiga erishdi va millionlab yangi ish o‘rinlari yaratdi[59]. Ushbu tajriba ham mamlakatimiz uchun ibrat olsa orziydigan usullardan biri. Albatta bu bizda ham mavjud, ammo buni yanada jadallashtirish maqsadga muvofiqdir.

Hayotiy tajribadan ma’lumki, mehnat bozoridagi notekisliklarni bartaraf etish uchun albatta demografik omillarni ham hisobga olish zarur. Chunki, aholining yoshi va jinsi bo‘yicha tarkibi, tug‘ilish va o‘lim darajasi, migratsiya jarayonlari mehnat bozoriga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, Yaponiya kabi aholi qariyotgan mamlakatlarda ishchi kuchi etishmasligi muammosi kuzatilmoqda, bu esa iqtisodiy o‘sishni sekinlashtiradi[60]. Bunday sharoitda mehnat migratsiyasi muhim rol o‘ynaydi. Endigi davrda dunyo miqyosidagi rivojlangan mamlakatlarda tug‘ilish darajasi ham kamayib bormoqda. Masalan, 1950-yilda Yaponiyada bitta ayolga o‘rta hisobda 3,6 farzand tug‘ilgan bo‘lsa, 2023-yilga kelib bu ko‘rsatkich 1,2 nafarga tushib qolgan[61]. Xuddi shunday holat Hindistondek ulkan mamlakatda ham sodir bo‘lmoqda. Ushbu mamlakatda 1950-yilda bitta ayolga 5,7 chaqoloq

---

[58] Ли Куан Ю. Учинчи дунёдан биринчи дунёга. – Т.: “Akademnashr” 2023/ - - 9 бет.
[59] World Bank. (2023). *Vietnam Economic Monitor: June 2023*.
[60] National Institute of Population and Social Security Research. (2021). *Population Projections for Japan (2017-2065)*.
[61] Источник данных: ООН, World Population Prospects (2024).

to‘g‘ri kelsa, 2023-yilga kelib, ushbu ko‘rsatkich 2,0 nafarga tushib qolgan.

Shuningdek, mehnat bozoridagi gender tengligini ta’minlash ham muhimdir. Ayollarning mehnat bozoridagi ishtirokini oshirish va ularga teng imkoniyatlar yaratish iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy rivojlanishga hissa qo‘shadi. Bu borada Skandinaviya mamlakatlarining tajribasini o‘rganish foydali bo‘lishi mumkin. Bu mamlakatlarda ayollarning mehnat bozoridagi ishtiroki yuqori va gender tengligi ta’minlangan[62]. Bu borada bizda ham sezildarli ishlar amalga oshirilmoqda.

Mehnat bozoridagi notekisliklarni kamaytirish uchun inklyuziv o‘sishga erishish muhimdir. Bu barcha ijtimoiy guruhlar, jumladan, imkoniyati cheklangan shaxslar, yoshlar va migrantlar uchun teng imkoniyatlar yaratishni anglatadi. Masalan, Kanadada immigratsiya siyosati mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga hissa qo‘shadi va mehnat bozoridagi etishmayotgan mutaxassislar muammosini hal qilishga yordam beradi[63].

Bundan tashqari, “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish ham mehnat bozorida yangi imkoniyatlar yaratadi. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari, energiya samaradorligi va atrof-muhitni muhofaza qilish sohalarida yangi ish o‘rinlari paydo bo‘ladi. Masalan, Germaniyada “energetika o‘tishi” siyosati tufayli qayta tiklanuvchi energiya manbalari sohasida yuz minglab yangi ish o‘rinlari yaratildi[64]. Bu borada mamlakatimizda ham keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Chunki 2025-yil – atrof muhitni asrash va “Yashil iqtisodiyot” yili, deb e’lon qilindi va shu yilda amalga oshirilishi mo‘ljallangan katta dastur tuzilmoqda.

Mehnat bozoridagi notekisliklarni yumshatish uchun yana bir ijtimoiy muloqotni rivojlantirishda kasaba uyushmalarining rolini kuchaytirish ham muhim tadbirlardan biridir. Kasaba uyushmalari ishchilarning huquqlarini himoya qilish, ish haqi va mehnat sharoitlarini yaxshilash, shuningdek, ijtimoiy adolatni ta’minlashda

---

[62] World Economic Forum. (2023). *Global Gender Gap Report 2023*.
[63] Statistics Canada. (2023). *Immigration and ethnocultural diversity: Key results from the 2021 Census*.
[64] Federal Ministry for Economic Affairs and Climate Action. (2022). *The German energy transition*.

muhim rol o‘ynaydi. Masalan, bu borada ko‘plab misollarni keltirish mumkin. Jumladan, Daniyada kasaba uyushmalarining a’zoligi yuqori va ular mehnat munosabatlarini tartibga solishda faol ishtirok etadi[65]. Xuddi shunday holatni mamlakatimizda ham rivojlantirishimiz lozimdir.

Xulosa qilib aytganda, mehnat bozoridagi notekisliklarni bartaraf etish uchun kompleks yondashuv, uzoq muddatli strategiyalar va barcha manfaatdor tomonlarning hamkorligi zarur. Faqatgina shunday yo‘l bilan barqaror va adolatli mehnat bozorini yaratish, iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy rivojlanishga erishish mumkin.

Barcha sohalar singari MBTda “yumshoq” ko‘nikmalarning ahamiyati ham sezilarli darajada ta’sir qiladi. Chunki, zamonaviy mehnat bozorida nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalar, balki “yumshoq” ko‘nikmalar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Muloqot qobiliyati, jamoada ishlash, muammolarni hal qilish, tanqidiy fikrlash, kreativlik kabi ko‘nikmalar bugungi kunda ish beruvchilar tomonidan yuqori baholanadi. “Yumshoq” ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun turli treninglarda qatnashish, kitoblar o‘qish, o‘z ustida mustaqil ishlash va hayot tajribasidan saboq olish muhimdir.

Ha, albatta. Masalan, dunyodagi eng yirik konsalting kompaniyalaridan biri bo‘lgan McKinsey o‘tkazgan tadqiqotga ko‘ra, 2030-yilga kelib, “yumshoq” ko‘nikmalarga bo‘lgan talab hozirgidan ham 30% ga ortadi[66]. Bugungi kunda ko‘plab kompaniyalar xodimlarni tanlashda ularning kasbiy bilimlari bilan bir qatorda “yumshoq” ko‘nikmalariga ham e’tibor qaratmoqda. Misol uchun, Google, Amazon kabi yirik texnologik kompaniyalar o‘z xodimlarida muammolarni hal qilish, jamoada ishlash, kreativlik kabi ko‘nikmalarni yuqori baholaydi.

Shuningdek, Jahon bankining hisobotida ta’kidlanishicha, rivojlanayotgan mamlakatlarda “yumshoq” ko‘nikmalarning etishmasligi iqtisodiy o‘sishni sekinlashtiradigan omillardan biri hisoblanadi. Bu esa, “yumshoq” ko‘nikmalarni rivojlantirishga

---

[66] McKinsey Global Institute. (2018). *Келажакдаги иш: Автоматлаштириш даврида ишчи кучининг ўзгариши*.

qaratilgan ta'lim dasturlari va treninglarning ahamiyatini yanada oshiradi.

O‘z ustida ishlash, turli treninglarda qatnashish, kitoblar o‘qish orqali inson o‘zida "yumshoq" ko‘nikmalarni rivojlantirishi mumkin. Masalan, Deyl Karnegining "Do‘stlar orttirish va odamlarga ta'sir o‘tkazish" kitobi muloqot qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan eng mashhur asarlardan biridir[67].

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy mehnat bozorida muvaffaqiyatga erishish uchun nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalarni egallash, balki "yumshoq" ko‘nikmalarni ham rivojlantirish zarur.

"Yumshoq" ko‘nikmalarni rivojlantirish orqali inson nafaqat mehnat bozorida, balki shaxsiy hayotida ham muvaffaqiyatlarga erishishi mumkin. Misol uchun, o‘ziga ishonch, stressni boshqarish, vaqtni to‘g‘ri taqsimlash kabi ko‘nikmalar har qanday sohada foydalidir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, emotsional intellekti yuqori bo‘lgan odamlar hayotda ko‘proq muvaffaqiyat qozonadilar va shaxsiy munosabatlarda ham baxtli bo‘ladilar[68].

"Yumshoq" ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun doimiy ravishda o‘z ustida ishlash lozim. Har bir inson o‘zining kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlab, kuchsiz tomonlarini rivojlantirishga harakat qilishi kerak. Buning uchun turli treninglar, seminarlar va kurslarda qatnashish, mutaxassislar bilan maslahatlashish, tegishli adabiyotlarni o‘qish va o‘z tajribasidan saboq chiqarish muhimdir.

Masalan, men o‘zimda jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirish uchun turli loyihalarda faol qatnashaman va boshqalarning fikrlarini tinglashga harakat qilaman. Yoki, muammolarni hal qilish qobiliyatimni oshirish uchun murakkab vaziyatlarda tezda qaror qabul qilishga va turli variantlarni ko‘rib chiqishga o‘rganyapman.

Eslatib o‘tamiz, "yumshoq" ko‘nikmalarni rivojlantirish uzoq muddatli jarayon bo‘lib, doimiy ravishda o‘z ustida ishlashni talab

---

[67] Carnegie, D. (1936). *Дўстлар орттириш ва одамларга таъсир ўтказиш*.
[68] Goleman, D. (1995). *Эмоционал интеллект*.

qiladi. Ammo, buning natijasida inson hayotning barcha sohalarida muvaffaqiyatga erishishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, mehnat bozori butun dunyo bo‘ylab doimiy ravishda o‘zgarib bormoqda va bugungi kunda muvaffaqiyat qozonish uchun yangicha yondashuvlar talab etiladi.

Birinchidan, texnologik o‘zgarishlar yangi yo‘nalishdagi kadrlarga talabni kuchaytiradi. Bundan kelib chiqib, mamlakatimizning iqtisodiy-ijtimoiy hayotidagi o‘zgarishlarga mos holda yangi kadrlarni (mutaxassislarni) tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish lozim.

Ikkinchidan, globallashuv sharoitida sodir bo‘layotgan demografik o‘zgarishlar aholining bandligini nafaqat bitta davlatda, balki turli davlatlarda ishlashini ta’minlashni taqozo qiladi. Shu tufayli xodimlarning mutaxassisligini faqat o‘zimizning ehtiyojimizga emas, balki jahon taraqqiyotidagi mutaxassisliklarga bo‘lgan ehtiyojlarni ham inobatga olgan holda tayyorlashini yo‘lga qo‘yishni taqozo qiladi.

Uchinchidan, iqtisodiy notekisliklar mehnat bozorida yangi tendensiyalarni keltirib chiqarmoqda. Bunday sharoitda muvaffaqiyat qozonish uchun doimiy ravishda o‘z malakasini oshirib borish, yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish, xorijiy tillarni o‘rganish kabi zaruriy tadbirlarga tayyor turishligi ham lozimdir.

To‘rtinchidan, bugungi globallashuv sharoitida har bir xodimning “yumshoq” ko‘nikmalarni rivojlantirish va moslashuvchan bo‘lish ham bandlik masalasining hal bo‘lishida muhimdir. Bizda ham Yaponiya singari talabga javob beradigan mutaxassislarni doimiy ravishda umrbod ishga qabul qilishni yo‘lga qo‘yishni lozim, deb hisoblaymiz.

Beshinchidan, MBTda ijtimoiy muloqotga alohida ahamiyat berish va ushbu kuchdan korrupsiyaga qarshi kurashda keng foydalanishni yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq. Jamoatchilikning fikrini uyg‘otib, befarqlik kayfiyatiga barham beriladigan bo‘lsa va shu orqali korrupsiyaga murosasiz kayfiyat shakllansa, ushbu tadbir korrupsiyaning barham topishiga xizmat qiladi.

8.3. Mehnat bozori transformatsiyasini zamonaviy o‘zgarishlarga mos holda rivojlanish omillari

Mamlakatimizda mehnat bozori transformatsiyasini zamonaviy o‘zgarishlarga mos holda rivojlanishning bir qancha omillari shakllangan. Ushbu omillarning ishga solinishi ishsizlikni kamaytirish, kelajakda uni tugatish orqali kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha strategik tadbirlar belgilash uchun ham asos bo‘ladi. Ma’lumki, bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrda “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli farmoni e’lon qilindi. Mazkur strategiyaning 28 maqsadida “Mehnatga layoqatli aholini shu jumladan, yoshlar va nogironligi bo‘lgan shaxslarni barqaror va samarali bandligini ta’minlash orqali ishsizlik darajasini tushirish” masalasi qo‘yilgan bo‘lsa, 32-maqsadi “Yoshlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va ishsizlik darajasini kamaytirish” masalasiga bag‘ishlangan. Ushbu strategiyaga asosan bir qancha qarorlar va boshqa me’yoriy hujjatlar qabul qilingan. Ushbu hujjatlarda xalqimizning erkin va farovon hayotni ta’minlash, qudratli Yangi O‘zbekistonni barpo etish uchun ularning ish bilan bandligini oshirish va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha aniq vazialar belgilangan. Ko‘rinib turibdiki, mazkur masala bugungi kunda o‘ta dolzarb masalalardan biri sanaladi.

Zamonaviy dunyoda ilm-fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi mehnat bozorida tub o‘zgarishlarga olib kelmoqda. Bu o‘zgarishlar esa, o‘z navbatida, iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishiga mos keladigan yangi talablarni qo‘ymoqda. Mehnat bozoridagi bunday transformatsiya jarayonini chuqur o‘rganish va uning innovatsion iqtisodiyotga ta’sirini tahlil qilish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Ushbu mavzuni yoritishda, avvalo, mehnat bozori transformatsiyasining asosiy yo‘nalishlari va omillarini ko‘rib chiqish lozim. Chunki bugungi kundagi zamonaviy o‘zgarishlar o‘ziga xos bo‘lib, yangi mutaxassisliklarga ehtiyojni tug‘dirmoqda. Bu borada global miqyosda kuzatilayotgan tendensiyalarni tahlil qilish va ularning

O‘zbekiston mehnat bozoriga ta’sirini baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun mehnat bozori transformatsiyasining zamonaviy o‘zgarishlarga mos bo‘lgan asosiy yo‘nalishlariga e’tiborni qaratish maqsadga muvofiq, deb topdik (8.1-jadval).

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, mehnat bozori transformatsiyasining asosiy yo‘nalishlari bugungi kunda o‘ta dolzarb bo‘lgan masalalarni qamrab olgan. Jumladan, birinchisi, raqamlashtirish va avtomatlashtirish bo‘lsa, ikkinchisi masofaviy ish va frilansdan iborat. Uchinchi yo‘nalishi vaqtinchalik qisqa muddatga band qilish masalalarini qamrab olgan. Nihoyat to‘rtinchi yo‘nalish bugungi kunda mamlakatimiz uchun ham o‘ta dolzarb bo‘lgan “Yashil” iqtisodiyotni nazarda tutadi. Bularning hammasi bugungi kunda mehnat bozoridagi kadrlarni nimaga tayyor turish kerakligini belgilaydi. Xulosa qilib aytganda, mehnat bozori transformatsiyasi jamiyatning taraqqiyotiga mos holda takomillashib boradi va bir vaqtning o‘zida shunga mos kadrlar bo‘lsa, jamiyatning ham taraqqiyotini ta’minlashga xizmat qiladi.

8.1-jadval

Mehnat bozori transformatsiyasining zamonaviy o‘zgarishlarga mos bo‘lgan asosiy yo‘nalishlari

Yo‘nalish	Ta’rif	Manba
1.Raqamlash-tirish va avtomatlash-tirish	Ishlab chiqarish jarayonlarining avtomatlashtirilishi va raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi ayrim kasblarning yo‘qolib ketishiga va yangi kasblarning paydo bo‘lishiga olib kelmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, xodimlardan yangi ko‘nikma va malakalarni talab qilmoqda.	Schwab, K. (2017). The fourth industrial revolution. Currency.
2. Masofaviy ish va frilans	Internet va kommunikatsiya texnolo-giyalarining rivojlanishi masofaviy ish shaklining ommalashuviga olib keldi. Bu esa, mehnat bozorining geografik chegaralarini kengaytirmoqda va xodimlarga ko‘proq moslashuvchanlikni ta’minlamoqda.	Upwork. (2021). The future of work is freelance. [Report].

3. Vaqtinchalik qisqa muddatga band qilish	Qisqa muddatli shartnomalar va vaqtinchalik loyihalar asosida ishlash shaklining keng tarqalishi mehnat munosabatlarini o‘zgartirmoqda va xodimlarning ijtimoiy himoyasi masalasini dolzarb qilmoqda.	Sundararajan, A. (2016). The sharing economy: The end of employme-nt and the rise of crowd-based cap-italism. MIT Press.
4. “Yashil” iqtisodiyot	Ekologiya muammolarining dolzarblashuvi va barqaror rivojlanishga bo‘lgan e’tiborning ortishi “yashil” kasblarning rivojlanishiga va mehnat bozorida yangi imkoniyatlarning yaratilishiga olib kelmoqda.	International Labour Organization. (2018). World Employment and Social Outlook 2018: Greening with jobs. [Report].

Mehnat bozorining o‘zgarishiga bir qancha omillar ta’sir qiladi. Mehnat bozori transformatsiyasining asosiy omillari ham bir qancha yo‘nalishlarga ega. Bular bevosita uning yo‘nalishlarini jadallashtirishga qaratilgandir. Bular tarkibiga quyidagilarni kiritish mumkin (8.2-jadval).

8.2-jadval

Mehnat bozori transformatsiyasini harakatga keltiruvchi asosiy omillari

T/r	Omillar	Omillarning izohi
1.	**Texnologik taraqqiyot**	Yangi texnologiyalarning yaratilishi va joriy etilishi mehnat bozoridagi o‘zgarishlarning asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi.
2.	**Globallashuv**	Mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalarning kuchayishi mehnat bozorida raqobatni kuchaytirmoqda va xalqaro mehnat migratsiyasi jarayonlarini faollashtirmoqda.
3.	**Demografik o‘zgarishlar**	Aholining yosharishi va qarishi, tug‘ilish darajasining pasayishi kabi demografik omillar mehnat bozoridagi taklif va talabga ta’sir ko‘rsatmoqda
4.	**Ijtimoiy-iqtisodiy siyosat**	Davlatning mehnat bozorini tartibga solish, bandlikni ta’minlash va ijtimoiy himoya siyosati

		mehnat bozori transformatsiyasi jarayoniga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.
5.	**Innovatsion iqtisodiyotga moslashish**	Mehnat bozoridagi o‘zgarishlarga moslashish va innovatsion iqtisodiyot talablariga javob berish imkoniyatlarini yaratish lozim bo‘ladi.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, mehnat bozori transformatsiyasini harakatga keltiruvchi asosiy omillar beshta yo‘nalishga ega bo‘lib, bular ham MBTdagi o‘zgarishlarga moslashish bilan birga innovatsion iqtisodiyot talablariga ham javob beradigan bo‘lishi lozim. Bunga erishish uchun bir qancha omillar ta’sir qilar ekan. Bulardan biri texnologik taraqqiyot bo‘lib hisoblanadi. Bu nafaqat mamlakatimizga, balki globallashuv sharoitida butun jahon mamlakatlariga ham xosdir. MBTni harakatga keltiruvchi navbatdagi omillar bevosita demografik o‘zgarishlarga ham bog‘liqdir. Bu omillar o‘z o‘rnida ijtimoiy-iqtisodiy siyosatga ham bog‘liqligini hamisha mulk egalari anglab etishlari kerak. Bugungi kunda muhim talablardan biri MBTsi bevosita innovatsion iqtisodiyotga ham moslashish lozimligini Ushbu omillardan samarali foydalanish uchun tegishli chora-tadbirlarni ham amalga oshirish zarurdir. Buning uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq, degan xulosaga kelindi. Bu quyidagi jadvalda o‘z aksini topgan (8.3-jadval).

8.3-jadval

Mehnat bozori transformatsiyasini harakatga keltiruvchi asosiy chora-tadbirlar

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish maqsadlari
1.	**Ta’lim tizimini takomillashtirish**	Mehnat bozoriing ehtiyojlariga mos keladigan malakali kadrlarni tayyorlash, kasbga yo‘naltirish tizimini rivojlantirish va uzluksiz ta’limni ta’minlash
2.	**Innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash**	Yangi texnologiyalarni yaratish va joriy etishni rag‘batlantirish, startaplar va innovatsion korxonalarni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish.
3.	**Ijtimoiy himoya**	Mehnat bozoridagi o‘zgarishlardan jabr ko‘rgan

	tizimini takomillashtirish	aholi qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish, ishsizlik nafaqalarini oshirish va qayta tayyorlash dasturlarini tashkil etish
4.	**Mehnat qonunchiligini takomillashtirish**	Masofaviy ish, frilansva "Gig" iqtisodiyoti shakllarini tartibga solish, xodimlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishni kuchaytirish

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, mehnat bozori transformatsiyasini harakatga keltiruvchi asosiy chora-tadbirlar birinchi navbatda ta'lim tizimini takomillashtirish bilan bog'liq. Ta'lim innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash uchun ham asos bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, mehnat bozori transformatsiyasini harakatga keltiruvchi asosiy chora-tadbirlardan biri ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish bilan ham bog'liqdir. Chunki mehnat bozoridagi o'zgarishlardan jabr ko'rgan aholi qatlamlarini albatta ijtimoiy himoya qilish lozim bo'ladi. Bunda xodimlarga to'lanadigan ishsizlik nafaqalarini oshirish va bepul qayta tayyorlash dasturlarini tashkil etishni taqozo qiladi. Bular o'z navbatida mehnat qonunchiligini ham takomillashtirishni taqozo qiladi. Pirovardida, bularning hammasi mehnat bozori transformatsiyasini harakatga keltiruvchi asosiy chora-tadbirlarning zamon talabidan kelib chiqishini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, mehnat bozori transformatsiyasini zamonaviy o'zgarishlarga mos holda rivojlanish omillarini amaliyotda inobatga olish lozim ekan. Buning uchun ushbu omillarning ta'sirini kuchaytirishga qaratilgan ayrim tavsiyalarga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiqdir.

Birinchidan, bugungi kunda har bir mutaxassis raqamlashtirish va avtomatlashtirishga oid ilmga ega bo'lishligi lozim. Bu qaysi sohaga oid bo'lmasin hammasiga kerak yo'nalish. Buni qo'lga kiritsa, masofaviy ish va frilans bilan shug'ullanish imkoniyatlariga ham ega bo'ladi. Bu barcha narsalarni tejab, ko'proq daromad olish imkoniyatlarini tag'diradi.

Ikkinchidan, ayrim ishsizlar ham turli kasblarga o'qitilib, doimiy ish topilgunga qadar vaqtinchalik qisqa muddatga o'zini ish bilan band qilish imkoniyatini yaratadigan bo'lishi lozim. Bular aynan mavsumiy

ish bilan ham o‘zini o‘zi band qilishi yoki yollanib ishlashlari mumkin bo‘ladi.

Uchinchidan, bugungi kunda “Yashil” iqtisodiyot keng ko‘lamda rivojlanib borayotgan bir pallada, ushbu yo‘nalishdagi mutaxassisliklarni ham egallash va ushbu sohada band bo‘lib faoliyat ko‘rsatishga ham e’tiborni qaratish lozim, deb hisoblaymiz.

To‘rtinchidan, dunyo iqtisodiyoti globallashayotgan sharoitda mehnat bozori transformatsiyasini harakatga keltiruvchi asosiy omillardan biri bo‘lgan texnologik taraqqiyotga mos bo‘lgan yangi kadrlarga ham ehtiyojning oshib borishini inobatga olib, shunga mos turli darajadagi kadrlarni tayyorlash ham mamlakatimizning strategik yo‘nalishlaridan biri bo‘lishligi lozim.

Beshinchidan, bugungi kundagi demografik o‘zgarishlar ham bir vaqtning o‘zida davlatimizning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini ham takomillashtirishini taqozo qilmoqda. Ushbu holat ham ta’lim tizimini shunga moslashtirishga qaratilgan davlatimizning bugungi siyosatida katta e’tiborida bo‘lishligi maqsadga muvofiqdir.

Oltinchidan, kadrlarni innovatsion iqtisodiyotga moslashtirgan holda tayyorlash ham zamonaviy talablardan biriga aylanganligini inobatga olish lozim. Chunki innovatsion iqtisodiyot keng ko‘lamli bo‘lib, juda ko‘p mutaxassislarni shunga mos holda malakalarini oshirmasa, ko‘zlangan maqsadga erishish qiyin bo‘lib qoladi. Shu tufayli ushbu masala ham davlat va nodavlat tashkilotlari diqqat e’tiborida bo‘lishligi lozimdir.

Ushbu tavsiyalarning amaliyotga tadbiq etilishi, mamlakatimizdagi zamonaviy kadrlarning ko‘p yo‘nalishli bo‘lishligiga olib kelish bilan birga, har birining raqobatbardoshligining ham mustahkam bo‘lishligini ta’minlashga xizmat qiladi.

O‘zini-o‘zi nazorat qilish va takrorlash uchun savollar:

1. Mehnat bozoridagi yangi tendensiyalar.
2. Mehnat bozoriga texnologik taraqqiyotning ta’siri.
3. Globallashuv sharoitida mehnat bozorida muvaffaqiyat qozonish zaruriyati.

4. Mehnat bozoridagi muvozanatni saqlash uchun qo‘llaniladigan choralar.

5. “Yumshoq ko‘nikmalar” yoki “soft skills” deb ataluvchi ko‘nikmalarning mohiyati.

6. Jahon iqtisodiyotidagi notekisliklarning mehnat bozoriga o‘z ta’siri.

7. Kasbga yo‘naltirish, kasbga qayta tayyorlash va ishga joylashtirish xizmatlarini takomillashtirish maqsadlari.

8. Mehnat bozoridagi gender tengligini ta’minlash.

9. Mehnat bozorida “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish imkoniyatlari.

10. Ishchilarning huquqlarini himoya qilish, ish haqi va mehnat sharoitlarini yaxshilashda “Kasaba uyushmalari”ning vazifalari.

11. “Yumshoq” ko‘nikmalarni rivojlantirish va uning mehnat unumdorligiga ta’siri.

12. Mehnat bozori transformatsiyasining zamonaviy o‘zgarishlarga mos bo‘lgan asosiy yo‘nalishlari.

13. Mehnat bozori transformatsiyasini harakatga keltiruvchi asosiy omillari.

14. Mehnat bozori transformatsiyasini harakatga keltiruvchi asosiy chora-tadbirlar.

15. Kadrlarni innovatsion iqtisodiyotga moslashtirish va tayyorlash.

IX BOB. MEHNAT BOZORI TRANSFORMATSIYASIDA AHOLINIING RUHIY VA IJTIMOIY DARAJALARINING TA'SIRI.

9.1. MBTda raqamli ta'lim xizmatlarini takomillashtirish konsepsiyasi va tarbiyaning ruhiy va ijtimoiy darajasiga ta'siri.

9.2. MBTda raqamli iqtisodiyotning Janubiy Koreya tajribasi va undan O'zbekistonda ta'lim jarayonida foydalanish istiqbollari.

9.3. Banklarda raqamli iqtisodiyotdan foydalanish orqali yashirin iqtisodiyotning oldini olishning ruhiy holatga ta'siri.

9.1. MBTda raqamli ta'lim xizmatlarini takomillashtirish konsepsiyasi va tarbiyaning ruhiy va ijtimoiy darajasiga ta'siri

Bugungi kunda ta'lim xizmatlarini takomillashtirish masalasi yangilanayotgan O'zbekiston uchun ustuvor vazifalardan biriga aylandi. Chunki eamiyatning intellektual salohiyatini oshirmasdan turib, uning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlab, raqobatbardoshligini oshirib bo'lmaydi. Shu tufayli mamlakatimiz Prezidenti davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish, raqamli iqtisodiyotni joriy etish va rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, investitsiya muhitini yaxshilash masalalariga alohida ahamiyat berib kelmoqda. Xususan, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3832-son qarori, 2018-yil 21-noyabrda "Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida raqamli infratuzilmani yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4022-sonli qarori, 2018-yil 13-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruviga raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat hamda axborot tizimlarini joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonlarini e'lon qildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 17-sentyabrda "Ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlar

samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 736-sonli qarori e’lon qilindi va ushbu hujjat 2018-yil 19-sentyabrdan kuchga kirdi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2018-yil 8-oktyabrda “Oliy ta’lim muassasasi professor-o‘qituvchilar tarkibining o‘quv yuklamasi hamda o‘quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va “ustoz-shogird” ishlarini belgilash qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 3076 sonli buyrug‘i berildi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi kabi ta’limga oid tashkilotlarning turli me’yoriy-huquqiy hujjatlari ham qabul qilindi.

Nihoyat, O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 22-iyulda “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilindi[69]. Ushbu qonun, farmon va qarorlarning ijrosini ta’minlash uchun raqamli iqtisodiyotni, uning tarkibiy qismi bo‘lgan raqamli ta’limni shakllantirish ustuvor vazifalardan biri sanaladi. Bu esa, o‘z navbatida raqamli ta’limni tadqiq qilish zaruratini tug‘diradi. Aynan ushbu obyektiv zaruriyat mavzuning o‘ta dolzarb muammoning yechimiga bag‘ishlanganligidan dalolat beradi.

Raqamli iqtisodiyot va raqamli ta’limga oid masalalar bilan mamlakatimiz olimlari tomonidan S.S.G‘ulomov, A.T.Shermuhammedovlar[70] raqamli iqtisodiyotga oid umumiy masalalarni ko‘targanlar. M.A.Ikromov esa, raqamli tovar haqida gap yuritganlar[71]. M.Q.Pardaev rahbarligidagi bir guruh olimlar raqamli iqtisodiyotning nazariy masalalari bilan birga soliq tizimida raqamli

---

[69] Қонунчилик палатаси томонидан 2019 йил 22 июнда қабул қилинган, Сенат томонидан 2019 йил 11 октябрда маъқулланган.

[70] . Ғуломов С.С., Шермуҳаммедов А.Т. Развитие цифрового маркетинга в Узбекистане. // “Ўзбекистонда ҳаракатлар стратегияси самарадорлигини оширишда маркетинг концепцияларидан фойдаланиш муаммолари” мавзусида ХИАК материаллари тўплами. – Т.: “Иқтисод-молия” нашриёти. 2019. – 24-29 бетлар.

[71] Икромов М.А., Шермуҳаммедов А.Т. Цифровой товар: стратегии производителей и продовцов. // “Ўзбекистонда ҳаракатлар стратегияси самарадорлигини оширишда маркетинг концепцияларидан фойдаланиш муаммолари” мавзусида ХИАК материаллари тўплами. – Т.: “Иқтисод-молия” нашриёти. 2019. – 100-103 бетлар., Ғуломов С.С., Шермуҳаммедов А.Т. Развитие цифрового маркетинга в Узбекистане. // “Ўзбекистонда ҳаракатлар стратегияси самарадорлигини оширишда маркетинг концепцияларидан фойдаланиш муаммолари” мавзусида ХИАК материаллари тўплами. – Т.: “Иқтисод-молия” нашриёти. 2019. – 24-29 бетлар.

iqtisodiyotdan foydalanish masalalariga e'tiborni qaratganlar[72]. Ushbu mualliflar tomonidan bir qancha adabiyotlar va ilmiy maqolalar nashr qilingan. Unda asosan raqamli iqtisodiyot, raqamli marketing, soliq kabi masallalr yoritilgan. Ammo raqamli ta'li bo'yicha mamlakatimiz olimlari tomonidan ilmiy adabiyotlar deyarli nashr qilinmagan.

Maqolani yozish jarayonida bilish nazariyasi (mantiqiy tahlil), induksiya va deduksiya, tahlil va sintez, sabab va oqibat, makon va zamon, miqdor va sifat, statistik va iqtisodiy tahlil, monografik kuzatish, sotsiologik so'rov kabi usullardan keng foydalanilgan.

Mamlakat taraqqiyotining hozirgi bosqichida yangi raqamli ta'lim tizimini shakllantirish, bunda yangi ta'lim texnologiyalarini tadbiq etish lozim bo'ladi. Buning samaradorligini oshirish uchun faqat texnika va texnologiyalarni takomillashtirish bilan erishib bo'lmaydi. Ta'lim sohasida yuqori samaradorlikka erishish uchun uning barcha unsurlarini takomillashtirish lozimdir. Birinchi galda, ta'lim oluvchilar, ta'lim iste'molchilarida yuqori ehtiyoj bo'lishi kerak. Ikkinchidan ta'lim beruvchida yuksak salohiyat shakllangan va har qanday sharoitda, har qanday ta'limni iste'molchiga etkaza oladigan bo'lishligini ham talab qiladi. Aynan shu ikkalasi mvjud joyda ta'lim texnologiyasi va infratuzilmasini takomillashtirish katta samara beradi.

Hozirgi paytda o'quvchilardan so'rasangiz, o'qituvchilar bizga kerakli narsalarni bermayapdi, degan vajni aytadi. O'qituvchilar esa, o'quvchilar – ta'lim iste'molchilari xohlamayaptilar, degan fikrni olg'a suradi. Qachongacha aybni bir-birimizdan qidiramiz. Bunga hammamiz aybdor. Ammo har bir shaxs – ta'lim oluvchi ham, ta'lim beruvchi ham aybini o'zidan axtarishi kerak. Bunda yangi ta'lim texnologiyalari vositachi rolini bajaradi, ya'ni ta'limni iste'molchiga tez va qulay etkazib beradi. Shunday qilib ta'lim xizmatlari zanjiri paydo bo'ladi (9.1-rasm).

[72] Пардаев М.Қ. Рақамли иқтисодиётнинг таърифи, мақсади, ижобий ва салбий томонлари. // "Сервис" илмий-амалий журнали. 2019 1-сон. – 5 бет.



9.1-rasm. Ta’lim xizmatlari halqasi

Ushbu halqaga kiradigan barcha unsurlar bir-biridan muhim. Chunki yuqori saviyali pedagog (o‘qituvchi) bo‘lsayu, unga munosib iste’molchi (o‘quvchi) bo‘lmasa, birinchi saviyali, bilimdon pedagogning mehnati kutilgan natijani bermaydi. Ilm olishni xohllaydigan talaba (o‘quvchi) bo‘lsayu, yaxshi o‘qitadigan pedagog bo‘lmasa ham tegishli samaradorlikka erishib bo‘lmaydi. Yuqoridagi ikkalasi ham talab darajasida bo‘lsa-yu, tegishli axborot-kommunkatsion texnologiya yetarli bo‘lmasa, hozirgi kutilgan samarali va sifatli ta’lim xizmatlarini ko‘rsatishdek ustuvor vazifaga ham erishib bo‘lmaydi.

Odatda hozirgi yo‘nalish bo‘yicha o‘qitilganda, o‘zlashtirmaydigan talabalarga juda katta vaqt sarflaymiz. Ammo iqtidorli, o‘zini eplaydigan talabalarga tegishli e’tibor qaratilmaydi. Ular o‘zlarining fanini biladi-ku, ularga ortiqcha vaqtning keragi yo‘q, degan tushuncha bilan faoliyat ko‘rsatamiz. Odatda bunday bo‘lmasligi kerak. Biz asosiy e’tiborni yaxshi o‘zlashtirayotgan va o‘qishga juda katta ishtiyoqi bor bolalarga ham e’tiborni qattiq qaratishimiz lozim bo‘ladi. Ta’lim jarayonida o‘qituvchilar ham, ta’lim iste’molchilari bo‘lgan o‘quvchilar ham, yangi ta’lim texnologilari ham talabga javob bersagina ta’lim

xizmatlarining samaradorligi va sifati oshadi. Aynan shu jarayonlarni muvofiqlashtirishda, ularning bir-biriga mosligini ta'minlashda raqamli ta'lim xizmat qiladi.

Endi raqamli ta'limning nimaligi xususida, uning nazariy jihatlariga e'tiborni qaratsak. Chunki har bir narsaning nazariy poydevorini shakllantirmasdan turib, uning amaliy samaradorligiga erishish qiyin. Raqamli ta'limni shakllantirish va rivojlantirish uchun tegishli talab paydo bo'lish bilan birga, tegishli sharoit ham yaratildi. Ma'lumki, XX-asrda "fan va texnika revolyusiyasi" degan tushuncha paydo bo'lgan edi. Aynan shu jarayonda "fan ishlab chiqarish kuchlari" darajasiga ko'tarildi. XX1-asrga kelib, "axborot revolyusiyasi", "intellektual mulk", "axborot asri" kabi tushunchalar vujudga keldi.

Ushbu tushunchalar tarkibidan bittasi "intellektual mulk" tushunchasiga keladigan bo'lsak, u faqat bitta ilmiy xodimning ish faoliyati natijasi emas, balki unda fan, texnika, texnologiya va inson omilining birgalikdagi faoliyati natijalari bo'lib hisoblanadi. Shu tufayli bugungi kunda tegishli muvaffaqiyatlarga erishmoqchi bo'lsak, hammasini birdaniga o'zgartirish, takomillashtirish lozim bo'lmoqda. Ushbu tushunchalarni jamlab bitta so'z bilan "inson kapitali", degan tushuncha ham shakllandi. Sodda qilib aytadigan bo'lsak, inson kapitali deganda, hamma ishga qolir, bilimli mutaxassis tushuniladi. Bu esa o'z navbatida fan, texnika, texnologiya va inson omilini o'zida mujassaamlashtiradi. Bularga erishish uchun eng avvlo, ta'lim tizimni o'zgartirishga qodir bo'lgan kadrlarni takomillashtirishimiz va uni o'zlashtirish ishtiyoqi baland bo'lgan talaba-o'quvchilarni shakllantirishimiz zarur bo'ladi. Bunda zamonaviy kompleks qamrovga ega bo'lgan sifat menejmenti tamoyillaridan foydalanishni taqozo qiladi. Chunki samarali faoliyatni boshqarishda sifatga yo'naltirilganlikka e'tiborni kuchaytirishni ham talab qiladi. Bu ham raqamli ta'lim bilan boshqariladi va amalga oshiriladi.

Ma'lumki, inson farovonligining manbai mehnat hisoblanib kelgan. Bunda asosan jonli, inson mehnati nazarda tutilgan. Insoniyatning butun tarixi ham shu mehnat, uni takomillashtirish bilan bog'liq holda baholangan. Farovonlik esa yaratilgan taqsimotning

taqsimoti bilan belgilangan. Bunda yuqori natijaga erishish uchun mehnat unumdorligini oshirish masalasi tarixan ustuvor bo‘lib kelgan. Ushbu yo‘nalish bugun ham o‘z mavqei va ahamiyatini yo‘qotgan emas. Ammo mehnat unumdorligi faqat nsonning mehnati bilan emas, balki boshqa vositalar yordamida (fan, texnika, texnologiya kabi) ham oshirilishini inobatga olish lozim bo‘lmoqda. Oqibatda yuqori natijaga erishilib, insonlarning yashash darajasi va sifati ham shunga mos ravishda yaxshilanib bormoqda.

Endi raqamli ta’lim tushunchasining ta’rifiga e’tiborni qaratsak. Ushbu tushuncha bo‘yicha iqtisodiy adabiyotlarda diqqatni tortadigan fikrlar deyarli aytilmagan. Bularni inobatga olib raqamli ta’limga ta’rif berish uchun, raqamli iqtisodiyotning ta’rifini ham qarab chiqdik. Bu borada M.Q.Pardaev quyidagicha ta’rifni bergan: “**Raqamli iqtisodiyot deganda, raqamli axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda elektron mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqarishga asoslangan va elektron tijorat orqali taqsimlanadigan iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy munosabatlar tizimi tushuniladi”**[73], deyilgan. Ma’lum ma’noda ushbu ta’rif bizning raqamli ta’lim tushunchasini ishlab chiqishda ham nazariy asos bo‘lib xizmat qilish mumkin. Bulardan kelib chiqib, mazkur tushunchaga quyidagicha ta’rif berishni maqsadga muvofiq, deb topdik. **Raqamli ta’lim deganda, bilim olish jarayonida talaba va o‘quvchilar axborotlarni uzatish qabul qilishning barcha usullaridan foydalangan holda mavjud sezgi organlarini harakatga keltirish orqali darslarni eshitish va his qilish yo‘li bilan engil esda qoladigan holda o‘zlashtirish imkoniyatlarini ishga solish uchun bir vaqtning o‘zida ham matn, ham audiotushuntirish, ham videorolik, ham 3D-animatsiya usullaridan foydalangan holda, ularning faoliyatini tashqarida ham masofadan turib to‘liq nazorat qilish majmuining (ota-onalar, o‘qituvchilar tomonidan) mavjudligi tashuniladi**[74]**.** Ushbu ta’rif

[73] Пардаев М.Қ. Рақамли иқтисодиётнинг таърифи, мақсади, ижобий ва салбий томонлари. // “Сервис” илмий-амалий журнали. 2019 1-сон. – 5 бет.

[74] Бабаназарова С.А. “Таълим хизматлари самарадорлиги ва сифатини оширишнинг ташкилий-иқтисодий механизмларини такомиллаштириш”. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа (PhD) диссертация.2022.

ilmiy anjumanlarda muhokama qilinib, tegishli tarzda olimlar tomonidan ma’qullandi[75].

Endi ushbu ta’rifga mos bo‘lgan raqamli ta’limni amalga oshirish texnologiyasini e’tiborlaringizga havola qilgan holda qarab chiqamiz. Fikrimizcha raqamli ta’limda asosiy ishtirokchi ta’lim oluvchi va ta’lim beruvchilar bilan birga axborot texnologiyalari va ichki hamda tashqi nazorat qiluvchilar ishtirok etadi (9.2-rasm).



9.2-rasm. Raqamli ta’limni amalga oshiruvchi subyektlarning bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan halqasi[76]

Ushbu rasmga e’tiborni qaratadigan bo‘lsak, raqamli ta’limni amalga oshirish uchun asosan to‘rtta yo‘nalishdagi vositalar va subyektlar zarur bo‘lar ekan. Muhimi raqamli ta’lim uchun hammasi axborot texnologiyalari yordamida amalga oshiriladi. Shu tufayli raqamlashtirish boshqa sohalar qatori ta’lim tizimida ham zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanishni taqozo qiladi.

Birinchi galdaa ta’lim oluvchi – iste’molchi (o‘quvchi, talaba)da ta’li olishga jiddiy ishtiyoq va istak bo‘lishi lozim. Shundagina unga tegishli axborot texnologiyalardan samarali foydalanish uchun yaratilgan imkoniyat samarali bo‘ladi. Talabalar axborot

[75] Ўша жойда.
[76] Тадқиқотлар натижасида муаллифнинг ишланмаси.

texnologiyalari bilan qurollangan bo‘lishi mumkin, ammo undan qaysi maqsadlarda foydalanish ahamiyatlidir. Shu tufayli yoshlarda birinchi galda ta’lim olishga katta ishtiyoqni uyg‘otish lozim. Shundan keyingina axborot texnologiyalaridan maqsadga muvofiq foydalanish mumkin. Bu esa o‘z navbatida, axborot texnologiyalarini to‘liq internetga ulanganligini va unda barcha zarur axborotlar joylashtirilgan bo‘lishi lozim.

Ikkinchidan, ta’lim beruvchi ustozlar ham elektron darslik va boshqa o‘quv adabiyotlarini faqat elektorni vositalar orqali o‘qish imkoniyatini yaratgan bo‘lishi lozim. Har bir fan bo‘yicha talabaga (o‘quvchiga) nima zarur bo‘lsa, shu fanning saytiga joylashtirilgan bo‘ladi. Bularni o‘rganish jarayonida talaba qancha vaqt sarflaganini o‘qituvchi bemalol nazorat qila oladigan bo‘lishi lozim. Savol-javoblar ham shu axborot texnologiyalari orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiq, chunki buning uchun katta imkoniyat yaratilgan bo‘ladi. Internetga ulangan talabalarni nafaqat o‘qituvchi, balki ota-onalar ham nazorat qilishi imkoniyati yaratiladi. Bunda o‘qituvchi talabasini yoki har bir ota-ona farzandini o‘zining qancha vaqtini o‘qishga va fanni o‘zlashtirishga sarflayotganligini nazorat qilib boradi.

Uchinchidan, raqamli ta’lim darsliklar va boshqa o‘quv adabiyotlari hamma-hammasining elektron nusxasi yaratilgan bo‘lishiligini taqozo qiladi. Hatto testlar, o‘zini-o‘zi nazorat qilishga mo‘ljallangan savollarining ham elektron nusxasi joylashtirilgan bo‘lib, o‘qituvchi shu nazoratni internet orqali amalga oshirishi va talabaning bilimini baholab borishi mumkin.

To‘rtinchidan, axborot texnologiyalari bilan nafaqat talaba (o‘quvchi), balki ota-onalar, ta’lim beruvchilar, ushbu jarayonni nazorat qilib boruvchilar to‘liq qurollangan va bir-biriga ulangan bo‘lishi (saytning nomini kirish kodi hamma-hammasini barchasi bilishi) lozim. Bunday sharoitda ta’lim haqiqiy ta’lim bo‘ladi, korrupsiyaning aralashishiga umuman imkoniyat qoldirilmaydi. Hamma bir-birini nazorat qilib boradi. Bilim olish istagi borlar haqiqatda bilim oladigan shaxsga aylanadi. Bugungidek, nima bo‘lsa ham diplom olish uchun emas, balki bilim olish uchun o‘qish harakati ta’minlanadi. Bu holat har

bir talabani (o‘quvchi) va shu orqali butun millatni, xalqni yuksaltiradi. Ma’lumki, ta’lim yuksalgan joyda millat yuksaladi va mos ravishda mamlakatimizning barqaror iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyoti ta’minlanadi.

Raqamli ta’limning yaratilishi ichki va tashqi nazoratchilarning ham masofadan turib o‘z vazifasini amalga oshirishi uchun imkoniyat yaratiladi. Ammo shuni e’tirof etish kerakki, har qanday ta’lim tarbiya bilan hamohang tarzda olib borilmog‘i lozim. Tarbiya yetarli bo‘lmagan joyda ta’limga ishtiyoqning, hohishning uyg‘onishi ham mushkul. Shu tufayli ta’lim bilan tarbiyanin birortasini birinchi va qaysinidir ikkinchi darajaga tushurib bo‘lmaydi. Inson kamoloti, jamiyat taraqqiyoti uchun ta’lim qanchalik zarur bo‘lsa, tarbiyaning ahamiyati ham undan kam bo‘lmaydi.

Bugungi kunda ta’lim-tarbiya tizimida ayrim muammolar mavjudligi ham sir emas. Bularning bir-biri bilan bog‘liqligi quyidagilarda namoyon bo‘lmoqda:

Birinchidan, tarbiya bilan bog‘liq tushuncha va tamoyillarini yoshlar ongiga ta’lim orqali singdirish juda murakkab. Bolani tug‘ulgandan boshlab oiladan barcha harakatlarni milliy qadriyatlarning muqaddasligiga bog‘lab olib borish orqali, uning ishonch va e’tiqodini shakllantirib borish lozim. U o‘qish kerakligini butun vujudi bilan his qilmasa, o‘qishga katta ishtiyoq uyg‘ongan bo‘lmas, uni o‘qi deb o‘qitib bo‘lmaydi. Inson haqiqiy komil inson bo‘lishi uchun o‘qish kerakligi har bir yoshning ishonch-e’tiqodiga aylanib borishiga erishish lozim bo‘ladi. Chunki asl qadriyatlarimizni, iymon-e’tiqodni ta’lim-tarbiya tizimidan ajralgan holda tasavvur etib bo‘lmaydi. Afsuski, hali hamma yoshlarda ham milliy qadriyatlarimizga tayangan holda ilm-fan yutuqlariga, uning sirlarini bilishga intilib yashash bir xilda yuqori emas. Juda ko‘p hollarda, tan olib aytish joiz, ta’limning oqsoqligi tarbiya bilan bog‘liqligini hamisha anglab etayotgan emasmiz.

Ikkinchidan, bugungi globallashuv sharoitida turli mafkuraviy xurujlar hukm surib turgan pallada yoshlarimizni o‘z qadriyatlariga sadoqat ruhida tarbiyalab, tahdidchilikdan, tushunib-tushunmay “o‘rnak olish” ruhiyatidan xoli qilish lozim bo‘lmoqda. Bunday holatda ta’limni

tarbiyadan ayri holda tasavvur qilib bo‘lmaydi. Biz xorij bilan bir xil ta’limni olishimiz mumkin, ammo tarbiyada bir xillikka yo‘l qo‘yish mumkin emas. Biz qadriyatlarimizdan uzoqlashadigan, unga bepisandlik bilan qaraydigan bo‘lsak, butunlay boshqa odamga aylanib qolishimiz mumkin.

Uchinchidan, millat bilimli bo‘lishi bilan birga tarbiyali bo‘lishi lozim. Tarbiyali, e’tiqodli inson halol-pokiza yashashni shior qilib oladi. Bundaylar o‘ziga qulay holatda aldav yo‘li bilan ishini bitirishdan yiroq bo‘ladi. Tarbiya mamlakatimizning mustaqil taraqqiyotini ta’minlashda, uning xalqaro nufuzini oshirishda, raqobatbardoshligini mustahkamlashda, aholining yaxlitligini ta’minlashda, barqaror rivojlanishga erishishda bilim singari muhim omillardan bo‘lib hisoblanadi. Bugungi kunda ta’lim-tarbiya muassasalari, milliy g‘oya ilmiy-amaliy markazi, ma’naviyat targ‘ibot markazi va boshqa ijtimoiy institutlarning faoliyatida milliy g‘oya targ‘iboti samaradorligini oshirishga qaratilgan ko‘plab tadbirlar o‘tkazilmoqda. Bunda ham zamonaviy axborot texnologiyalarini qo‘llash va zamon bilan hamnafas bo‘lishga alohida ahamiyat berilmoqda. Ammo ushbu ishlarning samaradorligi qanchaligini baholash qiyin bo‘lmoqda.

To‘rtinchidan, milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylashdan maqsadimiz millatni asl holida saqlab qolishga qaratilgan. Ta’lim tarbiyaning muhim ajralmas qismi milliy o‘zlikni anglash ekanligi, uni mustaqil demokratik taraqqiyotini, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning muhim omili ekanligini alohida ta’kidlash lozim. Bugungi globallashuv sharoitida ta’lim sohasida jahon fani yutuqlari, texnologiyalardan foydalanish qanchalik zarur bo‘lsa, tarbiya sohasi ham milliy qadriyatlarimizni saqlab qolish uchun shunchalik zarurdir. Chunki, ta’limda – dunyoviylik ilmini, tarbiyada esa milliy ma’naviy qadriyatlarni hisobga olib, o‘zligimizni, iymon-e’tiqodimizni mustahkamlashga qaratilgan ilmni singdirishni taqozo qiladi. Buni bola dunyoga kelgan kundan boshlab maktabgacha va maktab davrining ham hamma bosqichlarida yanada boyib, yangilanib borishiga xizmat qiladi.

Beshinchidan, hayotda o‘z manfaatini ustun qo‘yib, qonunga rioya etmaslik, rahbarlikda adolat prinsiplarini buzish, loqaydlik, insonlar hayotiga befarq bo‘lish bilan bog‘liq holatlarning kam bo‘lsada saqlanib qolayotganligi jamiyat uchun katta ma’naviy zarar keltiradi. Chunki, odamlar bu holatlarni ko‘rib, ularning jazolanmayotganliklariga guvoh bo‘lib yashaydigan bo‘lsa, hech mahal hayotdan rozi bo‘lmaydi. Adolat yo‘q joyda ma’naviy barqarorlikka ham erishish mushkul. Zero, tarbiya jarayoni eng nozik bo‘lib, unda so‘z va ishning birligini talab qiladi. Agar bu ta’minlanmasa, bunday pallada mahalliychilik, urug‘-aymog‘chilik, tanish-bilishlik holatlari bilan bog‘liq nosog‘lom muhit shakllanadi. Bu bevosita tarbiya jarayoniga juda katta salbiy ta’siri bo‘ladi.

Oltinchidan, ta’lim-tarbiya jaryonidagi ayrim muammolar urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz va an’analarimizga bepisandlik bilan qarash oqibatida kelib chiqadi. Bularning namoyon bo‘lishi bevosita ortiqcha moddiy harajatlarga yo‘l qo‘yishlar bilan bog‘liq. xalqimizning milliy madaniy merosi va qadriyatlariga hurmat bilan qarashlarni unutib qo‘yayotganligi bilan bog‘liq. Bunday holatga barham berish vaqti qachonlardir kelgan edi. Bugungi kunda ushbu jarayonlarni tezlashtirish masalasi o‘zta dolzarb hisoblanadi. Bunday dolzarb muammoning yechimi ham bevosita raqamli ta’lim va shunga mos tarbiyani amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lib qolmoqda.

Yettinchidan, yoshlarning ta’lim bilan birga tarbiya olish, bilim sirlarini egallashi, bugungi zamon talablariga javob beradigan kasb-hunarga ega bo‘lishligi borasida ancha ishlar qilinishiga qaramasdan, ayrim yoshlarning hayotida norozigarchilik ruhiyati hamon saqlanib qolmoqda. Bunday holatning saqlanib qolishiga mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanishga bo‘lgan intilishning etishmayotganliklari ham sabab bo‘moqda. Bugungi globallashuv tufayli zamonaviy internet tarmoqlari orqali turli hil saytlarda yoshlarning o‘zaro muloqotidagi tarbiyaga zid bo‘lgan nosog‘lom ko‘rinishdagi munosabatlarning shakllanayotganligi tarbiyaning milliy ma’naviy negizlariga to‘g‘ri kelmaydi. Bundan ham ko‘rinib turibdiki, ta’lim jarayonida axborot texnologiyalaridan bemalol foydalanish

mumkin, ammo tarbiya jarayoni faqat ilg‘or texnika va texnologiyalardan foydalanib, ular bilan inson ruhiyatiga ta’sir qilib muvaffaqiyatlarga erishib bo‘lmas ekan. Axborot texnologiyalardan to‘g‘ri va maqsadga muvofiq foydalanish uchun ham talaba tarbiyalangan va unda juda katta o‘qish istagi, tuyg‘usi uyg‘ongan bo‘lishi lozim. Shu tufayli, ta’lim va tarbiyaning uyg‘unligini ta’minlash uchun fanda texnika va texnologiyadan foydalanishga katta ahamiyat berilsada, tarbiya jarayonida bulardan foydalanish ham ma’lum muammolarni keltirib chiqaradi. Chunki internetdagi hamma narsalar ham tarbiyaga ijobiy ta’sir qilavermaydi. Internetda aynan tarbiyani buzushga qaratilgan maxsus axborotlar borki, ular ko‘p hollarda tarbiya jarayoniga salbiy ta’sir qiladi. Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda ta’lim tizimini takomil-lashtirish va ilm-fanni rivojlantirishga katta ahamiyat berilmoqda. Natijada ushbu soha rivojlanishi bilan birga o‘quv jarayonlari takomillashib bormoqda. Shu takomillashish jarayonining bir yo‘nalishi kelajakda raqamli ta’limni shakllantirish va ta’limning shaffofligini to‘liq ta’minlashdan iborat. Shu nuqtai nazardan bir qancha ilmiy tavsiyalarni ishlab chiqdik:

1. Raqamli ta’limni amalga oshiruvchi subyektlarning bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan halqasi ishlab chiqildi. Bunda raqamli ta’limning asosiy ishtirokchilari ta’lim oluvchi va ta’lim beruvchilar bilan birga axborot texnologiyalari va ichki hamda tashqi nazorat qiluvchilardan iboratligi asoslandi. Shuningdek, raqamli ta’limni amalga oshirish uchun asosan to‘rtta yo‘nalishdagi vositalar va subyektlardan foydalanilar ekan. Biroq bularning hammasi raqamli ta’limni axborot texnologiyalari yordamida amalga oshirilishi ham ko‘rsatib o‘tildi. Shu tufayli raqamlashtirish boshqa sohalar qatori ta’lim tizimida ham zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanishni taqozo qilishi ham asoslandi.

2. Yana bir muhim xulosa, har qanday ta’lim tarbiya bilan hamohang tarzda olib borilmog‘i lozim ekan. Tarbiya yetarli bo‘lmagan joyda ta’limga ishtiyoqning, hohishning uyg‘onishi ham murakkab bo‘ladi va ikkalasida ham kamchilik sodir bo‘ladi. Shu tufayli ta’lim bilan tarbiyani qiyoslab birini birinchi va qaysinidir ikkinchi darajaga

tushurib bo‘lmasligi ham uqtirildi. Inson kamoloti, jamiyat taraqqiyoti uchun ta’lim qanchalik zarur bo‘lsa, tarbiyaning ahamiyati ham undan kam bo‘lmaydi. Muhim jihat, raqamli ta’limni amalga oshirishda asosan axborot texnologiyalaridan foydalanish lozim bo‘lsa, ammo tarbiya jarayonida ushbu asboblar yetarlicha samara bermasligi mumkin. Shu jihatdan tarbiyani amalga oshirishdagi muammolar ochib berildi.

3 Bugungi kundagi ta’lim-tarbiya tizimida mavjud muammolar tizimlashtirildi. Bularning tegishli yo‘nalishlari ettita bandda sanab, ularning bir-biri bilan bog‘liqligi qayd etilib, mavjud muammolarni bartaraf qilish yo‘llari ham ko‘rsatib berildi.

Agar bizning tavsiyalarimiz amalga oshadigan bo‘lsa, o‘ylaymizki, mamlakatimizda ta’lim jarayonida tub o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Uning shaffofligi ta’minlanib, korrupsiyaga imkoniyat qoldirmaydi, talabaning chinakamiga o‘qib-izlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratilishi bilan birga ularni har tomonlam (ota-onalar tomonidan, o‘quv muassasalari rahbariyati tomonidan, o‘qituvchi va boshqa manfaatdor shaxslar tomonidan) nazorat qilish ham mumkin bo‘ladi. Bunday holat albatta, ta’lim tizimini takomillashtirishga va samaradorligining oshirilishiga olib keladi.

9.2. MBTda raqamli iqtisodiyotning Janubiy Koreya tajribasi va undan O‘zbekistonda ta’lim jarayonida foydalanish istiqbollari[77]

Milliy elektron ta’lim tizimini shakllantirish va rivojlantirish dasturi Janubiy Koreyada 1995-yildayoq qabul qilingan edi. Koreya Respublikasi Ta’lim va personalni boshqarish vazirligi hamda Ta’lim va ilmiy tadqiqotlar bo‘yicha axborot xizmati – “Korea Education and Research Information Service – KERIS tomonidan ishlab chiqilgan ushbu dastur to‘rt bosqichda amalga oshirildi.

Birinchi bosqich – 1996-2000-yillar.

Ikkinchi bosqich – 2001-2005-yillar.

Uchinchi bosqich – 2006-2010-yillar.

[77] Қаландар АБДУРАҲМОНОВ “Рақамли иқтисодиёт: Жанубий Корея тажрибаси ва ундан Узбекистонда фойдаланиш истиқболлари” мавзусида катта мақоласи[77] эълон қилинди. 30.04.2018 | Номер: №4 (124)-2018.

To‘rtinchi bosqich – 2011-2015-yillar.

Birinchi bosqich – 1996-2000-yillar. Ushbu davrda mamlakatda “Education Network – EDUNET” axborot xizmati shakllantirilib, ta’lim muassasalari pedagoglari raqamli ta’lim texnologiyalari bo‘yicha qayta tayyorlanishlari bilan bir qatorda aholining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi savodxonligi oshirildi.

2001-2005-yillarni qamrab olgan ikkinchi bosqichda “Education Network - EDUNET” axborot xizmati takomillashtirildi, O‘qitish va ta’lim markazi – “Teachingand Learning Centre” hamda kiber uy ta’limi tizimi – “Cyber Home Learning System – CHLS” ta’sis etildi, shuningdek, raqamli kutubxonalar tashkil qilindi. Bu mamlakat miqyosida elektron ta’limni joriy qilish imkoniyatini yaratdi.

“CHLS” tizimi ta’lim muassasalarida o‘qiyotganlarga o‘z bilimlarini mustaqil oshirishga mo‘ljallangan. Mazkur kontent talaba yoshlarning qiziqishlari va bilimi darajasidan kelib chiqqan holda tegishli o‘quv dasturlarini tanlash, repetitorlarga murojaat qilmasdan qo‘shimcha ma’lumotlarni o‘zlashtirish imkoniyatini yaratadi. U, ayniqsa, kam ta’minlangan oilalar uchun qo‘l keladi.Uchinchi bosqich – 2006-2010-yillarda Janubiy Koreya jahon elektron ta’lim bozoridan mustahkam o‘rin oldi. Bu har yili davlat g‘aznasiga 2 mlrd. AQSh dollari miqdorida daromad keltira boshladi.

2011-2015-yillardagi to‘rtinchi bosqichda mamlakatda shakllantirilgan elektron ta’lim tizimi tubdan takomillashtirildi. Mamlakatda elektron ta’limni muvofiqlashtirish bo‘yicha 17 ta mintaqaviy bo‘lim – “Metropolitan Provincial Officesof Education – MPOES” shakllantirildi.

Janubiy Koreyada elektron ta’lim tizimini shakllantirish quyidagi algoritm asosida amalga oshirildi:

- elektron ta’lim – Electronic education (E-learning);
- mobil ta’lim – Mobile-learning (M-learning);
- yalpi ta’lim – Ubiquitous-learning (U-learning);
- interaktiv ta’lim – Smart-education.

Janubiy Koreyada axborot-kommunikatsiya texnologiyalari boshlang‘ich, o‘rta hamda oliy ta’lim muassasalarida keng joriy etilgan.

Mamlakatdagi universitetlarning 83 foizi “E-learning” tizimi bilan qamrab olingan. Bundan tashqari, 17 ta kiber universitet mavjud bo‘lib, ularda onlayn tartibida 18 yoshdan 60 yoshgacha bo‘lgan 40 ming talaba tahsil oladi. Ushbu talabalar bilimini nazorat qilishning dasturiy ta’minoti yaratilgan. EDUNET internet portali ulkan miqdordagi videodarslar, elektron kitoblar, o‘quv materiallarining ko‘chirmalariga ega. Undan 6,7 mln. kishi foydalanadi. Har kun portalga 410 ming kishi kirib, ular 27 mln. sahifa darsliklar va boshqa zarur o‘quv materiallari bilan tanishadi.Janubiy Koreya ta’lim tizimi jahon miqyosida e’tirof etiladi. Buyuk Britaniyaning “Pearson” xalqaro guruhi tomonidan har yili e’lon qilib boriladigan milliy ta’lim tizimlari samaradorligi reytingida ushbu mamlakat yaqin vaqtgacha ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha dunyoda peshqadamlikni qo‘ldan bermay kelgan Yaponiyani ham ortda qoldirdi. Bu Janubiy Koreyada axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yuksak darajada taraqqiy etgani samarasidir (9.1-jadval).

9.1-jadval.

Jahon mamlakatlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanishining 2017 yilgi indeksi

O‘rin	Mamlakatlar	Indeks
1	Islandiya	8.98
2	Janubiy Koreya	8.85
3	Shveysariya	8.74
4	Daniya	8.71
5	Buyuk Britaniya	8.65
6	Gonkong	8.61
7	Niderlandiya	8.49
8	Norvegiya	8.47
9	Lyuksemburg	8.47
10	Yaponiya	8.43
95	O‘zbekiston	4.90
109	Qirg‘iziston	4.37

Janubiy Koreya ta'lim sohasiga davlat byudjetidan ajratayotgan mablag‘ 11,3 mlrd. AQSh dollarini tashkil etadi. Ayni paytda aholisi 48 mln. kishini tashkil etadigan mamlakatda 419 ta oliy ta'lim muassasasi mavjud. Ushbu davlat har 100 ming aholi soniga to‘g‘ri keladigan talabalar soni bo‘yicha ham dunyoda peshqadam. Mamlakatda umumta'lim o‘rta maktablarini tugallagan yoshlarning 70 foizi oliy ta'lim muassasalarida o‘qishni davom ettiradi. Ularning salmoqli qismi masofadan turib ta'lim olib, bakalavr darajasiga ega bo‘lish imkoniyatiga egadir.

Yuqori malakali mutaxassislar Janubiy Koreya iqtisodiyotining yuqori sur'atlarda rivojlanishini ta'minlamoqda. Xalqaro valyuta jamg‘arasi ma'lumotlariga ko‘ra, ushbu mamlakatda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yalpi ichki mahsulot hajmi 37730 AQSh dollarini tashkil etadi. Taqqoslash uchun O‘zbekistonda ushbu ko‘rsatkich 6070 dollarga tengligini ko‘rsatish mumkin. Ayni paytda Janubiy Koreyada "raqamli iqtisodiyot"ning yalpi ichki mahsulot hajmidagi ulushi 8,0 foizga etgan. Bu ham jahonda Buyuk Britaniyadan (12,4 foiz) keyin ikkinchi natijadir.

Mutaxassislar fikricha, yaqin vaqt ichida ta'lim sohasida "raqamlashtirish" bilan bog‘liq jiddiy o‘zgarishlar kutilmoqda. Elektron (raqamli) ta'lim (inglizcha: "Electronic Learning", qisqartirilganda: "E-learning") axborot va elektron texnologiyalar asosida o‘qitish tizimi hisoblanadi. Ta'limning ushbu turiga quyidagilar kiradi:

• axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda elektron o‘quv materiallarini shaxsan o‘zlashtirish;

• masofadan turib o‘qituvchi, mutaxassis tomonidan maslahat olish, o‘z bilimining baholanishi;

• xohlagan paytda va joyda jahondagi ta'lim muassasalaridan zamonaviy bilimlarni egallash imkoniyati va boshqalar.

Umuman, elektron ta'limni shakllantirishda quyidagi to‘rt bosqich ajratib ko‘rsatiladi:

•CD-ROM (inglizcha: "Compact Disc Read Only Memory", ya'ni "ma'lumotlarni (fayllarni) saqlash kompakt disklari") eltuvchilariga asoslangan kurslar;

• talabalarga o‘qituvchilar tomonidan masofadan turib ta’lim berish;

• elektron darsliklarga asoslangan maxsus interfaol dasturlardan foydalangan holda elektron ta’lim berish;

• 2010-yildan boshlab ommaviy (bir yo‘la yuzlab ming talaba uchun) ochiq onlayn kurslari.

Elektron ta’lim berishning jadal sur’atlarda rivojlantirilishi quyidagilar bilan izohlanmoqda:

• fan-texnika taraqqiyotining jadallashishi natijasida ommaviy ravishda oliy ta’limga ega bo‘lish zarurati;

• zamonaviy ishlab chiqarishlar va xizmat sohalarida ish bilan band xodimlarning o‘z bilim va malakalarini muntazam yangilab borishga ehtiyojlari tufayli ta’limning uzluksizlik xususiyatini olayotganligi;

• axborot-kommunikatsiya texnologiyalari taraqqiy etishi natijasida masofadan turib ta’lim olish imkoniyatlari kengayishi;

• eng nufuzli darsliklar, qo‘llanmalar, o‘z sohasining mashhur olimlari va mutaxassislari ma’ruzalarining raqamlashtirilishi natijasida bilimlarning mustaqil egallanishi va o‘zlashtirilgan ushbu bilimlarning xolis baholanishi;

• ta’lim olishda hududiy va vaqt to‘siqlarining bartaraf etilishi, ya’ni nafaqat bir mamlakatning boshqa mintaqasida, balki xorijdagi nufuzli universitetlarda ham masofadan turib ta’lim olish, fanlarni o‘rganishni shaxsiy kun tartibi asosida amalga oshirish imkoniyati va boshqalar.

O‘zbekistonda ham “Elektron ta’lim” milliy tizimini shakllantirishga kirishilgan. Ayniqsa, “oliy ta’lim muassasalarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari bilan jihozlash, oliy ta’lim muassasalari talabalari, o‘qituvchilari va yosh tadqiqotchilarining jahon ta’lim resurslari, zamonaviy ilmiy adabiyotlarning elektron kataloglari va ma’lumotlar bazalariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish” ga alohida e’tibor berilmoqda.

2012-yilda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzurida Ta’lim muassasalarida elektron ta’limni joriy etish markazi tashkil etildi. O‘tgan davr mobaynida ushbu markaz tomonidan oliy va o‘rta-maxsus,

kasb-hunar ta'limi muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, shu jumladan, videokonferens-aloqa va masofadan o'qitish uslublaridan foydalangan holda o'quv jarayoni va ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish loyihalari amalga oshirilmoqda. Hozirgi paytda 59 ta asosiy oliy ta'lim muassasasi va ularning 13 ta filiali, 15 ta o'rta maxsus kasb-hunar ta'lim muassasasi, shuningdek, qator ilmiy-tadqiqot muassasalari shu tizimga ulangan.

Markaz oliy va o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi kadrlari malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash muassasalari pedagoglari uchun o'quv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha maxsus o'quv kurslarini ishlab chiqish, ta'lim jarayonida kompyuter uskunalaridan foydalanishning samaradorligini tahlil qilish va monitoringini yuritish, "Ta'lim" axborot tizimlari majmuasini ishlab chiqish, joriy etish va qo'llab-quvvatlash bilan ham shug'ullanmoqda. Umuman, oliy ta'lim muassasalari axborot resurs markazlari tomonidan ARMAT dasturiga kiritilgan o'quv adabiyotlarining elektron katalogdagi bibliografik yozuvlar soni 1169,3 mingtadan ko'proqni, to'liq matnli elektron resurslar 19,7 mingtani tashkil etadi.

Shuningdek, oliy ta'lim tizimining sirtqi va kechki ta'limida talabalarning asosiy ish joyidan ajralmagan holda o'quv rejasidagi barcha fan dasturlarida belgilangan bilimlarni masofadan turib mustaqil o'zlashtirishi ham yo'lga qo'yilmoqda. Masofadan o'qitish onlayn (real vaqt rejimida videoma'ruzalar, konsultatsiyalar, nazorat turlarini o'tkazish) va offlayn (masofadan turib o'qitish tizimidagi tegishli o'quv-metodik resurslarni mustaqil ravishda o'zlashtirish) tartiblarida tashkil etiladi. Bunda oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari masofadan turib o'qitishda o'quv materiallari, topshiriqlar va maslahat-konsultativ ishlarni oliy ta'lim muassasasi saytidagi "Sirtqi" va "Kechki" ta'lim sahifasiga joylashtiradi hamda ularning bajarilishini nazorat qilib boradi.

O'zbekistonda elektron ta'limni joriy etish uchun mutaxassislar tayyorlashda Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining alohida o'rni bor. Universitet va uning

Qarshi, Nukus, Samarqand, Urganch va Farg‘onadagi filiallarida 10,2 mingdan ortiq talaba axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining 23 yo‘nalishi bo‘yicha tahsil olmoqda. Ushbu oliy ta’lim muassasasi rivojlangan 26 mamlakatning 42 ta univesiteti, 8 ta ilmiy-tadqiqot markazi va 12 ta yirik kompaniyasi bilan yaqin hamkorlik aloqalarini o‘rnatgan. Universitetning Janubiy Koreyaning Axborot jamiyati masalalari bo‘yicha milliy agentligi (NIA) bilan o‘n yildan beri davom etayotgan hamkorligi, ayniqsa samarali bo‘lmoqda. Buni universitetda Axborot almashinuvi bo‘yicha o‘zbek-koreys markazi misolida yaqqol ko‘rish mumkin.

Shu bilan birga, amalga oshirilgan tahlillar axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning amaldagi tizimi IT-texnologiyalar rivojlanishining tezkor sur’atlarini hisobga olmayotganligi, elektron ta’lim berishning ilg‘or uslublarini joriy etish bugungi kun talablariga to‘liq javob bermayotganligini ko‘rsatdi. Bu hisobga olingan holda axborot texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy qilishni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha “Mirzo Ulugbek Innovation Center” innovatsiya markazi, shuningdek, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo‘nalishiga oid fanlarni chuqurlashtirib o‘qitishga ixtisoslashtirilgan maktab tashkil etilmoqda.

Viloyatlardan iqtidorli bolalar tanlov asosida qabul qilinadigan, 1470 o‘quvchiga mo‘ljallangan ushbu ixtisoslashtirilgan maktabda ularning puxta bilim olishi uchun barcha sharoit yaratiladi. O‘quvchilarning mustaqil ishlashi, qobiliyatini rivojlantirishi uchun maxsus uskunalar bilan jihozlangan qo‘shimcha xonalar, auditoriyalar, zamonaviy tabiiy fanlar laboratoriyalari, informatika xonalari, robototexnika ustaxonalari hamda sport maydonchalari hamda suzish havzasi barpo etiladi. Davlatimiz rahbari ushbu maktabning yangi binosi quriladigan maydonda uning loyihasi bilan tanishar ekan, “bu yerda shunday muhit yaratish kerakki, ular ta’limni, asosan, elektron vositalar orqali olsin”, deb alohida ta’kidladi.

Davr O‘zbekistonda elektron ta’limni faqat oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalaridagina emas, umumta’lim maktablarida ham keng jalb etishni talab etmoqda. Bu o‘rinda Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti mamlakatlarida umumta’lim maktablarining 1-sinfidan boshlab informatika asoslari fani o‘qitila boshlanishini eslatish o‘rinli bo‘ladi.

Fikrimizcha, mamlakatning butun uzluksiz ta’lim tizimida elektron ta’limni yo‘lga qo‘yish uchun maxsus davlat dasturini ishlab chiqish va qabul qilish vaqti keldi. Bunday dasturlar faqat Janubiy Koreyada emas, shuningdek, AQSh, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Xitoy, Germaniya, Italiya, Fransiya, Niderlandiya, Singapur, Malayziya kabi 40 dan ko‘proq mamlakatda qabul qilingan.

O‘zbekistonning uzluksiz ta’lim tizimida elektron ta’limni joriy etish davlat dasturi quyidagilarni qamrab olishi maqsadga muvofiq bo‘lardi:

• barcha ta’lim muassasalarining “Elektron ta’lim” milliy tizimiga ulanishini ta’minlash;

• informatika asoslari fanini o‘qitishni 1-sinfdan boshlab joriy qilish;

• mamlakat fuqarolariga masofadan turib barcha ixtisosliklar va mutaxassisliklar bo‘yicha o‘rta maxsus va oliy ta’lim ta’lim olish, shu jumladan, chet el oliy ta’lim muassasalarining elektron ta’lim tizimidan ham foydalanish imkoniyatini yaratish;

• elektron darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, maxsus interfaol dasturlar, videomateriallar, adabiyotlar yaratish va sertifikatlashni jadallashtirish uchun maxsus davlat muassasasi tashkil etish va uning faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash;

• jahonning nufuzli ta’lim muassasalari tomonidan yaratilgan elektron darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, maxsus interfaol dasturlar, videomateriallardan masofadan turib ta’lim olish milliy tizimida foydalanish imkoniyatini yaratish;

• yoshlarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi bilimdonligini va amaliy ko‘nikmalarini umumta’lim maktablarining boshlang‘ich sinflaridan boshlab shakllantirish uchun mamlakatning

barcha mintaqalarida davlat-xususiy sheriklik asosida bolalar texnoparklari, biznes-inkubatorlarning keng tarmog‘ini yaratish va boshqalar.

XXI asr tom ma’noda axborot asriga aylandi. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida jahon bozori kon’yunkturasi keskin o‘zgarib, globallashuv, raqobat tobora kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda mamlakatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish, uning raqobatbardoshligini keskin oshirish vazifasi qo‘yilgan. Bu strategiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish, birinchi navbatda, milliy inson kapitaliga – barcha fuqarolarimizning chuqur zamonaviy bilimlarga va yuksak mahoratga ega bo‘lishiga bog‘liqdir. Shuning uchun mamlakatimizda elektron ta’limni joriy qilishni jadallashtirish strategik vazifaga aylangan.

9.3. Banklarda raqamli iqtisodiyotdan foydalanish orqali yashirin iqtisodiyotning oldini olishning ruhiy holatga ta’siri

Hozirgi kunda jamoatchilik o‘rtasida raqamli iqtisodiyotning yashirin iqtisodiyot, soxta ma’lumotlar va qora bozorga o‘rin qoldirmasligi xususida ko‘p muhokama va munozaralar bo‘lmoqda.

Bunga qanday erishiladi?

Birinchidan, dastlabki ma’lumotlarni soxtalashtirish imkoniyati bo‘lmaydi yoki butunlay cheklanadi. Chunki bazaga kiritilgan ma’lumotlar axborotlar to‘rida joylashgan bo‘ladi. Bitta joyda o‘zgartirsh orqali hammasini o‘zgartirib bo‘lmaydi.

Ikkinchidan, mamlakatimizdagi yashirin iqtisodiyot faoliyatini rasmiy iqtisodiyotga o‘tkazish uchun obyektiv sharoit yaratiladi. Chunki soxtalashtirish imkoni bo‘lmagan joyda yashirin iqtisodiyotga tomon yo‘l o‘z-o‘zidan yopiladi.

Uchinchidan, valyuta qora bozorining barham topishiga erishiladi. Chunki banklardan chiqadigan va unga tushadigan mablag‘lar bevosita raqam bilan amalga oshiriladigan bo‘lsa, buning ham imkoniyati cheklanadi.

To‘rtinchidan, yaqinda amalga oshirilgan va oshirilishi davom etayotgan soliq islohotlari ham yashirin iqtisodiyotning oldini olishga qaratilgan. Chunki, ish haqidan to‘lanadigan soliqlar kamaysa, yashirin ishlayotgan xodimlarga konvertda oylik maosh berish barham topishi kerak edi.

Ammo yashirin iqtisodiyot va valyutaning qora bozori hanuzgacha saqlanib qolmoqda. Albatta buning mamlakat iqtisodiy taraqqiyotiga salbiy ta’sir qilishi tayin. Yashirin iqtisodiyot va qora bozor haqida gap ketganda barcha kishilar qanday qilib ulardan xalos bo‘lishi haqida gapiradi. Bunga erishish uchun qanday yo‘llarni tanlash mumkinligi bugungi kunda o‘ta dolzarb hisoblanadi.

Bugungi kunga yashirin iqtisodiyot, soxta ma’lumotlar va qora bozorga qarshi kurashish uchun O‘zbekistonda tegishli sharoitlar yaratildi. Ma’lumki mamlakatimizda valyuta liberalizatsiyasi amalga oshirildi. Shu davrda bir muncha vaziyat o‘zgardi, valyuta ayriboshlashi uchun ancha engilliklar yaratildi. Ammo hamon yashirish iqtisodiyot va qora bozor alomatlari saqlanib qolmoqda. Albatta bu holat iqtisodiyot sohada halol-pokiza faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlarni biroz tashvishga soladi.

Banklarda xorijiy valyutani naqd ko‘rinishda sotishni to‘liq raqamlashtirishni taqozo qiladi, ya’ni bunda imkon qadar odamlarning ishtirokini kamaytirish lozim bo‘ladi. Agar xorijiy valyutani banklar tomonidan turli bahonalar bilan sotilishi susaytirilsa, albatta qora bozorning saqlanib qolinishiga sabab bo‘ladi. Chunki odamlar aynan xorijiy valyuta kerak paytida almashtirishga kirishadi. Shu payt banklarda bo‘lmasa, albatta qora bozordan axtarishadi. Bunday ehtiyoj uning saqlanib qolishiga muhim omil bo‘lib hisoblanadi.

Masalaning ikkinchi tomoni bor. Agar valyutani sotishni to‘liq erkinlashtirish ham o‘zimizda biroz xatarli. Uni bir qism “tadbirkorlar” istagancha sotib olishi mumkin. Shu tufayli aynan xorijiy valyutani kimlar xarid qilayotganligi aniq bo‘lishi kerak. Ushbu usulning ham yo‘lini topishdi. Bir paytlar har bir shaxsga chegaralangan miqdorda valyuta sotish me’yori belgilangan edi. Bundan ham egri yo‘llarni topishdi. Birovlarni yollashga o‘tildi. Ushbu yollangan shaxsni pul

bilan ta’minlaydi va u pasporti bilan borib, arzimagan haq evaziga valyutani almashtirib beradigan bo‘ldi.

Bunday holatni bartaraf qilish juda murakkab, chunki odamlar qanday qilsaki, o‘zlarining ortiqcha pulini xorijiy valyutada saqlash uchun almashtirib olishga intiladi. Zero, naqd xorijiy valyuta kerak bo‘lib qolganda valyutani erkin almashtirish imkoniyati bo‘lmay qolishlik xavfidan cho‘chimoqda.

Fikrimizcha, valyutan almashtirishni to‘liq erkinlashtirish bilan birga uning shaffofligini ham ta’minlash lozim bo‘ladi. Raqamli operatsiyalarni amalga oshirishb, kim qancha xarid qilayotganligini va qancha xarid qilganligini bilishni taqozo qiladi. Bunda ma’lum miqdorda valyutani ko‘p xarid qilib, keyin qora bozorda sotish imkoniyati cheklanadi. Bu vaqtinchalik chora. Muhimi, bu yerda ham insonlar mablag‘i bo‘yicha boy bo‘lish bilan birga ma’naviy jihatdan ham boy bo‘lishligini taqozo qiladi. Insonda iymon-e’tiqod shakllangan bo‘lsagina turli nayranglarni qilishmaydi.

Mamlakatimizda **“Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”**gi qonunning yangi tahriri qabul qilinishi ko‘zda tutilgan edi. Ushbu qonun o‘zimizning bugungi bor holatimizdan kelib chiqqan holda chuqur o‘ylangan tarzda qabul qilinishi maqsadga muvofiq.

Yana bizda mavjud holatni e’tiborga oladigan bo‘lsak, hamon noqonuniy import bilan shug‘ullanayotgan “tadbirkorlar” ham yo‘q emas. Ushbu bozori vakillari valyutaga bo‘lgan talabni oshirish bilan birga, noqonuniy yo‘llar bilan almashtirishga ham moyilligi katta. Bu holat yana yashirin iqtisodiyotning saqlanib qolishiga, naqd ko‘rinishdagi nazorat qilinmaydigan xorijiy valyutadan maksimal darajada foydalanib qolishga harakat qiladi. Bulardan ham ko‘rinib turibdiki, valyuta qora bozorining mavjud bo‘lishiga va saqlanib qolishiga monetar omillardan ko‘ra ayrim fiskal omillar ham sabab bo‘lmoqda.

Hozirgi paytda amaliyotga joriy qilingan xorijiy valyutalar bo‘yicha ham plastik kartochkalar raqamli iqtisodiyotning bir ko‘rinishi bo‘lib, mavjud muammoni biroz engillashtirdi. Ammo ushbu sohada ham cheklovlar biroz yumshatilgani bilan butunlay olib

tashlanmaganligi ham ayrim hollarda valbyua qora bozorining saqlanib qolishiga sabab bo‘ladi. Chunki, xorijdan tovar olib keluvchilar (ularning bir qismi noqonuniy) ehtiyoji plastik kartochkaga belgilangan miqdordan ko‘proq bo‘lishi mumkin.

Xullas, savol tug‘uladi, shunchalik choralar ko‘rilishiga qaramasdan valyuta qora bozorining saqlanib qolishiga nimalar sabab bo‘lmoqda. Fikrimizcha:

→ insonlar psixologiyasida hali hanuz o‘sha moddiy ko‘rinishdagi pullarning o‘rni va ahamiyati yuqoriligicha qolayotganligi;

→ ko‘plarning valyutani ko‘zi bilan ko‘rib qo‘li bilan ushlab ko‘rmaguncha ko‘ngil joyiga tushmasligi;

→ odamlarning xorijiy valyutaga milliy valyutaga nisbatan inflyatsiya nuqtai nazaridan ishonchining kuchliligi;

→ xorijiy valyutani plastik kartaga tashlab, uni keyin bank kassasidan yoki bankomatlardan naqd qilish esa bir tomondan vaqt, ikkinchi tomondan xarajat talab qilganligi;

→ banklarda xorijiy valyutaning erkin va uzluksiz sotuvini tashkil qilish imkoniyatlarining cheklanganligi;

→ naqd pulning inflyatsiya natijasida qadirsizlanishi davom etishini inobatga olib, uni uyda yoki banklarda saqlash xatarli ekanligi, ammo xorijiy valyutaning ushbu ta’sirga (qadrsizla-nishga) tushmasligi;

→ naqd milliy valyutani banklarda saqlashning salbiy ta’sirining hamon odamlar yodida saqlanib qolayotganligi, banklarning bu borada ishonchni butunlay yo‘qotganligi;

→ naqd ko‘rinishda valyutani birdaniga banklardan sotib olishdagi qiyinchilik tufayli qora bozordan xorijiy vabyutani xarid qilishga aholida talabning mavjudligi;

→ naqd xorijiy valyutani mamlakatimiz banklarida saqlashga deyarli rag‘bat yo‘qligi (to‘lanadigan foizining kamligi);

→ aholi o‘rtasida o‘zaro kelishuvlar, savdo-sotiq ishlari va yirik tovarlar qiymatini dollarda belgilash va dollarda hisoblashish an’anaga kirib ketganligi hamda bugungi kunda uning saqlanib qolganligi;

→ chet eldan noqonuniy yo‘l bilan tovarlarni olib kirishning saqlanib qolayotganligi savdo va biznes vakillari uchun valyuta qora bozorining mavjud bo‘lishidan manfaatdorligi kabilar.

Ko‘rinib turibdiki, valyuta qora bozorining saqlanib qolishiga hali ancha sabablar bor ekan.

Moliyachi ekspert Mansur Tangishovning internet tarmog‘ida bergan maqolasida “meni ko‘p o‘ylantiradigan narsa bu - butun jahon rivojlangan davlatlari imkon qadar raqamli iqtisodiyotga o‘tishni o‘ylab, harakat qilayotgan bir paytda, biz oddiy naqd xorijiy valyuta muammosini oxirigacha hal qilmaganimizdir. Raqamli iqtisodiyot avvalo barcha soha va tarmoqlarda ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishning raqamli texnologiyalarni qo‘llagan holda amalga oshirilishini talab qiladi. Raqamli texnologiyalarni qo‘llashda eng birinchi navbatda, avvalo, mana shu raqamli to‘lovlar texnologiyalarini takomillashtirish kerak bo‘ladi. Raqamli iqtisodiyot rivojlanishi uchun naqd pulsiz iqtisodiyot (Cashless economy) qurilishi kerak. Aslida, naqd pullar 21-asr axborot texnologiyalari asri uchun eskirdi. Bugungi kunda Kanada, Shvesiya va Buyuk Britaniya mamlakatlari misolida naqdsiz to‘lovlar takomillashtirilishi va naqd pullar muomalasining maksimal darajada kamaytirilishi natijasida iqtisodiyotda yashirin iqtisodiyotning YaIMga nisbatan eng quyi ko‘rsatkichlarni qayd etayotganini guvohi bo‘lishimiz mumkin. Bu davlatlarda valyuta qora bozori degan tushunchaning o‘zi yo‘q”[78], deb ta’kilaydi.

Bank sohasida raqamli iqtisodiyotga o‘tish masalasi o‘zimizda ancha muammo. Chunki, yuqoridagi davlatlar tajribasida maksimal darajada naqdsiz pul muomalasini ko‘paytirish bilan birga, naqd pul hajmini imkon qadar kamaytirishga harakat qilingan. Ammo o‘zimizda naqd pul hayotiy ehtiyoj bo‘lib turibdi. Chunki, xalqimiz ko‘p iste’mol tovarlarini bozorlardan xarid qiladi. Bozorlarda plastik kartochka bilan savdo qilishga imkoniyat cheklangan.

Ma’lumki, “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”gi qonunda O‘zbekiston Respublikasi hududida barcha hisob-kitoblar va to‘lovlar

[78] Мансур Тангишов. 3/2018 (№ 00035) www.iqtisodiyot.uz.

milliy valyutada amalga oshirilishi qat'iy belgilab qo‘yilgan. Ammo rasmiy va norasmiy holatda xorijiy valyutalar muomalada ishtirok etmoqda. Ushbu masalaga Markaziy Bank va tegishli mutasaddi tashkilotlar to‘g‘ri yechimini topishlari va ma'lum optimal tartibni belgilashlari lozim.

Mansur Tangishovning internet tarmog‘ida bergan maqolasidaga yana bir fikriga e'tiboringizni qaratmoqchimiz. Maqolada: “tan olish kerak naqd ko‘rinishdagi xorijiy valyutalar ko‘p hollarda aynan noqonuniy faoliyat yurituvchi shaxslarda, o‘zining qancha miqdorda mablag‘i borligini rasman hech kim bilmasligini xohlaydigan korrupsiya vakillarida, kontrabanda vakillarida, chayqovchi tadbirkorlar tomonidan tez-tez foydalaniladi. Chunki bu shaxslar naqd xorijiy valyuta (qattiq valyuta)ning kuchini bilishadi va uning nazoratdan tashqarida ekanligidan maksimal foydalanishadi. Ular naqdsiz ko‘rinishda xorijiy valyutalarni banklarda saqlaydigan bo‘lishsa, bunday katta miqdordagi mablag‘larga nisbatan shubhalar paydo bo‘lishidan qo‘rqishadi. Shuning uchun ham doimiy ravishda naqd valyutaning muomalasi barqaror bo‘lishini chin dildan istashadi. Aslida yashirin iqtisodiyot vakillarining aksar qismi faoliyati aynan naqd xorijiy valyuta bilan oldi-sotdi qilishni talab qilishini hisobga oladigan bo‘lsak, naqdsiz xorijiy valyuta tartibini takomillashtirish yashirin iqtisodiyotni kamaytirishga sabab bo‘ladi”[79], degan fikrni olg‘a suradi. Ushbu fikrga to‘liq qo‘shilish lozim. Chunki, tahlillar ko‘rsatmoqdaki, qora bozorning saqlanib qolishiga yana bir sabab naqd valyutaning oldi-sotdi jarayonida ishtirok etishi bo‘lmoqda.

Mamlakatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida iqtisodiyotni sog‘lom rivojlantirish yo‘lini aniq belgilab olishimiz lozim. Bu esa, ma'lum ma'noda biror yangi narsani joriy qilishni, ammo zarur bo‘lsada eski tartib tamoyillardan vaqtincha bo‘lsada, voz kechishimizni taqozo qiladi. Bu yo‘l bugungi kunda raqamli iqtisodiyotga o‘tish yo‘lidir. Bunda rivojlangan davlatlar singari naqdsiz iqtisodiyotni shakllantirish lozim bo‘ladi.

[79] Мансур Тангишов. 3/2018 (№ 00035) www.iqtisodiyot.uz.

Jahon tajribasidan ma'lumki ushbu yo'lni shakllantirishning ikkita usuli bor: biri evolyusion yo'l bilan erishishlsa, ikkinchisi revolyusion yo'ldan iborat. Mamlakatimizda ham buning qaysi birini tanlash masalasi ham chuqur tadqiqotlarni taqozo qiladi. Mamlakatimiz iqtisodiyotining rivojlanish darajasidan kelib chiqib, avval xorijiy valyutaning naqdsiz muomalasini yo'lga qo'yishni, so'ngra milliy valyutadagi naqdsiz pul muomalasiga to'liq o'tish imkoniyatlarini ko'rish masalalariga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiqdir.

Bugungi vaziyatda banklarda raqamli iqtisodiyotni shakllantirish bo'yicha qanday tavsiyalarni aytish mumkin. Fikrimizcha:

Birinchidan, milliy valyutani xorijiy valyutaga almashtirish banklarda cheklanmagan holda amalga oshirishni yo'lga qo'ygan holda har bir shaxsning qancha valyuta almashtirganligi to'g'risidagi aniq va ochiq ma'lumot bo'lishligini ta'minlashi lozim.

Ikkinchidan, oddiy xalq uchun **naqd xorijiy valyutani jamg'arishni uyidan ko'ra banklarda saqlashning manfaatli ekanligini, riskning umuman bo'lmasligini ta'minlash maqsadga muvofiq.**

Uchinchidan, xorijga chiqmoqchi bo'lgan shaxslarga bemalol istalgancha miqdordagi pulni xorijiy valyutada kartasiga o'tkazib berish amaliyotini davom ettirish bilan birga ularning maqsadga muvofiq ishlatilish mas'uliyati ham yuklangan bo'lishi lozim. Bu fuqarorlarning naqd valyutani tasarruf etish erkinligini cheklamaydi.

To'rtinchidan, raqamli iqtisodiyotga o'tish uchun aholini nafaqat iqtisodiy, balki texnik jihatdan, shu iqtisodiyotni yuritadigan malakaga ega bo'lishlikni, unga ma'naviy jihatdan talabga javob beradigan e'tiqodga ega bo'lishlikni, ijtimoiy tomondan fikrlar va qarashlar shunga mutanosib va tayyor bo'lishlikni taqozo qiladi.

Shuni yodda tutish kerakki, biz **qachondir raqamli iqtisodiyotga, banklar nuqtai nazaridan, naqd pulsiz iqtisodiyotga o'tishimiz tayin. Shu tufayli ushbu strategik masalaga bosqichma-bosqib o'tib borishimz lozim bo'ladi. Chunki,** butun dunyoda raqamli pullar, elektron pullar va virtual pullar ommalashib bormoqda.

Biz ulardan hozirgi integratsiya chuqurlashib borayotgan sharoitda ayri yashay olmaymiz.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Ochiq aytish kerak: agar biz yurtimizda barqaror iqtisodiyot qurmoqchi bo'lsak, dunyodagi rivojlangan mamlakatlar kabi boy va farovon yashamoqchi bo'lsak, chala-chulpa, yuzaki emas, balki qanchalik qiyin va murakkab bo'lmasin, haqiqiy bozor iqtisodiyotiga o'tishimiz shart"[80]. Ushbu holat dunyo mamlakatlarida ro'y bermoqda va yildan-yilga takomillashib bormoqda. Biz ham shu yo'lga tushib olishimiz uchun turli korrupsiya elementlaridan butunlay xoli iqtisodiyotni shakllantirishimiz lozim bo'lmoqda. Buning yo'nalishlaridan biri raqamli iqtisodiyotni shakllantirishdan iboratdir.

Xulosa qilib aytganda, banklarda raqamli iqtisodiyotdan foydalanish yashirin iqtisodiyot, qora bozor va soxta raqamlarga yo'l qo'yilmaslikning asosiy usuli ekanligiga ma'lum darajada ishonch hosil qilish mumkin.

O'zini-o'zi nazorat qilish va takrorlash uchun savollar:

1. Raqamli iqtisodiyotning ta'rifi va uning MBTda foydalanishidan maqsadi.
2. Jahon mamlakatlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanishi.
3. Mehnat unumdorligining oshirilishi modernizatsiya.
4. MBTda raqamli iqtisodiyotga o'tishning obyektiv zarurligi.
5. Raqamli iqtisodiyotning mohiyati va uni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari.
6. Iqtisodiy taraqqiyot mazmunining o'zgarishi.
7. Raqamli iqtisodiyotning ijobiy va salbiy tomonlari va uning MBTga ta'siri.
8. Iqtisodiy taraqqiyotning o'zgarib borish tendensiyasi

[80] Президент Шавкат Мирзиеевнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганнинг 26 йиллигига багишланган тантанали маросимдаги сўзлаган "Билимли авлод – буюк келажакнинг, тадбиркор халқ – фаровон ҳаетнинг, дўстона ҳамкорлик эса тараққиет кафолатидир" мавзусидаги маърузаси. 07 декабрь 2018 йил.

9. Banklarda raqamli iqtisodiyotdan foydalanish orqali yashirin iqtisodiyotning oldini olish imkoniyatlari.

10. Raqamli ta’limni amalga oshiruvchi subyektlar.

11. MBTda raqamli iqtisodiyotning qo‘llanilishi mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining muhim omili.

12. Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirishda qo‘llaniladigan usullar. va jarayonlarning izohlari

13. Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish jarayonlarning izohlari

14. Raqamli iqtisodiyot: Janubiy Koreya tajribasi va undan O‘zbekistonda foydalanish istiqbollari

15. Raqamli ta’lim xizmatlarini takomillashtirish konsepsiyasi va tarbiyaning uyg‘unligini ta’minlash muammolari

X BOB. MEHNAT BOZORI TRANSFORMATSIYASINING GLOBALLASHUV SHAROITIDAGI O‘ZGARISHLARI.

10.1. Globallashuv sharoitda mehnat bozori transformatsiyasida turizmni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari

10.2. Global mehnat bozori transformatsiyasida Yaponiya tajribasidan foydalanishning ibratli jihatlari

10.3. Mehnat bozori transformatsiyasida “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirishga mos kadrlarni tayyorlash

10.1. Globallashuv sharoitda mehnat bozori transformatsiyasida turizmni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari

Dunyo miqyosida turizm sohasi jahon iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan va istiqbolli tarmoqlaridan biri sifatida baholanib kelinmoqda. Hozirgi globallashuv va davlatlarning integratsiyalashuv jarayonlari insonlarning mehnat bozori transformatsiyasi dunyo bo‘ylab erkin harakatlanishiga keng imkoniyatlar yaratib berdi. Ushbu masala O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Butunjahon turizm tashkiloti Bosh Assambleyasi 2023-yil oktyabr oyida bo‘lib o‘tgan 25-sessiyasidagi nutqi ham alohida ta’kidlandi. Ma’ruzada e’tirof etilishicha “Butunjahon turizm kengashi ma’lumotlariga ko‘ra, koronavirus pandemiyasidan avval jahon yalpi mahsulotining taxminan 10 foizi, eksportining esa 7 foizi sayyohlik sektoriga to‘g‘ri kelgan”ligi[81] qayd etilgan. Ammo kutilmaganda paydo bo‘lgan pandemiya dunyo sayyohlari harakatiga, xususan turizm sohasiga jiddiy zarba berdi. Natijada o‘ziga xos bo‘lgan turizm eksporti daromadlari sezilarli darajada qisqardi, sayyohlarning harakati to‘xtalishi natijasida dunyo bo‘yicha mehnat bozori transformatsiyasini millionlab ish o‘rinlari yo‘qotildi.

Butunjahon turizm tashkiloti va bir qancha boshqa davlatlar bilan hamkorlikda sohani o‘nglash va asl holiga qaytarish bo‘yicha bir qancha choralar ko‘rilmoqda. Birgina 2022-yilda dunyo miqyosida salkam bir milliard turist xorijga sayohat qildi. “Bu pandemiyaga qadar

[81] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бутунжаҳон туризм ташкилоти Бош Ассамблеяси 25-сессиясидаги нутқи. 16.10.2023. // https://president.uz/uz/lists/view/6763

bo‘lgan ko‘rsatkichning salkam 70 foizini tashkil etdi. Joriy yilda ushbu raqam yanada o‘sishi kutilmoqda”[82]. Bulardan ko‘rinib turibdiki global turizm bugungi kunda asta-sekinlik bilan qayta tiklanib, oyoqqa turmoqda. Ushbu jarayonni tezlashtirish uchun barcha mamlakatlar birgalikda harakat qilib, yaqin hamkorlikni yo‘lga qo‘yishlari lozim. Chunki ushbu turizm sohasi tiklanadigan bo‘lsa, hozirgi murakkab vaziyatda ko‘plab davlatlar o‘z iqtisodiyotini tiklash va dolzarb ijtimoiy muammolarni hal etishga erishadi.

Bugungi kunda turli davlatlar o‘rtasida mehnat bozori transformatsiyasida turizm sohasini rivojlantirish borasida ham global raqobat muhiti kuchaymoqda. Chunki, sohaga kiritilayotgan har bir so‘m (dollar) kelgusida bir necha barobar daromad keltirishi lozim. Ammo turizm sohasining rivojlanish darajasi sohaning ichki harakatidan ko‘ra ko‘pincha tashqi omillarga bog‘liq bo‘lib qoladi. Boshqa davlatlar aholisining bizning mamlakatga ishtiyoqi, tabiiy iqlimdagi o‘zgarishlar, tinchlik va xotirjamlik kabi muammolar turistlar oqimiga katta ta’sir qiladi.

Mehnat bozori transformatsiyasida aniqlangan turizmning yana bir xususiyati shundaki, ushbu sohaning rivojlanishi boshqa sohalarning ham taraqqiy etishiga, ularda ham yangi ish o‘rinlarining yaratilishiga ham olib keladi. Jumladan, turistlarni ovqatlanish xizmatlari, turistlarga xizmat ko‘rsatiladigan transport xizmatlari, savdo xizmatlari, turistlarning yashashi bilan bog‘liq kabi xizmatlar. Shu tufayli turizmda bitta yangi ish o‘rni yaratilsa bu bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa tarmoqlarda yana 2 ta ish joyini hosil qilinadi. Shu jihatdan turizm mamlakatlar aholisining umumiy farovonligini va davlatlarning barqaror taraqqiyotini ta’minlash uchun muhim omillardan biri bo‘lib hisoblanadi. Bundan tashqari turizm jahon xalqlari o‘rtasida madaniy almashuvlarni kuchaytiradigan, millatlar o‘rtasida bag‘rikenglik tamoyillarini mustahkamlaydigan qudratli vosita sifatida ham namoyon bo‘lmoqda.

O‘zbekiston BMT qoshidagi bir qancha yirik tashkilotlar bilan hamkorlik qilib kelmoqda. 1998-yil 26 martda tashkil qilingan

[82] Ўша жойда. // https://president.uz/uz/lists/view/6763.

BMTning Markaziy Osiyo iqtisodiyoti uchun maxsus dastur (SPEKA)da ham mamlakatimiz hamkorlik qilib kelmoqda. Ushbu dastur doirasida iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari bilan birga turizm sohasida ham hamkorlik davom etmoqda. Har bir xalqaro birlashmalarda O‘zbekiston rahbari mamlakatimiz manfaatidan kelib chiqib bir qancha takliflarni o‘rtaga tashlamoqda. Bularning hammasi, globallashuv sharoitda mehnat bozori transformatsiyasida turizmni va shu orqali mazkur hudud iqtisodiyotini rivojlantirish va ijtimoiy hayotini o‘nglashga qaratilgan asosiy yo‘nalishlar sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Xalqaro nufuzga ega bo‘lgan Butunjahon turizm tashkiloti Bosh Assambleyasi bilan yaqin hamkorlik o‘rnatilgan. Davlatimiz rahbarining 2023-yil oktyabr oyida bo‘lib o‘tgan ushbu tashkilotning 25-sessiyasiga ishtirok etib, unda nutq so‘zladi. O‘z nutqida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti globallashgan sharoitda turizmni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha bir qator dolzarb takliflarni ilgari surdi. Bular ishtirokchilar tomonidan mamnuniyat bilan qabul qilindi. Bular jumlasiga quyidagilar kiradi:

Birinchidan, hozirgi kunda global turizmning eng dolzarb muammolaridan biri – bu turistlarning xavfsizligini ta’minlashdan iboratdir. Ushbu xavfsizlik tizimini kafolatlangan bo‘lishligi lozim. Chunki turizm shunday nozik sohaki, agar hamma narsa belgilangan talab darajasida tashkil qilingan bo‘lsada, o‘sha va unga yaqin hududlarda tinchlik, har qanday nizo sodir bo‘lib turgan bo‘lsa, bu yerga turist bormaydi. Bugungi kunda nizo chiqib turgan birorta davlatga turist bormayapdi. Natijada ular turizmning taraqqiyoti bo‘yicha pandemiya sharoitidan ham og‘ir ahvolga tushib qolmoqda.

Notinch joylarning jahon turizmiga salbiy ta’siri shu bilan ham namoyon bo‘lmoqdaki, Yurtboshimiz ta’kidlaganidek, “butunjahon madaniy meros obyektlari va ko‘hna arxitektura yodgorliklari vayron qilinmoqda va hatto ayrimlari Yer yuzidan yo‘q bo‘lib ketmoqda”[83]. Bunday ayanchli holatning oldini olish uchun mamlakatimiz rahbari

[83] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бутунжаҳон туризм ташкилоти Бош Ассамблеяси 25-сессиясидаги нутқи. 16.10.2023. // https://president.uz/uz/lists/view/6763

hammani birlashishga va birga kurashishga chaqirdi. Bunday murakkab vaziyatni inobatga olgan holda, xalqaro turizm sohasida mustahkam huquqiy asoslarni kuchaytirish maqsadga muvofiqligi ham qayd etildi. Xususan, "Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasida **Global xavfsiz turizm kodeksini** ishlab chiqishni taklif etdi"[84]. Ushbu kodeksning amal qilish doirasi juda keng bo'lib, uning nazoratini Butunjahon turizm tashkiloti (BTT) olib boradi. Bu albatta xalqaro turizmning global miqyosda rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan mustahkam huquqiy asoslardan biri bo'lib hisoblanadi. Bundan tashqari, mamlakatimizda sayyohlar xavfsizligini ta'minlash maqsadida turizm politsiyasi tashkil etildi. Bu alohida politsiya bo'lib, asosan turistlar xavfsizligini ta'minlashga xizmat qilib kelmoqda.

Ko'rinib turibdiki, globallashuv sharoitda mehnat bozori transformatsiyasida turizmni rivojlantirish bo'yicha ham yangi mutaxassislarga ehtiyoj paydo bo'lmoqda. Ushbu holat barcha sohalarda ham sodir bo'lmoqda. Qaysi yo'nalishga e'tibor qilsangiz, o'sha joyda yangi innovatsion holat va shunga mos yangi kadrlarga ehtiyoj paydo bo'lmoqda.

Ikkinchidan, O'zbekistonda turistlar uchun tegishli infratuzilma va xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan tadbirlar natijasida mamlakatimizga tashrif buyurayotgan xorijlik sayyohlar soni shu qisqa davrda ikki barobar ko'paydi. Ularning soni 2023-yilda 7 millionga etishi ko'zda tutilgan. 2030-yilga borib 15 millionga va ichki turistlar soni esa 25 millionga etishi ham prognozlashtirilgan. Turizm eksportidan tushayotgan daromad 4 barobar o'sdi. Bu ham muntazam ravishda oshib boradi. Muhtaram yurtboshimiz ta'kidlaganidek, "sayyohlar soni bu yil Yaponiyadan – 5 barobar, Hindiston va Italiyadan – 3,5 barobar, AQShdan – 2 barobarga ortgan"[85].

Uchinchidan, imkoniyati cheklangan nogironligi bor insonlarga mamlakatimizda katta e'tibor qaratilmoqda. Chunki bunday kishilar dunyo miqyosida ham kam emas. "Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, bugun dunyoda 1 milliarddan ortiq odam

[84] Ўша жойда. // https://president.uz/uz/lists/view/6763
[85] Ўша жойда. // https://president.uz/uz/lists/view/6763

nogironlikdan aziyat chekadi. Bu dunyo aholisining, taxminan, 15 foizini tashkil etadi”[86]. O‘zbekistonda ham bunday toifadagi odamlar soni kam emas. Agar bizda ham aholining 15 foizi nogiron bo‘ladigan bo‘lsa, bularning soni 37 million kishining 5,6 millioni shu toifaga kiradi. Shu tufayli nogironlarga barcha sohada, xususan, ularga ta’lim berish, munosib ish o‘rinlari bilan ta’minlash, turizm sohasida ham qulay sharoit yaratish masalasi nihoyatda dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda. Mamlakatimizda imkoniyati cheklangan sayyohlar uchun qulay sharoitlarni yaratish va inklyuziv turizm infratuzilmasini rivojlantirish masalasiga ham alohida ahamiyat berilib, tegishli infratuzilmalar yaratilmoqda. Mamlakatimiz rahbari ushbu masalani dunyo miqyosida ko‘tarib, 2025-yilni “**Butun jahon inklyuziv turizm yili**” deb e’lon qilish va maxsus deklaratsiya qabul qilish tashabbusini ilgari surdi[87].

To‘rtinchidan, alohida ta’kidlash joizki, mamlakatimizda 2024-yil 1-yanvardan boshlab nogironligi bo‘lgan shaxslarning sayohat qilishlari uchun qulay sharoit yaratishga qaratilgan “**To‘siqsiz turizm” dasturi** joriy qilinadi. Bu holat bizda tegishli ravishda tajribadan o‘tkazildi. Ushbu dastur asosida har yili “Sayohat barcha uchun!” loyihasi joriy qilindi. Shu davrda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida nogironligi bo‘lgan shaxslarning ming nafardan ko‘prog‘i respublikaning turizm salohiyati yuqori bo‘lgan shaharlariga, insonga e’tibor tamoyiliga asoslangan holda davlat hisobidan bepul sayohatlar tashkil qilinmoqda. Endilikda nogironligi bor aholi uchun turizm, madaniy meros, konsert-tomosha obyektlarida hamda aeroport, avto va temiryo‘l vokzallarida “To‘siqsiz turizm” doirasida, ularning harakatlanishi uchun zarur infratuzilma yaratiladi. Ushbu tadbir ham turizmni rivojlantirish, uning turlarini diversifikatsiya qilish, mehnat bozori transformatsiyasi talablariga javob beradigan kasblarni tayyorlash borasida qilinadigan ishlarning negizini tashkil qiladi.

---

[86] https://kun.uz/news/2023/10/13/ozbekistonda-imkoniyati-cheklangan-insonlar-qanday-qollab-quvvatlanyapti

[87] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бутунжаҳон туризм ташкилоти Бош Ассамблеяси 25-сессиясидаги нутқи. 16.10.2023. // https://president.uz/uz/lists/view/6763

Beshinchidan, Davlatimiz rahbari Butunjahon turizm tashkiloti Bosh Assambleyasi 2023-yil oktyabr oyida bo‘lib o‘tgan 25-sessiyasidagi nutqida yana bir muhim masalani o‘rtaga tashladi. Bu tashabbus BTT huzurida “**Sayyohlik bo‘yicha tarixiy shaharlar kengashi**”ni tuzishga qaratildi. Ushbu dastur mamlakatimizdagi madaniy meros obyektlariga sayyohlar oqimini ko‘paytirish, tarixiy yodgorliklarni asrash bo‘yicha eng ilg‘or tajribalar bilan almashish, tavsiya va samarali yechimlarni shakllantirish imkonini beradigan masalalarni o‘zida qamrab oladi. Mazkur Kengashning birinchi yig‘ilishini qadimiy Buxoro shahrida tashkil etishga tayyormiz, degan taklifni ham aytib o‘tganligi, mamlakatimizning turizm salohiyatidan samarali foydalanish yo‘llarini ochish uchun muhim omil ekanligiga guvoh bo‘lib turibmiz. Shuningdek, mehnat bozori transformatsiyasida ham shunga mos kadrlarni tayyorlashni taqozo qiladi. Ayniqsa gid tarjimanlarga madaniy meroslarimiz tarixini yanada chuqur biladigan qilib tarbiyalash lozim bo‘lmoqda.

Oltinchidan, mamlakatimizda madaniy meros obyektlariga juda katta ahamiyat berilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining 2001-yilning 30 avgustida “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi 269-11-sonli 7 ta bo‘lim va 36-moddadan iborat qonuni qabul qilingan edi. Ushbu obyektlarga ansambllar, diqqatga sazovor joylar, turli yodgorliklar, moddiy va nomoddiy madaniy meros obyektlari kirishi qayd etilgan. Ushbu moddiy madaniy meros obyektlarga tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o‘zgacha madaniy qimmatga ega bo‘lgan ansambllar, diqqatga sazovor joylar va yodgorliklar kirishi qayd etilgan. Nomoddiy madaniy meros obyektlariga esa, tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o‘zgacha madaniy qimmatga ega bo‘lgan urf-odatlar, xalq ijodiyoti (so‘z, raqs, musiqa, tomosha san’ati), shuningdek ular hamda xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san’ati bilan bog‘liq bilimlar, ko‘nikmalar, asbob-anjomlar, artefaktlar, madaniy makonlar madaniy meros obyektlariga kiritilishi ko‘rsatib o‘tilgan[88]. Shuningdek, 2022-yil 19 fevralda O‘zbekiston

[88] Ўзбекистон Республикасининг 2001 йилнинг 30 августида қабул қилинган “Маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш тўғрисидаги 269-II-сон Қонуни, https://lex.uz/.

Respublikasi Prezidentining “Turizm va madaniy meros vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-135-son qarori qabul qilindi. Ushbu qaror bilan madaniy meros obyektlaridan turizmda foydalanishning strategik yo‘nalishlari ko‘rsatib berilgan edi. Ammo turiz va madaniy meros vazirligining nomi o‘zgarib, boshqacha nom bilan (Turizm va madaniyat vazirligi) ataladigan bo‘ldi. Biroq, madaniy meros obyektlarining turizm sohasida foydalanish yo‘nalishlari amalda qo‘llanilmoqda va davom etmoqda.

Yettinchidan, ma’lumki, har bir soha uchun kadrlar tayyorlash hech mahal o‘z dolzarbligini yo‘qotmaydi. Samarqand shahrida dunyoda o‘xshashi yo‘q Butunjahon turizm tashkilotining Xalqaro turizm akademiyasi ochildi. Ushbu akademiya turizm sohasida mutaxassislar tayyorlaydigan va ularning malakasini oshiradigan xalqaro tashkilot bo‘lib hisoblanadi. Davlatimiz rahbari ishonch bilan ta’kidladiki, “Ishonchim komilki, ushbu Akademiya global ta’lim xabiga aylanadi va jahon turizm sanoatini yanada rivojlantirishga munosib hissa qo‘shadi”[89]. O‘zbekistonda tashkil qilingan mazkur akademiya 2023-2024 o‘quv yilidan boshlab iqtidorli mutaxassislar uchun maxsus xalqaro grantlarni taqdim etadi va barcha xorijiy davlatlardan talabgarlarni qabul qiladi. Bu esa, turizm sohasini keng ko‘lamda rivojlantirish imkoniyatini yaratish bilan birga xorijiy davlatlar tajribasini o‘rganish imkoniyatlari ham yaratiladi. Bizning ham o‘zimizga xos bo‘lgan milliy kadrlarimiz boshqa yurt mutaxassislari uchun maktab bo‘lib xizmat qiladi.

Sakkizinchidan, mamlakatimiz juda katta nufuzli xalqaro tashkilotlarning sessilari, sammit va boshqa majlislari o‘tkaziladigan yurtga, maskanga aylandi. YUNESKOning Bosh konferensiyasining 42-sessiyasida mamlakatimiz rahbari ushbu konferensiyaning 23 yilligini 2025-yilda Samarqand shahridada o‘tkazishni tavsiya qildi. Bu tashkilot 1985-yildan buyon faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘lsa, shu o‘tgan 40-yil ichida biror marta Parijdan tashqarida o‘tkazilmagan ekan. Birinchi marta bunday nufuzli anjuman tashqarida, ya’ni Samarqand shahrida o‘tkaziladi. Ushbu tadbir dunyoning sayqali bo‘lgan, birinchi

[89] Ўша жойда. ://lex.uz/.

va ikkinchi Renesans poydevori qo‘yilgan Markaziy Osiyo mamlakatlarida madaniy-gumanitar, ilmiy-texnikaviy hamda turizm sohalarini rivojlantirish uchun muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Endi barcha yo‘llar Samarqandga, O‘zbekistonga va butun Markaziy Osiyoga eltadi. Xullas O‘zbekiston, ayniqsa Samarqand oxirgi yillarda ko‘plab siyosiy, iqtisodiy, biznes forumlar o‘tkaziladigan maskanga aylanib qoldi. Bu ham global masshtabda turizmni rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

To‘qqizinchidan, ma’lumki, dunyo miqyosida iqlim o‘zgarishlari tobora kuchayib bormoqda. Bunday sharoitda har bir turistik hudud “yashil” turizmning talablariga javob beradigan darajada bo‘lishligi lozim. Bunday sharoitda ushbu turizmni rivojlantirish bo‘yicha ham xalqaro hujjat qabul qilish lozimligidan kelib chiqib, xalqaro Harakatlar dasturini qabul qilish taklifini ham olg‘a surdi. Bunga erishish uchun esa, BTTning “**Yashil” turizmni joriy etish bo‘yicha eng yaxshi shahar”** nominatsiyasini ta’sis etishni taklif qildi. Ushbu taklif ham har har qachongidan ham dolzarb masalalardan biri sifatida baholandi. Qayd etish joizki BTT ko‘magida mamlakatimizda yaqinda ish boshlagan Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o‘zgarishini o‘rganish universiteti hamda Samarqanddagi “Ipak yo‘li” xalqaro universiteti hamkorligida **Global “yashil” turizm startaplari** laboratoriyasini yaratish ustida ish olib borilmoqda. Uning boshlangich qismi yaratildi. Mamlakatimiz rahbari “Biz eng yaxshi innovatsion yechimlarni yaratish maqsadida grant mablag‘larini ajratishga tayyormiz. Barcha a’zo davlatlar va xalqaro tashkilotlarni ushbu loyihaga qo‘shilishga taklif etamiz”, degan da’vatni o‘rtaga tashladi. Ushbu taklif ham xalqaro miqyosda o‘ta dolzarb va zarur bo‘lgan takliflardan biridir. Chunki bunday “Yashil” turizmni joriy etish bo‘yicha eng yaxshi shahar” nominatsiyasini ta’sis etilsa, ushbu tadbirga butun jahon davlatlari ishtirok etadi. Bu barcha davlatlarda “Yashil” turizmni joriy etishga va uni takomillashtirib borishga undaydi. Bu ham mehnat bozoriga mazkur sohaga oid yangi kadrlarni kiritini taqozo qiladi.

O‘ninchidan, mamlakatimiz rahbari globallashgan sharoitda turizmni rivojlantirishning yana bir asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida

dunyo miqyosida yoshlar turizmini rivojlantirishga e'tibor qaratish lozimligini ta'kidlab, YUNESKOning BTT bilan yaqin hamkorligida "**Jahon yoshlar turizmi sammiti**"ni Toshkentda o'tkazish haqidagi taklifini berdi. Ushbu forumda yoshlarimiz uchun sayyohlikni rivojlantirish loyihalarini hamda yangi tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash imkoniyatini yaratishga tegishli tavsiyalar ham beriladi. Mamlakatimizda yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish, ularni turizm sohasiga keng jalb etish, yoshlarning turizm sohasidagi istiqbolli g'oyalari va loyihalarini amalga oshirish, shuning natijasida aynan ushbu sohada yoshlar bandligini ta'minlash chora-tadbirlarini amalga oshirilmoqda. Yoshlar turizmini rivojlantirish maqsadida gidlar, ekskursovodlar va yo'l ko'rsatuvchi instruktorlarni ko'proq tayyorlash masalasi ham kun tartibida izchillik bilan bajarilmoqda.

O'n birinchidan, mamlakatimiz rahbari global masshtabda turizmni rivojlantirishga xizmat qiladigan sohani rig'batlantiruvchi mexanizmlardan biri, turizm sohasida "Ipak yo'li" brendini rivojlantirishga qo'shgan hissasi uchun tegishli davlatlarni BTTning maxsus xalqaro mukofotini ta'sis etish tashabbusini bildirgan edi. Ushbu rejani amalga oshirishda Butunjahon turizm tashkiloti bilan hamkorlikda mamlakatimizda ochilgan "**Ipak yo'lida turizm**" xalqaro turizm markazi tematik ofisi imkoniyatlaridan samarali foydalanish mumkinligi ham ta'kidlangan edi. Ushbu ishlarni amalga oshirish uchun Markaziy Osiyo mintaqasining tranzit salohiyatini oshirish lozim bo'lmoqda. Xitoy – Markaziy Osiyo – G'arbiy Osiyo iqtisodiy yo'lagini shakllantirishdek dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan masalalar bilan shug'ullanilmoqda. Yana bir yo'nalish Toshkent – Andijon – O'sh – Irkishtom – Qoshg'ar avtomobil yo'lagining ishga tushirilishi hamda O'zbekiston – Qirg'iziston – Xitoy va Mozori Sharif – Kobul – Peshovar temir yo'llari loyihalarining amalga oshirilishini ham mazkur sohaning rivojlanishida muhim omil ekanligini alohida qayd etish lozim. Agar ushbu loyihalar to'liq amalga oshirilsa, xalqaro turizmni rivojlantirish borasida katta natijalar qo'lga kiritiladi. Shuningdek, Sariq dengiz portlari – Markaziy Osiyo – Yevropa yo'nalishi bo'ylab temir yo'lda yuk tashishga bir xil tarif o'rnatish borasida ham ancha

ishlar amalga oshirildi. Bularning hammasi amalga oshiriladigan bo‘lsa, nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy, balki xalqlarimizning madaniy-ma’rifiy aloqalarini mustahkamlashga ham samarali xizmat qiladi. Bularning hammasi, pirovardida, O‘zbekiston va bu bilan bog‘liq mamlakatlarning global masshtabdagi barqaror taraqqiyotida muhim omil bo‘ladigan “**Bir makon, bir yo‘l**” tashabbusining amalga oshayotganligidan ham dalolat beradi.

O‘n ikkinchidan, yana bir dolzarb va o‘ta muhim masala – bu turizm sohasining global masshtabda targ‘ibot qilinishi bilan bog‘liq. Chunki qanday qiziqarli obyekt qaysi mamlakatda va uning Qayerida joylashganligini hamma ham bilavermaydi. Bunday targ‘ibot ishlarida jurnalistlar, blogerlar va ommaviy axborot vositalari vakillari katta rol o‘ynaydi. Shu tufayli mazkur soha bilan shug‘ullanadigan turizm yo‘nalishiga ixtisoslashgan ommaviy axborot vositalari bo‘yicha kadrlarini tayyorlash ham muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Bunday obyektiv zaruriyatni inobatga olib yurtboshimiz yetakchi ommaviy axborot vositalari, jurnalistlar va eng yaxshi sayohat blogerlarini o‘zida birlashtiradigan Global media kampusinini tashkil etish taklifini ham bergan edi. Bunday media forumlarni har ikki yilda bir marta BTT Bosh Assambleyasining navbatdagi sessiyalari doirasida o‘tkazishning maqsadga muvofiqligini taklif qilish bilan birga, birinchi media kampusni yurtimizda, xususan qadimiy Buxoro shahrida o‘tkazish tashabbusini bildirdi.

Xulosa qilib aytganda, globallashgan sharoitda turizmning barcha turlarini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari nafaqat bitta mamlakat yoki hududda, balki jahon miqyosida katta ahamiyatga ega. Shu tufayli ushbu masala xalqaro masshtabda keng muhokamalarga va aniq choralarni ko‘rishga sabab bo‘lmoqda. Bularning hammasi globallashuv sharoitida mehnat bozori transformatsiyasiga ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik omillariing ta’siri va yo‘nalishlarini ham o‘rganishni taqozo qiladi.

10.2. Globallashuv sharoitida mehnat bozori transformatsiyasida Yaponiya tajribasidan foydalanishning ibratli jihatlari

“Iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni – 1,6 baravar va 2030-yilga borib aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadni 4 ming AQSh dollaridan oshirish hamda “daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar” qatoriga kiramiz”. Bu – Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqarilgan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyoti strategiyasida belgilangan.

Bunday taraqqiyotga erishishga barcha asoslarimiz bor. Bizda mehnat, tabiiy resurslarimiz yetarli. Faqat ulardan samarali va maqsadga muvofiq ravishda foydalanish lozim. Bunda biz Yaponiya tajribasidan foydalansak, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki Yaponiya butunlay xonavayron bo‘lish bilan birga qisqa vaqtda dunyodagi yetakchi davlatlar safiga, ya’ni AQSh va Xitoydan keyin 3-o‘ringa chiqib olgan. Bunga qanday erishilganligini o‘rganish va undan amaliyotda foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi, deb o‘ylaymiz. Chunki, ushbu muvaffaqiyatlarga Yaponiya yetuk kadrlarni etishtirish orqali erishgan. Buning uchun boshqa tadbirlar bilan birga, ta’lim tizimining sifati va samaradorligini oshirishga ham katta e’tibor qaratgan.

Ma’lumki, Ikkinchi jahon urushida Yaponiya juda katta talafot ko‘rib, butunlay xonavayron bo‘ldi. Chunki AQSh harbiy havo kuchlari 1945-yil 6 va 9 avgust kunlari Yaponiyaning Xirosima va Nagasaki shahriga yadroviy hujum uyushtirdi. SSSRning quruqlikdagi harbiy harakatlari Yaponiyani 1945-yil 2-sentyabrda so‘zsiz taslim qildi. Buning oqibatida o‘sha kunning o‘zida 180 ming kishi portlash qurboni bo‘ldi. Atom bombasining tashlanishi Yaponiyaga misli ko‘rilmagan darajada zarar etkazdi. Radiatsiya tarqalishi oqibatida urushning salbiy ta’siri yanada kuchayib, o‘lim holati kundan-kunga oshib bordi. Besh yil ichida Yaponiyada qurbonlar soni 200 mingga etdi. Yaponiya o‘ta xarob ahvolga tushib qolgan edi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin Yaponiya o‘ta tang va xarob ahvolda edi. Deyarli barcha shaharlari vayronaga aylangan, etti million aholi ishsiz, Xirosima va Nagasakiga tashlangan atom bombasi harobalari ham holatning qay darajada ekanligini ko‘rsatardi. Biroq yapon xalqi buyuk irodali xalq sifatida butun dunyoga o‘zlaridagi iroda va matonati qanday ekanini ko‘rsatib qo‘ydi. Qisqa fursat ichida oyoqqa tura olib, butun vayronaga aylangan shaharlari obod qildi.

Urushdan so‘ng Yaponiyada juda katta islohotlar amalga oshirildi. Ular o‘nglanishni qishloq xo‘jaligidan boshladi. 1946-yilda Yaponiyada agrar islohotlar amalga oshirildi. Bunda asosiy e’tibor yerlarni egalik qilishga qaratildi. Hukumat pomeshchiklardan 5 million 800 ming gektar yerni sotib olib, mayda dehqonlarga arzonga sota boshladi. Natijada yer islohoti amalga oshirilib, dehqonlar foydasiga yerlar qayta taqsimlandi. Natijada, aholi o‘zlari etishtirgan mahsulotga o‘zlari egalik qila boshladi. Shu yo‘l bilan mulkdorlar sinfi shakllandi. Bunday yer islohoti haqiqiy inqilob sifatida baholandi. Shu tariqa mamlakatning qishloq xo‘jaligi sohasi jadal rivojlandi, mamlakatda o‘g‘it ishlab chiqarish jadallashdi, yerga ishlov berishda texnikaga talab ortdi. Aholi ehtiyojini qondirish uchun iqtisodiyotning ham ehtiyoji oshib bordi.

Yaponiya endi siyosiy jihatdan o‘nglanib, o‘zining qonuniy yo‘nalishini belgilab olishga ahd qildi va 1947-yilda mamlakat parlamenti yangi Konstitutsiyasini qabul qildi. Ushbu hujjatga ko‘ra, Yaponiyada Konstitutsion monarxiya tuzumi o‘rnatildi. Imperator amalda real hokimiyatdan mahrum etilib, faqatgina millatning birlik ramzi sifatida saqlab qolindi. Bosh vazirni imperator tayinlaydigan bo‘ldi. Ammo uning nomzodini parlament tasdiqlashi zarurligi belgilab qo‘yildi. Shunday qilib, ushbu kunchiqar mamlakatda konstitutsiyaviy davlat shakllantirildi.

Endi barcha ichki va tashqi imkoniyatlardan foydalangan holda Yaponiya o‘zining taraqqiyotini ta’minlashga kirishdi. Shu tariqa 1953-yilda AQSh-Yaponiya o‘rtasida tuzilgan “Do‘stlik, savdo va dengiz kemalari qatnovi to‘g‘risida”gi bitim imzolandi. Mazkur hujjat ikkala davlat fuqarolariga bir-birining hududida erkin harakatlanish huquqini berdi. Bu ikkala davlatga ham manfaatli bo‘ldi. Chunki,

amerikalik magnatlar Yaponiya bozoriga o‘z sarmoyalarini olib kira boshladi. Yaponiya buning hisobiga rivojlanish yo‘liga tushib oldi.

Yaponiyaning yuksalishi o‘z-o‘zidan sodir bo‘lib qolmadi. Mamlakatda sanoatni tiklash uchun ham barcha zarur choralar ko‘rildi. **Birinchi** galda, AQSh Yaponiyadan urush zararlarini qoplash uchun mag‘lub davlatdan olinadigan tovon puli olishni bekor qildi. Bu Yaponiyaning yuksalishiga zarur bo‘lgan ancha mablag‘ning tejalishiga olib keldi.

Ikkinchidan, ish beruvchi bilan xodim o‘rtasida shartnoma tuziladigan bo‘ldi. Bunda ish beruvchi korxona, xodimini (umrbod) to nafaqaga chiqquncha ish bilan ta’minlashi, xodim esa shu yillar mobaynida korxona uchun sidqidildan mehnat qilish majburiyatini oladigan bo‘ldi. Bu holat ish beruvchini ham, ishlovchini ham bir-biriga sadoqat bilan xizmat qilish ruhiyatini yaratishga asos bo‘ldi.

Uchinchidan, yapon xalqi xorijiy mamlakatlarning yutuqlarini o‘rganib, o‘z hayotiga tatbiq etishga kirishdi. Bir qancha davlatlar bilan do‘stona aloqalarni o‘rnatdi, harbiy xarajatlarni kamaytirdi. Yaponiyada bu xarajatlarning hissasi yillik ijtimoiy mahsulot qiymatining atigi bir foizini tashkil etardi, xolos. Bunday tadbirlar butun kapital mablag‘ining juda katta qismini ishlab chiqarishga yo‘naltirishga imkon berdi.

To‘rtinchidan, Yaponiyada ta’limga juda katta ahamiyat berildi. Xususan, boshlang‘ich sinflarga toki oltinchi sinfgacha asosan “Axloq tomon yo‘l” dasturi ostida dars o‘tildi, bunda o‘quvchilar asosiy e’tiborni axloq va kishilar bilan muomalani chuqur o‘rganishga qaratdi. Buning natijasida yapon xalqi o‘zaro muloqotda hamisha bir-biri bilan past ohangda, turli ta’malarsiz gaplashadigan odatga ega bo‘ldi.

Beshinchidan, yaponlar boy bo‘lishiga qaramasdan xizmatkorlar mehnatidan foydalanmaydi. Demak, mos ravishda xizmatkorlar ham bo‘lmagan. Maktablarda ham o‘quvchilari ustozlari bilan birga har kuni 25 daqiqa sinfxonalarni tozalash bilan shug‘ullangan. Shu yo‘l bilan bolalarning biri qandaydir jihatidan ustun, ikkinchisi past emas, balki tenglik ruhiyatini singdirib borgan.

Oltinchidan, Yaponiyada intizom juda kuchli. Unga nisbatan ma'muriyatning talabidan ko‘ra har bir xodimning talabi ham kuchli. Masalan, poezdning kechikish o‘lchami yilga hisoblaganda 7 soniya. Ko‘rinib turibdiki, Yaponiyada vaqt juda qadrli. Shu tariqa Yaponiyada intellektual salohiyatli, bilimdon, o‘ta madaniyatli avlod shakllangan, xalq mamlakatning tom ma'nodagi oltin fondi sifatida baholanadi.

Ye**ttinchidan**, sanoat korxonalaridagi jihozlar vaqti-vaqti bilan almashtirilib turiladi. Jumladan, sanoat korxonalarida barcha eskirgan jihozlar 1950-yilda yana almashtirildi. Bu islohot 1960-yilda o‘rta va mayda korxonalarga ham joriy etilib, bu yerda ham modernizatsiya qilindi. Yana bir muhim jihati, Yaponiyada tabiiy boyliklar kam. Shu tufayli xom ashyo va materiallarni xorijdan import qilib olib, ular qayta ishlanib, tayyor mahsulot sifatida eksport qilinadi.

Sakkizinchidan, Yaponiyada iqtisodiyotning rivojlanishida asosiy omillardan biri ko‘ptarmoqli sohalarning vujudga kelishi bo‘ldi. Bularning hammasi kapitalni tez aylantirishga olib kelish bilan birga tarmoqlarning ham kengayib borishiga sabab bo‘ldi. Birgina kemasozlik korxonalari keyinchalik mashinasozlik, kimyo jihozlari, turbinalar va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarishga moslashtirildi. Shu tariqa ishlab chiqarishning o‘zida ham tarmoqlar muttasil kengayib bordi.

To‘qqizinchidan, mamlakatda eng muhim sanoat tarmoqlari bo‘lgan atom energiyasi, og‘ir sanoat, raketasozlik va boshqa sohalarga kapital qo‘yish muvofiqlashtirildi. Ko‘plab sanoat korxonalari yangi joylarga davlat hisobidan ko‘chirildi. Birida iste'molchilar manfaatiga moslashtirilgan bo‘lsa, yana bir yo‘nalishi xom ashyo va materiallarga yaqinlashtirildi.

O‘ninchidan, boshqa rivojlangan mamlakatlar bilan iqtisodiy hamkorlikni yo‘lga qo‘yilib, ulardan ilg‘or texnika va texnologiyalar to‘g‘risida litsenziyalar sotib olishdan juda keng foydalanildi. Mamlakatning o‘zida ilmiy-texnik izlanishlarga juda katta mablag‘lar yo‘naltirildi.

O‘n birinchidan, chiqindilardan ham samarali foydalanib, bir sohadan chiqqan chiqindini boshqa sohaga yo‘naltirildi. Ko‘plab

chiqindini qayta ishlovchi korxonalar barpo etilib, juda sifatli mahsulotlar chiqarish imkoniyatlari ham qo‘lga kiritildi. Bu sohada ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlarning ham asosiy qismi chet mamlakatlarga eksport qilindi.

Ayrim olimlar ta’kidlaganlaridek, yuqoridagi omillar “Yaponiya iqtisodiyotining gurkirab rivojlanishi uchun zamin yaratdi. 1950-yilga kelib sanoat ishlab chiqarish urushdan oldingi darajaga etdi. 1951-1970-yillarda mamlakat iqtisodiyotining yillik o‘sishi o‘rtacha 14,6 foizni tashkil etdi. 1960-yilga kelib Yaponiya sanoatining yillik o‘sishi 20 foizni tashkil qildi. Bunday o‘sish hali hech bir davlatda kuzatilmagan edi. Bu iqtisodiy rivojlanish tarixda “Yapon mo‘jizasi” deb nomlandi. Shunday qilib, Yaponiya o‘zining qisqagina tarixida xonavayron holatdan gurkurab rivojlangan mamlakatga aylandi.

Bugungi kunda Yaponiya robotlar ishlab chiqarish va foydalanish bo‘yicha dunyoda birinchi o‘rinda turibdi. Avtomobillarni ishlab chiqarish bo‘yicha ikkinchi o‘rinda. Mazkur mamlakatning juda ko‘p qirralari borki, ulardan butun dunyo o‘rganib o‘zlariga tadbiq qilsa arziydi. Agar bunday muvaffaqiyatlarning zamiriga diqqat bilan qaraydigan bo‘lsak, yapon xalqining vatanparvarligi, intellektual salohiyatining yuqoriligi, ma’naviyatining yuksakligi evaziga korrupsiya elementlarining ojizligi, deyarli yo‘qligini sabab qilib keltirish mumkin.

Ushbu muvaffaqiyat omillarini o‘zimizda ham joriy qilish mumkin. Bu albatta buyruq va boshqa ma’muriy yo‘llar bilan bo‘lmaydi, butun xalqimiz o‘zini daxldor sifatida his qilib, shaxsiy mas’uliyatini oshirsagina erishish mumkin.

Savol tug‘iladi, Yaponiya qisqa muddatda bu darajada qanday yuksaldi? Bunga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ayrim ibratli voqea va hodisalarga duch kelamiz. Butun insoniyatni shu jumladan Yaponlarni ham Alloh yaratgan, ammo Yaponiyani yaponlar, yaratgan degan naql bor.

Yaponlar tarixi o‘n to‘qqizinchi va yigirmanchi asrlarda temir yo‘llarga ega bo‘ldi, og‘ir sanoat rivojlantirildi, kemasozlik tajribalari ham ortib borgan sohaga aylangan edi. 1870-yillarda mexanik ip

yigiruv uskunalari mavjud bo‘lib, 1913-yildayoq ushbu mamlakat taraqqiyot cho‘qqisiga chiqqan edi.

“Mutaxassislar yapon taraqqiyoti asosini uch omilga bog‘lashadi: birinchisi, evropalik olimlar salohiyatidan unumli foydalanishdi. Ikkinchisi, yapon tiliga tarjima qilish ishlari tizimli yo‘lga qo‘yildi. Uchinchisi, yapon yoshlari xorijga o‘qishga yuborildi”[90]. Ko‘rinib turibdiki, yaponlar ta’limga e’tiborni dunyoda birinchilar qatorida kuchaytirgan davlatlardan. 1877-yillardayoq Yaponiyada oliy o‘quv yurtlari faolyat ko‘rsatgan. Tarixdan ma’lumki, 1897-yilda Kioto universiteti ochilgan, 1900-yilga kelib ushbu universitetda qizlar uchun ingliz tili fakulteti ochildi (Ra’fat G‘unaymiy “Tarixu asiya alhadis val mu’asir”).

Ushbu yurtda savodxonlikka ham e’tibor qaratilgan. O‘n to‘qqizinchi asr o‘rtalarida yapon erkaklarining 50 foizi, ayollarning 15 foizi o‘qish va yozishni bilgan. Bu ko‘rsatkich o‘sha davrlarda dunyo miqyosida eng yaxshi natija hisoblangan. Yana bir e’tiborli jihat, Yaponiyada dastlab olti yillik majburiy ta’lim, so‘ngra besh yillik o‘rta ta’lim, so‘ngra uch yillik oliy ta’limda o‘qishni yo‘lga qo‘yishdi. Shu tariqa ta’lim sohasini ma’lum tizimga aylantirishga muvaffaq bo‘lindi.

Yana bir xarakterli jihati, yapon o‘qituvchilari talabalarga samimiy, chin yurakdan dars berardi. O‘qituvchi darslarini shunchaki o‘tib bermasdi, balki talaba o‘tilgan darslarni puxta o‘zlashtirishini o‘zning asosiy vazifasi, deb bilardi. Mana shu jarayonlar haqidagi berilayotgan ma’lumotlar yaponlarning qanday qilib ikkinchi jahon urushidan keyin vayronaga aylangan mamlakatni qisqa fursatda o‘zlarini o‘nglab olganlarini tushunishimizga yordam beradi. Ushbu vayronkor urushdan keyin yaponlar yana o‘qishga katta e’tibor qaratdilar. Ma’lumotlarga e’tibor qilsak, “1955-yilda 50 foiz yoshlar kollejlarda ta’lim olardi, 1970-yillarga kelib 90 foiz yoshlar oliy o‘quv yurtlariga o‘qishga kirdi”[91].

Yaponiyada ta’lim tizimi, shunchaki ta’lim emas edi. Jumladan, yaponlar o‘n to‘qqizinchi asrdan beri texnologiyalarni

[90] Манба: @konspektor
[91] Манба: @konspektor

takomillashtirishga qaratilgan ixtirolariga ahamiyat berib, aynan shunga intilib keladi. Bugungi kunda dunyo bozorida yapon texnologiyasining mavqei eng yuqori baholanadigan darajaga etkazilgan. E'tibor qiling 1969-yilda video kasseta, 1979-yilda pleyer, 1980-yilda SD, 1995-yilda DVD aynan Yaponiyada ixtiro qilindi. Hozirgi kunda ham yaponiyada intellektual mulk, ilm bilan qurollangan inson kapitali yetakchi o'rinni egallab kelmoqda.

Yana bir jihat, 1991-yildan boshlab yapon bolalari 100 foiz maktabga chiqadi, 2004-yildan beri 100 foiz yoshlar kollejlarda o'qiydi. "Yaponlarning ko'pchiligi, ya'ni 58 foizi internetdan foydalanadi, har million nafar yapondan 5287 nafari ilmiy ish bilan shug'ullanadi. Yaponiya hukumati yalpi ichki mahsulotning 3 foizini ilmiy ishlarga sarflaydi. Bu 4 trilliondan AQSh dollaridan ortiq mablag' degani"[92]. Qayd etish joizki, Yapon eksportining 24 foizi ilg'or texnologik uskunalar hisoblanadi. Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, yaponlar faqat ilm-fanni rivojlantirish va uning natijasidan samarali foydalanish orqali oyoqqa turib olgan.

Xulosa qilib aytganda, Yaponiya xalqi o'z yurtini chinakamiga sevishini, unga xiyonat qilmasligini anglab olish mumkin. Bu yurtda ta'lim va tarbiyaning yuksakligi, odamlar tarbiyasining yuqori ekanligi, bu yurtda korrupsion harakatlarga barham berilganligi shubhasiz, bundan o'rnak olsa arziydi. Bularning hammasi aql egalari, kelajakda mamlakatimni rivojlantiaman degan kishilar uchun ibratdir.

10.3. Mehnat bozori transformatsiyasida "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishga mos kadrlarni tayyorlash

Bugungi globallashuv va integratsiyalashuv jarayonida dunyoda sodir bo'layotgan murakkab geosiyosiy vaziyat, energiya va suv resurslarining taqchilligi, oziq-ovqatga ehtiyojning oshib borishi natijasida vujudga kelgan oziq-ovqat xavfsizligi masalasi, iqtisodiy-ijtimoiy hayotdagi keskin o'zgarishlar mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarni izchillik bilan davom ettirishni taqozo qilmoqda. Bulardan biri O'zbekiston Respublikasi

[92] Ўша жойда.

Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2022-yil 20-dekabrdagi Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida qayd etganidiek: “Ko‘p yillar davomida yangi gaz konlariga investitsiya kiritilmagani, elektr va gaz tarmoqlari modernizatsiya qilinmagani ham ayni haqiqat. Oqibatda tizimda aniq hisob-kitob yo‘qligi, katta yo‘qotishlar oddiy holga aylanib qolgan edi”[93]. Buni shu yilning yanvar oyida mamlakatimizga kirib kelgan sovuq oqimning asoratlarida ham yaqqol ko‘rindi. Ushbu qisqa vaqtda xalqimiz g‘oyat murakkab va sinovli davrni boshidan kechirdi. Endilikda elektr va gaz tarmoqlarini rivojlantirish bevosita “yashil iqtisodiyot” talabidan kelib chiqib amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli farmonida quyidagi asosiy g‘oyalar aks ettirilgan. Bunda “barqaror iqtisodiy o‘sish orqali daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoridan o‘rin olish; aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish; aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish;”[94] masalalari yoritilgan. Ushbu strategiyaning 51 maqsadida “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish, uning asosi bo‘lgan qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish ko‘rsatkichlarini keskin oshirish masalasi alohida qayd etilgan. Bunda “Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini 25 ming MVt hamda jami iste’moldagi ulushini 40 foizga etkazish. Sanoatda “yashil sertifikat”lar bozorini rivojlantirish va “ekologik markirovkalash” amaliyotini joriy qilish. 3 GVt quvvatli 3 ta issiqlik elektr stansiyalarini modernizatsiya qilish orqali tabiiy gaz sarfini kamaytirish. Ko‘p qavatli uy-joylardagi xonadonlarning energiya samaradorligi (energoaudit)ni baholash tizimini joriy etish. Shaharlarda jamoat transportini ekologik toza yoqilg‘iga o‘tkazish. Iqlim o‘zgarishi sohasida barcha issiqxona gazlarini qamrab oluvchi monitoring tizimini (MRV) yaratish. Issiqxona gazlarining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan 2010-

[93]Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси. // https://president.uz/uz/lists/view/5774.

[94] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги, «Ўзбекистон — 2030» стратегияси тўғрисида”ги ПФ-158-сонли фармони. // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 12.09.2023 й., 06/23/158/0694-сон.

yildagi darajadan 30 foizga qisqartirish”[95] masalalari aniq belgilangan va bu borada tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizning kelgusi taraqqiyotiga har bir yo‘nalish bo‘yicha chuqur o‘ylangan chora-tadbirlarni ishlab chiqish, unga mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish, har bir sarflanadigan investitsiya mablag‘larini halol pokira ishlatish orqali mashaqqatli, jasoratli va halol mehnat bilan erishiladi. Ushbu masalalarni hal qilish bo‘yicha muhtaram Prezidentimiz oltita yo‘nalishni belgilab berdi. Ushbu yo‘nalishlarning beshinchisida yashil iqtisodiyotga o‘tish masalasi ko‘zda tutilgan. Ko‘rinib turibdiki ushbu mavzu kelajakda ham o‘ta dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2022-yil 20-dekabrdagi Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun “Tabiatimizni asrab-avaylash, suv, havo va atrof-muhitni toza tutish kelgusi yilda har bir mahalla aholisining madaniyati va amaliy harakatiga aylanishi kerak. Bu borada mavjud vaziyatni ijobiy tomonga o‘zgartirish uchun ekologiya va atrof-muhitni asrash bo‘yicha sa’y-harakatlarimizni, xususan, ***“Yashil makon” umummilliy loyihasi*** doirasidagi ishlarimizni kuchaytiramiz”[96], deb ta’kidlangan. Ko‘rinib turibdiki, joriy 2023-yilda har bir mahalla aholisining madaniyati va amaliy harakatiga aylanishi lozim ekan. Demak, mamlakatimizda “yashil iqtisodiyot”ni shakllantirishda birorta kishi chetda qolmaydi. Ushbu ishga hamma mas’ul.

Zero mazkur masala bugun paydo bo‘lgan muammo emas. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev Koreya Respublikasida 2021-yilda o‘tkazilgan “Yashil o‘sish va global maqsadlar uchun hamkorlik – 2030” (P4G) ikkinchi xalqaro sammitidagi nutqida: “Bugungi kunda ona tabiatning o‘zi bizga yo‘llayotgan ogohlik qo‘ng‘irog‘iga beparvo bo‘lmasligimiz kerak. Afsuski, iqlim o‘zgarishlari tobora kuchayib bormoqda. Biz yashayotgan Markaziy Osiyoda so‘nggi 30 yilda

---

[95] Ўша жойда.

[96] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси. // https://president.uz/uz/lists/view/5774.

o‘rtacha yillik harorat taxminan bir darajaga ko‘tarildi. Mintaqamizdagi asosiy daryolarning havzasi va biologik xilma-xillikning qisqarib borayotgani jiddiy xavotir uyg‘otmoqda. Bug‘lanish darajasini oshiradigan gazlar va atmosferaning keng miqyosda ifloslanishi muammolarni yanada chuqurlashtirmoqda. Bugungi kunda “yashil taraqqiyot” borasidagi maqsadlarga erishish uchun mamlakatlarning harakatlari yanada faol va samarali bo‘lishi kerakligiga hech kim shubha qilmayapti. Boshqa choramiz ham yo‘q”[97], deb ta’kidladi.

“Yashil taraqqiyot”ga erishish uchun “yashil iqtisodiyot”ga o‘tishimiz va uni rivojlantirishimiz lozim bo‘lmoqda. Shu tufayli mamlakatimizda bunday iqtisodiyotni shakllantirish uchun yashil iqtisodiyotni rivojlantirish lozimligini inobatga olib, mamlakatimizda “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi belgilab berildi. Prezidentning 2019-yil 4-oktyabrda “2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” to‘g‘risidagi PQ-4477-sonli qarori bilan 2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi tasdiqlandi. Ushbu strategiya bo‘yicha “Yashil” iqtisodiyotga o‘tishning asosiy vazifalaridan biri iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishdan iboratdir.

Yuqoridagi vazifalardan kelib chiqib, Prezidentimiz o‘zining murojaatnomasida alohida ta’kidladi: “Umuman, kelgusi uch yilda barcha davlat tashkilotlarida quyosh panellari va issiq suv kollektorlari o‘rnatiladi. Ushbu maqsadlarda 2 milliard dollar miqdorida investitsiya jalb qilinadi. Buning hisobidan ularning 60 foiz elektr va gaz iste’moli “yashil energiya”ga o‘tkaziladi. Aholi xonadonlarida esa, quyosh paneli o‘rnatishga ajratiladigan subsidiyalar hajmi 2 barobar ko‘paytiriladi. Umuman, “yashil energiya”ga tezroq o‘tmasak, bu borada qonunlarimizda ham aniq mexanizmlarni belgilamasak, aholimiz va tadbirkorlarimizni rozi qila olmaymiz”[98]. Bunga erishish uchun mavjud

[97] https://zarnews.uz/post/vashil-iqtisodivot-nima.
[98] Ўзбекистои Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевииг Олии Мажлис ва Ўзбекистои халқига Мурожаатномаси. // https://president.uz/uz/lists/view/5774.

texnologiyalarni modernizatsiya qilish va moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish va nazoratni kuchaytirish lozim bo‘ladi.

Ko‘rinib turibdiki Yangi O‘zbekistonning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasida asosiy e’tiborlardan bir yo‘nalishi “Yashil iqtisodiyot”ni shakllantirish va rivojlantirishga bag‘ishlanadi. Ushbu strategiyani amalga oshirish natijasida issiqxona gazlarining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan solishtirma ajratmalari 2010-yildagiga nisbatan 10 foizga qisqartiriladi. Gazning bunday ishlardan tejalishi aholiga gazni etkazib berish imkoniyatini oshiradi.

Mazkur strategiyaning amalga oshirilishi natijasida “100 foizgacha aholi va iqtisodiyot tarmoqlari zamonaviy arzon va ishonchli energiyadan foydalanish imkoniyati bilan ta’minlanadi. Bundan tashqari, ekologik jihatdan yaxshilangan motor yoqilg‘isi va avtomobillar ishlab chiqarish va ulardan foydalanish kengaytiriladi, elektr transporti rivojlantiriladi”[99]. Ko‘rinib turibdiki, mamlakatimiz kelajagi bevosita “Yashil iqtisodiyot”ni shakllantirish bilan bog‘liqdir. Bulardan kelib chiqib, ommaga “Yashil iqtisodiyot”ning o‘zi nima, degan savolga javob berish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Yashil iqtisodiyot iqtisodiyot fanlarining bir yo‘nalish sifatida o‘tgan asrning oxirida paydo bo‘lgan edi. Mazkur iqtisodiyot tabiiy muhitning tarkibiy qismi bo‘lib, uning bir yo‘nalishi hisoblanadi. Yashil iqtisodiyot tushunchasi iqtisodiy fanlar va falsafaning ko‘plab boshqa sohalaridagi g‘oyalarni o‘z ichiga oladigan tabiat va jamiyat bilan bog‘liq ekologik iqtisodiyot, atrof-muhit iqtisodiyoti, resurslarga asoslangan iqtisodiyot, aholining rivojlanishi, feminizm iqtisodiyoti kabi yashil siyosat bilan bog‘liq iqtisodiyotni o‘z ichiga oladi.

Yashil iqtisodiyot bu iqtisodiy tizim bo‘lib, uning asosiy maqsadi sayyoramizning ekologiyasi va uni saqlab qolish bilan birga iqtisodiyotning barcha sohalarini faol omillar evaziga rivojlantirishga qaratilgan. Shunday qilib, ushbu tushunchaga quyidagicha ta’rif berishni maqsadga muvofiq, deb topdik. **Yashil iqtisodiyot deganda,**

[99] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 4 октябрда имзоланган “2019-2030 йиллар даврида Ўзбекистон Республикасининг "яшил" иқтисодиётга ўтиш стратегияси” тўғрисидаги ПҚ-4477-сон қарори.

inson hayoti va sog‘lig‘i uchun zarur bo‘lgan resurslarni, atrof-muhit va ekologiyani bir butun holda saqlab qolib ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalari bilan bog‘liq iqtisodiyotni yanada rivojlantirishni amalga oshirishga asoslangan iqtisodiy faoliyatning yangi yo‘nalishi tushuniladi.

Bunda ushbu ta’rifni izohlash va yashil iqtisodiyotni joriy qilish orqali barqaror rivojlanishni ta’minlash uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim bo‘ladi. Bular:

Birinchidan, aholining ehtiyojlarini qondirib, ularning farovonligi, yashash darajasi va sifatini oshirish uchun moddiy ne’matlarni yaratishni barqaror ravishda ekologiya va atrof-muhitga zarar etkazmasdan ko‘paytirib borish lozim bo‘ladi. Bunda asosiy e’tibor iqtisodiyotda energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga qaratish maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, ishlab chiqarish va iqtisodiyotni rivojlantirish uchun energiya resurslari kerak bo‘ladi, bularni qayta tiklanadigan energiya manbalari hisobidan ko‘paytirish, jamoat transportini ham elektr quvvati bilan yuradiganlariga almashtirish, energiyani tejaydigan binolarni barpo qilish kabi yo‘nalishlarda ishlarni olib borish ko‘zda tutilgan. Bunda iqlim va ekologiya barqarorligiga imkon beruvchi mustahkam iqtisodiy taraqqiyotga erishishdan choralarini ko‘rish ham muhim vazifalar sirasiga kiradi.

Uchinchidan, atrof muhitga zararli gazlarni chiqarmaydigan, atrof-muhitni asraydigan, ekologik toza texnologiyalarni yaratish orqali ekologik toza mahsulotlarni etishtirish masalasiga ham alohida ahamiyat berish lozim bo‘ladi. Bunda texnologik modernizatsiyalash va moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish orqali iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish yo‘llarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Bunda davlat investitsiyalari va xarajatlarining ustuvor yo‘nalishlariga ilg‘or xalqaro standartlarga asoslangan “yashil” mezonlarni kiritish ham lozim bo‘ladi.

To‘rtinchidan, bir tomondan, tabiatdagi barcha resurslar cheklangan bir paytda inson ehtiyojlari cheksizligini inobatga olib,

ularning muvofiqligini ta’minlash maqsadida ne’matlarni ishlab chiqarishni kengaytirishni tabiiy resurslarni kamaytirmasdan amalga oshirish. Orolbo‘yidagi ekologik inqirozning salbiy ta’sirini yumshatish choralarini ko‘rish ham dolzarb masalalar sirasiga kiradi.

Beshinchidan, aholining doimiy o‘sib borayotgan ehtiyojlarini qondirish uchun qancha ishlab chiqarish, qanday ishlab chiqarish, kimga va qaysi hududga mo‘ljallab ishlab chiqarish masalasiga atrof-muhitni asragan holda katta ahamiyat beriladi. Ushbu sohada davlat tomonidan rag‘batlantirish mexanizmlarini, davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish hamda xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni faollashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bugundan boshlab “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish yo‘nalishlari bo‘yicha tajriba-sinov loyihalarini amalga oshirishib, ularning murakkab yo‘nalishlarini joriy qilishga ko‘maklashish ham dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Oltinchidan, “yashil” iqtisodiyot sohasida, yuqori samaradorlikka erishish uchun xorijiy davlatlar bilan ikki tomonlama va ko‘p tomonlama shartnomalar tuzish orqali xalqaro hamkorlikni mustahkamlash. Bunda yashil iqtisodiyotni takomillashtirish bo‘yicha tajribalar bilan o‘rtoqlashish va shu sohaga yo‘naltiriladigan maqsadli investitsiyalarni jalb qilish masalalarini ilgari surish ham lozim bo‘ladi.

Yettinchidan, “yashil iqtisodiyot”ni shakllantirish va uni rivojlantirish uchun shu sohani yuritadigan kadrlarni ham shakllantirish maqsadga muvofiq. Mazkur yo‘nalish bo‘yicha ta’limga investitsiyalar kiritishni rag‘batlantirish, yetakchi xorijiy ta’lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlari bilan hamkorlikni rivojlantirish o‘ta dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shuningdek, “yashil” iqtisodiyotdagi mehnat bozori bilan bog‘liq kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini ham yo‘lga qo‘yish lozim bo‘ladi.

Sakkizinchidan, tan olib aytish kerak, ayrim hollarda tabiatga va jamiyatga tiklab bo‘lmas darajada zarar etkazilmoqda. Hududlarda, ayniqsa, yirik shaharlarda havo ifloslanishi bo‘yicha holat tobora yomonlashib bormoqda. Bu bevosita odamlarning ushbu masalaga mas’uliyatsizlik bilan qarashi tufayli ro‘y bermoqda. Buni inobatga olib, ekologiya va atrof-muhitga zarar etkazish bilan bog‘liq jinoyatlar

og‘ir jinoyatlar toifasiga kiritilishi lozimligi ta’kidlandi. Bu bo‘yicha Prezidentimizning 2023-yil 31-maydagi “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida qayd etildi. Chunki, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida mamlakatimizda jiddiy kamchiliklarga yo‘l qo‘yilayotganligi ham ushbu farmonda qayd etildi.

To‘qqizinchidan, mamlakatimizning barcha hududlarida atmosferaga chiqariladigan tashlanmalarning yukini kamaytirish bo‘yicha tizimli ishlarni yo‘lga qo‘yish lozim bo‘lmoqda. Chunki, “daraxtlar va butalar kesilishiga moratoriy e’lon qilingan bo‘lishiga qaramay, 44 mingtaga yaqin, shundan 9,5 mingga yaqin qimmatbaho daraxt noqonuniy kesilgan. Oqibatda tabiatga 36 milliard so‘mlik zarar etkazilgan. 2022-yilda ekologik huquqbuzarliklar yuzasidan 27 holat bo‘yicha jinoiy ish qo‘zg‘atilgan. Biroq, ularning barchasi bo‘yicha engil moliyaviy jarima jazosi qo‘llanilgan”[100], xolos. Bejiz, ekologiya va atrof-muhitga zarar etkazish bilan bog‘liq jinoyatlar og‘ir jinoyatlar toifasiga kiritilishi ko‘zda tutilgan emas.

O‘ninchidan, shuni tan olib aytish joizki, yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar insoniyatga Alloh tomonidan bebeho ne’mat sifatida inom qilingan ne’matlardir. Shu tufayli ular umummilliy boylik sifatida qaraladi. Insoniyat ulardan faqat oqilona foydalanishlari zarur. Ushbu boyliklar bejiz davlat muhofazasida ekanligi alohida qonun bilan belgilab qo‘yilgan. Qayd etish joizki, mamlakat miqyosida “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida o‘rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar qimmatbaho navlarini kesishga muddatsiz moratoriy joriy etildi. Bu ham atrof muhitni, ekologik vaziyatni saqlab turish uchun muhim choralardan biridir.

O‘n birinchidan, yashil iqtisodiyot – mamlakatimiz kelajagini belgilovchi muhim yo‘nalish ekanligini inobatga olib, ushbu sohadagi

---

[100] Ўзбекистон Республикаси Президентимизнинг 2023 йил 31 майдаги “Экология ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш соҳасини трансформатsiя қилиш ва ваколатли давлат органи фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармони.

huquqbuzarliklarning oldini olish, ekologik madaniyatni yanada oshirish bo‘yicha ta’sirchan tashviqot-targ‘ibot ishlarini olib borish lozim bo‘lmoqda. Bu birlamchi vazifa sifatida maxsus vakolatli davlat organlariga yuklatilgan. Ammo bu yetarli emas. Ushbu ishga mamlakatimizning birorta fuqarosi befarq bo‘lishga haqlari yo‘q. Ekologiyani buzish bilan bog‘liq bo‘lgan jinoyatlarni odilona jazosini ta’minlashda sudlar bilan bog‘liq ishlarni to‘g‘ri tashkil etish ham muhim. Hozirgidek, biroz jarima bilan cheklanib qolmasdan kattaroq jinoyi javobgarlikka tortilish masalasini ham belgilash maqsadga muvofiq. Chunki, ekologiya va atrof-muhitga zarar etkazish, o‘simlik va hayvonot dunyosi obyektlarini nobud qilish yoki ularga shikast etkazish bilan bog‘liq jinoyatlarni og‘ir jinoyatlar toifasiga kiritilishi lozim, deb hisoblaymiz.

Xulosa qilib aytganda, birinchidan, yashil iqtisodiyot bu iqtisodiy tizim bo‘lib, uning asosiy maqsadi sayyoramizning ekologiyasi va uni saqlab qolish bilan birga iqtisodiyotning barcha sohalarini faol omillar evaziga rivojlantirishga qaratilgan.

Ikkinchidan, yashil iqtisodiyotda inson, tabiat va iqtisodiyotning bir-biri bilan uyg‘un va barqaror rivojlanishini ta’minlagan holda harakat qilish lozim bo‘ladi. Biror narsani qilaman deb, ikkinchi narsa yo‘qotilmaydi. Masalan, uy quraman, deb daraxtlar ayovsiz kesib tashlanmaydi, texnologiyalarni ko‘paytirish havo atmosferasini zaharli gazlar bilan to‘ldirish evaziga amalga oshirilmaydi va h.k. Shu yo‘l bilan barqaror taraqqiyotga erishish bugungi kundagi global masalalardan biridir.

O‘zini-o‘zi nazorat qilish va takrorlash uchun savollar:

1. Globallashuv sharoitda mehnat bozori transformatsiyasida turizmning asosiy yo‘nalishlari.
2. “Butun jahon inklyuziv turizm yili” va maxsus deklaratsiyasi.
3. ““Yashil” turizmni joriy etish bo‘yicha eng yaxshi shahar” nominatsiyasining ta’sis etilishi.
4. YUNESKOning BTT bilan yaqin hamkorligida “Jahon yoshlar turizmi sammiti”.

5. Globallashuv sharoitida mehnat bozori transformatsiyasida Yaponiya tajribasidan foydalanishning ibratli jihatlari.

6. 1946-yilda Yaponiyada agrar islohotlar amalga oshirilishi.

7. Iqtisodiy rivojlanish tarixidagi “Yapon mo‘jizasi”.

8. Mehnat bozori transformatsiyasida “Yashil” iqtisodiyotni rivojlantirishga mos kadrlarni tayyorlash masalalari.

9. “Yashil iqtisodiyot”ni shakllantirishning asoslari.

10. Tabiat va iqtisodiyotning bir-biri bilan uyg‘un va barqaror rivojlanishini ta’minlash.

XI BOB. MEHNAT BOZORI TRANSFORMATSIYASIDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH BILAN BOG‘LIQ IQTISODIY OMILLAR TA’SIRI

11.1. Raqamli iqtisodiyotning ta’rifi va uning MBTda foydalanishidan maqsadi

11.2. MBTda raqamli iqtisodiyotga o‘tishning obyektiv zarurligi

11.3. Raqamli iqtisodiyotning mohiyati va uni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari

11.4. Raqamli iqtisodiyotning ijobiy va salbiy tomonlari va uning MBTga ta’siri

11.5. MBTda raqamli iqtisodiyotning qo‘llanilishi mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining muhim omili

11.1. Raqamli iqtisodiyotning ta’rifi va uning MBTda foydalanishidan maqsadi

Mamlakatimiz Prezidenti davlat boshqaruvi tizimini va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni yanada takomillashtirish, raqamli iqtisodiyotni joriy etish va rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, investitsiya muhitini yaxshilash, shuningdek, “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi, “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi «O‘zbekiston – 2030» strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlarida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish masalalariga alohida ahamiyat berilgan. Ushbu strategik vazifalarni amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3832-son qarori, 2018-yil 21-noyabrda “Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida raqamli infratuzilmani yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4022-sonli qarori, 2018-yil 13-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi davlat boshqaruviga raqamli iqtisodiyot,

elektron hukumat hamda axborot tizimlarini joriy etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev 2020-yil 24-yanvardagi Parlamentga Murojaatnomasida boylikning asosiy manbai aql va bilimda ekanligini alohida ta’kidladi. Buning uchun xalqaro andozalar va o‘qitish metodlarini hisobga olgan holda har bir o‘quvchining individual qobiliyatini aniqlash va rivojlantirish, shuningdek, uning erta bolalikdan oilada, maktabgacha va maktab ta’limida o‘sish omillarini tahlil qilish zarur. Yangi O‘zbekistonda Buyuk ajdodlarimizdek yorqin iqtidorli yoshlarni tayyorlash uchun “aqlli sog‘lom ta’lim”, “smart” yordamida intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish va ulardan samarali foydalanish bo‘yicha uzoq muddatli kompleks dastur va yo‘l xaritasini ishlab chiqish zarur. Mamlakatimizda “raqamli tibbiyot” va “innovatsion ta’lim”ni ham rivojlantirish orqali qashshoqlikni kamaytirishga erishish mumkin. Ushbu yo‘nalishda “Raqamli O‘zbekiston – 2030” va “1 million dasturchini tayyorlash” strategik dasturlarini amalga oshirish ham muvaffaqiyatga erishishning asosiy omili sifatida qarash lozim.

Ishlab chiqaruvchiga asosiy talablar qo‘yiladigan qishloq xo‘jaligi va sanoat iqtisodiyotidan farqli o‘laroq, raqamli iqtisodiyotda asosiysi raqamli texnologiyalarni bilish va iste’molchilarning raqamli savodxonligidir. Chunki ular raqamli xizmatlardan foydalanishi, onlayn tovar va xizmatlar sotib olishi, hattoki internet orqali ishlash va o‘qish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak.

Mamlakatimizda iqtisodiyotning raqamli sektorini rivojlantirish borasida davlat tomonidan keng ko‘lamli chora-tadbirlar ko‘rilmoqda. Bular jumlasiga elektron hujjat aylanishi tizimlarining joriy qilinishini, elektron to‘lovlarning rivojlanayotganligini, elektron tijorat sohasidagi normativ-huquqiy bazalarning takomillashtirilayotganligi kabi bir qancha axborot texnologiyalari yordamida amalga oshirilayotgan tadbirlarni kiritish mumkin.

Hozirgi kunda “Blokcheyn” texnologiyalari, ya’ni ma’lumotlarning bloklar zanjiri bo‘yicha taqsimlangan reestri texnologiyasi, “sun’iy aql”, superkompyuterlar imkoniyatlaridan foydalanish masalalariga

katta ahamiyat berilmoqda. Jahonning ko‘plab mamlakatlarida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yo‘nalishlaridan biri kripto-aktivlar bo‘yicha faoliyatni yuritish hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyot texnologiyalari nafaqat iqtisodiyot sektorlariga, balki davlat boshqaruvi tizimiga va boshqa jamoatchilik munosabatlariga ham asta-sekin joriy etilmoqda. 2017-yildan buyon davlat boshqaruvida “Elektron hukumat” tizimi amalga oshirilmoqda. Xullas, mamlakatimiz kelajagi albatta raqamli iqtisodiyot bo‘ladi. Ushbu holat barcha kadrlarni ushbu yo‘nalish bo‘yicha savodxonligini oshirishni taqozo qiladi.

Agar raqamlarga nazar soladigan bo‘lsak, 2025-yilda dunyoning raqamli iqtisodiyoti 23 trillion AQSh dollarga etishi ko‘zda tutilgan edi. Uning jahon yalpi ichki mahsulotidagi ulushi hozirgi 17,1 foizdan 2030-yilga borib 24,3 foizgacha ko‘tarilishi ko‘zda tutilgan. Bu ko‘rsatkich O‘zbekiston – 2,1 foizdan 2030-yilda 5,6 foizgacha oshishi ko‘zda tutilgan. Dunyoda raqamli transformatsiyani rag‘batlantirish uchun ulanishlar taxminan 1 trillionni tashkil etadi. Bulutli texnologiyalaridan foydalanadigan korxonalar soni 85 %ni, sun’iy intellektdan – 86 %ni, raqamli katta ma’lumotlardan – 80 %ni tashkil qiladi.

Apple, G‘aseook, Amazon, Google, Microsoft, Alibaba, Uber, Google Search, Marketplase, Ebay kabi RAQAMLI GIGANTLARning kapitallashuvining o‘sishi 0,5 dan 1,5 trillion AQSh dollarigacha etadi. Bu taxminan 2 million yangi yuqori maoshli onlayn ish o‘rinlari demakdir. Bu holat mehnat bozorida butunlay yangi mutaxassislarni talab qiladi. Ushbu mutaxassislarning o‘rtacha maoshi bir yilda taxminan 50-150 ming dollarni tashkil qiladi. AQShda ko‘plab dasturchilar 1 million dollardan ko‘proq maosh olib faoliyat ko‘rsatmoqda.

Ko‘rinib turibdiki, mamlakaimizning ham, jahon iqtisodiyotining ham kelajagi raqamli iqtisodiyot bilan bog‘liq ekan. Shu tufayli ushbu tushunchaning nazariy jihatlarini, xususan uning ta’rifini berishni maqsadga muvofiq, deb topdik.

Raqamli iqtisodiyot deganda, raqamli axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda elektron mahsulotlar va

xizmatlarni ishlab chiqarishga asoslangan va elektron tijorat orqali taqsimlanadigan iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy munosabatlar tizimi tushuniladi.

Har bir jarayon, mexanizm yoki unsurlar ma'lum maqsad va tegishli vazifalarga ega bo'ladi.

Raqamli iqtisodiyotning maqsadi

- real soxtalashtirish mumkin bo'lmaydigan iqtisodiyotni shakllantirish;
- yashirin iqtisodiyotga barham berish;
- mamlakat YaIMni ishlab chiqarishni ko'paytirish;
- korrupsiyani keskin kamaytirish;
- adolatli jamiyatni shakllantirish;
- aholining ma'naviy va intellektual salohiyatini oshirish;
- mamlakat raqobatbardoshligini mustahkamlash kabilar.

Ko'rinib turibdiki, raqamli iqtisodiyotning maqsadi juda keng qamrovli bo'lib, shunga mos vazifalarni ham qo'lga kiritadi. Shu tufayli raqamli iqtisodiyotga o'tish bizning taraqqiyotimiz uchun obyektiv zaruriyatga aylandi.

11.2. MBTda raqamli iqtisodiyotga o'tishning obyektiv zarurligi

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni joriy qilish borasida bir qancha chora-tadbirlar ko'rildi va ko'rilmoqda. Bunda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Bular jumlasiga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3832-son qarori, 2018-yil 21-noyabrda "Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida raqamli infratuzilmani yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4022-sonli qarori, 2018-yil 13-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruviga raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat hamda axborot tizimlarini joriy etish

bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2020-yil 5-oktyabrdagi ““Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-sonli, 2022-yil 22-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni rivojlantirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek, ba’zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida”gi PF-194-sonli farmonlarini kiritish mumkin.

Bugungi kunda raqamli iqtisodiyotga o‘tish haqidagi amalga oshirilayotgan tegishli chora-tadbirlarni turli kishilar turlicha qabul qilib, turlicha talqin qilmoqda. Hozirgi kunda odamlar orasida raqamli iqtisodiyot kimga va nima uchun kerak, nima maqsadda tashkil qilinmoqda degan savollarga javob axtarayotganligiga guvoh bo‘lmoqdamiz. Chunki raqamli iqtisodiyot sharoitida ko‘pgina ish o‘rinlari qisqarib borayotganligi, yangi mutaxassislarning etishmayotganligi ham bunday savollarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda.

Ushbu savolga javob berish uchun, eng avvalo, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida Buyuk Imom Buxoriy hazratlarining “Al-Jomi’ as-Sahih” asarida keltirilgan “Barcha ezgu amallar niyatga bog‘liq, har bir kishiga faqat niyat qilgan narsasi beriladi”[101] degan hadisni keltirilganligiga alohida ahamiyat berishni istar edik. Hamisha xolis niyat yaxshiliklarga olib kelgan va bundan keyin ham shunday bo‘lib qoladi.

Bizda bunga amal qilinib kelinmoqda. Shu tufayli xolis niyat qilib, 2018-yilga “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili” deb nom berilgan edi. Mazkur yilda mamlakat va hududlar kesimida davlat dasturi tuzildi va ular asosan bajarildi. Bunga alohida to‘xtalib, mazkur dastur bo‘yicha “21 trillion so‘m va 1 milliard dollarga teng 76 mingta loyihani amalga

[101] Ўзбекистои Ресиубликаси Президеити Шавкат Мирзиёевииг 2018 йил 28 декабрдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси. // “Халқ сўзи” газетаси. 2018 йил 29 декабрь.

oshirilganligini alohida ta'kidlangan[102]. Joriy yilda ham yaxshi niyat bilan 2018-yilda boshlagan ishlarimizni mantiqiy davom ettirish va yuksak bosqichga ko'tarish maqsadida, "2019-yilga "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili" deb nom berildi. Har bir yilda belgilangan vazifalar bajarilib kelinmoqda. Hammasida raqamli iqtisodiyot bo'yicha tegishli yo'nalishlar ham amalga oshirilmoqda. Xullas, 2025-yilni "Atrof muhitni asrash va "Yashil iqtisodiyot" yili" deb nomlanishi takllif qilindi. Bu bo'yicha keng ko'lamli dasturlar ishlab chiqildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida "Iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamli texnologiyalar asosida yangilashni nazarda tutadigan Raqamli iqtisodiyot milliy konsepsiyasini ishlab chiqqan holda "Raqamli O'zbekiston-2030" dasturini hayotga tatbiq etishimiz zarur"[103], deb ko'rsatib o'tdi. Raqamli iqtisodiyotning eng muhim jihati, iqtisodiyotni soxtalashtirish imkoniyati cheklanadi. Shu tariqa ushbu holat juda ko'p ijobiy ishlarni amalga oshirish uchun asos bo'ladi:

- iqtisodiyotda korrupsiya keskin qisqaradi va uning oldi olinadi;
- ma'lum ma'noda iqtisodiyot sohasida tartib-intizom o'rnatiladi va mutasaddi xodimlarning mas'uliyati oshadi;
- iqtisodiyotda yalpi ichki mahsulotni (YalM) va boshqa makro va mikro iqtisodiyot ko'rsatkichlarining real hajmini aniqlash imkoniyati yaratiladi;
- iqtisodiyotda noreal raqamlarning ishtirokiga barham beriladi va to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyati ham yaratiladi.

Raqamli iqtisodiyotning yana bir muhim jihati, iqtisodiyot samaradorligini oshirish imkonini beradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida nufuzli xalqaro tashkilotlar o'tkazgan tahlillarga tayangan holda "yalpi ichki mahsulotni kamida 30 foizga o'stirish, korrupsiyani keskin

[102] Ўзбекистои Ресиубликаси Президенти Шавкаг Мирзиёевииииг 2018 йил 28 декабрдаги Олии Мажлисга Мурожаатномаси. // "Халқ сўзи" газетаси. 2018 йил 29 декабрь

[103]. Ўзбекистои Ресиубликаси Президенти Шавкат Мирзиёевииииг 2018 йил 28 декабрдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси. // "Халқ сўзи" газетаси. 2018 йил 29 декабрь.

kamaytirish imkonini beradi”[104], deb ta’kidlangan edi. Shuning uchun Hukumatga raqamli iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqish asosida amalga oshirilgan ishlar axborot xavfsizligini ta’minlashga ham alohida e’tibor qaratish imkoniyatini yaratdi.

Mamlakatimizda “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili” deb nomlangan 2019-yilda iqtisodiyot sohasida oldimizda turgan aniq vazifalarni ham belgilab berdi. Shu yilda ham oldingi yillarda amalga oshiriladigan keng qamrovli iqtisodiy islohotlar davom ettirildi. Bularni amalga oshirish bo‘yicha juda katta Davlat dasturi tuzildi va ularni bajarish masalasi har bir hudud bo‘yicha tizimli ravishda amalga oshirildi. Shu yilda iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha quyidagi ishlar amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan edi:

“– ochiq iqtisodiyot, sog‘lom raqobat, ishbilarmonlik va investitsiya muhitini tubdan yaxshilash uchun zarur sharoitlarni yaratish;

– iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy sektorni jadal rivojlantirish orqali yangi ish o‘rinlarini ko‘paytirish;

– iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, mehnat unumdorligini oshirish orqali yuqori iqtisodiy o‘sishni ta’minlash;

– “yashirin” iqtisodiyotga qarshi kurashish, uning hajmini keskin qisqartirish;

– valyutani erkinlashtirish siyosatini izchil davom ettirish, barqaror monetar siyosatni amalga oshirish;

– iqtisodiyotni rivojlantirishga doir strategik vazifalarni ro‘yobga chiqarishga qodir malakali kadrlarni tayyorlash”[105] masalalari ustuvor vazifalar sifatida belgilab berilgan edi. Ushbu vazifalarning bajarilishida ham raqamli iqtisodiyotning joriy qilinishi ma’lum muvaffaqiyatlarga erishish uchun asos bo‘ldi.

2025-yilda ham yuqoridagi singari vazifalarni bajarish borasida amalga oshiradigan ishlarimiz raqamli iqtisodiyotnig kimga va nima uchun kerak, degan savolga javob bo‘ladi. Bularga erishish uchun ham

---

[104] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2018 йил 28 декабрдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси. // “Халқ сўзи” газетаси. 2018 йил 29 декабрь.

[105] Узбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2018 йил 28 декабрдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси. // “Халқ сўзи” газетаси. 2018 йил 29 декабрь.

asosan raqamli iqtisodiyotga o‘tish masalasi muhim bo‘lib turibdi. Jumladan, ochiq iqtisodiyot, sog‘lom raqobat, ishbilarmonlik va investitsiya muhitini tubdan yaxshilash uchun zarur sharoitlarni yaratish uchun ham birinchi galda raqamli iqtisodiyotni joriy qilish lozim.

Ikkinchi vazifa, ya’ni iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy sektorni jadal rivojlantirish orqali yangi ish o‘rinlarini ko‘paytirish masalasi ham bevosita yuqoridagi raqamli iqtisodiyotni joriy qilishni taqozo qiladi. Zero, raqamli iqtisodiyot joriy qilinsa davlatning ishtiroki o‘z-o‘zidan kamayib boraveradi.

Ta’kidlash joizki, iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, mehnat unumdorligini oshirish orqali yuqori iqtisodiy o‘sishni ta’minlash ham juda ko‘p omillardan foydalanishni taqozo qiladi. Ulardan biri aynan raqamli iqtisodiyot bo‘lib hisoblanadi. Mazkur iqtisodiyot sharoitida ta’minlangan intizom, albatta iqtisodiyotni modernizatsiya qilish uchun tegishli sharoit yaratadi. Ushbu masala uni diversifikatsiya qilish uchun ham qo‘l keladi. Mehnat unumdorligining oshirilishi ham yuqoridagi modernizatsiyaning hosilasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Yana bir muhim jihat, “yashirin” iqtisodiyotga qarshi kurashish, uning hajmini keskin qisqartirish uchun ham raqamli iqtisodiyotni joriy qilishni taqozo qiladi. Chunki, raqamli iqtisodiyot sharoitida uni soxtalashtirishning imkoniyati cheklangan bo‘ladi. Shu tufayli ushbu iqtisodiyotni joriy qilishning ahamiyati beqiyos. Bulardan ham ko‘rinib turibdiki, raqamli iqtisodiyotni joriy qilish tadbirkor uchun ham, davlat uchun ham, jamiyat uchun ham, mulkdor uchun ham juda kerak ekan. Chunki ushbu iqtisodiyot ularning manfaatlariga mutanosib ravishda mos keladi.

Hozirgi paytda mamlakatimizda ma’muriy tartibotlardan o‘tishni soddalashtirish, aholi turmushi darajasi va sifatini oshirish, investitsiya va ishbilarmonlik muhitini yaxshilashga qaratilgan elektron hukumatni, shu jumladan, davlat xizmatlarini ko‘rsatish tizimini takomillashtirish, uni modernizatsiya qilish va rivojlantirish borasida juda ko‘p dasturlar ishlab chiqilib, tegishli chora-tadbirlar ham amalga oshirilmoqda..

Bugungi kunda valyutani erkinlashtirish siyosatini izchil davom ettirish, barqaror monetar siyosatni amalga oshirish ham muhim vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Chunki, O‘zbekistonda valyuta liberalizatsiyasidan keyin birmuncha vaziyat o‘zgardi va ancha engilliklar yaratildi. Ammo hamon bu borada yashirish iqtisodiyot va qora bozorning alomatlari saqlanib qolayotganligi ham sir emas. Bularni bartaraf qilish uchun ham raqamli iqtisodiyot ma’lum darajada xizmat qiladi.

Yana bir muhim masala, iqtisodiyotni rivojlantirishga doir strategik vazifalarni ro‘yobga chiqarish uchun, uni amalga oshirishga qodir bo‘lgan malakali kadrlarni tayyorlash masalasi ham o‘ta dolzarb muammolardan biridir. Kadrlar malakali bo‘lish bilan birga, diyonatli, insofli, birovning, davlatning haqidan, jinoyat va xiyonat qilishdan qo‘rqadigan ma’naviyatga ega mukammal inson bo‘lishlari lozim. Bunday kadrlarni tayyorlash masalasi bugungi kunda katta tashkilil-huquqiy, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni amalga oshirishni taqozo qiladi. Bugungi kunda MBTda aynan shunday yetuk kadrlarga ehtiyoj yildan-yilga oshib boraveradi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda raqamli iqtisodiyot-ning joriy qilinishi uni ifodalovchi ko‘rsatkichlarning aniq va realligini, soxta raqamlarning bartaraf bo‘lganligini, iqtisodiyotdan manfaatdor subyektlarning (davlatdan tortib barcha quyidagi korxonalargacha, hatto shaxsiy tadbirkorlargacha) bir xil manfaatdorligini ta’minlaydi.

11.3. Raqamli iqtisodiyotning mohiyati va uni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari

Mamlakatimiz Prezidenti davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish, raqamli iqtisodiyotni joriy etish va rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, investitsiya muhitini yaxshilash, shuningdek, 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3 iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-

3832-son qarori, 2018-yil 21 noyabrda “Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida raqamli infratuzilmani yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4022-sonli qarori, 2018-yil 13 dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi davlat boshqaruviga raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat hamda axborot tizimlarini joriy etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi. Mazkur farmon va qarorlarda quyidagi tadbirlar raqamli iqtisodiyotni yanada rivojlantirish bo‘yicha eng muhim vazifalar deb hisoblanishi ta’kidlangan:

- “investitsiyaviy va tadbirkorlik faoliyatining turli shakllarini diversifikatsiya qilish uchun kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi faoliyatni, jumladan mayning (turli kripto valyutalarda yangi birliklar va komissiya yig‘imlari formatida mukofot olish imkonini beradigan taqsimlash platformasini ta’minlash va yangi bloklar yaratish bo‘yicha faoliyat), smart-kontrakt (raqamli tranzaksiyalarni avtomatik tartibda amalga oshirish orqali huquq va majburiyatlar bajarilishini nazarda tutuvchi elektron shakldagi shartnoma), konsalting, emissiya, ayirboshlash, saqlash, taqsimlash, boshqarish. sug‘urtalash. kraud-fanding (jamoaviy moliyalashtirish), shuningdek. “blokcheyn” texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish;
- “blokcheyn” texnologiyalarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish sohasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan xolda amaliy ish ko‘nikmalariga ega malakali kadrlarni tayyorlash;
- kripto-aktivlar bo‘yicha faoliyat va “blokcheyn” texnologiyalari sohasida xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlikni har tomonlama rivojlantirish, raqamli iqtisodiyotda loyihalarni birgalikda amalga oshirish uchun “blokcheyn” texnologiyalarini ishlab chiqish sohasida faoliyat ko‘rsatadigan yuqori malakali xorijlik mutaxassislarni jalb qilish;
- xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribasini hisobga olgan xolda “blokcheyn” texnologiyalarini joriy etish uchun zarur huquqiy bazani yaratish;

- raqamli iqtisodiyotni yanada rivojlantirish uchun innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va ishlanmalarni joriy etish sohasida davlat organlari va tadbirkorlik subyektlarining yaqin hamkorligini ta’minlash”[106] vazifalari belgilangan.

Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirishda “blokcheyn” texnologiyasi, “sun’iy aql”, kripto-aktivlar, kripto-birjalar, superkompyuterlar imkoniyatlaridan foydalaniladi. Ushbu tushunchalar quyidagicha izohlanadi (11.1-jadval).

11.1-jadval

Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirishda qo‘llaniladigan usul va jarayonlarning izohlari

T/r	Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirishda qo‘llaniladigan usul va jarayonlarning nomi	Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirishda qo‘llaniladigan usul va jarayonlarning izohi
1.	“Blokcheyn” texnologiyasi	Bloklar zanjiri – blokchalarga bo‘lingan ma’lumotlar bazasi. Soxtalashtirib bo‘lmaydigan iqtisodiyotning asosi bo‘lib hisoblanadi. Ma’lumotlar tizimini vertikal va gorizantal joylashtirish mumkin.
2.	“Sun’iy aql”	Tinglash, eshitish, ko‘rish, xotirada saqlash kabi funksiyalarni inson ishtirokisiz bajaradigan qurilmalar
3.	Kripto-valyutalar	Bu kriptografiya (yashirin raqamli imzo) texnologiyaga asoslangan jismoniy shakl-ga ega bo‘lmagan, yashirin, markazlashmagan, himoya qilingan raqamli pul hisoblanadi.
4.	Kripto-aktivlar	Bu kriptovalyutaning barcha xususiyatlarini o‘zida mujassam etadigan, kompaniyalar va guruh shaxslar tomonidan amalga oshiriladi-gan istiqbolli loyihalarni qo‘lga kiritish yoki aktivlarni sotib olib, ularni kapital-lashtirish maqsadida kriptoaktivlarni tavsiya qilgan egalari tomonidan kafolatlangan identifikatsiyalangan raqamli moliyaviy instrument bo‘lib hisoblanadi.
5.	Kripto-birjalar	Bu barcha savdo bitimlarini yangi axborot texnologiyalari bilan amalga oshiradigan

[106] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 3 июлда “Ўзбекистон Республикасида рақамли иқтисодиётни ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3832-сон қарори. // “Халқ сўзи” газетаси, 2018 йил 4 июль.

		zamonaviy kompyuterlar bilan ta’minlangan yuqori texnologik markaz hisoblanadi.
6.	Superkompyuterlar	Yuqrpi quvvatga ega ko‘pfunksiyali kompyuterlar bo‘lib, asosiy vazifasi raqamli iqtisodiyotnin bir qancha usurlarini amalga oshirish uchun xizmat qiladi
7.	Kraud-fanding	Jamoaviy moliyalashtirish bilan bog‘liq jarayonlar
8.	Smart-kantrakt	Raqamli tranzaksiyalarni avtomatik tartibda amalga oshirish orqali huquq va majburiyatlar bajarilishini nazarda tutuvchi elektron shakldagi shartnoma
9.	Mayning	Turli kripto valyutalarda yangi birliklar va komissiya yig‘imlari formatida mukofot olish imkonini beradigan taqsimlash platforma-sini ta’minlash va yangi bloklar yaratish bo‘yicha faoliyat
10.	“Elektron hukumat”	Davlat xizmatlarini ko‘rsatishda va idora-lararo elektron hamkorlik qilishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng qo‘llash orqali boshqarishdir

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlanti-rish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3832-son qarori, 2018-yil 21-noyabrda “Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida raqamli infratuzilmani yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4022-sonli qarori, 2018-yil 13-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi davlat boshqaruviga raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat hamda axborot tizimlarini joriy etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2020-yil 5-oktyabrdagi ““Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-sonli farmonlari qabul qilindi. Ushbu qaror va farmonlarda mazkur masalani amalga oshirish va takomillashtirish uchun bir qancha yo‘nalishlar belgilangan. Bular quyidagilardan iborat.

Birinchidan, mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni joriy qilish va rivojlantirish bo‘yicha vakolatli organ qilib Loyiha boshqaruvi milliy agentligi belgilangan. Ushbu agentlik mazkur masalaning tashkiliy-

huquqiy asoslarini ishlab chiqib, uni amaliyotga joriy qilishda bevosita ishtirokchi va nazoratchi rolini o‘ynaydi.

Ikkinchidan, mamlakatimizda kripto-aktivlar sohasida mayning, smart-kontraktlar, “blokcheyn” texnologiyalari joriy qilinadi. Hozirgi kunda tajriba tariqasida ushbu yo‘nalishlar joriy qilinib, o‘zining ijobiy natijasini ko‘rsatdi. Kelajakda bular ommaviy tarzda amalga oshiriladi. Natijada fuqarolarimizda qo‘shimcha daromad qilish imkoniyatlari yanada ko‘payadi.

Uchinchidan, “blokcheyn” texnologiyalari va shu bilan bog‘liq innovatsion yo‘nalishlar bo‘yicha ularni ishlab chiqish va foydalanish uchun sohasida malakali kadrlar tayyorlash masalasi ham yo‘lga qo‘yildi va bu davom etmoqda. Ushbu jarayon uchun kadrlar hozircha yetarli darajada tayyorlanmayapti. Shu tufayli bir qancha yangi mutaxassisliklarni mamlakatimizning milliy klassifikatoriga kiritish va alohida mutaxassis sifatida tayyorlash ishlari ham yo‘lga qo‘yilishi maqsadga muvofiq.

To‘rtinchidan, jismoniy va yuridik shaxslar o‘rtasidagi kripto-aktivlar aylanmasi va ulardan olingan daromadlar (rezidentlar va norezidentlar tomonidan amalga oshiriladigan operatsiyalar) soliqqa tortish obyekti hisoblanmaydi. Mos ravishda, mazkur operatsiyalar yuzasidan olingan daromadlar esa soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha soliq solinadigan bazaga kiritilmaydi. Ushbu daromad manbai aholi uchun sof daromad bo‘lib hisoblanadi.

Beshinchidan, kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi faoliyatni amalga oshirish uchun belgilangan tartibda litsenziya beriladi. Bunday litsenziyaga sazovar bo‘lgan shaxslar tomonidan o‘tkaziladigan kripto-aktivlar aylanmasi bilan bog‘lik valyuta operatsiyalariga valyutani tartibga solish to‘g‘risidagi qonun hujjatlari normalari tatbiq etilmaydi.

Oltinchidan, raqmli iqtisodiyotni rivojlantirish, “Elektron hukumat” tizimini joriy etilishini ta’minlash, aholi, biznes va davlat o‘rtasida samarali o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratish choralari ko‘riladi. Ushbu tadbirlarni amalga oshirishga mas’ul etib O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi loyiha boshqaruvi milliy agentligi belgilangan.

Yettinchidan, mazkur agentlik tomonidan “Raqamli ishonch” raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi bilan birgalikda barcha davlat xizmatlari faqat operatorlarning ma’lumotlarini qayta ishlash markazlari orqali ko‘rsatishni ta’minlash maqsadida 2019-2021-yillarda “Universal Mobile Systems” MChJni rivojlantirish Konsepsiyasi ishlab chiqildi. Bu ish hozirgi kunda amaliyotda o‘z tasdig‘ini topmoqda.

Xulosa qilib aytganda, raqamli iqtisodiyotga iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi, uni soxtalashtirish imkoniyatini cheklaydigan, odamlarning farovonligini ta’minlashga xizmat qiladigan zamonaviy iqtisodiy mexanizmlar majmuidan iborat, deb baho berish mumkin. Ushbu holat mamlakatimizda MBTda ham halollikni amalga oshirishga bevosita xizmat qiladi.

11.4. Raqamli iqtisodiyotning ijobiy va salbiy tomonlari va uning MBTga ta’siri

Raqamli iqtisodiyotni hayotimizga joriy qilmasdan turib, ko‘zlangan yuksak marralarga etish qiyin. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta’kidlaganidek: “...raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko‘p mablag‘ va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Biroq, qanchalik qiyin bo‘lmasin, bu ishga bugun kirishmasak, qachon kirishamiz?! Ertaga juda kech bo‘ladi. Shu bois, raqamli iqtisodiyotga faol o‘tish – kelgusi 5 yildagi eng ustuvor vazifalarimizdan biri bo‘ladi. Raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi”[107]. Bundan ham ko‘rinib turibdiki, raqamli iqtisodiyotning ko‘pgina ijobiy tomonlari bilan birga ayrim qiyinchiliklari va murakkab jihatlari ham bor ekan. Internetda berilgan ma’lumotlarga ko‘raa 2025-yilda raqamli iqtisodiyotning YaIMdagi ulushi, masalan, tashkilotlar tomonidan raqamli transformatsiya va elektron savdoning o‘sishi natijasida kuzatilgan dinamikani hisobga olgan holda, 15-25% orasidda

[107] Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. // Халқ сўзи, 24.01.2020 йил.

bo‘lishi mumkin. 2030-yilga kelib bu ulush yanada o‘sishi kutilmoqda, taxminan 20-30% ga etish imkoni mavjud.

Mazkur sohaning rivojlanishi bevosita ilm-fan va ta’limning rivojlanishi bilan bog‘liqdir. O‘zbekiston Respublikasining “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi 2019-yil 29 oktyabrdagi 576-sonli qonuniga asosan ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligi hamda samaradorligiga erishish, mehnat unumdorligini oshirish, yangi tarmoqlarni yaratish, aholi turmush darajasi, ilm-fan va ta’lim tizimlarini sifat jihatidan yuksaltirib borish bilan bog‘liq muammolarning ilmiy yechimini ta’minlash maqsadida ishlab chiqiladi[108]. Demak ushbu soha o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib, rivojlanib qolmaydi va shakllanganidan keyin ham silliq ketavermaydi. Chunki iqtisodiyotning global raqobat va integratsiyalangan sharoitda barcha sohalar singari ushbu sohada ham turli tebranishlar paydo bo‘ladi.

Ushbu holatlardan kelib chiqib, qayd etish joizka, raqamli iqtisodiyot ham boshqa unsurlar singari o‘zining ijobiy va salbiy tomonlariga ega.

Raqamli iqtisodiyotning ijobiy tomonlari ham anchagina. Bularga quyidagilar kiradi:

- raqamli iqtisodiyot orqali insonning vaqti, mablag‘i va energiyasi tejaladi;
- uyida turib dunyoning istalgan joyidan xohlagan tovarini xarid qilish imkoniyati yaratiladi;
- iqtisodiyot natijalarini soxtalashtirish imkoniyati cheklanadi;
- iqtisodiy munosabatlar bilan bog‘liq keng ildiz otgan korrupsiyaning oldi olinadi;
- bir joyda turib dunyoning istalgan nuqtasidan axborot olim imkoniyati yaratiladi;
- odamlarda qo‘shimcha mablag‘ topish imkoniyati yaratiladi va h.k.

Shu bilan birga **raqamli iqtisodiyotning salbiy tomonlari** ham mavjud. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin:

[108] Ўзбекистон Республикасининг “Илм-фан ва илмий фаолият тўғрисида”ги Қонуни, 29 октябр 2019 йил.

- millionlab xodimlar ish joyi qisqaradi va ishsizlikni keltirib chiqaradi;

- mamlakatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, hatto ma'naviy hayotini boshqarishda ham insonning ishtiroki kamayib boradi;

- inson ishtiroki kamaygan joyda ilmning, ayniqsa tafakkurning o'rni ham kamayib boradi, chunki hamma narsa oldindan dasturlangan holat bo'yicha ishlaydi;

- "iqtisodiyot insonlarga xizmat qilishi kerak" degan oddiy haqiqatdan biroz chetlaniladi, chunki odamlarning o'zlari yaratgan raqamli iqtisodiyot, ularning o'zlarini odatdagi faoliyatidan qisib chiqaradi;

- turli axborotlar bilan insonlar ruhiyatiga ta'sir qilib, hayotni izdan chiqaradigan g'oyalarni ham singdirishi mumkin;

- insonlar faqat axbrot-texnologiyalarga suyanib qolishi natijasida ma'naviy olamini boyitadigan kitobdan uzoqlashib boradi;

- odamlar fikrlash bobida dangasa bo'lib boradi, natijada uning tafakkur qobiliyati susayib boradi va h.k.

Xullas, hozirgi kunda dunyoda iqtisodiy va ijtimoiy hayotning tarkibi o'zgarmoqda. Chunki odamlarning bir qismi tovar ishlab chiqarish bilan emas, balki axborot olish va qayta ishlash bilan shug'ullanmoqda. Hamma uchun odatiy bo'lgan iqtisodiyot o'rniga bir qator xususiyatlarga ega bo'lgan raqamli iqtisodiyot shakllanib kelmoqda. Ushbu holatlarni quyidagi yo'nalishlarda anglash mumkin:

Birinchidan, raqamli iqtisodiyotning o'ziga xos jihatlaridan biri, tugamaydigan asosiy resurslardan biri bo'lgan axborotga aylanadi.

Ikkinchidan, internetda savdo maydonlari chegara va cheklovlarga ega bo'lmasdan qoladi. Xohlagan mamlakatingizdan xohlagan axborotni olish imkoniyati mavjud bo'ladi.

Uchinchidan, kompaniya va korxonalarning o'lchami uning raqobatbardoshligiga ta'sir etmaydi. Bu yerda raqamli texnologiyalarni boshqaradigan kadrlar (inson resurslari)ning malakasi muhim rol o'ynaydi.

To‘rtinchidan, bitta jismoniy kuchga ega bo‘lgan inson resursning o‘zi turli xizmatlar taqdim etish uchun cheksiz imkoniyatga ega bo‘lganligi uchun xohlagan axborotlardan foydalanilishi mumkin.

Beshinchidan, ishning va operatsion faoliyat ko‘lami ushbu holatda faqat internetning quvvati bilan belgilanadi. Qayerda bo‘lmasin internetga ulanish imkoniyati bo‘lsa, o‘sha joyda barcha ishlarni amalga oshirish mumkin bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, hayotimizga innovatsion raqamli iqtisodiyotning kirib kelishi dunyo mamlakatlarining boyliklari nafaqat moddiy va moliyaviy resurslardan, balki asosiy qismi inson resurslari bilan yaratiladigan axborot resurslari bo‘lib qolmoqda. Bu boylikning chegarasi yo‘q. Shu tufayli endigi davlatlarni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlardan biri ta’limga asosiy e’tiborni qaratib, raqamli iqtisodiyotni yuritadigan kadrlarni (inson resurslarini) tayyorlashga ham alohida e’tiborni qaratishni taqozo qiladi.

11.5. MBTda raqamli iqtisodiyotning qo‘llanilishi mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining muhim omili

Jamiyatning kelajagi raqamli iqtisodiyot orqali amalga oshiriladi va boshqariladi. Chunki ishlab chiqarish asta-sekinlik bilan odamlarning ishtirokisiz robotlar yordamida amalga oshirilmoqda. Savdo-sotiq ham elektron savdoning joriy qilinishi oqibatida valyutasiz va bevosita odamlarning oldi-sotdi savdosisiz amalga oshirilmoqda. Bu esa, hisob-kitoblarni amalga oshirishda ham odamlarning ishtirokini keskin kamaytirmoqda. Korxonalar odamsiz korxonalarga (bunday korxonalar Yaponiyada o‘tgan asrning 80-yillarida paydo bo‘lgan edi) aylanib bormoqda. Shunday qilib, raqamli iqtisodiyot odamlar hayotiga har kuni asta-sekinlik bilan kirib kelmoqda.

Raqamli iqtisodiyot davlatlarning o‘nglanishiga, iqtisodiyotning yuksalishiga, odamlarning o‘zgarishiga ham katta ta’sir qiladi. Ushbu jarayonni kuzatuvchisi emas, bevosita ishtirokchisi bo‘lgan odamlargina zamon bilan hamnafas bo‘lib boradi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida ishlab chiqarish odamlar ishtirokisiz robotlar yordamida amalga oshiriladigan bo‘lsa, boshqa

sohalar ham shu holicha turmaydi. Xizmat koʻrsatishda ham odamlar faqat uni boshqarishda: ishga tushirishda va toʻxtatishda ishtirok etadi. Agar bajariladigan vazifaning vaqti aniq boʻlsa, shu dastur boʻyicha ishlatilsa, vaqt tugagandan keyin oʻzi toʻxtaydi. Demak, bu sohada ham odamning ishtiroki kamayish tendensiyasiga ega boʻlib bormoqda.

Oldi-sotdi jarayonida ham odamlarning ishtiroki kamayish tendensiyasiga ega. Elektron savdo, onlayn tizimida buyurtma berish va unga asosan tovarni aytgan joyga etkazish, pulini onlayn tizimida oʻtkazish kabi holatlar ham hayotimizga kirib kelmoqda. Darvoqe, bunday amaliyot bir qancha rivojlangan mamlakatlarda boshlanib, ma'lum tajribalar toʻplangan. Masalan, Yaponiya, Koreya, Singapur kabi mamlakatlarda aksariyat hollarda savdo-sotiq onlayn tizimida amalga oshirilmoqda. Bunday sharoitda aholi asta-sekinlik bilan kibrjismoniy tizimga aylanib boradi.

Hozirgi kunda mamlakatimzda raqamli iqtisodiyot shakllanmoqda. Shu tufayli "Raqamli insonlar" ham shakllanib bormoqda. Ammo bir vaqtning oʻzida bizda dehqon va chorvadorlar, intellektual salohiyatga ega boʻlgan aholi qatlami va ishchilar, innovatorlar ham faoliyat koʻrsatmoqda. Ilgʻor raqamli iqtisodiyotni shakllantirish uchun "Raqamli insonlar" ham koʻpayib borishlari lozim. Ushbu jarayon takomillashib borishi bilan iqtisodiyotning tarkibida raqamli iqtisodiyotning hissasi oshib boradi.

Raqamli iqtisodiyot boshqa iqtisodiyotlarga nisbatan bir qancha oʻziga xos xususiyatlarga ega. **Raqamli iqtisodiyotning oʻziga xos xususiyatlaridan biri, unda odamlar moddiy ne'matlarni ishlab chiqarishdan koʻra iste'mol qilishda koʻproq ishtirok etadi.**

Koʻrinib turibdiki, raqamli iqtisodiyot ishlab chiqarishdan iste'molgacha jarayonni oʻzida qamrab olgan. Bunda ishlab chiqarilgan moddiy ne'matlarni iste'molchilarga etkazish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayon asosan savdo orqali amalga oshiriladi. Raqamli iqtisodiyot aynan savdo xizmatlarining takomillashuvida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Juda koʻp mamlakatlarda ichki savdo asosan onlayn tizimi orqali elektron savdoni qoʻllagan holda amalga oshirilmoqda. Buning juda

ko‘p elementlari mamlakatimizda ham qo‘llanilmoqda. Ammo bugungi kunda raqamli savdo xalqaro savdoda ham qo‘llanilishi boshlandi. Hozirgi kunda internet tarmog‘ining rivojlanishi shu darajaga borib etdiki, xohlagan narsangizni dunyoning xohlagan davlatidan buyurtma asosida xarid qilish imkoniyati yaratilmoqda. Bunda internet reklamaning rolini alohida qayd etish lozim. Internetdan axtargan narsangizni topish mumkinligiga shubha qolmadi. Ammo hozirgi kunda shunday texnologiyalar ham chiqdiki, ular internetni ochishingiz bilan ko‘rina boshlaydi. “Yangi tovar” e’tibor qiling, degan chaqariq bilan har qanday kishini jalb qiladi. Shu tufayli bugungi ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar ham xalqaro standartlarga javob beradigan va xorijiy iste’molchilar talabiga mos holda ishlab chiqarilishini taqozo qilmoqda. Agar bunga erishilsa, biz ham shu joydan turib tovar va mahsulotlarimizni dunyoning turli mamlakatlariga eksport qilish va mos ravishda xarij qilish imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

Raqamli iqtisodiyot odamning ishtirokini kamaytirish evaziga xarajatlarning ham kamayishiga va mos ravishda, mehnat unumdorligi va samaradorligining oshirilishiga ham olib keladi. Biroq, odamlarning kamayishi, kamgina malakali kishilarning faoliyat ko‘rsatishiga to‘g‘ri keladi. Demak, bunday yuqori talabga javob beradigan kadrlarni ham tayyorlashni taqozo qiladi. Bu esa, o‘z navbatida ta’lim tizimida ham tub o‘zgarishlarni talab qiladi.

Raqamli iqtisodiyotni joriy qilishdan yangi muammolar paydo bo‘ladi. Shu sohada band bo‘lgan mehnatga qobiliyatli boshqa kishilar ishlab chiqarishga ishtirok etmasa, robotlashmagan ishlab chiqarish texnologiyalari amal qilayotgan bo‘lsa, ular nima ish bilan shug‘ullanadi? Bu albatta iqtisodiyotda ancha murakkabliklarni yuzaga keltiradi. Shu tufayli raqamli iqtisodiyot sharoitida ushbu masalaga alohida ahamiyat berish lozim bo‘ladi. Chunki dunyo miqyosida amalga oshiriladigan savdo jarayonlari shafqatsiz raqobatga duchor bo‘lishi tayin. Bu esa, korxona va kompaniyalarning raqobatbardoshligini ham ta’minlashni taqozo qiladi.

Ushbu holat korxona va kompaniyalarning ishlab chiqarish jarayonini shunchaki amalga oshirish emas, balki, **xalqaro**

buyurtmalar asosida faoliyat olib borishga o‘tishni taqozo qiladi. Bunday tartib korxona va kompaniyalarning faoliyatida raqobatda sinish riskini kamaytirishga olib keladi. Bu esa, o‘z navbatida internet savdoni yaxshi yo‘lga qo‘yishni taqozo qiladi. Bunday sharoitda kadrlardan universal (har tomonlama) bilimni talab qiladi. Bular savdo sirlarini bilishi, axborot texnologiyalardan samarali foydalanish yo‘llarini izchil o‘rgangan bo‘lishi, xorijiy tillarni bilishi va nihoyat raqamli iqtisodiyotning barcha talablariga javob bera oladigan bo‘lishi lozim. Ushbu talablarga javob bergan kishilar “Raqamli insonlar” toifasiga mos bo‘ladi.

Ammo raqamli iqtisodiyot turli xavf-xatarlardan ham xoli emas. Chunki, moddiy ne’mtlarni ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishning robotlashtirilishi, juda ko‘p aholining ishsiz qolishligiga olib keladi. Ushbu holat bizning mamlakatimiz uchun ham muhim ahamiyatga ega. Chunki hozirgi paytda moddiy ne’matlarni ishlab chiqarish asosan insonlar ishtirokida amalga oshirilmoqda. Raqamli iqtisodiyotga o‘tish bilan ushbu jarayon robotlashgani sari odamlarning ishsizligi ham oshib boradi. Ushbu holat biznes uchun qulay, ammo aholi uchun turli murakkabliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Zero yangidan yaratiladigan ish o‘rinlari raqamli iqtisodiyotga mos bo‘lsa, unga loyiq kadr bo‘lmasligi mumkin. Oddiy ishlab chiqarish bo‘ladigan bo‘lsa, dunyo mamlakatlaridan orqada qolib ketishimiz ham tayin.O‘tgan asrning oxirlarida moddiy ne’matlarni ishlab chiqarish robotlashgandan so‘ng ko‘pgina rivojlangan mamlakatlar aholisi xizmat bilan shug‘ullanadigan bo‘ldi. Shu tufayli mehnatga qobiliyatli aholining 70-75 foizi xizmat ko‘rsatish sohasida band bo‘lmoqda. Ammo raqamli iqtisodiyot shu mamlakatlarda ham xizmat ko‘rsatish sohasiga, ayniqsa, savdo, transport, bank, aloqa kabilarga ham o‘tib bormoqda. Endi bular qanday yo‘l tutishi kerak? Bizda oldin moddiy ishlab chiqarish, so‘ngra xizmat ko‘rsatish sohasi robotlashtirilishi kerak edi. Ammo hozirgi kunda raqamli iqtisodiyotga ishlb chiqarish bilan birga xizmat ko‘rsatish ham paralel ravishda o‘tib bormoqda.

Oldin bir shaharda yoki qo‘shni turib, bir-biriga tashrif buyurish orqali muloqot qiladigan bo‘lsa, bugungi kunga kelib yer sharining har

qanday nuqtasidan turib istagan kishingiz bilan istagan vaqtingizda, istagan masofada turib muloqot qilishingiz mumkin. Bunda qo‘l telefoningiz bo‘lib, raqamlar aniq bo‘lsa yetarli. Hozirgi kunda dunyodagi 7,5 mlrd. aholi bir-biri bilan muloqot qilish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Bugungi kunda raqamli iqtisodiyotning asosiy daromad oladigan yo‘nalishlari quyidagilardan iborat bo‘lmoqda:

- turg‘un telefon xizmatidan olinadigan daromadlar;
- mobil telefon xizmatidan olinadigan daromadlar;
- SMSlardan olinadigan daromadlar;
- internet xizmatlaridan foydalanishdan olinadigan daromadlar;
- telegram orqali axborotlarni uzatishdan olinadigan daromadlar;
- elektron savdodan olinadigan daromadlar;
- avtomat tarzda pul o‘tkazmalaridan olinadigan daromadlar;
- avtomatik tarzda bank xizmatlarini ko‘rsatishdan olinadigan daromadlar;
- boshqa raqamli xizmatlardan olinadigan daromadlar.

Hozirgi kunda iqtisodiyot tarkibida ushbu daromadlar miqdori va ulushi keskin oshib bormoqda. Xullas, kelajakda insonlar hayotida, jamiyat taraqqiyotida, iqtisodiyotning rivojlanishida raqamlarning ishtiroki hozirgi holatga nisbatan keskin oshib boradi. Bunda insonlar ham o‘zgarib, takomillashib borish tendensiyasiga ega bo‘ladi. Ilg‘or texnologiyalarni o‘zlari yaratadi va o‘zlari ham shunga moslashib borishga majbur bo‘ladi. Oqibatda odamlarning ham mazmuni o‘zgaradi. Agar insoniyat taraqqiyotiga nazar solsak, quyidagi o‘zgarishlarni boshidan kechirganligini va bugungi kunga kelib nimalar bo‘layotganligini ko‘rishimiz mumkin (11.2-jadval).

11.2-jadval

Iqtisodiy taraqqiyot mazmunining o‘zgarishiga mos holda odamlarning ham o‘zgarib borish tendensiyasi

Iqtisodiyotning turlari		Odamning o‘zgarishi
Natural iqtisodiyot		Odamlar oddiy iste’mol qiluvchi-lardan iborat bo‘ladi

Agrar iqtisodiyot		Odamlar dehqon va chorvadorlardan iborat bo‘ladi
Industrial iqtisodiyot		Odamlar intellektual salohiyatli kishilar, muhandislar va ishchilardan iborat bo‘ladi
Innovatsion iqtisodiyot		Odamlar asosan innovatordan iborat bo‘ladi
Raqamli iqtisodiyot		Raqamli inson shakllanadi

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, iqtisodiyotning o‘zgarishi bevosita odamlarning bilim darajasiga bog‘liq. Bilimi oshib borgan sari iqtisodiy jarayonlarni takomillashtirib boradi. Bu esa, mos ravishda odamlarning o‘zlarini ham takomillashishga majbur qiladi. Iqtsodiyotdagi texnologik o‘zgarishlarga olib keladigan kishilar butun aholining bir ozgina qismini tashkil qiladi. Ammo iqtisodiyot o‘zgarganidan so‘ng butun ammoning o‘zgarishiga olib keladi. Kim zamon bilan hamnafas bo‘lsa, shunga mos takomillashib borishi lozim. Bu esa, bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan kunlarda har bir insondan mukammal bilimga ega bo‘lishni talab qiladi. Hozirgi kunda orqada qolib ketmaslik uchun odamlar muttasil izlanishlari, bilim va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirib, tajribalarni orttirib, bilimini ham o‘zining dunyoqarashlarini ham takomillashtirib borishlari lozim bo‘ladi.

Raqamli iqtisodiyot iqtisodiyotda, ayniqsa ishlab chiqarishda odamlar ishtirokini keskin kamaytiradi. Bu esa, o‘z navbatida ishsizlik muammosini keltirib chiqaradi. Ishsizlikni hal qilish masalasi dunyo miqyosida katta global muammoga aylanib bormoqda.

O‘zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi, iqtisod fanlari doktori. Qalandar ABDURAHMONOV “Raqamli iqtisodiyot: Janubiy Koreya tajribasi va undan Uzbekistonda foydalanish istiqbollari” mavzusida katta maqolasi[109] e’lon qilindi. Mazkur maqolada “Mamlakatimizda davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tish

[109]Қалаидар АБДУРАҲМОНОВ “Рақамли иқтисодиёт: Жаиубий Корея тажрибаси ва уидаи Ўзбекистоида фойдалаииш истиқболлари” мавзусида катта мақоласи[109] эълон қилииди. 30.04.2018 | Номер: №4 (124)-2018.

belgilab olindi. Innovatsion g‘oyalar, yuqori texnologiyalarni ishlab chiqarishga, jamiyat hayotiga izchil tatbiq etish zamonaviy bilim va mukammal malakaga ega mutaxassislar tayyorlash uchun milliy ta’lim tizimida ham keng ko‘lamli va chuqur islohotlarni amalga oshirish talab etiladi”[110], deyilgan. Bu haqiqat. Chunki fan va texnologiyani rivojlantirish uchun chuqur bilimga ega bo‘lgan, salohiyatli mutaxassislar kerak. Bular esa faqat ta’lim jarayonida tayyorlanadi. Shu tufayli bugungi kunda ta’limga juda katta e’tibor qaratilmoqda. Ta’lim tizimiga, ilm-fanga e’tibor kuchaytirilib, bular bo‘yicha tubdan takomillashtirish borasida tegishli Davlat dasturlari ham qabul qilinmoqda. Bular jumlasiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21 sentyabrda e’lon qilingan “2019 – 2021-YILlarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-son Farmonini kiritish mumkin.

Mazkur farmon bilan yirik uchta hujjat qabul qilindi. Birinchisi, “2019-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasi”, Ikkinchidan, “2019-2021-yillarda O‘zbekiston Respubli-kasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” va uchinchidan, “O‘zbekiston Respublikasini 2030-yilgacha innovatsion rivojlantirishning maqsadli ko‘rsatkichlari” belgilab berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ta’kidlaganidek, “...O‘zbekistonni texnologik rivojlantirish va ichki bozorni modernizatsiya qilish bo‘yicha kuchli milliy g‘oya, milliy dastur kerak. Ushbu dastur O‘zbekistonni jahondagi taraqqiy topgan mamlakatlar qatoriga tezroq olib chiqishga imkon yaratishi lozim”[111]. Ushbu yo‘nalishning ham aniq strategiyasi ishlab chiqildi va davlat dasturi darajasida tasdiqlandi. Mamlakatimiz Prezidenti tamonidan “O‘zbekiston Respublikasini 2030-yilgacha innovatsion rivojlantirishning maqsadli ko‘rsatkichlari” ishlab chiqildi va amaliyotga bosqichma-bosqich joriy qilinmoqda.

---

[110] Ўша жойда.

[111] Ўша мақолада келтирилган. 30.04.2018 | Номер: №4 (124)-2018.

O‘zini-o‘zi nazorat qilish va takrorlash uchun savollar:

1. Raqamli iqtisodiyotning ta’rifi.
2. Raqamli iqtisodiyot va uning elementlari.
3. Raqamli iqtisodiyotning huquqiy jihatlari.
4. Raqamli iqtisodiyot sharoitida axborotlar to‘ri (blokchayn)ning o‘rni.
5. Boshqaruv qarorlarini qabul qilishda raqamli iqtisodiyotning avzallilklari.
6. Mehnat bozori transformatsiyasining raqamli iqtisodiyotga mos holda rivojlantirish.
7. Raqamli savodxonlikni oshirish tadbirlari.
8. Raqamli transformatsiyaning mehnat bozoriga ta’siri.
9. Raqamli iqtisodiyotning MBTda foydalanishidan maqsadi.
10. MBTda raqamli iqtisodiyotga o‘tishning obyektiv zarurligi.
11. Raqamli iqtisodiyotning mohiyati va uni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari.
12. Raqamli iqtisodiyotning ijobiy va salbiy tomonlari va uning MBTga ta’siri.
13. MBTda raqamli iqtisodiyotning qo‘llanilishi mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining muhim omili.

XII BOB. MEHNAT BOZORI TRANSFORMATSIYASIDA ZAMONAVIY TALABLAR VA KELIB CHIQADIGAN YONDOSHUVLAR.

12.1. Mehnat bozori transformatsiyasida raqamli iqtisodiyot afzalliklarining namoyon bo‘lishi.

12.2. Mehnat bozori transformatsiyasining raqamli iqtisodiyotga mos holda rivojlanishi.

12.3. MBTda raqamli iqtisodiyotdan foydalanish orqali yashirin iqtisodiyotning oldini olish imkoniyatlari.

12.1. Mehnat bozori transformatsiyasining raqamli iqtisodiyot afzalliklarining namoyon bo‘lishi

Raqamli iqtisodiyot tushunchasi mamlakatimizga XXI-asrning boshlarida, aniqrog‘i 2018-yillardan boshlab kirib keldi. Bu iqtisodiyot qanaqa iqtisodiyot degan savol hammada paydo bo‘ldi. Bu iqtisodiyotda nima ishlab chiqariladi, mahsulotining rangi qanday va h.k. savollar oddiy odamlar davrasida ham muhokamaga sabab bo‘ldi va hamon davom etmoqda. Oddiy qilib aytganda, raqamli iqtisodiyot jamiyatda sodir bo‘ladigan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy va madaniy aloqalarni (jarayonlarni) raqamli texnologiyalarni qo‘llash asosida masofadan turib amalga oshirishdan iboratdir. Shu tufayli buni odamlar o‘rtasida “internet iqtisodiyoti”, “innovatsion iqtisodiyot”, “yangi iqtisodiyot”, “veb-iqtisodiyot” kabi atamalar bilan ham atamoqdalar.

Bundan ko‘rinib turibdiki, biz raqamli iqtisodiyot elementlaridan ancha vaqtdan buyon foydalanib kelmoqdamiz. Masalan, qishloqda to‘y qilsa, oldinlari maxsus aytuvchi (xabarchi) tayinlanar edi. U birorta ulovga minib ko‘chama-ko‘cha yoki qishloqma-qishloq yurib, aytilishi kerak bo‘lgan odamlar bilan bevosita uchrashib aytib chiqar edi. Keyinchalik taklifnoma qilib, bir kishidan shu mahallaga yoki qishloqqa etkazadigan va kimdir egalariga tarqatadigan bo‘ldi. Bu bilan xabar qilish jarayoni ancha engillashdi. Ushbu jarayon asta-sekinlik bilan telefonga almashdi. Telefon orqali og‘zaki xabar qilinadi xolos.

Ammo axborotlar ko‘payib, xotirada saqlanishi shubhali bo‘lib qolgan hozirgi paytda telegram orqali aniq vaqtini, manzilini, kimni, kimnikiga aytilishini xabarini bermoqda. Mana shu jarayondan ko‘rinib turibdiki, oddiy xabar berish tabiiy holatdan raqamli holatga aylanib qoldi.

Yuqoridagi ikkita holatda ham bitta vazifa (ish) bajarilgan. Ammo ikkalasining farqi nimalardan iboratligini tushuntirib o‘tirishga izohning hojati bo‘lmasa kerak. Bu yerda faqat bitta **xabar** masalaning o‘zagini tashkil qiladi. Bu birorta yuk emas, boshqa predmet ham emas. Uning vazni ham ko‘rinishi ham yo‘q. Oddiy xabar. Lekin shuni etkazish oldingi bilan hozirgi vaziyatni bir solishtirib ko‘rilganda, qanchalik farq borligini tasavvur qilish qiyin emas. Bu oddiy misoldan ham ko‘rinib turibdiki, raqamli iqtisodiyotda birorta narsa yaratilmas ekan, ammo hayotda muhim bo‘lgan ish bajarilar ekan. Bugungi kunda shu jarayonga mos kadrlar bo‘lishi lozim.

Endi raqamli iqtisodiyotning **tovarlar bilan bog‘liqligiga** e’tiborni qaratamiz. Masalan, tovarni xarid qilish masalasini olaylik. Sizga xaridor sifatida birorta buyum xarid qilmoqchisiz. Uni do‘konga (bozorga, super marketlarga) borib bevosita tanlab, savdolashib, pulini naqd berib sotib olasiz. So‘ngra bozordan ushbu tovarni uyga o‘zingiz olib kelasiz. Tasavvur qiling, qancha vaqtingiz ketadi. Bunda ham e’tibor qilgan bo‘lsangiz hech narsa yaratilmaydi. Faqat savdo xizmatini ko‘rsatilishi natijasida ishlab chiqarilgan tovarga egalik qilish huquqi o‘zgaradi. Bu mazmun-mohiyati jihatidan hozirgi amaldagi an’anaviy iqtisodiyot.

Ammo hozir hayotimizga elektron tijorat degan tushuncha kirib keldi. Buni telegramdagi biron savdo boti orqali o‘ziga ma’qul tovarni tanlab, sotuvchiga (tovar egasiga) buyurtma beriladi. Ushbu tovarning narxini elektron to‘lov tizimi orqali uyda turib, telegramdagi “Payme” orqali to‘lab berasiz. Ular o‘zlari siz bergan buyurtmangizga mos tovarni uyingizga o‘zlari etkazib beradi. Ushbu tovarni etkazib berish xizmati orqali sizdan xizmat haqi o‘ndiriladi, xolos. Bu xizmat haqi, sizning vaqtingiz, kuchingiz, asabingizning yo‘qotilganligi oldida arzimagan qiymatga ega. Bu aynan raqamli iqtisodiyotning namoyon bo‘lishidir.

Ko‘rinib turibdiki, bu yerda ham hech qanday tovar ishlab chiqarilmaydi, faqat moddiy ne’matning egasi va joyi o‘zgaradi. Agar shu nuqtai nazardan qaralsa ikki holatda ham bitta jarayon sodir bo‘ldi. Biroq, an’anaviy iqtisodiyotga nisbatan raqamli iqtisodiyotning farqi insonlarga qanchalik darajada qulaylik yaratganligiga guvoh bo‘lish mumkin. Bu holat insonlarning vaqtini tejash, shu vaqtni o‘zining intellektual salohiyatining oshishiga sarflash imkoniyatini yaratadi. Shu tariqa jamiyatning intellektual salohiyati oshib boradi. Faqat bitta narsani inobatga olish lozimki, shu raqamli iqtisodiyot natijasida tejalgan vaqt va energiyani besamar sarflamasdan, maqsadga muvofiq sarflashga o‘rganishimiz, vaqtni qadrlashni bilishimiz lozim.

Yuqoridagi misollardan ko‘rinib turibdiki, raqamli iqtisodiyotning imkoniyatlaridan oldin ham o‘zimiz sezmagan holda foydalanayotgan ekanmiz. Ammo uning nechog‘liq qulayligiga unchalik ahamiyat bermaganmiz. Biroq, o‘tgan pandemiya sharoitida ushbu tadbirlarning, aniqrog‘i raqamli iqtisodiyotning nechog‘liq samarali ekanligiga guvoh bo‘ldik. Hatto oziq-ovqat mahsulotlarini ham elektron axborot texnologiyalardan foydalangan holda buyurtma asosida olib keladigan ko‘nikmani hasil qildik.

Raqamli iqtisodiyotning **huquqiy** jihatiga e’tiborni qaratamiz. Oldinlari ishlagan tashkilotimizda bir so‘m oladigan bo‘lsak ham imzo chekib olar edik. Endilikda oyliklarimiz plastik kartalarga tushadi. Biror joygi imzo chekish talab qilinmaydi. Ushbu kartalardan elektron to‘lov orqali turli joylarga, tashkilotlarga, xususan, kommunal xizmatlar, telefon, internet va boshqa mahsulot hamda xizmatlar uchun pul o‘tkazamiz. Hozirgi paytda elektron tarzda soliq deklaratsiyasi topshiramiz, kartadan kartaga pul uzatamiz, ammo birortasiga borib imzo chekish degan harakat amalga oshirilmaydi. Bu ham qanchalik qulayligini tasavvur qilish qiyin emas. Kassalar oldidagi navbat kutishlar, borish-kelishga ketgan vaqtlar hamma-hammasi tejaldi. Bu yerda imzosiz qonun tan oladigan darajada axborotlar saqlanib turibdi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, raqamli iqtisodiyotga ta’rif berish mumkin, deb o‘ylaymiz. Biz ushbu tushunchaga quyidagicha ta’rifni shakllantirdik. **Raqamli iqtisodiyot deganda, jamiyatda sodir**

bo‘ladigan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy va madaniy aloqalarni (jarayonlarni) ilg‘or texnologiyalar, platformalar va biznes modellarini kundalik hayotga joriy etish orqali turli raqamli axborot texnologiyalarni qo‘llash asosida masofadan turib amalga oshirishga qaratilgan xizmatlar majmui tushuniladi.

Ko‘rinib turibdiki, raqamli iqtisodiyotning asosini axborotlar tashkil qilar ekan. Ammo axborotlar oldin ham bor ediku, nima uchun oldin uni an’anaviy iqtisodiyot, endi raqamli iqtisodiyot, deb atamoqdamiz degan savollar ham tug‘ilib qolishi tabiiy. Bunga izoh berish uchun aynan shu axborotlarga oldin va hozir qanday yondoshuvlar va ular qanday vositalar bilan harakatlanganligi e’tiborni qaratsak masalaga oydinlik kiritiladi, deb o‘ylaymiz. Raqamli iqtisodiyot sharoitida axborotlar va u bilan bog‘liq harakatlarning xususiyatlari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, oldin axborotlar asosan qo‘lda an’anaviy tarzda shakllantirilgan va shu tarzda almashilgan, zarur holda qog‘ozda saqlanilgan. Endi esa, yuqori darajada avtomatlashtirilgan holda shakllantirilmoqda va uzatilmoqda.

Ikkinchidan, oldin oddiy an’anaviy qo‘lda shakllantirgan hujjatlar aylangan bo‘lsa, endilikda elektron hujjat almashilmoqda. Bu hujjatning shakllanishida inson ishtiroki juda kam. Kompyuter texnologiyalari tegishli dasturlar asosida axborotlarni o‘zlari shakllantiradi va zarur joyga zarur vaqtda etkazib beradi.

Uchinchidan, oldin buxgalteriya hisobi va hisobotlar ham an’anaviy tarzda qo‘lda yuritilar edi. Endilikda bular ham yuqori texnologik jarayonga asoslangan axborot texnologiyalari yordamida shakllantirilmoqda.

To‘rtinchidan, oldin ma’lumotlarni to‘plash uchun o‘nlab papkalar qilinar va ular yillab saqlanar edi. Endilikda ma’lumotlarning elektron bazalari shakllantirildi. Ushbu axborotlar bazasidagi barcha ma’lumotlar qonuniy maqomga ega. Shu tufayli korxona faoliyatini nazorat qilish ham masofadan kameral tekshiruv asosida amalga oshirilmoqda.

Beshinchidan, korxonalarni, korxonalarda xodimlarni boshqarish ham elektron axborotlarga tayanilmoqda va tegishli topshirishlar ham elektron tarzda amalga oshirilmoqda. Oldin viloyatda birorta majlis bo‘ladigan bo‘lsa, hammani turli tumanlardan chaqirib kelib, viloyat markazida o‘tkazilar edi. Endilikda hamma tuman rahbarlari va mutasaddi xodimlar o‘zlarining tumanlarida turib tegishli topshiriqlarni masofadan tashkil qilingan majlislar orqali olmoqdalar.

Oltinchidan, raqamli iqtisodiyot sharoitida axborotlar to‘ri (blokchayn) tashkil qilinganligi tufayli har qanday qonunbuzarliklarning, korrupsiya va qufyona iqtisodiyotning ham oldi olindi. Endi sodir bo‘lgan narsani axborot bazasiga kiritsangiz u bir vaqtning o‘zida bir qancha joyda o‘zi aksini topadi. Bu axborot ijrochining qo‘lida ham, nazoratchining qo‘lida ham va boshqa manfaatdor shaxslarning qo‘lida ham bo‘lganligi tufayli uni o‘zgartirishning imkoniyati qat’iy cheklanadi. Bu ham raqamli iqtisodiyotning afzalliklaridan biridir.

Yettinchidan, tovarlar ishlab chiqarish, sotish, turli xizmatlar ko‘rsatish haqidagi ma’lumotlarning natijasini oylik yoki choraklik hisobot tuzilgandan keyin ma’lum bo‘lar edi. Endi esa, yuqoridagi jarayonlar haqida har kuni tegishli ma’lumotlarni olib borish mumkin. Bu ham tezkor boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun asos bo‘ladi.

Sakkizinchidan, raqamli iqtisodiyot sharoitida dunyoda sodir bo‘layotgan xabarlarni, mavjud tovarlar va xizmatlarning mavjudligi va qaysilariga ehtiyojning borligidan ham tezkor tarzda xabardor bo‘lish imkoniyatini yaratadi. Bu esa, o‘z navbatida jahon bozoriga chiqish uchun tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

To‘qqizinchidan, tovarlar, ishlar va xizmatlar pirovardida iste’molchilar uchun ishlab chiqariladi, bajariladi va ko‘rsatiladi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida bularning shaffofligi va tez etib borishi iste’molchilar fikrini ham tez ilg‘ab olish imkoniyatini beradi va shular asosida tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish hajmi va sifatini o‘nglash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

O‘ninchidan, barcha axborotlar ommalashib bormoqda. Oldinlari poytaxtda bo‘lgan majlisga viloyatdan chaqirilgan sanoqli kishilargina ishtirok etib, ular kelganidan keyin ham chegaralangan mutaxassislar bilan muhokam qilib, ijrosini ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilar edi. Endilikda poytaxtda o‘tkazilgan barcha majlislar masofadan barcha mutasaddilar ishtirokida amalga oshirilmoqda.

O‘n birinchidan, ilmiy konferensiyalar, dissertatsiya himoyalari, turli ilmiy-amaliy seminarlar ham bevosita ilmiy xodimlar ishtirokida amalga oshirilar edi. Endilikda bular ham masofadan turib amalga oshirilmoqda. Bu ham bir qancha qulayliklarga ega bo‘lmoqda. Olimlarning vaqti, yo‘lga ketadigan xarajatlari, asabi kabilar tejalib, bemalol ijod qilish imkoniyati kengaymoqda.

Xulosa qilib aytganda, mehnat bozori transformatsiyasining raqamli iqtisodiyot sharoitidaga afzalliklari juda katta. Endilikda bu afzallik-larning namoyon bo‘laishi har tomonlama samaradorlikni ta’minlaydi.

12.2. Mehnat bozori transformatsiyasining raqamli iqtisodiyotga mos holda rivojlanishi.

Mehnat bozori transformatsiyasining raqamli iqtisodiyotga mos holda rivojlantirish uchun birinchi galda aholi o‘rtasida, ayniqsa faoliyat ko‘rsatayotgan xodimlar o‘rtasida r**aqamli savodxonlikni oshirish o‘ta zarur tadbirlardan biridir.** Aholining raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarini oshirish uchun maxsus o‘quv kurslari va dasturlari tashkil etilmoqda. Buni har bir hudud ehtiyojidan kelib chiqqan holda tashkillashtirish bugungi kun talabi bo‘lib hisoblanadi.

Hozirgi sharoitda raqamli savodxonlikni oshirish dolzarb masala bo‘lib, aholining raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan turli tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Xususan, maxsus o‘quv kurslari va dasturlari tashkil etilib, ular orqali fuqarolarga internetdan xavfsiz foydalanish, elektron hukumat xizmatlaridan foydalanish, raqamli kontent yaratish va boshqa ko‘nikmalar ham o‘rgatilmoqda.

Misol tariqasida O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tomonidan “Raqamli texnologiyalar o‘quv markazi” loyihasi amalga oshirilayotganligini keltirish mumkin[112]. Bu loyiha doirasida mehnat bozori talabidan kelib chiqib, turli yoshdagi fuqarolar uchun kompyuter savodxonligi, dasturlash asoslari, veb-dizayn, raqamli marketing kabi raqamlashtirish bilan bog‘liq yo‘nalishlarda o‘quv kurslari tashkil etilmoqda.

Bundan tashqari, Xalq ta’limi vazirligi tomonidan maktablarda o‘quvchilarning raqamli savodxonligini oshirishga qaratilgan “Bir million dasturchi” loyihasi amalga oshirildi va bu davom etmoqda[113]. Bu loyiha doirasida maktab o‘quvchilariga dasturlash asoslari, robototexnika, veb-dizayn kabi yo‘nalishlarda bilimlar berilmoqda. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2023-yilda O‘zbekistonda internet foydalanuvchilari soni 20 milliondan oshdi[114]. Bu ko‘rsatkich O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika Agentligi ma’lumotlari bo‘yicha 2024-yil 1 yanvar holatiga ko‘ra internet tarmog‘iga ulangan abonentlar soni 30,1 milliontani tashkil etgan. Bu o‘tgan yilgi shu davrga nisbatan 12,5 % oshganligini ko‘rsatmoqda[115]. Ko‘rinib turibdiki, mamlakatimiz aholisining raqamli texnologiyalarga bo‘lgan qiziqishi ortib bormoqda. Raqamli savodxonlikni oshirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar natijasida fuqarolarning zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalari yaxshilanib, ularning raqobatbardoshligi oshmoqda.

Mamlakatimizda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va keng qo‘llanilishi mehnat bozorida tub o‘zgarishlarga olib kelmoqda. Bu o‘zgarishlar yangi imkoniyatlar yaratish bilan birga, bir qator muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Pirovardida bir qancha mutaxassislar ish o‘rinlarining qisqarishi ro‘y bermoqda. 4-5 ta kishining ishini bitta kishi bajarmoqda. Ayrim kasblarga butunlay ehtiyoj ham deyarli yo‘qolib ketmoqda. Shu tufayli zamonaviy raqamli

[112] Ахборот технологиялари ва коммуникатsияларини ривожлантириш вазирлиги, 2023
[113] Халқ таълими вазирлиги. (2022). *Бир миллион дастурчи*.
[114] https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/raqamli-iqtisodiyot
[115] https://sputniknews.uz/20240907/ozbekiston-internet-abonentlar-45524808.html

iqtisodiyotga mos kadrlarni tayyorlash bugungi kunda o‘ta dolzarb masalalardan biriga aylandi. Mehnat bozorining raqamli iqtisodiyotga moslashuvi va uning barqaror rivojlanishini ta’minlash uchun bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Ushbu chora-tadbirlar quyidagi jadvalda keltirilgan (12.1-jadval).

12.1-jadval

Mehnat bozoriga transformatsiyasiga raqamli iqtisodiyot bilan bog‘liq o‘zgarishlarning ta’siri

T/r	Raqamlashtirish jarayonlari	Raqamlashtirish jarayonlarida amalga oshiriladigan tadbirlar
1.	Raqamli transformatsiyaning mehnat bozoriga ta’siri	• Yangi kasblarning paydo bo‘lishi va eski kasblarning yo‘qolib borishi • Ish o‘rinlarining moslashuvchanligi oshishi • Malaka talablarining o‘zgarishi
2.	Mehnat bozorining raqamli iqtisodiyotga moslashuvi bo‘yicha chora-tadbirlar	• Raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirish • Mehnat qonunchiligini takomillashtirish • Innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash • Ijtimoiy himoya tizimini modernizatsiya qilish
3.	Mehnat bozoridagi raqamli transformatsiyaning ijtimoiy oqibatlari	• Daromadlar tengsizligining oshishi • Ijtimoiy mobillikning pasayishi • Yangi ijtimoiy guruhlarning paydo bo‘lish
4..	Mehnat bozoridagi raqamli iqtisodiyotning barcha sohalarga ta’siri	•Barcha kasb egalari raqamli iqtisodiyotga oid texnologiyalarni bilishi lozim. •Ishlab chiqaruvchi ham, etkazib beruvchi ham, iste’molchi ham shu raqamli texnologiyalardan foydalaniladi. •Axborotlarning hammasi raqamli texnologiyalarga asoslangan bo‘ladi.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, mehnat bozoriga raqamli transformatsiyaning ta’siri sezilarla darajada bo‘ladi. Chunki, buning bir qismi yangi kasblarning paydo bo‘lishi va eski kasblarning yo‘qolib borishi bilan bog‘liq. Shuningdek, ish o‘rinlarining

moslashuvchanligining oshishi ham ishchi xodimlarning malaka talablari o‘zgarishiga olib keladi. Bularning hammasi, mehnat bozorining raqamli iqtisodiyotga moslashuvi bo‘yicha tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqishni taqozo qiladi. Bunda raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirish, mehnat qonunchiligini takomillashtirish, innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy himoya tizimini modernizatsiya qilish kabi tadbirlarni amalga oshirishga to‘g‘ri keladi.

Mehnat bozoridagi raqamli transformatsiyaning ijtimoiy oqibatlari ham o‘ziga xos. Bunda daromadlar tengsizligining oshishi, ijtimoiy mobillikning pasayishi, yangi ijtimoiy guruhlarning paydo bo‘lishi ham sodir bo‘ladi. Bularning hammasi mehnat bozoriga raqamli platformaning ta’sirini ta’minlaydi. Alohida qayd etish joizki, mehnat bozoridagi raqamli iqtisodiyotning barcha sohalarga ta’sirini ham inobatga olish kerak bo‘ladi. Chunki raqamli iqtisodiyot sharoitida barcha sohalaring o‘zaro munosabatlari va boshqarilishi asosan raqamli iqtisodiyot prinsiplariga asoslangan bo‘ladi.

Hozirgi kunda raqamli platformalar (Glovo, Yandex. Taxi, Upwork kabi) mehnat bozorida o‘ziga xos o‘rin egallab bormoqda. Bugungi kunda ular orqali ko‘plab odamlar ish topib, daromad olish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Muhimi, hozirgi yoshlar va talabalar uchun bunday platformalar qo‘shimcha daromad manbai bo‘lib xizmat qilmoqda. Faqat yoshlarda xohish kuchli bo‘lib, ushbu yo‘nalishda malakali mutaxassis bo‘lish uchun o‘qib, o‘rganishi kerak bo‘ladi.

Masalan, O‘zbekistonda Glovo etkazib berish xizmati orqali kuniga minglab odamlar buyurtmalarni etkazib berish bilan shug‘ullanadi. Bu ularga o‘zlarining bo‘sh vaqtlarini foydali o‘tkazish va qo‘shimcha daromad olish imkonini beradi. Yandex.Taxi esa haydovchilarga o‘z mashinalari orqali yo‘lovchi tashish va bu orqali daromad olish imkoniyatini yaratdi. Bu ayniqsa, ishsizlik darajasi yuqori bo‘lgan hududlarda yashovchi aholi uchun muhim ahamiyatga ega.

Upwork kabi frilans platformalar esa mutaxassislarga dunyoning istalgan nuqtasidan turib onlayn tarzda ishlash va xizmatlarini taklif

etish imkonini beradi. Bu dasturchilar, dizaynerlar, tarjimonlar va boshqa soha vakillari uchun juda qulay.

Biroq, raqamli platformalarning rivojlanishi bilan bog‘liq bir qator muammolar ham mavjud. Xususan, platforma ishchilarining huquqlarini himoya qilish, ularning ijtimoiy himoyasini ta’minlash kabi masalalar dolzarb bo‘lib qolmoqda. Bu borada hukumat va xalqaro tashkilotlar tomonidan tegishli choralar ko‘rilishi lozim[116].

Mehnat bozorida raqamli transformatsiya davrida ishchi kuchining moslashuvchanligi ham muhim ahamiyatga ega. Chunki raqamli iqtisodiyot sharoitida ishchi kuchining moslashuvchanligi dolzarb masalalar sirasiga kiradi. Ishchilar yangi texnologiyalarni o‘zlashtirishga, yangi ko‘nikmalarni egallashga va o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashishga hamisha tayyor bo‘lishlari kerak. Buning uchun uzluksiz ta’lim tizimini rivojlantirish, kasbga yo‘naltirish xizmatlarini takomillashtirish lozim bo‘ladi. Ko‘pgina mutaxassislarning zamon talabidan kelib chiqib, malakasini oshirish ham lozim bo‘ladi. Shu yo‘l bilan eski kasblardan bo‘shashga majbur bo‘lganlar uchun ishsizlikning oldi olinadi.

Bunga misol tariqasida Jahon bankining hisobotida keltirilgan ma’lumotga e’tibori qaratadigan bo‘lsak[117], raqamli texnologiyalarni faol qo‘llaydigan kompaniyalarda mehnat unumdorligi o‘rtacha 15-25 foizga yuqori ekanligi e’tirof etilgan. Bu esa, o‘z navbatida, ishchilarning malakasini oshirish va yangi texnologiyalarga moslashishga bo‘lgan ehtiyojni yanada oshiradi.

Shuningdek, Yevropa Ittifoqining tadqiqoti[118] shuni ko‘rsatdiki, raqamli iqtisodiyot sharoitidagi ko‘nikmalarga ega bo‘lgan ishchilar ishsizlik darajasi past bo‘lgan sohalarda band bo‘lish imkoniyatiga ham ega. Chunki, IT mutaxassislari, dasturchilar, ma’lumotlar tahlilchilari va raqamli marketing mutaxassislariga talab yuqori. Bular turli kasblarda ishlash imkoniyatlariga ham ega bo‘lganligi tufayli qulay kasbni egallagan bo‘ladi.

---

[116] De Stefano, V. (2016). The rise of the “just-in-time workforce”: On-demand work, crowdwork, and labour protection in the “gig-economy”. Conditions of Work and Employment Series No. 71. Geneva: ILO.

[117] World Bank. (2022). *World Development Report 2022: Data for Better Lives*. World Bank.

[118] European Commission. (2021). *Digital Economy and Society Index (DESI) 2021.*

Yuqoridagi misollardan ko‘rinib turibdiki, raqamli iqtisodiyot sharoitida muvaffaqiyat qozonish uchun ishchi kuchi moslashuvchan bo‘lishi kerak. Buning uchun davlat va xususiy sektor hamkorlikda ishchilarning malakasini oshirish va ularni yangi sharoitlarga moslashtirish bo‘yicha uzluksiz choralar ko‘rib borishi lozim.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat bozorida ijtimoiy muloqotning o‘zgarishi ham ro‘y beradi. Raqamli texnologiyalar jamiyatimizning turli jabhalariga va sohalariga kirib bormoqda, jumladan, ijtimoiy muloqot shakllarini ham o‘zgartirmoqda. Virtual jamoalar, onlayn muloqot, ijtimoiy tarmoqlar orqali ishchilar o‘rtasidagi aloqalar yangi shakl va mazmun kasb etmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, mehnat jamoalaridagi munosabatlarga, ish beruvchi va ishlovchilar munosabatlariga, korporativ madaniyatga ta’sir ko‘rsatmoqda.

Jumlalan, ZOOM, Slack, Mikrosoft Teams kabi platformalar orqali masofadan turib ishlaydigan jamoalar soni yildan yilga ortib bormoqda. Bu esa, ishchilarga geografik jihatdan turli joylardan bo‘lishiga qaramasdan, masofadan bo‘lsada birgalikda ishlash imkonini beradi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2020-yilda dunyo bo‘yicha masofadan turib ishlaydiganlar soni 42% ga oshgan[119]. Bugungi kunda “Masofadan turib ishlovchi xodimlarni rasmiylashtirish va ular bilan ishlash tartibi” (NM, 48-49-son 2022-yil 6 dekabr)[120] to‘g‘risidagi nizom tasdiqlangan. Bu esa, mamlakatimizda onlayn muloqotning tobora ommalashib borayotganidan dalolat beradi.

Ijtimoiy tarmoqlar ham ishchilar o‘rtasidagi aloqalarning o‘zgarishiga sabab bo‘lmoqda. LinkedIn, Facebook, Twitter kabi mamlakatlar aro platformalar orqali ishchilar o‘zaro fikr almashishlari, tajriba orttirishlari va yangi imkoniyatlarni kashf etishlari mumkin bo‘lmoqda. Buning uchun ham har bir xodim internetdan foydalanish tartibini chuqur o‘zlashtirgan bo‘lishilgi lozim.

---

[119] Глобал Воркплаце Аналйтисс. (2021). 2021 Ремоте Ворк Статистис. https://globalworkplaceanalytics.com/telecommuting-statistics

[120] https://nrm.uz/contentf?doc=708244_masofadan_turib_ishlovchi_hodimlarni_rasmiylashtirish_va_ular_bilan_ishlash_tartibi _(nm_48-49-son_2022_yil_6_dekabr)&products=12_umnaya_podshivka

Biroq, raqamli texnologiyalar ijtimoiy muloqotda faqat ijobiy ta'sir ko'rsatish bilan cheklanmaydi. Ba'zi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, onlayn muloqotning ko'payishi yolg'izlik hissi, ijtimoiy izolyatsiya va ruhiy salomatlik muammolariga olib kelishi hollari ham mumkin bo'lmoqda[121]. Shu tufayli bu ishga ham butuunlay berilib ketmasligi lozim. Inson har qanday vaziyatda o'zini o'zi nazorat qila oladigan qobiliyatga ega bo'lishligi lozim.

Buning uchun, raqamli texnologiyalardan foydalanishda muvozanatni saqlash muhimdir. Onlayn muloqotni real hayotdagi muloqot bilan uyg'unlashtirish, ijtimoiy tarmoqlardan me'yorida foydalanish va raqamli texnologiyalarning salbiy ta'siridan o'zini himoya qilia oladigan malakaga ham ega bo'lishi lozim.

Mehnat bozori trasfarmatsiyasidagi o'zgarishlar kelajakdagi mehnat bozoriga ham ta'sir qaladi. Kelajakda mehnat bozori yanada raqamlashib borishi natijasida sun'iy intellekt, robototexnika, blokcheyn kabi texnologiyalarning rivojlanishi ham mehnat bozorida yangi imkoniyatlar va muammolarni keltirib chiqaradi. Bu o'zgarishlarga tayyor turish uchun strategik rejalashtirish, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash va sohada ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash zarur[122]. Chunki, kelajakda mehnat bozorida raqamlashuv yanada kuchayadi va bu jarayon o'z-o'zidan yangi imkoniyatlar va muammolarni keltirib chiqaradi. Jahon Iqtisodiy Forumining hisobotiga ko'ra, 2025-yilga kelib 85 million ish o'rni avtomatlashtirish natijasida yo'qolib, 97 million yangi ish o'rni yaratiladi[123]. Ko'rinib turibdiki, mehnat bozorida yangi mutaxassislar ishtirok etishi ko'proq kutilmoqda.

Bundan ko'rinib turibdiki, sun'iy intellekt, robotlar va boshqa texnologiyalar odamlar bajaradigan ayrim ishlarni o'z zimmasiga oladi. Masalan, oddiy va takrorlanuvchi ishlarni bajaradigan ishchi xodimlar o'rnini robotlar egallashi mumkin. Bu esa, ayniqsa, ishlab chiqarish

---

[121] Примаск, Б. А., Шенса, А., Сидани, Ж. Э., Wҳаите, Э. О., Лин, Л. Й., Росен, Д., ... & Миллер, Э. (2017). Сосиал медиа усе анд персеивед сосиал исолатион амонг ёунг адултс ин тҳе УС. Америсан жоурнал оф превентиве медисине, 53(1), 1-8.

[122] Schwab, K. (2016). *The fourth industrial revolution*. Currency.

[123] World Economic Forum. (2020). *The future of jobs report 2020*.

sohasida ishsizlikning oshishiga olib kelishi mumkinligi tabiiy hol bo‘lib qoladi. Boshqa tomondan, raqamlashuv yangi sohalar va kasblarning paydo bo‘lishiga ham turtki beradi. Ma’lumotlarni tahlil qilish, dasturlash, sun’iy intellektni o‘rgatish kabi sohalarda malakali mutaxassislarga talab ortib boradi.

Bu o‘zgarishlarga moslashish uchun esa, yuqorida ta’kidlanganidek, ta’lim tizimini isloh qilish, raqamli savodxonlikni oshirish va aholini yangi kasblarga o‘rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash, ishini yo‘qotganlarni yangi ishga joylashguncha qo‘llab-quvvatlash va ularga yangi kasblarni egallashda yordam berish ham zarur tadbirlardandir.

Endi bevosita O‘zbekistonda mehnat bozorini raqamlashtirish masalasiga e’tiborni qaratadigan bo‘lsak, bu yerda ayrim o‘ziga xos jihatlar ham mavjud. O‘zbekistonda mehnat bozorini raqamlashtirish bo‘yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida aholining raqamli savodxonligini oshirish, raqamli iqtisodiyot uchun kadrlar tayyorlash, elektron mehnat birjasini rivojlantirish kabi bir qancha vazifalar belgilangan. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun davlat, biznes subyektlari va jamiyatning hamkorlikda ishlashi muhim ahamiyatga ega[124]. Bundan ko‘rinib turibdiki, mazkur ishga birorta sohaning befarq bo‘lishga haqi yo‘q.

O‘zbekistonda mehnat bozorini raqamlashtirishga berilayotgan katta e’tibor qaratilayotganligini “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasining qabul qilingaligidan ham ko‘rish mumkin. Bu borada ayrim natijalar ham qo‘lga kiritilmoqda. Masalan, 2023-yil holatiga ko‘ra, elektron mehnat birjasi orqali 500 mingdan ortiq ish o‘rinlari yaratildi va shu yilning o‘zida 1 milliondan ortiq fuqaro ishga joylashdi[125]. Bu raqamlar mamlakatimizda raqamlashtirishning amaliy natijalarini yaqqol ko‘rsatib turganligini idrok qilish uchun yetarlidir.

---

[124] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 5 октябрдаги ПФ-6079-сон Фармони

[125] **Elektron mehnat birjasi orqali yaratilgan ish o'rinlari va ishga joylashgan fuqarolar soni:** Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi. (2024). *Bandlik va mehnat bozori to'g'risida statistik ma'lumotlar*. [Ma'lumotlar to'plami]. Toshkent: Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi.

Bundan tashqari, yurtimizda IT Park kabi tashabbuslar orqali yoshlar o‘rtasida raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirishga ham alohida ahamiyat berilmoqda. 2022-yilda IT Park rezidentlari tomonidan 1 milliard dollardan ortiq eksport tushumlari olingani[126] ham e’tiborga molik. Bu esa raqamli iqtisodiyot uchun malakali kadrlar tayyorlash borasida sezilarli yutuqlarga erishilayotganidan dalolat berib turibdi.

Albatta, hali bu sohada, qilinadigan ishlar ko‘p. Aholining raqamli savodxonligini oshirish, xususan, qishloq joylarda internetga ulanish imkoniyatlarini kengaytirish, raqamli texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha treninglar o‘tkazish kabi masalalar dolzarbligicha qolmoqda. Ammo, boshlangan ishlar va erishilayotgan natijalar O‘zbekiston mehnat bozorini raqamlashtirish yo‘lida to‘g‘ri yo‘nalishda ketayotganidan darak beradi.

12.3. MBTda raqamli iqtisodiyotdan foydalanish orqali yashirin iqtisodiyotning oldini olish imkoniyatlari

Mamlakatimiz Prezidenti davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish, raqamli iqtisodiyotni joriy etish va rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, investitsiya muhitini yaxshilash, shuningdek, 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini, keyinchalik 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyalarini amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3 iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3832-son qarori, 2018-yil 21 noyabrda “Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida raqamli infratuzilmani yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4022-sonli qarori, 2018-yil 13 dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi davlat boshqaruviga raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat hamda axborot tizimlarini joriy etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi.

---

[126] **IT Park rezidentlari tomonidan olingan eksport tushumlari:** IT Park. (2023). *Yillik hisobot*. Toshkent: IT Park.

Bularning hammasi mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni shakllantirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Raqamli iqtisodiyot odatda, raqamli axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda elektron mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqarishga asoslangan va elektron tijorat orqali taqsimlanadigan iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy munosabatlar tizimini takomillashtirib boradi.

Raqamli iqtisodiyotning maqsadi quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- soxtalashtirish mumkin bo‘lmaydigan real iqtisodiyotni shakllantiradi;
- yashirin iqtisodiyotga barham berishga xizmat qiladi;
- mamlakat YaIMni ishlab chiqarishni ko‘paytiradi;
- korrupsiyani keskin kamaytirishga olib keladi;
- adolatli jamiyatni shakllantirish imkoniyati yaratadi;
- aholining intellektual salohiyatini oshiradi;
- mamlakat raqobatbardoshligini mustahkamlashga ham katta omil bo‘ladi.

Shuni alohida qayd etish joizka, raqamli iqtisodiyot ham boshqa unsurlar singari o‘zining ijobiy va salbiy tomonlari bor.

Raqamli iqtisodiyotning ijobiy tomonlari ham anchagina. Bularga quyidagilar kiradi:

- raqamli iqtisodiyot orqali insonning vaqti, mablag‘i va energiyasi tejaladi;

- uyida turib dunyoning istalgan joyidan xohlagan tovarini xarid qilish imkoniyati yaratiladi;

- iqtisodiyot natijalarini soxtalashtirish imkoniyati cheklanadi;

- iqtisodiy munosabatlar bilan bog‘liq keng ildiz otgan korrupsiyaning oldi olinadi;

- bir joyda turib dunyoning istalgan nuqtasidan axborot olish imkoniyati yaratiladi;

- odamlarda qo‘shimcha mablag‘ topish imkoniyati yaratiladi va h.k.

Shu bilan birga **raqamli iqtisodiyotning salbiy tomonlari** ham mavjud. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- millionlab xodimlarning ish joyi qisqaradi;
- mamlakatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, hatto ma'naviy hayotini boshqarishda insonning ishtiroki kamayib boradi;
- inson ishtiroki kamaygan joyda ilmning, ayniqsa tafakkurning o'rni ham kamayib boradi, chunki hamma narsa oldindan dasturlangan holat bo'yicha ishlaydi;
- "iqtisodiyot insonlarga xizmat qilishi kerak" degan oddiy haqiqatdan biroz chetlaniladi, chunki odamlarning o'zlari yaratgan raqamli iqtisodiyot, ularning o'zlarini odatdagi faoliyatidan qisib chiqaradi va h.k.

Hozirgi kunda jamoatchilik o'rtasida raqamli iqtisodiyotning yashirin iqtisodiyot, soxta ma'lumotlar va qora bozorga o'rin qoldirmasligi xususida ko'p muhokama va munozaralar bo'lmoqda.

Bunga qanday erishiladi?

Birinchidan, dastlabki ma'lumotlarni soxtalashtirish imkoniyati bo'lmaydi yoki butunlay cheklanadi. Chunki bazaga kiritilgan ma'lumotlar axborotlar to'rida joylashgan bo'ladi. Bitta joyda o'zgartirsh orqali hammasini o'zgartirib bo'lmaydi.

Ikkinchidan, mamlakatimizdagi yashirin iqtisodiyot faoliyatini rasmiy iqtisodiyotga o'tkazish uchun obyektiv sharoit yaratiladi. Chunki soxtalashtirish imkoni bo'lmagan joyda yashirin iqtisodiyotga tomon yo'l o'z-o'zidan yopiladi.

Uchinchidan, valyuta qora bozorining barham topishiga erishiladi. Chunki banklardan chiqadigan va unga tushadigan mablag'lar bevosita raqam bilan amalga oshiriladigan bo'lsa, buning ham imkoniyati cheklanadi.

To'rtinchidan, yaqinda amalga oshirilgan va oshirilishi davom etayotgan soliq islohotlari ham yashirin iqtisodiyotning oldini olishga qaratilgan. Chunki, ish haqidan to'lanadigan soliqlar kamaysa, yashirin ishlayotgan xodimlarga konvertda oylik maosh berish barham topishi kerak bo'ladi.

Ammo yashirin iqtisodiyot va valyutaning qora bozori hanuzgacha saqlanib qolmoqda. Albatta buning mamlakat iqtisodiy taraqqiyotiga salbiy ta'sir qilishi tayin. Yashirin iqtisodiyot va qora bozor haqida gap ketganda barcha kishilar qanday qilib ulardan xalos bo'lishi haqida gapiradi. Bunga erishish uchun qanday yo'llarni tanlash mumkinligi bugungi kunda o'ta dolzarb hisoblanadi.

Bugungi kunga yashirin iqtisodiyot, soxta ma'lumotlar va qora bozorga qarshi kurashish uchun O'zbekistonda tegishli sharoitlar yaratildi. Ma'lumki mamlakatimizda valyuta liberalizatsiyasi amalga oshirildi. Shu davrda bir muncha vaziyat o'zgardi, valyuta ayriboshlashi uchun ancha engilliklar yaratildi. Ammo hamon yashirish iqtisodiyot va qora bozor alomatlari saqlanib qolmoqda. Albatta bu holat iqtisodiyot sohada halol-pokiza faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlarni biroz tashvishga soladi.

Banklarda xorijiy valyutani naqd ko'rinishda sotishni to'liq raqamlashtirishni taqozo qiladi, ya'ni bunda imkon qadar odamlarning ishtirokini kamaytirish lozim bo'ladi. Agar xorijiy valyutani banklar tomonidan turli bahonalar bilan sotilishi susaytirilsa, albatta qora bozorning saqlanib qolinishiga sabab bo'ladi. Chunki odamlar aynan xorijiy valyuta kerak paytida almashtirishga kirishadi. Shu payt banklarda bo'lmasa, albatta qora bozordan axtarishadi. Bunday ehtiyoj uning saqlanib qolishiga muhim omil bo'lib hisoblanadi.

Masalaning ikkinchi tomoni bor. Agar valyutani sotishni to'liq erkinlashtirish ham o'zimizda biroz xatarli. Uni bir qism "tadbirkorlar" istagancha sotib olishi mumkin. Shu tufayli aynan xorijiy valyutani kimlar xarid qilayotganligi aniq bo'lishi kerak. Ushbu usulning ham yo'lini topishdi. Bir paytlar har bir shaxsga chegaralangan miqdorda valyuta sotish me'yori belgilangan edi. Bundan ham egri yo'llarni topishdi. Birovlarni yollashga o'tildi. Ushbu yollangan shaxsni pul bilan ta'minlaydi va u pasporti bilan borib, arzimagan haq evaziga valyutani almashtirib beradigan bo'ldi.

Bunday holatni bartaraf qilish juda murakkab, chunki odamlar qanday qilsaki, o'zlarining ortiqcha pulini xorijiy valyutada saqlash uchun almashtirib olishga intiladi. Zero, naqd xorijiy valyuta kerak

bo‘lib qolganda valyutani erkin almashtirish imkoniyati bo‘lmay qolishlik xavfidan cho‘chimoqda.

Fikrimizcha, valyutan almashtirishni to‘liq erkinlashtirish bilan birga uning shaffofligini ham ta’minlash lozim bo‘ladi. Raqamli operatsiyalarni amalga oshirishib, kim qancha xarid qilayotganligini va qancha xarid qilganligini bilishni taqozo qiladi. Bunda ma’lum miqdorda valyutani ko‘p xarid qilib, keyin qora bozorda sotish imkoniyati cheklanadi. Bu vaqtinchalik chora. Muhimi, bu yerda ham insonlar mablag‘i bo‘yicha boy bo‘lish bilan birga ma’naviy jihatdan ham boy bo‘lishligini taqozo qiladi. Insonda iymon-e’tiqod shakllangan bo‘lsagina turli nayranglarni qilishmaydi.

Mamlakatimizda 2019-yil 22-oktyabrda O‘zbekiston Respublikasining **“Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”**gi O‘RQ-573-son qonunning yangi tahriri qabul qilinishi ko‘zda tutilgan edi. Ushbu qonun o‘zimizning bugungi bor holatimizdan kelib chiqqan holda chuqur o‘ylangan tarzda qabul qilinishi maqsadga muvofiqligidan kelib chiqildi.

Yana bizda mavjud holatni e’tiborga oladigan bo‘lsak, hamon noqonuniy import bilan shug‘ullanayotgan “tadbirkorlar” ham yo‘q emas. Ushbu bozori vakillari valyutaga bo‘lgan talabni oshirish bilan birga, noqonuniy yo‘llar bilan almashtirishga ham moyilligi katta. Bu holat yana yashirin iqtisodiyotning saqlanib qolishiga, naqd ko‘rinishdagi nazorat qilinmaydigan xorijiy valyutadan maksimal darajada foydalanib qolishga harakat qiladi. Bulardan ham ko‘rinib turibdiki, valyuta qora bozorining mavjud bo‘lishiga va saqlanib qolishiga monetar omillardan ko‘ra ayrim fiskal omillar ham sabab bo‘lmoqda.

Hozirgi paytda amaliyotga joriy qilingan xorijiy valyutalar bo‘yicha ham plastik kartochkalar raqamli iqtisodiyotning bir ko‘rinishi bo‘lib, mavjud muammoni biroz yengillashtirdi. Ammo ushbu sohada ham cheklovlar biroz yumshatilgani bilan butunlay olib tashlanmaganligi ham ayrim hollarda valyuta qora bozorining saqlanib qolishiga sabab bo‘ladi. Chunki, xorijdan tovar olib keluvchilar

(ularning bir qismi noqonuniy) ehtiyoji plastik kartochkaga belgilangan miqdordan koʻproq boʻlishi mumkin.

Xullas, savol tugʻuladi, shunchalik choralar koʻrilishiga qaramasdan valyuta qora bozorining saqlanib qolishiga nimalar sabab boʻlmoqda. Fikrimizcha:

- insonlar psixologiyasida hali hanuz oʻsha moddiy koʻrinishdagi pullarning oʻrni va ahamiyati yuqoriligicha qolayotganligi;
- koʻplarning valyutani koʻzi bilan koʻrib qoʻli bilan ushlab koʻrmaguncha koʻngil joyiga tushmasligi;
- odamlarning xorijiy valyutaga milliy valyutaga nisbatan inflyatsiya nuqtai nazaridan ishonchining kuchliligi;
- xorijiy valyutani plastik kartaga tashlab, uni keyin bank kassasidan yoki bankomatlardan naqd qilish esa bir tomondan vaqt, ikkinchi tomondan xarajat talab qilganligi;
- banklarda xorijiy valyutaning erkin va uzluksiz sotuvini tashkil qilish imkoniyatlarining cheklanganligi;
- naqd pulning inflyatsiya natijasida qadrsizlanishi davom etishini inobatga olib, uni uyda yoki banklarda saqlash xatarli ekanligi, ammo xorijiy valyutaning ushbu ta'sirga (qadrsizlanishga) tushmasligi;
- naqd milliy valyutani banklarda saqlashning salbiy ta'sirining hamon odamlar yodida saqlanib qolayotganligi, banklarning bu borada ishonchni butunlay yoʻqotganligi;
- naqd koʻrinishda valyutani birdaniga banklardan sotib olishdagi qiyinchilik tufayli qora bozordan xorijiy valyutani xarid qilishga aholida talabning mavjudligi;
- naqd xorijiy valyutani mamlakatimiz banklarida saqlashga deyarli ragʻbat yoʻqligi (toʻlanadigan foizining kamligi);
- aholi oʻrtasida oʻzaro kelishuvlar, savdo-sotiq ishlari va yirik tovarlar qiymatini dollarda belgilash va dollarda hisoblashish an'anaga kirib ketganligi hamda bugungi kunda uning saqlanib qolganligi;
- chet eldan noqonuniy yoʻl bilan tovarlarni olib kirishning saqlanib qolayotganligi savdo va biznes vakillari uchun valyuta qora bozorining mavjud boʻlishidan manfaatdorligi kabilar.

Ko‘rinib turibdiki, valyuta qora bozorining saqlanib qolishiga hali ancha sabablar bor ekan.

Moliyachi ekspert Mansur Tangishovning internet tarmog‘ida bergan maqolasida “meni ko‘p o‘ylantiradigan narsa bu - butun jahon rivojlangan davlatlari imkon qadar raqamli iqtisodiyotga o‘tishni o‘ylab, harakat qilayotgan bir paytda, biz oddiy naqd xorijiy valyuta muammosini oxirigacha hal qilmaganimizdir. Raqamli iqtisodiyot avvalo barcha soha va tarmoqlarda ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishning raqamli texnologiyalarni qo‘llagan holda amalga oshirilishini talab qiladi. Raqamli texnologiyalarni qo‘llashda eng birinchi navbatda, avvalo, mana shu raqamli to‘lovlarning mavjud texnologiyalarini takomillashtirish kerak bo‘ladi. Raqamli iqtisodiyot rivojlanishi uchun naqd pulsiz iqtisodiyotning (Cashless economy) shakllanishi kerak bo‘ladi. Aslida, naqd pullar 21-asrda axborot texnologiyalari asrida eskirdi, desak xato bo‘lmaydi. Bugungi kunda Kanada, Shvesiya va Buyuk Britaniya mamlakatlari misolida naqdsiz to‘lovlar takomillashtirilishi va naqd pullar muomalasining maksimal darajada kamaytirilishi natijasida iqtisodiyotda yashirin iqtisodiyotning YaIMga nisbatan eng quyi ko‘rsatkichlarni qayd etayotganini guvohi bo‘lishimiz mumkin. Bu davlatlarda «valyuta qora bozori degan tushunchaning o‘zi yo‘q”[127], deb ta’kilaydi.

Bank sohasida raqamli iqtisodiyotga o‘tish masalasi o‘zimizda ancha muammo. Chunki, yuqoridagi davlatlar tajribasida maksimal darajada naqdsiz pul muomalasini ko‘paytirish bilan birga, naqd pul hajmini imkon qadar kamaytirishga harakat qilingan. Ammo o‘zimizda naqd pul hayotiy ehtiyoj bo‘lib turibdi. Chunki, xalqimiz ko‘p iste’mol tovarlarini bozorlardan xarid qiladi. Bozorlarda plastik kartochka bilan savdo qilishga imkoniyat cheklangan.

Ma’lumki, “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”gi qonunda O‘zbekiston Respublikasi hududida barcha hisob-kitoblar va to‘lovlar milliy valyutada amalga oshirilishi qat’iy belgilab qo‘yilgan. Ammo rasmiy va norasmiy holatda xorijiy valyutalar muomalada ishtirok

[127] **Мансур Тангишов.** 3/2018 (№ 00035) www.iqtisodiyot.uz.

etmoqda. Ushbu masalaga Markaziy Bank va tegishli mutasaddi tashkilotlar to‘g‘ri yechimini topishlari va ma’lum optimal tartibni belgilashlari lozim.

Mansur Tangishovning internet tarmog‘ida bergan maqolasidaga yana bir fikriga e’tiboringizni qaratmoqchimiz. Maqolada: “tan olish kerak naqd ko‘rinishdagi xorijiy valyutalar ko‘p hollarda aynan noqonuniy faoliyat yurituvchi shaxslarda, o‘zining qancha miqdorda mablag‘i borligini rasman hech kim bilmasligini xohlaydigan korrupsiya vakillarida, kontrabanda vakillarida, chayqovchi tadbirkorlar tomonidan tez-tez foydalaniladi. Chunki bu shaxslar naqd xorijiy valyuta (qattiq valyuta)ning kuchini bilishadi va uning nazoratdan tashqarida ekanligidan maksimal foydalanishadi. Ular naqdsiz ko‘rinishda xorijiy valyutalarni banklarda saqlaydigan bo‘lishsa, bunday katta miqdordagi mablag‘larga nisbatan shubhalar paydo bo‘lishidan qo‘rqishadi. Shuning uchun ham doimiy ravishda naqd valyutaning muomalasi barqaror bo‘lishini chin dildan istashadi. Aslida yashirin iqtisodiyot vakillarining aksar qismi faoliyati aynan naqd xorijiy valyuta bilan oldi-sotdi qilishni talab qilishini hisobga oladigan bo‘lsak, naqdsiz xorijiy valyuta tartibini takomillashtirish yashirin iqtisodiyotni kamaytirishga sabab bo‘ladi”[128], degan fikrni olg‘a suradi. Ushbu fikrga to‘liq qo‘shilish lozim. Chunki, tahlillar ko‘rsatmoqdaki, qora bozorning saqlanib qolishiga yana bir sabab naqd valyutaning oldi-sotdi jarayonida ishtirok etishi bo‘lmoqda.

Mamlakatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida iqtisodiyotni sog‘lom rivojlantirish yo‘lini aniq belgilab olishimiz lozim. Bu esa, ma’lum ma’noda biror yangi narsani joriy qilishni, ammo zarur bo‘lsada eski tartib tamoyillardan vaqtincha bo‘lsada, voz kechishimizni taqozo qiladi. Bu yo‘l bugungi kunda raqamli iqtisodiyotga o‘tish yo‘lidir. Bunda rivojlangan davlatlar singari naqdsiz iqtisodiyotni shakllantirish lozim bo‘ladi.

---

[128] **Мансур Тангишов.** 3/2018 (№ 00035) www.iqtisodiyot.uz.

Jahon tajribasidan ma'lumki ushbu yo'lni shakllantirishning ikkita usuli bor: biri evolyusion yo'l bilan erishishlsa, ikkinchisi revolyusion yo'ldan iborat. Mamlakatimizda ham buning qaysi birini tanlash masalasi ham chuqur tadqiqotlarni taqozo qiladi. Mamlakatimiz iqtisodiyotining rivojlanish darajasidan kelib chiqib, avval xorijiy valyutaning naqdsiz muomalasini yo'lga qo'yishni, so'ngra milliy valyutadagi naqdsiz pul muomalasiga to'liq o'tish imkoniyatlarini ko'rish masalalariga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiqdir.

Bugungi vaziyatda banklarda raqamli iqtisodiyotni shakllantirish bo'yicha qanday tavsiyalarni aytish mumkin. Fikrimizcha:

Birinchidan, milliy valyutani xorijiy valyutaga almashtirish banklarda cheklanmagan holda amalga oshirishni yo'lga qo'ygan holda har bir shaxsning qancha valyuta almashtirganligi to'g'risidagi aniq va ochiq ma'lumot bo'lishligini ta'minlashi lozim.

Ikkinchidan, oddiy xalq uchun **naqd xorijiy valyutani jamg'arishni uyidan ko'ra banklarda saqlashning manfaatli ekanligini, riskning umuman bo'lmasligini ta'minlash maqsadga muvofiq.**

Uchinchidan, xorijga chiqmoqchi bo'lgan shaxslarga bemalol istalgancha miqdordagi pulni xorijiy valyutada kartasiga o'tkazib berish amaliyotini davom ettirish bilan birga ularning maqsadga muvofiq ishlatilish mas'uliyati ham yuklangan bo'lishi lozim. Bu fuqarorlarning naqd valyutani tasarruf etish erkinligini cheklamaydi.

To'rtinchidan, raqamli iqtisodiyotga o'tish uchun aholini nafaqat iqtisodiy, balki texnik jihatdan, shu iqtisodiyotni yuritadigan malakaga ega bo'lishlikni, unga ma'naviy jihatdan talabga javob beradigan e'tiqodga ega bo'lishlikni, ijtimoiy tomondan fikrlar va qarashlar shunga mutanosib va tayyor bo'lishlikni taqozo qiladi.

Shuni yodda tutish kerakki, biz **qachondir raqamli iqtisodiyotga, banklar nuqtai nazaridan, naqd pulsiz iqtisodiyotga o'tishimiz tayin. Shu tufayli ushbu strategik masalaga bosqichma-bosqib o'tib borishimiz** lozim bo'ladi. Chunki, butun dunyoda raqamli pullar, elektron pullar va virtual pullar ommalashib bormoqda. Biz

ulardan hozirgi integratsiya chuqurlashib borayotgan sharoitda ayri yashay olmaymiz.

Xulosa qilib aytganda, banklarda raqamli iqtisodiyotdan foydalanish yashirin iqtisodiyot, qora bozor va soxta raqamlarga yo‘l qo‘yilmaslikning asosiy usuli ekanligiga ma’lum darajada ishonch hosil qilish mumkin.

O‘zini-o‘zi nazorat qilish va takrorlash uchun savollar:

1. Mehnat bozorining raqamli iqtisodiyotga moslashuvi bo‘yicha chora-tadbirlar.
2. Mehnat bozoridagi raqamli transformatsiyaning ijtimoiy oqibatlari.
3. Mehnat bozoridagi raqamli iqtisodiyotning barcha sohalarga ta’siri.
4. Mehnat bozoriga raqamli platformaning ta’sirini ta’minlash.
5. Mehnat bozorida ijtimoiy muloqotning ahamiyati.
6. MBTda raqamli iqtisodiyotdan foydalanish orqali yashirin iqtisodiyotning oldi olish imkoniyatlari.
7. Valyuta qora bozorining saqlanib qolinishi sabablari.
8. Ijtimoiy tarmoqlar ham ishchilar o‘rtasidagi aloqalar.
9. Bank sohasida raqamli iqtisodiyotga o‘tish masalasi.
10. Valyuta qora bozorining saqlanib qolinishiga sabablar.

XII BOB. MEHNAT BOZORI TRANSFORMATSIYSIDA INSON KAPITALINING O‘RNI VA KREATIV YONDOSHUVLARNING AHAMIYATI.

13.1. Mehnat bozori transformatsiyasida inson kapitalining o‘zgarish tendensiyalari.

13.2. Mehnat bozori transformatsiyasida zamon talabiga mos inson kapitalini shakllantirish masalalari.

13.3. Mehnat bozori transformatsiyasini optimallashtirishda kreativ yondashuvlar.

13.1. Mehnat bozori transformatsiyasida inson kapitalining o‘zgarish tendensiyalari

Milliy ishlab chiqarish hajmining barqaror o‘sishi va iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanishida inson kapitalining o‘rni muhim hisoblanadi. Fan-texnika taraqqiyotining yuqori darajada takomillashishi, ishlab chiqarishning mexanizatsiyalashtirilishi va avtomatlashtirilishi ishchilar malakasiga talabni oshiradi. Shundan kelib chiqqan holda mehnat bozori transformatsiyasi jarayonida inson kapitalining o‘zgarish tendensiyalari quyidagi jihatlarda namoyon bo‘ladi:

I. Raqamlashtirish va raqamli ko‘nikmalarga talabning oshishi – raqamli iqtisodiyotning tezkor rivojlanishi natijasida axborot texnologiyalari, sun’iy intellekt va ma’lumotlar tahlili kabi sohalardagi ko‘nikmalarga bo‘lgan talab oshmoqda, bu esa xodimlar raqamli vositalardan samarali foydalanish qobiliyatini rivojlantirishga asos bo‘lmoqda.

II. Innovatsiya va kreativlikka e’tibor – inson kapitali mehnat bozori transformatsiyasida asosiy iqtisodiy resurs sifatida shakllanmoqda, bu innovatsion yondashuv va kreativlik yuqori qiymatli xodimlarning asosiy fazilatlariga aylanib, innovatsiya jarayonida yangi g‘oyalarni amaliyotga tadbiq qilish qobiliyati muhim ahamiyat kasb etmoqda.

III. Uzluksiz ta'lim va qayta tayyorlash – texnologiya va bozor talablarining tezkor o'zgarishi natijasida xodimlar doimiy ravishda o'z bilim va ko'nikmalarini yangilab borishi zarur hisoblanib, bunda ta'limning modul asosida tashkil etilishi, masofaviy kurslar va qayta tayyorlash dasturlari ahamiyatlidir.

IV. Masofaviy ishlash imkoniyatlari – raqamli texnologiyalarning keng qo'llanilishi natijasida masofaviy ishlash ishlab chiqarish modelining bir qismiga aylandi, mazkur sharoitda inson kapitali shaxsiy tashabbus, o'zini boshqarish qobiliyati va raqamli ish muhitini o'zlashtirish imkoniyati bilan baholanmoqda.

V. Mehnat bozorida yangi kasblar paydo bo'lishi – raqamli transformatsiya natijasida kiberxavfsizlik mutaxassislari, ma'lumotlar tahlilchilari, sun'iy intellekt muhandislari kabi yangi kasblar shakllanmoqda, bunda inson kapitali yangi ko'nikma va bilimlarga bo'lgan ehtiyojni ta'minlaydi.

VI. Multidissiplinar yondashuvning ahamiyati - turli sohalarni o'zaro bog'lovchi bilim va ko'nikmalarga ega xodimlarga talab ortib bormoqda, bu har bir xodimning malakasini kengaytirish va turli sohalarda qo'llay olish qobiliyati muhimdir.

VII. Mehnat migratsiyasi va globallashuv – inson kapitali mehnat bozorining globallashuvi natijasida boshqa davlatlarga migratsiya qilayotgan malakali kadrlar oqimida o'z aksini topmoqda, bu esa har bir hududda kadrlarning raqobatbardoshligini oshirishni talab etadi.

Mehnat bozorida inson kapitalining o'zgarishi raqamlashtirish, innovatsiya, ta'lim va globallashuv kabi omillar ta'sirida yuzaga kelmoqda. Bu jarayonda inson kapitaliga e'tiborni kuchaytirish, uning ko'nikmalarini zamonaviy talablarga muvofiq rivojlantirish dolzarb ahamiyatga ega.

13.2. Mehnat bozori transformatsiyasida zamon talabiga mos inson kapitalini shakllantirish masalalari

2019-yilgi Jahon taraqqiyot hisobotida (WDR) ta'kidlanganidek: Mehnatning o'zgaruvchan tabiati, malakalar chegarasi tez sur'atlar

bilan o‘zgarib, o‘zi bilan imkoniyatlar va xavflarni keltirib chiqaradi. Mamlakatlar inson kapitalini kuchaytirmas ekan, barqaror, inklyuziv iqtisodiy o‘sishga erisha olmasligi, kelajakdagi yuqori malakali ish o‘rinlari uchun tayyorlanayotgan ishchi kuchiga ega bo‘lmasligi va jahon iqtisodiyotida samarali raqobatlasha olmasligi haqida dalillar ortib bormoqda[129].

Zamon talablariga javob bera oladigan inson kapitalini shakllantirishda ta’lim prinsipial jihatdan muhim o‘ringa ega. Iqtisodchi olimlar har bir qo‘shimcha qo‘shimcha ta’lim yili ish haqi 5-10 %ga oshishi taxmin qilishmoqda[130]. Ta’limning sifati va samaradorligi mamlakat YalM hajmini, aholi turmush farovonligini oshirishga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, ya’ni bu jarayon inson kapitalining shakllanishi bilan bog‘liq. Zamonaviy talablarga javob bera oladigan inson kapitali qaerda, qanday harakat qilish kerakligini biladi.

Inson kapitalini shakllantirish bo‘yicha ko‘plab Xalqaro tashkilotlar:

“OECD (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti)”, “Jahon banki”, “Jahon Iqtisodiy Forumi” kabilar, raqamli asrda ko‘nikmalarni rivojlantirish muammolari, rivojlanayotgan mamlakatlarda inson kapitalini rivojlantirish loyihalarini amalga oshirish masalalari, ish va malaka kelajagi bilan faol shug‘ullanib kelmoqda.

Mehnat bozori transformatsiyasi sharoitida inson kapitalini shakllantirish muammolari qo‘yidagilardan iborat:

→ Texnologik o‘zgarishlar, avtomatlashtirish va raqamlashtirish yangi bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Ko‘pgina an’anaviy kasblar o‘z ahamiyatini yo‘qotmoqda va yangilari ta’lim tizimida etishmayotgan tayyorgarlikni talab qiladi.

→ Ta’lim muassasalarida ko‘pincha biznes va yangi texnologiyalar talablari hisobga olinmagan eskirgan dasturlardan foydalangan holda mutaxassislar tayyorlanadi.

---

[129] https://www.worldbank.org/en/publication/human-capital/brief/the-human-capital-project-frequently-asked-questions

[130] “SKILLS AND HUMAN CAPITAL IN THE LABOR MARKET”. David J. Deming Mikko I. Silliman. Cambridge, MA 02138 September 2024.

→ Ta’lim tizimini, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni yetarli darajada moliyalashtirmaslik.

→ Raqamli texnologiyalarga ega bo‘lganlar va foydalana olmaydiganlar o‘rtasidagi tafovut ijtimoiy va iqtisodiy tengsizlikni kuchaytiradi.

→ Xodimlar va ish beruvchilarning uzoqdan ishlash, moslashuvchan jadvallar va fanlararo yondashuvlar kabi yangi mehnat shakllariga moslashuvining pastligi.

Iqtisodiyot tarmoqlarida raqobatbardoshlik muhim omillardan biri. Bu inson kapitaliga ham tegishli. Aholi sonining ortishi, ularning ehtiyojining ortishiga ham sabab bo‘ladi. Lekin cheklangan resurslar sharoitida bu dolzarb muammolardan biridir. Zamon talablariga javob beradigan inson kapitali shakllantirish va hozirgi kunda dunyo ijtimoiy-iqtisodiy hayotining ilmiy g‘oyalari va evolyusiyasi natijasi bo‘lib, u ko‘p yillar davomida amalga oshirilgan. Shuning uchun inson kapitalining shakllantirish iqtisodiyotni boshqaruv sohalarida bilimli, ishbilarmon, e’tiqodli kadrlarning ko‘payishiga asos bo‘ladi. Bunda kerakli yondashuvlar va ularni amalga oshirish vazifalari sifatida quyidagilarni olish mumkin.

1. Ta’limda moslashuvchanlik – mehnat bozoridagi tendensiyalarni hisobga olgan holda ta’lim dasturlarini ishlab chiqish, hayot davomida bilimlarni yangilash uchun “bir umrlik ta’lim” tizimini joriy etish. Buning uchun ta’lim tizimini modernizatsiya qilish lozim, ya’ni ta’lim standartlarini xalqaro amaliyot va tendensiyalarga muvofiq yangilash, bozordagi o‘zgarishlarga tez moslashish imkonini beruvchi modulli dasturlarni joriy etish.

2. Davlat-xususiy sheriklik – ta’lim standartlari va amaliyotlarini ishlab chiqish uchun hukumat, universitetlar va biznes o‘rtasidagi hamkorlik. Bunda qayta tayyorlash uchun platformalar yaratish, yangi kasblarni tez o‘zlashtirish uchun onlayn kurslar, master-klasslar va amaliyotlar ishlab chiqish.

3. Raqamli savodxonlikni rivojlantirish – raqamli vositalardan teng foydalanishni ta’minlash va ulardan foydalanishni o‘rgatish, ya’ni raqamli ta’lim infratuzilmasini rivojlantirish, o‘qitish uchun elektron

o‘quv platformalari, virtual haqiqat va sun’iy intellektga investitsiyalar kiritish.

4. Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash – yangilik va ish o‘rinlari manbai bo‘lgan kichik biznesni rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratish. Bunda fan va texnologiya sohasidagi tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash, ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish va o‘quv jarayoniga yangi texnologiyalarni joriy etish.

5. Barqaror rivojlanishga o‘tish – ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy jihatlarni hisobga olgan holda mutaxassislarni tayyorlash va tayyorlash.

Bu yondashuvlarning samaradorligi ishlab chiqarish va ta’lim o‘rtasidagi uzviylikka va insonlarning doimiy ravishda o‘zlashtirishga tayyorligiga bog‘liqdir.

13.3. Mehnat bozori transformatsiyasini optimallashtirishda kreativ yondashuvlar.

Mehnat bozori transformatsiyasi zamonaviy talablarga javob beruvchi innovatsion va kreativ yondashuvlarni talab qilmoqda. Kreativ yondashuvlar mehnat bozorining dinamikasini yaxshilash, raqobatbardosh ishchi kuchi tayyorlash va iqtisodiyotning yangi sektoriga yo‘naltirish imkonini beradi. Samarali jamoa o‘z maqsadlariga erishish uchun o‘z a’zolarining individual kuchli tomonlarini rag‘batlantiradi. Jamoaning ish faoliyatini yaxshilash ularning qanday ishlashini chuqur tushunishni talab qiladi. xodimlarning maksimal salohiyatini ochish uchun iste’dodlar sinergiyasidan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Agar kompaniyada samaradorlikni oshirish bo‘yicha g‘oyalar zarur bo‘lsa, korxonada mahsuldorlik va samaradorlikni rivojlantirishni tashkil qilishni boshlash uchun kerak bo‘lgan strategiyalar lozim bo‘ladi. Bu g‘oya sinergiyasini yaratish va moslashuvchanlikni rag‘batlantirishdir. Natijada, kompaniya samarali, dinamik va raqobatbardosh jamoalardan ko‘proq foyda oladi. Buning quyidagilarga alohida ahamiyat berish zarur:

1. Aniq, o‘lchanadigan va erishish mumkin bo‘lgan maqsadlarni belgilash. Qiyin va keng maqsadlarni qo‘yish muvaffaqiyat uchun

yo‘nalish hisoblanadi. Ayniqsa, belgilangan maqsadlar kompaniyaning xususiyatlariga va jamoaning vakolatlariga ko‘ra erishish mumkin bo‘ladi. Maqsadlar rahbar va jamoa a’zolari bilan hamkorlikda belgilansa, unumdorlikni oshirish uchun muhimroq bo‘ladi.

Bu xodimlarning rag‘batlantirishi va faolligini oshirishning ishonchli usulidir. Har bir inson o‘z ishi global maqsadlarga erishishga qanday hissa qo‘shishini tushunsa.

2. Ochiq va oshkora muloqot madaniyatini rag‘batlantirish. Muloqot jamoa faoliyatini yaxshilashning asosiy ustunidir. Buning uchun uning shaffof oqimi uchun sharoit yaratish kerak. Jamoaning har bir a’zosi o‘z g‘oyalari va fikrlarini erkin ifoda etishi kerak. Samarali muloqotni ta’minlash uchun kompaniyaning har bir darajasida va har bir kontekstida aniq va samarali aloqa kanallariga ega bo‘lishi kerak.

Muloqot madaniyati haqida fikr yuritish fikrlar xilma-xilligini va davom etayotgan muloqotni qadrlashni o‘z ichiga oladi. Bu ishonchni mustahkamlaydi, shaxslararo munosabatlarni mustahkamlaydi va samarali hamkorlik uchun qulay ish muhitini yaratadi.

3. Jamoada ishlash va hamkorlikni rag‘batlantirish. Jamoaviy ish va hamkorlik har qanday tashkilot muvaffaqiyatining kalitidir. Har bir a’zo o‘z bilim, ko‘nikma va tajribasini baham ko‘rib, samarali hamkorlik qila olishi kerak. Guruh loyihalari, o‘quv seminarlari va ijtimoiy tadbirlar kabi jamoaviy ish faoliyatini targ‘ib qiluvchi tadbirlarni tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Hamkorlik ijobiy va rag‘batlantiruvchi ish muhitini yaratadi, bu yangi iste’dodlarni jalb qilish, samaradorlikni oshirish va aylanmani kamaytirishga yordam beradi.

4. Xodimlarni tayyorlash va rivojlantirishga sarmoya kiritish. Xodimlarni o‘qitish va rivojlantirish har doim ijobiy natijalarga olib keladigan sarmoyadir. Korxonalar o‘z xodimlarini o‘qitishga sarmoya kiritib, ularning malakasi, bilim va ko‘nikmalarini oshirishi mumkin, natijada samaradorlik oshadi. Trening jamoa va tashkilotning o‘ziga xos ehtiyojlariga moslashtirilgan bo‘lishi kerak.

Har bir mashg‘ulot amaliy bo‘lishi va malakali mutaxassislar tomonidan o‘tkazilishi kerak. Bu jamoani halqada ushlab turishga

yordam beradi, bu ularning faoliyatini yaxshilash va raqobatbardosh bo‘lish uchun muhimdir.

5. Shaxsiy kuchli tomonlardan foydalanish va qo‘shimcha rollarni yaratish. Har bir jamoa a’zosi o‘ziga xos qobiliyat, iste’dod va tajribaga ega. Muvaffaqiyatning kaliti individual kuchli tomonlarini aniqlash va har bir insonga umumiy maqsadlarga munosib hissa qo‘shish imkonini beradigan rollarni belgilashda yotadi.

Har bir inson o‘z salohiyatini to‘liq rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘lgan va o‘z hissasi uchun qadrli ekanini his qiladigan muhit yaratish. Funksional vazifalarni to‘g‘ri taqsimlash va har bir kishining kuchli tomonlariga qarab vazifalarni belgilash orqali individual va jamoaviy samaradorlikni optimallashtirish mumkin.

6. Yaxshi boshqaruvni rag‘batlantirish. Samarali yetakchilik samarali jamoalarni yaratishning asosiy elementi bo‘lib, boshqaruv va yo‘nalish ishda eng yuqori samaradorlikka olib keladi.

Rahbar o‘z boshqaruvi orqali vazifalarni bajarish uchun motivatsion muhit va moslashtirilgan ish dinamikasini yaratish orqali xodimlarning ish faoliyatini yaxshilash imkonini beradi.

Har bir jamoa noyob iste’dodlardan iborat bo‘lishi mumkin, ammo samarali va rag‘batlantiruvchi dinamika o‘rnatilmagan bo‘lsa, ishchi guruhning to‘liq salohiyatiga erisha olmasligi mumkin. Korxonadagi samaradorlikni oshirish uchun sinergiyalarni o‘rnatish va maqsadlarga erishishda har qanday qiyinchilikka javob berishga moslashishni rag‘batlantirish muhimdir.

Zamonaviy jamiyatda mehnat bozori transformatsiyasini optimallashtirishda quyidagi kreativ yondashuvlar mavjud:

→ Gibrid ta’lim va ish tizimini yaratish:

→ Qisqa muddatli ta’lim (Microlearning): Qisqa, maqsadli bilim berish kurslari (masalan, raqamli marketing yoki dasturlash asoslari). Bu vaqt va resursni tejashga yordam beradi.

→ Ikki tomonlama ta’lim (Dual-track education): Bir vaqtda ta’lim olish va ish tajribasini orttirish.

→ Ijodiy kasblar va yangi sektorlarni rivojlantirish:

→ Kreativ iqtisodiyot sohasida (dizayn, animatsiya, media va ilmiy tadqiqotlar) yangi ish o‘rinlarini yaratish.

→ Raqamli platformalar orqali global miqyosdagi buyurtmalarni jalb qilish.

- **Ish jarayonida Gamification (o‘yinlashtirish):**

→ Xodimlarning motivatsiyasini oshirish uchun ish jarayonini o‘yin elementlari bilan boyitish. Bu samaradorlikni oshirishi mumkin. Masalan, muvaffaqiyatlar uchun virtual "ballar" to‘plash va ularni mukofotlarga aylantirish.

- **Faoliyatni diversifikatsiya qilish:**

→ Bir insonga bir nechta malaka va faoliyat sohasini o‘zlashtirishga imkon yaratish. Masalan, pedagogika va IT sohasini uyg‘unlashtirish.

→ Masofaviy ish jarayonlarini keng yoyish.

- **Talantlarni boshqarish platformalarini ishlab chiqish:**

→ Raqamli texnologiyalar orqali ishchilarning malakasi, qiziqishlari va qobiliyatlariga mos keladigan ish o‘rinlarini avtomatik tarzda taqdim etish.

→ Onlayn ta’lim platformalari orqali istalgan paytda va joyda o‘qish imkonini berish.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, O‘zbekistonga xos kreativ yondashuvlar sifatida keltirish mumkin: bular, kasb-hunarga yo‘naltirilgan texnoparklar, yashil iqtisodiyot, IT va sanoat texnologiyalariga asoslangan texnoparklar tashkil etish, yoshlar tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, startap ekotizimini rivojlantirish uchun grantlar va imtiyozli kreditlar ajratish.

Bulardan foydalanish O‘zbekiston brendini rivojlantirish va jahonga tanitishga asos bo‘ladi. Bu yondashuvlar mehnat bozorini samarali tarzda transformatsiya qilishda yordam beradi va global iqtisodiyotda raqobatbardoshlikni ham ta’minlaydi.

O‘zini-o‘zi nazorat qilish va takrorlash uchun savollar:

1. Mehnat bozori transformatsiyasida inson kapitalining o‘zgarish tendensiyalari.
2. Mehnat bozorida yangi kasblar paydo bo‘lishi.
3. Mehnat bozori transformatsiyasida zamon talabiga mos inson kapitalini shakllantirish masalalari.
4. Mehnat bozori transformatsiyasi sharoitida inson kapitalini shakllantirish muammolari.
5. Raqamlashtirish va raqamli ko‘nikmalarga talabning oshishi.
6. Raqamli savodxonlikni rivojlantirish masalalari.
7. Funksional vazifalarni to‘g‘ri taqsimlash.
8. Zamonaviy jamiyatda mehnat bozori transformatsiyasini optimallashtirishda kreativ yondashuvlar.
9. Xodimlarni tayyorlash va rivojlantirishga sarmoya kiritish.
10. Yaxshi boshqaruvni rag‘batlantirish.

XIV BOB. MEHNAT BOZORI TRANSFORMATSIYASINI OPTIMALLASHTIRISHDA KREATIV YONDASHUVLAR

14.1. Mehnat bozori transformatsiyasida kreativ iqtisodiyotning prinsiplarini moslashtirish masalalari.

14.2. Kreativ iqtisodiyot industriyasini mehnat bozori transformatsiyasiga moslashtirish masalalari.

14.3. Mehnat bozori transformatsiyasini optimallashtirishda kreativ yondashuvlar.

14.4. Kreativ iqtisodiyot sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari va mehnat bozori transformatsiyasiga mosligini ta’minlash masalalari.

14.1. Mehnat bozori transformatsiyasida kreativ iqtisodiyotning prinsiplarini moslashtirish masalalari

Jahon iqtisodiyotida ham tub o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda. Xususan, dunyo miqyosida jadal rivojlanayotgan yangi sohalardan biri sifatida kreativ iqtisodiyot sohasi hisoblanadi. Bu borada jurnalistning savollariga Erkin Gadoyevning javobida quyidagilar ta’kidlangan: “BMT rezolyusiyasiga ko‘ra, kreativ iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlari, jumladan, kreativ iqtisodiyotni mustaqil tarmoq sifatida qo‘llab-quvvatlash, uning alohida statistik hisobotini yuritish va iqtisodiyotdagi ulushini oshirish nazarda tutilgan. BMTning tahliliy ma’lumotlariga ko‘ra, madaniy va kreativ sohadagi mahsulotlarning dunyo yalpi ichki mahsulotidagi o‘rni 3,1 foizni tashkil etadi hamda jahonda ish bilan band aholining 6,2 foizi ushbu sohaga to‘g‘ri kelib, uning asosiy qatlamini yoshlar tashkil etadi”[131]. Ko‘rinib turibdiki, mazkur masala jahon iqtisodiyotida ham shakllanib, o‘zining munosib o‘rnini topmoqda.

Bugungi kunda kreativ iqtisodiyot mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun ham muhim ahamiyatga ega. Bundan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 3-oktyabrda imzolangan “Kreativ iqtisodiyot

[131] Креатив индустрия: креатив маҳсулот ва хизматлар бозори ривожланади. ЎзА мухбири Норгул Абдураимованинг Эркин Гадоев билан суҳбати. https://uza.uz/category/business.

to‘g‘risida”gi O‘RQ-970-sonli Qonuni[132] qabul qilindi. Ushbu qonun Qonunchilik palatasi tomonidan 2024-yil 30-sentyabrda qabul qilingan. Senat tomonidan 2024-yil 30-sentyabrda ma’qullangan. Ushbu qonun bilan ilk bor kreativ iqtisodiyot tushunchasi hayotimizga kirib keldi.

Bunga dunyoda sodir bo‘layotgan turli beqarorlik, ayrim hududlardagi urush-janjallar, bular oqibatida yuzaga kelgan iqtisodiy inqirozlar, global ekologik o‘zgarishlar, dunyo miqyosida ilm-fanning tez rivojlanishi oqibatida bugungi kunda hayotimizga kirib kelayotgan innovatsion jarayonlar dunyo miqyosida insoniyat hayotini tubdan o‘zgartirib yubormoqda. Natijada bir tomondan ayrim mutaxassisliklarga ehtiyoj susaygan holda ayrim yo‘nalishlar bo‘yicha yangi-yangi mutaxassislarga ehtiyoj oshib bormoqda. Oqibatda yangi turdagi iqtisodiyotga, ya’ni kreativ iqtisodiyotga ham ehtiyoj oshib bormoqda. Bu iqtisodiyotning bir yo‘nalishi “Kreativ industriya” sohasiga ham katta e’tibor berilishi lozimligi obyektiv zaruriyatga aylandi. Chunki 2024-yilning 3-oktyabr kuni mamlakatimizda “Kreativ iqtisodiyot to‘g‘risida”gi qabul qilingan qonunda ushbu masala alohida qayd etilgan. Ushbu holat mavzuning o‘ta dolzarb masalaning yechimiga bag‘ishlanganligidan dalolat berib turibdi.

Dunyo iqtisodiyoti keskin o‘zgarishlar davrida yashamoqda. Ayniqsa 21-asrga kelib, asrlar davomida amal qilib kelayotgan iqtisodiyotning turlari butunlay yangi mazmun va shaklga ega bo‘lmoqda. Oldin iqtisodiyotimiz birtta shakl va mazmunga ega bo‘lib, asta-sekinlik bilan takomillashib kelgan. Endilikda esa, uning nafaqat mazmuni, balki shakli ham o‘zgarib bormoqda. Ushbu asrda kirib kelgan va shakllangan iqtisodiyotning turlariga nazar soladigan bo‘lsak, Bularning turlari ancha ko‘payib qold. Bularning turlari quyidagi rasmda keltirilgan (14.1-rasm).

Rasmdan ko‘rinib turibdiki, iqtisodiyotning mazmuni ham shakli ham oddiy moddiylikdan nomoddiy shaklga ega bo‘lib bormoqda. Oldin qo‘l-oyoq, keyinroq uzoq yillar texnika va texnologiyalardan

[132] Ўзбекистон Республикасининг 2024 йил 3 октябрда имзоланган “Креатив иқтисодиёт тўғрисида”ги ЎРҚ-970-сонли Қонуни. Қонунчилик палатаси томонидан 2024 йил 30 сентябрда қабул қилинган. Сенат томонидан 2024 йил 30 сентябрда маъқулланган. 3 октябрь куни имзоланган.

foydalangan bo‘lsa, bugungi kunda iqtisodiyot nomoddiy xarakterga ega bo‘lib bormoqda.

Endilikda bunday iqtisodiyotning hayotimizga kiritb kelishi, ta’kidlangandek, iqtisodiyotning mahsuloti faqat moddiy ne’matlardangina iborat bo‘lib qolmasdan, nomoddiy nematlarni ham qamrab oladi va ushbu ne’matlarning yaratilishi evaziga mamlakat iqtisodiyoti keskin rivojlanadi. “Xalq so‘zi” gazetasida Nurbek Rizaevning bergan ma’lumotlariga ko‘ra “2024 yakunida sun’iy intelekt bozori hajmi 298 mlrd. dollarni tashkil etishi kutilmoqda, hozirda esa 207 mlrd. dollarga teng. Ushbu raqamlar 2030-yilga borib taxminan 1,84 trli. etishi mumkin”[133]. Ushbu soha iqtisodiy tizimda juda serdaromad bo‘lib hisoblanadi. Bizning hisob-kitoblar bo‘yicha uning daromadlilik darajasi 30-35 foizni tashkil qiladi.



14.1-rasm. Dunyo iqtisodiyotiga 21-asrda kirib kelgan va shakllangan iqtisodiyotning turlari

[133] Нурбек Ризаев. Ёркин келажак учун “Ақилли” технологиялар. // “Халқ сўзи” газетаси. 2024 йил 31 октябрь. 223-сон. – 1 ва 4 бетлар.

Hozirgi kunda mamlakatimizda ham moddiy, ham nomoddiy ne'matlarni yaratishga qaratilgan iqtisodiyot shakllandi. Bu iqtisodiyot "Kreativ iqtisodiyot"dan iboratdir. Mazkur iqtisodiyot turi xalqaro miqyosda qo'llanilib kelinmoqda va ayrim tajribalarga ham ega. Jumladan, "G'arbiy Yevropa va AQShda "kreativ shaharlar" deb ataladigan konsepsiya bir necha o'n yillar davomida rivojlanib kelmoqda. Bu konsepsiya kreativ industriyani qo'llab-quvvatlashga asoslangan, chunki ijodkorlar sinfining ijodi shaharlarga qaratilgan"[134]. Bu borada AQSh, Yevropa va jahonning bir qancha mamlakatlarida ma'lum tajribalar ham to'plangan.

Xususan, "Indoneziyada "Kreativ iqtisodiyot to'g'risida"gi qonun qabul qilingan bo'lib, Turizm va kreativ iqtisodiyot vazirligi tashkil etilgan. Umumiy qiymati 1 milliard dollar bo'lgan 15 ta startap loyiha amalga oshirilib, kreativ iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 7 foizga etgan"[135]. Xuddi shunday holat Yevropaning bashqa davlatlarida ham ro'y bermoqda. Masalan, "Angliyada 2035-yilgacha innovatsiyalar strategiyasi qabul qilingan bo'lib, hozirda kreativ industriyalarda 2,1 million nafar kishi faoliyat yuritib, kreativ iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 5,8 foizni tashkil etmoqda"[136]. Ushbu masala MDHga qarashli davlatlarda ham o'z o'rniga ega bo'lib bormoqda. Masalan, "Rossiyada Kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish markazi va 20 ta kreativ iqtisodiyot yo'nalishlari bo'yicha kadrlarni tayyorlaydigan Universal universitet tashkil etilgan. Strategik tashabbuslar agentligi tomonidan ishlab chiqilgan "Kreativ industriyani rivojlantirish to'g'risida"gi qonun mavjud"[137]. Ushbu masala mamlakatimizda ham rivojlanmoqda. Qarang, "Bugungi kunda mamlakatimizda kreativ industriya sohasiga oid 9,6 ming korxona mavjud. Ularda 84 ming nafar xodim faoliyat ko'rsatmoqda (205 ta IT-markaz, 100 ta dizayn markazi, 60 ta animatsion suratlar markazi, 30 ta o'yinlar ishlab chiqish markazi va 20 dan ortiq san'at galereyasi bor).

---

[134] Ботир Усмонов, Нима учун креатив иқтисодиёт? 07. ноябрь 2024. Телеграмнинг "Халқ сўзи" сайтида.
[135] Креатив индустрия: креатив маҳсулот ва хизматлар бозори ривожланади. ЎзА мухбири Норгул Абдураимованинг Эркин Гадоев билан суҳбати. https://uza.uz/category/business.
[136] Ўша жойда.
[137] ЎША ЖОЙДА.

Shuningdek, 28 ming nafar hunarmand ushbu yo‘nalishda faoliyat yuritmoqda”[138].

Ko‘rinib turibdiki, mazkur sohada mamlakatimizda ham yagona huquqiy bazani yaratishni obyektiv zaruriyatga aylandi. Chunki kreativ iqtisodiyot industriyasi bizda ham shakllangan edi. Ammo ularni bunday nom bilan atalmas edi. Endi xalqaro tajribalardan kelib chiqib, har bir narsani o‘z nomi bilan atash lozim, degan xulosaga kelindi. Ushbu zaruriyatdan kelib chiqib, kreativ sohalarni aniq belgilash zaruriyati ham olg‘a surildi. Chunki ushbu soha asosan nomoddiy bo‘lsada ularning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini oshirish va hisoblab borishni talab etiladigan bo‘ldi. Shu munosabat bilan mamlakatimizda ham, yuqorida ta’kidlanganidek, “Kreativ iqtisodiyot to‘g‘risida”gi qonuni ishlab chiqildi va 2024-yil oktyabr oydidan amaliyotga tadbiq etildi.

Kreativ iqtisodiyot to‘g‘risidagi qonunda ushbu tushunchaning mazmuni yoritilgan. Unda e’tirof etilishicha: **“kreativ iqtisodiyot** — ijodiyot, intellektual qobiliyat, shuningdek innovatsiyalarga hamda texnologiyalarga asoslangan inson salohiyati natijasida iqtisodiy qimmatga ega bo‘lgan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yaratishga qaratilgan iqtisodiyot tarmog‘i”[139], degan izoh berilgan. Ushbu tushuncha Kreativ iqtisodiyotning ta’rifini ishlab chiqish uchun metodologik asos bo‘lib hisoblanadi.

Kreativ iqtisodiyotga bir guruh olimlar quyidagicha ta’rif ishlab chiqqan edik. **“Kreativ iqtisodiyot** deganda, mavjud iqtisodiyotni yangicha yondoshuv, yangi g‘oyalar bilan takomillashtirib, uning yangi-yangi yo‘nalishlarini barpo eish maqsadida yangicha fikrlash asosida inson tafakkurida shakllangan va amaliyotda o‘z tastig‘ini topgan yangi iqtisodiyot tushuniladi”[140]. Bularni umumlashtirgan holda mazkur tushunchaning ta’rifi nazariy jihatdan takomillashtirildi. **Kreativ iqtisodiyot deganda, yangi g‘oyalarni ishlab chiqish salohiyatiga ega bo‘lgan insonlar tomonidan iqtisodiy jarayonga ijodiy yondoshgan holda moddiy va nomoddiy tovarlarni (ishlar,**

[138] Ўша жойда.
[139] Ботир Усмонов, Нима учун креатив иқтисодиёт? 07. ноябрь 2024. Телеграмнинг “Халқ сўзи” сайтида..
[140] Мамаюнус Пардаев, Мурод Муҳаммедов, Обид Пардаев. Иқтисодиётнинг турлари ва таърифлари. // https://telegra.ph/I%D2%9Btisodiyotning-turlari-va-tariflari-07-08-2. 2666. 12.02. 7 август 2024 йил.

xizmatlarni) yaratadigan iqtisodiyot sohasi tushuniladi. Ushbu tushuncha bir qancha yo‘nalishlarni qamrab oladi. Birinchidan, yangi g‘oyalarni ishlab chiqish haqida ketmoqda. Bunda yangilanishlar asosan texnologiyalarda emas, balki g‘oyalarda namoyon bo‘ladi. Ikkinchidan, bunday intellektual salohiyatiga ega bo‘lgan insonlarning mavjud bo‘lishligini taqozo qiladi. Bu degani jamiyatda bilimdon aholi qatlami aholining asosiy qismini tashkil qilishligi lozim. Uchinchidan, bunday intellektual salohiyatga ega bo‘lgan insonlar tomonidan iqtisodiy jarayonga ijodiy yondoshgan holda moddiy va nomoddiy tovarlarni (ishlar, xizmatlarni) yaratadigan bo‘ladi. Shu tariqa zamonaviy kreativ iqtisodiyot shakllantiriladi.

Kreativ iqtisodiyot ham boshqa iqtisodiyotlar singari bir qancha prinsiplarga ega. Bu “Kreativ iqtisodiyot to‘g‘risida”gi qonunda e’tirof etilishicha quyidagi prinsiplarga asoslanadi (14.2-rasm)



14.2-rasm. Kreativ iqtisodiyotning prinsiplari

Rasmdan ko‘rinib turibdiki, kreativ iqtisodiyot ham iqtisodiyotning boshqa turlari kabi bir qancha prinsiplarga asoslanadi. Bularni quyidagicha izohlash mumkin.

Birinchi, prinsip **qonuniylik** bo‘lib, mazkur sohadagi munosabatlar O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, ushbu “Kreativ iqtisodiyot to‘g‘risida”gi Qonunga va boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan. Jamiyatda

birorta jarayon yoki hodisalar ma'lum qonunlarga asosan amalga oshirilsagina, unda tartib va intizom bo'ladi. Intizom yo'q joyda birorta qonuniy muvaffaqiyatga erishish qiyin.

Ikkinchi prinsip**, ochiqlik va shaffoflik** prinsipiga amal qilish bilan o'ziga xosdir. Kreativ iqtisodiyot sohasidagi axborot albatta ochiq va shaffof bo'lishi kerakligi ham hayotiy zaruriyatdir Shuni inobatga olish joizki, bundan davlat sirlarini tashkil etuvchi hamda oshkor etilishi qonun bilan cheklangan axborot mustasno. Ushbu qonunning 6-moddasida "Davlat organlari kreativ industriya subyektlari uchun davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi, shuningdek axborotdan foydalanish kafolatlari va erkinligi to'g'risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan usullarda axborot olish va undan erkin foydalanish sharoitlarini yaratishi shart"ligi belgilangan.

Uchinchi prinsip, **ijod erkinligi** hisoblanadi. Mazkur qonunning 7-moddasida kreativ iqtisodiyot ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligiga asoslanishiga ham izoh berilgan. Bunda e'tirof etilishicha, "Barcha shaxslar kreativ industriya sohalarini tanlashda va ularning bir yoki bir nechtasida faoliyat olib borishda, shuningdek kreativ mahsulot yaratishda erkindir". Ma'lumki, barcha sohalarda ijod erkinligi ta'minlangan. Bunda ham ijod erkinligi boshqa shaxslarning sha'ni, qadr-qimmatiga va ishchanlik obro'siga zarar etkazishga, qonunga xilof xatti-harakatlarni amalga oshirishga undashga yoki targ'ib qilishga qaratilmasligi hamda ijtimoiy axloqqalarga zid bo'lmasligi kerak.

To'rtinchi prinsip, **tenglik** bo'lib hisoblanadi. Kreativ iqtisodiyot subyektlari o'z faoliyatini amalga oshirishda, shu jumladan davlat tomonidan taqdim etiladigan qo'llab-quvvatlash choralaridan va infratuzilmadan foydalanishda tenglik to'liq ta'minlangan bo'lishi shart

Beshinchi prinsip ham boshqa sohalar singari, **kreativ mahsulotning huquqiy muhofaza qilinishni** ta'minlashdan iboratdir. Kreativ mahsulot intellektual va ijodiy faoliyat natijasi bo'lib, bu ham qonunchilikka muvofiq muhofaza qilinadi.

14.2. Kreativ iqtisodiyot industriyasini mehnat bozori transformatsiyasiga moslashtirish masalalari

Kreativ iqtisodiyot industriyasi, yoki ijodiy iqtisodiyot, iqtisodiy faoliyatning bir qismi bo‘lib, u ijodiy faoliyat va insonning ijodiy qobiliyatlaridan foydalanish orqali yaratilgan tovarlar va xizmatlarni qamrab oladi. Bu sohaga asosan madaniyat, san’at, dizayn, musiqa, kino, adabiyot, reklamalar va boshqa ijodiy mahsulotlar kiradi. Kreativ iqtisodiyot, shuningdek, transport, telekommunikatsiya, sun’iy intellekt, axborot texnologiyalari va onlayn platformalar kabi sohalarni qamrab oladi, bu esa ijodiy mahsulotlarni tarqatishda ham yangi imkoniyatlarni yaratadi.

Kreativ iqtisodiyot industriyasining asosiy yo‘nalishlaridan biri **ijodkorlik** bo‘lib, bunda yaratuvchilik nuqtai nazaridan fikrlash va yangi g‘oyalarni amalga oshirish qobiliyati o‘stiriladi va ishga solinadi. Shu tufayli zamonaviy texnologiyalar ijodiy mahsulotlarni yaratish, tarqatish va almashish jarayonlarini soddalashtirish bilan birgalikda ularni osonlashtiradi. Kreativ iqtisodiyot, xizmatlar va tovarlarni yaratishda yangi iqtisodiy modellarni tadqiq etish, yaxshilash va innovatsiyalarni joriy etish uchun ham muhimdir. U butun dunyoda iqtisodiy o‘sish va rivojlanish uchun yangi omillar manbasidir.

O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 3 oktyabrda imzolangan “Kreativ iqtisodiyot to‘g‘risida”gi O‘RQ-970-sonli qonunnning 10-moddasida **kreativ industriya sohalari** faoliyatining ro‘yxati berilgan. Ushbu yo‘nalishlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi. Bular tarkibiga “adabiy ijodni; amaliy san’at va hunarmandchilikni; arxitektura, loyihalashtirish va urbanistikani; audiovizual san’atni; ijrochilik san’atini; konsert-tomosha faoliyatini va ommaviy-madaniy tadbirlarni tashkil etishni; moda va dizayn san’atini; muzeylar, badiiy galereyalar (ko‘rgazmalar), axborot-kutubxona faoliyatini; nashriyot va matbaa sohasidagi ijodiy faoliyatni; ommaviy axborot vositalari sohasidagi va Internet jahon axborot tarmog‘i orqali uzatish yo‘li bilan amalga oshiriladigan ijodiy faoliyatni; prodyuserlik faoliyatini; raqamli texnologiyalar sohasidagi ijodiy faoliyatni; reklama sohasidagi ijodiy

faoliyatni; san’at ashyolari va madaniy meros obyektlarini asrashga doir faoliyatni; tasviriy san’atni”[141] kirishi ko‘rsatib o‘tilgan.

Kreativ industriya sohalaridagi faoliyat yo‘nalishlarini o‘z ichiga oladigan yuqoridagi tushunchalarning har birining izohiga qisqacha to‘xtalishni maqsadga muvofiq, deb topdik.

Kreativ industriya sohalaridan biri **adabiy ijod** hisoblanadi. Ushbu ijodga insonning kreativ fikrlashini, ichki his-tuyug‘larini, ijodkorlik qobiliyatlarini ifodalash usuli sifatida qaraladi. Uning mazmuni bir necha asosiy elementlarni qamrab oladi. Adabiy ijodning asosi mavzu va badiiy obrazlarini tashkil qiladi. Mavzu odamlarning hayoti, tabiat, muhabbat, jang, ijod, odamlar orasidagi o‘zaro munosabatlardan ham ibori bo‘lishi mumkin. Mazkur ijodda muallifning shaxsiy uslubi muhim rol o‘ynaydi. Ustozlar orasida bilimlarni, tajribani, his-tuyg‘ulari alohida uslub bilan ifoda etilishi shakllanadi. Ushbu ijod orqali obrazlarni tasvirlay olish ham muhimdir. Bu obrazlar insonlarning ichki olami, xarakterlari, va ularning o‘rtasidagi munosabatlari orqali ifoda etiladi.

Adabiy asarda so‘zlarning ma’nolari, ularning o‘zaro aloqalari muhim ahamiyatga ega. So‘zlar va ifodalar orqali ijodkor o‘z fikrlarini va hislarini ifodalaydi. Ushbu ijod estetik badiiylikni ham o‘z ichiga oladi. Uslub, obrazlar, metaforalarni to‘g‘ri tanlash – asarning eng muhim jihatlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Chunki adabiyotda ko‘pincha hayotga, odamlar orasidagi munosabatlarga, qonun-qoida va prinsiplarga yangi falsafiy qarashlar orqali yondoshiladi.

Adabiy ijod tarixiy va madaniy omillarga ham uzviy bog‘liq. Asarlarning mazmuni va tarkibi jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy holatini ifoda etadi. Shu tariqa adabiy ijod odamlarning kreativligi, mo‘ljallangan maqsadi va nazariy o‘zgarashlarini ifodalash uchun ajralmas vosita hisoblanadi.

Kreativ iqtisodiyot industriyasi tarkibida **amaliy san’at va hunarmandchilikning** ham o‘rni beqiyos. Bu umumiy san’at ichida,

[141] Ўзбекистон Республикасининг 2024 йил 3 октябрда имзоланган “Креатив иқтисодиёт тўғрисида”ги ЎРҚ-970-сонли Қонуни. Қонунчилик палатаси томонидан 2024 йил 30 сентябрда қабул қилинган. Сенат томонидан 2024 йил 30 сентябрда маъқулланган. 3 октябрь куни имзоланган.

o‘ziga xos bo‘lib, insonning tashqi muhitiga estetik va funksional xususiyatlarni kiritishga yo‘naltirilgan ijodiy faoliyat turi sifatida namoyon bo‘ladi. Uning mazmuni insonning ijodiy faoliyatini, o‘zi yaratgan buyumlari va asarlari orqali jamiyatga xizmat qilishni o‘z ichiga oladi.

Amaliy san’atda yog‘och, metall, keramika, mato kabi moddalardan ma’lum hunarmandchilik usullari bilan yaratilgan buyumlar berilgan estetik qimmatni qabul qilishi muhim. Har bir amaliy san’at asari, shu jumladan hunarmandchilik mahsuloti ham, muayyan ijtimoiy funksiyani bajaradi. Shu ishlar orqali hunarmandlar o‘zlarining ijodiy qobiliyatlarini ommaga chiqarish, innovatsion va original yechimlarni izlash orqali yaratuvchi loyihalarini amalga oshirishadi.

Amaliy san’at va hunarmandchilik o‘ziga xos xususiyatlaridan biri, bular ko‘pincha belgilamlangan etnik va madaniy an’analarni ifodalaydi. Ushbu asarlar insonlarning ruhiyati, tarixiy va madaniy merosini aks ettirganligi uchun ham qimmatlidir. Ma’lumki, hunarmandchilik sohasida yuqori texnik malaka talab etiladi. Mahsulotlarni yaratishda materiallarni o‘zgartirish va qayta ishlash uchun mukammal usullarni bilish kerak. Shu tufayli bu ham innovvatsion omillarni qo‘llagan holda asta sekinlik bilan avtomatlashtirilgan texnologiyalarni va sun’iy intellektdan keng foydalanishni yo‘lga qo‘ymoqda. Pirovardida, amaliy san’at va hunarmandchilik jamiyatni estetik jihatdan namoyish qilish, madaniy merosni saqlash, badiiy manzaralarni yaratish va ularni sotish orqali iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Kreativ iqtisodiyot industriyasiga audiovizual san’atni, ijrochilik san’atini, tasviriy san’atni, moda va dizayn san’ati kabilar ham kiradi. Bularning hammasi insonning ijodi bilan bog‘liq. Bunda yo‘q narsadan faqat ijodiy xizmat ko‘rsatish orqali mablag‘ topish mumkin. Masalan, milliy to‘ylarimizda odamlarga ta’om berish bilan birga, musiqa san’atini ham taqdim etadi. Qorin to‘ydirish uchun qancha ta’om iste’mol qilsangiz, o‘shancha mablag‘ni san’atkorning qo‘shig‘iga sarflash mumkin. Bundan ko‘rinib turibdiki, insonning ehtiyoji faqat

moddiy ne'matlar bilangina emas, balki nomoddiy ne'matlarga ham qondilishi lozim ekan. Demak, kreativ iqtisodiyot shunday iqtisodiyot ekanki, bir vaqtning o'zida insonlarning moddiy ehtiyoji bilan birga nomoddiy ehtiyojlarini qondirishga ham xizmat qilar ekan.

Bugungi kunda shunday innovatsion texnologiyalar paydo bo'lmoqdaki, insoniyatning hayot tarzini mutlaqo yangi sifat bosqichiga olib chiqmoqda. Bulardan biri kreativ iqtisodiyotning hayotimizga kirib kelishi bilan bog'liq bo'lmoqda. Mazkur iqtisodiyotning bir yo'nalishi "Kreativ iqtisodiyot to'g'risidagi" qonunga asosan kreativ industriyaga bag'ishlangan. Buning yuqorida ko'rganimizdek, bir qancha yo'nalishlari mavjud.

Kreativ industriyasi sohasining asosiy yo'nalishlaridan biri **arxitektura, loyihalashtirish va urbanizatsiya** hisoblanadi. Arxitektura kreativ industriya sifatida, insonlar iqtisodiyotini va madaniyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. U kreativ industriyaning o'ziga xos bir qismi bo'lib, o'zining estetik va funksional xususiyatlari bilan insonlarning takomillashuviga yordam beradi.

Arxitekturaning kreativ industriyaga kirishining bir qancha asosiy sabablari bor. Chunki arxitektura yordamida yaratilgan hududlarning vizual ko'rinishiga ta'sir etadi. Inshootlarning estetik jihatlari odamlarning hissiyotlariga, o'ylashlariga va ijodkorligiga ta'sir qilshi bilan birga ushbu yo'nalishda u insonlarga estetik zavq ham beradi. Ma'lumki, arxitektura innovatsiyalar va yangi texnologiyalarni joriy qilish orqali rivojlanadi. Yangicha materiallar va qurilish usullari insonlarning yangi ijodkorlik imkoniyatlarini ochadi. Shu jihatdan jamiyatning aniq o'zgarishlarini, tarixiy xususiyatlarini ham o'zida aks ettiradi. Xullas, arxitekturaning iqtisodiy va ijtimoiy faoliyatlarga ta'siri uning funksional xususanliklari bilan ham bog'liqdir.

Shu bilan birga, arxitekturadagi kreativlik inshootlarning jamiyat hayotiga ta'sirini va bularning odamlar uchun yaratilganligini, bu boradagi imkoniyatlarni belgilaydi. Demak, kreativ industriyaning arxitektura yo'nalishi jamiyatning ijodiy, estetik va funksional rivojlanishi uchun muhim omillardan biridir.

Kreativ iqtisodiyot industriyasining **loyihalashtirish** bilan bog‘liq yo‘nalishlari belgilangan maqsadlarga erishish uchun dastur va takliflarni ishlab chiqish jarayoni bilan bog‘liqdir. Ushbu jarayonda loyihani amalga oshirish uchun kerakli resurslar, vaqt, byudjet va talablarni aniqlash, ishlanmalarni tashkil etish, ijro etish va nazorat qilish hamda natijalarni baholash tezkor ravishda amalga oshiriladi.

Loyihalashtirishning asosiy bosqichlari bevosita maqsadni belgilashdan boshlanadi. Bunda loyihaning asosiy maqsadi va ko‘zlanadigan natijalari aniqlanadi. Bunda loyihada ishtirok etuvchi tomonlar, unga qo‘yilgan talablar, resurslar va bo‘lishi mumkin bo‘lgan xatarlar tahlil qilinadi. Natijada ishlanmalarni tashkil etish va bunda loyihani o‘z yo‘nalishi va maqsadga muvofiqligini boshqarish yo‘llari ishlab chiqiladi. Bunda yana bir muhim yo‘nalish boshqaruv qarorlarini ijro etish jarayonida loyihaning amalga oshirilganligini ta’minlash uchun amaliy ishlar olib borilganligining natijasi ham o‘rganiladi.

Loyihaning natijalari tahlil qilinganda qilingan xulosalar va ular asosida ishlab chiqilgan tavsiyalar ham zamon talabidan kelib chiqib takomillashtiriladi, aynan shu masala uning asosiy maqsadiga mos bo‘ladi. Bunday loyihalashtirish har qanday sohada, xususan, biznes, qurilish, IT, ta’lim, ilmiy tadqiqot va boshqa sohalarda muhim ahamiyatga ega. Ko‘riib turibdiki, loyihalashtirish kreativ industriya tarkibiga kiritilgan emas ekan. Biroq loyihalashtirish masalasi ko‘p kreativ industriyaning qanday bo‘lishligining poydevori. Shu tufayli ushbu jarayonni kiritish muhim ahamiyat kasb etadi.

“Kreativ iqtisodiyot to‘g‘risida”gi qonunda uning industriyasiga **konsert-tomosha faoliyatini va ommaviy-madaniy tadbirlarni tashkil etilishi** ham kiritilgan. Konsert-tomosha faoliyati kreativ industriyaning muhim tarmoqlaridan biri ekanligini, uning mazmuni bo‘yicha bir necha muhim jihatlarni qarab chiqish orqali ko‘rish mumkin. Konsertlar va tomoshalar kreativlikni namoyon qilish, ijodiy ishlarni ko‘rsatish va san’atning turli janrlarini ifoda etish bilan ahamiyatli. Bunda ijodkorlar, musiqa, raqs, teatr, vizual san’at va boshqa yo‘nalishlarda o‘z iste’dodlarini namoyon etadilar. Bular tamonidan yaratilgan mahsuloti ma’naviy ne’mat bo‘lishiga

qaramasdan, qiymati jihatidan tegishli mahsulot sifatida mamlakat YaIMda o‘ziga xos o‘ringa ham ega.

Kreativ industriyaning ushbu yo‘nalishi orqali millat madaniyatini va qadiriyatlarini saqlab qolish hamda ravojlantirishga ham xizmat qiladi. Konsert-tomoshalar milliylik bilan birga xaliqaro madaniyatni ta’minlashda, urf-odatlar va an’analarni saqlab qolishda ham muhim rol o‘ynaydi. Shu tariqa ushbu faoliyat madaniyatning odamlar hayotidagi o‘rnini mustahkamlashishga ham yordam beradi.

Yana bir muhim jihat – kreativ industriya nomoddiy xizmatlar evaziga iqtisodiy imkoniyatlarni ham mustahkamlanib boradi. Konsertlar va tomoshalar hudud iqtisodiyoti uchun manfaatli bo‘lishi bilan birga, boshqa sohalarning, xususan, turizmni, ovqatlanish, savdo kabi sohalarning rivojlanishiga ham ishtirok etadi. Ushbu xizmatlar evaziga ish beruvchilar, marketing agentliklari, mualliflar va ijrochilar uchun ham yangi biznes imkoniyatlari yaratadi. Konsert-tomoshalar jamiyatni birlashtirish, odamlarning munosabatlarini yaxshilash va hamjihatlik hissini yaratishga ham yordam beradi. Bu faoliyat odamlarni birga yig‘ish va umumiy qaror qabul qilish uchun platforma vazifasini bajaradi.

Konsert-tomosha faoliyati sohaga oid texnologiyalarning ham takomillashib borishiga turtki beradi. Ushbu jarayonda onlayn do‘konlar, moliyaviy platformalar va marketing strategiyalari kabilar kreativ industriyaning rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Shu sababli, konsert-tomosha faoliyati kreativ industriyada muhim rol o‘ynaydi, chunki u ijodiy izlanishlarni, madaniyatni, iqtisodiy o‘sishni va jamiyatni birlashtirishni rag‘batlantirib borishga ham katta hissa qo‘shib boradi.

Kreativ industriyaning bir yo‘nalishi **muzeylar, badiiy galereyalar (ko‘rgazmalar)** bilan ham uzviy bog‘liq. Muzeylar kreativ industriya sifatida bir necha muhim xususiyatlarga ega. Bulardan biri dunyo tarixi va madaniyatini saqlashga qaratilgan. Muzeylar odamlar va jamiyatlar uchun muhim tarixiy va madaniy manbalarni saqlash va taqdim etish vazifasini bajaradi. Bu bilan bugungi odamlar o‘tmishini va qadriyatlarini anglab etish uchun tegishli axborotlarga ega bo‘ladi.

Bu axborotlar juda katta boylik bo‘lib, asrlar osha saqlanib, boyib boradi. Shu jihatdan muzeylarning ahamiyati juda katta.

Kreativ industriyaning bir qismi tarixiy yodgorliklar bilan birga bevosita yangilik va innovsion jarayonlar bilan ham hamohang sifatida faoliyat ko‘rsatadi. Chunki muzeylar ham yangi texnologiyalar, interaktiv namoyishlar va multimedia vositalaridan foydalanib, o‘qish va tushunish jarayonini yaxshilashga, ya’ni yengillashtirishga xizmat qiladi.

Muzeylarda kreativ ta’limning ham mavjudligi va uning muhimligidan dalolat beradi. Muzeylar ta’lim sohasida kreativ yondashuvlarni rivojlantirish uchun platforma vazifasini bajaradi. Ularda master-klaslar, seminarlar va ta’lim dasturlari tashkil qilinsa, ular orqali kreativ fikrlashni rag‘batlantirishga ham erishiladi. Bunda ijodkorlar bilan hamkorlik masalasi ham muhim bo‘g‘inlardan biridir. Kreativ industriyada muzeylar ko‘p vaqtdan buyon ijodkorlar, rassomlar, san’atchilar va dizaynerlar bilan hamkorlikda ishlashi, novator loyihalarni yaratishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Turli ko‘rgazmalar va tadbirlar ham muzeylarda doimiylik va vaqtinchalik xarakterga ega bo‘ladi. Bunda ko‘rgazmalar, festivallar va boshqa madaniy tadbirlarni tashkil qilib, ijodiy mahsulotlarni jamoat e’tiboriga taqdim etishda ham muzeylarning o‘ziga xos o‘rni bor. Muzeylar jamiyatda iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy o‘zgarishlarni rag‘batlantirish va kreativ muhitni yaratishga hissa qo‘shish orqali rivojlanishga ijtimoiy jihatdan ta’sir ko‘rsatadi.

Muzeylarning yana bir xususiyati, maqsadli auditoriyani shakllantirish va ularga moslashtirish imkoniyatlariga ham ega. Muzeylar kreativ industriyaning talablaridan kelib chiqib, turli maqsadli auditoriyalarga, ya’ni bolalar, kattalar, jahon sayyohlari va boshqalarga mos keladigan muhitni yaratadi. Bu xususiyatlar muzeylarning kreativ industriyadagi o‘rnini mustahkamlaydi va ularni madaniy rivojlanishda muhim omil sifatida faoliyat ko‘rsatishini ta’minlaydi.

Kreativ industriyaning yana bir yo‘nalishi **axborot-kutubxona faoliyati** hisoblanadi. Bu faoliyat ko‘plab jarayonlarni va xizmatlarni

o‘z ichiga oladi. Ushbu sohadagi asosiy yo‘nalishlardan biri, ma’lumotlarni yig‘ish va saqlashdan iborat. Axborot-kutubxona tashkilotlari kreativ industriya uchun muhim ma’lumotlarni yig‘ish, tizimlashtirish va saqlash bilan shug‘ullanadi. Bular jumlasiga hunarmandchilik, san’at, dizayn, reklama va boshqa sohalardagi ma’lumotlarni to‘plash jarayonlarini qamrab olishida ham namoyon bo‘ladi.

Kutubxonalar kreativ industriyadagi trendlarni va vaziyatni tushunish uchun axborot-resurslarni tahlil qilib, hunarmandlar va dizaynerlarga kerakli ma’lumotlarni taklif ham qiladi. Resurslarni tahlil qilish orqali turli tadqiqot va ilmiy faoliyatlar ham amalga oshiriladi. Kutubxona faoliyati aksariyat holda tadqiqotchilar, dizaynerlar va mualliflarga o‘z ishlarini rivojlantirish va yangiliklarni qo‘lga kiritishda ham ko‘makchilik vazifasini bajaradi. Chunki odamlarning ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishi va ilmiy faoliyatni rivojlantirishga ham asosiy omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Kutubxonalar kreativ industriyadagi o‘qish jarayonlarini rag‘batlantirish uchun ko‘rgazmalar, seminarlar va master-klasslarni tashkillashtirishda ham muhim yo‘nalish hisoblanadi. Chunki turli ijodiy taqdimotlar, ko‘rgazmalar va seminarlar tashkil qilish orqali ushbu maqsadlarning to‘liq amalga oshiradi. Hozirgi raqamlashtirish sharoitidan kelib chiqib, axborot-kutubxona faoliyatida elektron resurslarni yaratish va raqamlashtirish muhim ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda. Bu kreativ kontentni onlayn platformalarda tarqatishga yordam beradi.

Kutubxonalar kreativ industriyasida hamkorlik yo‘nalishi ham e’tiborga molik masalalrdan biridir. Chunki kutubxona boshqa tashkilotlar, san’at galereyalari, universitetlar (oliy o‘quv yurtlari) va tadqiqot markazlari bilan hamkorlikni aynan elektron aloqalar bo‘yicha ham amalga oshirish imkoniyatlariga ega bo‘lib bormoqda. Shu orqali kutubxonalar yangi hunarmandlar va ijodkorlarga axborot-resurslarni, turli ma’lumotlarni taqdim etishlari orqali ularni rag‘batlantirishga ham erishib kelmoqda. Bunday rag‘batlantirish faoliyati orqali kutubxonalar kreativ industriyasi tufayli mualliflik huquqlari va intellektual mol-

mulk huquqlari asosida ilmiy ixtirolarni muhokama qilish jarayonlarida ham ishtirok etish imkoniyatlariga ega bo‘ladi.

Ko‘rinib turibdiki, kreativ industriyadagi axborot-kutubxona faoliyati aholining ijodi va ilmiy manbalar balan ta’minlashda juda muxim rol o‘ynaydi. Chunki u ijodkorlarni rag‘batlantirish va ularni kerakli ma’lumot bilan ta’minlashda katta o‘ringa ega. Zero, kutubxonalarda barcha badiiy, ilmiy, ilmiy ommabop adabiyotlar saqlanadi va o‘quvchilarni kerak paytda ta’minlab turadi. Bularning yana bir ahamiyatli jihati tariximiz ham, qadriyatlarimiz ham, ilmiy va badiiy asarlarimiz ham aynan shu maskanda to‘planib, saqlanib boriladi.

Ko‘rinib turibdiki, kreativ iqtisodiyot industriyasining barcha turlari va ularning barqaror yo‘nalishlari insoniyat hayotining ajralmas qismiga aylangan. Shu yo‘l bilan aholi farovonligini nafaqat moddiy ne’matlar bilan, balki ma’naviy (nomoddiy) ne’matlar bilan ham oshirish orqali mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirish imkoniyatlariga ham ega. Demak kreativ iqtisodiyot iqtisodiyotning bir turi sifatida muntazam ravishda rivojlanib boradi va shu yo‘nalishda mamlakatimiz iqtisodiyotini ham rivojlantiradi.

“Kreativ iqtisodiyot to‘g‘risida”gi qonunda kreativ industriyaning bir qator yo‘nalishlari keltirildi. Ushbu yo‘nalishlardan biri **nashriyot va matbaa sohasidagi ijodiy faoliyatlardan** iborat ekanligi ham ta’kidlangan. Chunki, nashriyot va matbaa sohasidagi ijodiy faoliyatlar kretiv industriyaning muhim bir qismi sifatida maydonga chiqqan. Ularning asosiy xususiyatlari va funksiyalari ma’lum bir elementlarni o‘z ichiga oladi. Bulardan muhimlaridan biri ijodiy kontent yaratishdan iboratdir. Nashriyot va matbaa sohasi yozuvchilar, muharrirlar, dizaynerlar va boshqa ijodkorlar tomonidan ijodiy kontent (kitoblar, jurnallar, gazetalar, bukletlar va boshqalar) yaratish bilan bog‘liq.

Elektron nashrlarning paydo bo‘lishi, raqamli formatlar va internet platformalari orqali matbaa sohasini yanada rivojlantirish va imkoniyatlarni kengaytirish uchun zamin yaratdi. Bunday ilg‘or zamonaviy texnologiyalar orqali shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda mamlakatimiz tarqqiyotini ham ta’minlash imkonini beradi. Ushbu

jarayonda o‘z ish jarayonida nashriyotlar, kitob do‘konlari va matbaa korxonalari ijodiy ishlarni samarali targ‘ib qilish uchun marketing va reklama strategiyalarini ishlab chiqish orqali marketing strategiyasini ham muvaffaqiyatli amalga oshirish imkoniyatlariga ega bo‘lmoqda.

Nashriyot va matbaa sohasida filmlar, multfilmlar, elektron o‘yinlar va boshqa ijodiy sohalar bilan ko‘p sohali hamkorliklarni rivojlantirish imkoniyati ham yaratilmoqda. Shu yo‘nalishda ijodiy ijtimoiy platforma orqali ijodkorlarni, muxlislarni va o‘quvchilarni birlashtirgan ko‘pqirrali ijodiy jamiyatlar platformasi ham shakllanadi. Kreativ industriya mahsulotlarining tarixiy, madaniy va ijtimoiy samaradorligi bilan birga iqtisodiy samaradorligi ham mavjud. Bu ijodiy mahsulotlar (kitoblar, jurnallar, matnlar) sotishidan olingan daromadlar evaziga shakllanadi.

Nashriyot va matbaa sohasida ijodkorlar huquqi, mualliflik huquqi va litsenziya siyosati mavjud. Bunda muhim hujjatlardan biri mualliflik huquqi bo‘lib hisoblanadi. Bu elementlar kreativ industriyaning rivojlanishiga, aniqlashuviga va mahalliy hamda global miqyosda samarali faoliyat olib borilishiga xizmat qiladi.

Kreativ industriyaning yana bir yo‘nalishi **ommaviy axborot vositalari** sohasidagi ishlardan iborat. Bunda internet orqali jahon axborot tarmog‘iga ulanish yo‘li bilan amalga oshiriladigan ijodiy faoliyat asosiy o‘ringa ega. Chunki ommaviy axborot vositalari kreativ industriyaning muhim bir qismi hisoblanadi. Ularning kreativ industriya ekanligi bir qator omillarda namoyon bo‘ladi. Bularga kontent yaratishni misol keltirish mumkin. Chunki, ommaviy axborot vositalarida (televidenie, radio, internet-saytlar, ijtimoiy tarmoqlar va boshqalar) original va yangi kontent yaratish imkoniyati mavjud. Bu kontent yaratish jarayonida ijodiy yondashuv, dizayn, ssenariy yaratish, videolashtirish va boshqa kreativ jarayonlarning ishtirokini o‘z ichiga oladi.

Kontentlar har xil formatlarda yaratiladi. Ommaviy axborot vositalari turli formatlarda, masalan, vizual (foto, video), audio (radio shou, podkastlar), matn (maqolalar, xabarlar) tarzda kontent taqdim etishadi, bu ularning ijodiy salohiyatini ko‘rsatadi. Ommaviy axborot

vositalarida harakat qiladigan jurnalistlar, ssenaristlar, prodyuserlar, dizaynyorlar va boshqa ijodkorlar ijodiy jamoa kreativ industriyaning ajralmas qismi hisoblanadi. Ular birgalikda ishlab chiqargan kontent va loyihalar kreativ ma'noga ega bo'ladi.

Ommaviy axborot vositalari bilan kreativ loyihalar orasida ijtimoiy mavzular, madaniyatni rivojlantirish, san'at va ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha ish olib boriladi. Ushbu vositalar madaniyat va ijodning tarqalishida ijtimoiy hamjihatlikka mos funksiyaga ega. Ommaviy axborot vositalari raqamli texnologiyalarni o'zlashtirish orqali yangi ijodiy imkoniyatlarni yaratadi, masalan, virtual reallik, interaktiv kontent va identifikatsiya usullari kabi texnologiyalarning integratsiyasini ham yaratadi.

Kreativ industriyada ommaviy axborot vositalari bozorni yaratish, brendlarni rivojlantirish va reklama bilan bog'liq loyihalarda ishtirok etish orqali ijodiy samaradorlikni oshirish uchun poydevor yaratadi va shu bozorda raqobat muhitini ham yaratadi. Ko'rinib turibdiki, bularning bari ommaviy axborot vositalarining kreativ industriyani tashkil etishdagi rolini namoyon qiladi.

14.3. Mehnat bozori transformatsiyasini optimallashtirishda kreativ yondashuvlar.

Mehnat bozori transformatsiyasi zamonaviy talablarga javob beruvchi innovatsion va kreativ yondashuvlarni talab qilmoqda. Kreativ yondashuvlar mehnat bozorining dinamikasini yaxshilash, raqobatbardosh ishchi kuchi tayyorlash va iqtisodiyotning yangi sektoriga yo'naltirish imkonini beradi. Samarali jamoa o'z maqsadlariga erishish uchun o'z a'zolarining individual kuchli tomonlarini rag'batlantiradi. Jamoaning ish faoliyatini yaxshilash ularning qanday ishlashini chuqur tushunishni talab qiladi. xodimlarning maksimal salohiyatini ochish uchun iste'dodlar sinergiyasidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Agar kompaniyada samaradorlikni oshirish bo'yicha g'oyalar zarur bo'lsa, korxonada mahsuldorlik va samaradorlikni rivojlantirishni tashkil qilishni boshlash uchun kerak bo'lgan strategiyalar lozim

bo‘ladi. Bu g‘oya sinergiyasini yaratish va moslashuvchanlikni rag‘batlantirishdir. Natijada, kompaniya samarali, dinamik va raqobatbardosh jamoalardan ko‘proq foyda oladi. Buning quyidagilarga alohida ahamiyat berish zarur:

1. Aniq, o‘lchanadigan va erishish mumkin bo‘lgan maqsadlarni belgilash. Qiyin va keng maqsadlarni qo‘yish muvaffaqiyat uchun yo‘nalish hisoblanadi. Ayniqsa, belgilangan maqsadlar kompaniyaning xususiyatlariga va jamoaning vakolatlariga ko‘ra erishish mumkin bo‘ladi. Maqsadlar rahbar va jamoa a’zolari bilan hamkorlikda belgilansa, unumdorlikni oshirish uchun muhimroq bo‘ladi.

Bu xodimlarning rag‘batlantirishi va faolligini oshirishning ishonchli usulidir. Har bir inson o‘z ishi global maqsadlarga erishishga qanday hissa qo‘shishini tushunsa.

2. Ochiq va oshkora muloqot madaniyatini rag‘batlantirish. Muloqot jamoa faoliyatini yaxshilashning asosiy ustunidir. Buning uchun uning shaffof oqimi uchun sharoit yaratish kerak. Jamoaning har bir a’zosi o‘z g‘oyalari va fikrlarini erkin ifoda etishi kerak. Samarali muloqotni ta’minlash uchun kompaniyaning har bir darajasida va har bir kontekstida aniq va samarali aloqa kanallariga ega bo‘lishi kerak.

Muloqot madaniyati haqida fikr yuritish fikrlar xilma-xilligini va davom etayotgan muloqotni qadrlashni o‘z ichiga oladi. Bu ishonchni mustahkamlaydi, shaxslararo munosabatlarni mustahkamlaydi va samarali hamkorlik uchun qulay ish muhitini yaratadi.

3. Jamoada ishlash va hamkorlikni rag‘batlantirish. Jamoaviy ish va hamkorlik har qanday tashkilot muvaffaqiyatining kalitidir. Har bir a’zo o‘z bilim, ko‘nikma va tajribasini baham ko‘rib, samarali hamkorlik qila olishi kerak. Guruh loyihalari, o‘quv seminarlari va ijtimoiy tadbirlar kabi jamoaviy ish faoliyatini targ‘ib qiluvchi tadbirlarni tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Hamkorlik ijobiy va rag‘batlantiruvchi ish muhitini yaratadi, bu yangi iste’dodlarni jalb qilish, samaradorlikni oshirish va aylanmani kamaytirishga yordam beradi.

4. Xodimlarni tayyorlash va rivojlantirishga sarmoya kiritish. Xodimlarni o‘qitish va rivojlantirish har doim ijobiy natijalarga olib

keladigan sarmoyadir. Korxonalar o‘z xodimlarini o‘qitishga sarmoya kiritib, ularning malakasi, bilim va ko‘nikmalarini oshirishi mumkin, natijada samaradorlik oshadi. Trening jamoa va tashkilotning o‘ziga xos ehtiyojlariga moslashtirilgan bo‘lishi kerak.

Har bir mashg‘ulot amaliy bo‘lishi va malakali mutaxassislar tomonidan o‘tkazilishi kerak. Bu jamoani halqada ushlab turishga yordam beradi, bu ularning faoliyatini yaxshilash va raqobatbardosh bo‘lish uchun muhimdir.

5. Shaxsiy kuchli tomonlardan foydalanish va qo‘shimcha rollarni yaratish. Har bir jamoa a’zosi o‘ziga xos qobiliyat, iste’dod va tajribaga ega. Muvaffaqiyatning kaliti individual kuchli tomonlarini aniqlash va har bir insonga umumiy maqsadlarga munosib hissa qo‘shish imkonini beradigan rollarni belgilashda yotadi.

Har bir inson o‘z salohiyatini to‘liq rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘lgan va o‘z hissasi uchun qadrli ekanini his qiladigan muhit yaratish. Funksional vazifalarni to‘g‘ri taqsimlash va har bir kishining kuchli tomonlariga qarab vazifalarni belgilash orqali individual va jamoaviy samaradorlikni optimallashtirish mumkin.

6. Yaxshi boshqaruvni rag‘batlantirish. Samarali yetakchilik samarali jamoalarni yaratishning asosiy elementi bo‘lib, boshqaruv va yo‘nalish ishda eng yuqori samaradorlikka olib keladi.

Rahbar o‘z boshqaruvi orqali vazifalarni bajarish uchun motivatsion muhit va moslashtirilgan ish dinamikasini yaratish orqali xodimlarning ish faoliyatini yaxshilash imkonini beradi.

Har bir jamoa noyob iste’dodlardan iborat bo‘lishi mumkin, ammo samarali va rag‘batlantiruvchi dinamika o‘rnatilmagan bo‘lsa, ishchi guruhning to‘liq salohiyatiga erisha olmasligi mumkin. Korxonadagi samaradorlikni oshirish uchun sinergiyalarni o‘rnatish va maqsadlarga erishishda har qanday qiyinchilikka javob berishga moslashishni rag‘batlantirish muhimdir.

Zamonaviy jamiyatda mehnat bozori transformatsiyasini optimallashtirishda quyidagi kreativ yondashuvlar mavjud:

- gibrid ta’lim va ish tizimini yaratish:

- qisqa muddatli ta’lim (microlearning): qisqa, maqsadli bilim berish kurslari (masalan, raqamli marketing yoki dasturlash asoslari). bu vaqt va resursni tejashga yordam beradi.
- ikki tomonlama ta’lim (dual-track education): bir vaqtda ta’lim olish va ish tajribasini orttirish.
- ijodiy kasblar va yangi sektorlarni rivojlantirish:
- kreativ iqtisodiyot sohasida (dizayn, animatsiya, media va ilmiy tadqiqotlar) yangi ish o‘rinlarini yaratish.
- raqamli platformalar orqali global miqyosdagi buyurtmalarni jalb qilish.
- ish jarayonida o‘yinlani tashkillashtirish:
- xodimlarning motivatsiyasini oshirish uchun ish jarayonini o‘yin elementlari bilan boyitish. bu samaradorlikni oshirishi mumkin. masalan, muvaffaqiyatlar uchun virtual "ballar" to‘plash va ularni mukofotlarga aylantirish.
- faoliyatni diversifikatsiya qilish:
- bir insonga bir nechta malaka va faoliyat sohasini o‘zlashtirishga imkon yaratish. masalan, pedagogika va it sohasini uyg‘unlashtirish.
- masofaviy ish jarayonlarini keng yoyish.
- talantlarni boshqarish platformalarini ishlab chiqish:
- raqamli texnologiyalar orqali ishchilarning malakasi, qiziqishlari va qobiliyatlariga mos keladigan ish o‘rinlarini avtomatik tarzda taqdim etish.
- onlayn ta’lim platformalari orqali istalgan paytda va joyda o‘qish imkonini berish.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, O‘zbekistonga xos kreativ yondashuvlar sifatida keltirish mumkin: bular, kasb-hunarga yo‘naltirilgan texnoparklar, yashil iqtisodiyot, IT va sanoat texnologiyalariga asoslangan texnoparklar tashkil etish, yoshlar tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, startap ekotizimini rivojlantirish uchun grantlar va imtiyozli kreditlar ajratish.

Bulardan foydalanish O‘zbekiston brendini rivojlantirish va jahonga tanitishga asos bo‘ladi. Bu yondashuvlar mehnat bozorini samarali tarzda transformatsiya qilishda yordam beradi va global iqtisodiyotda raqobatbardoshlikni ham ta’minlaydi.

Kreativ industriyaning **raqamli texnologiyalar sohasidagi ijodiy faoliyati** zamonaviy usullardan biridir. Raqamli texnologiyalar sohasidagi ijodiy faoliyat — bu raqamli formatda yaratilgan, yangicha yaqinlashuvlar yoki yechimlar paydo qilishga qaratilgan faoliyatlar jamlanmasidan iborat. Ushbu sohada ijodiy faoliyat har xil shakllarda bo‘lishi mumkin. Bular jumlasiga **dizayn**ni kiritish mumkin. Bular grafik dizayn, animatsiya, veb-dizayn, UX/UI dizayn va boshqalardan iborat bo‘ladi. Yana bir yo‘nalish multimediya bo‘lib, bular videolar, podkastlar, fotografiyalar va audiokontentlardan iborat.

Raqamli texnologiyalar sohasidagi ijodiy faoliyatining bir yo‘nalishi dasturlash bo‘lib, bunda novatorlik dasturlari, mobil ilovalar, veb saytlar yoki ijodiy algoritmlar ishlab chiqilishi ko‘zda tutilgan. Buning yo‘nalishlaridan biri, raqamli san’at bo‘lib hisoblanadi. Bunga fotoroliklarni qilish, raqamli tasvirlar yoki interaktiv san’at kabilarni kiritish mumkin. Shu yo‘nalishda o‘yinlar yaratish ham mavjud bo‘lib, bunda turli videoo‘yinlar, interaktiv ssenariylar ishlab chiqilishi ham ko‘zda tutilgan.

Shunday qilib, ijodiy faoliyat raqamli texnologiyalar orqali odamlarga yangi tajribalar, bilimlar va yechimlar berishga yordam beradi. U shuningdek, yangi mahsulotlar va xizmatlarni yaratish, bozorni yangilash va jamiyatni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Chunki ushbu jarayonda nomoddiy ne’matlar yaratish orqali katta mablag‘ ishlash imkoniyatlarini ham yaratish mumkin.

Kreativ industriyaning bir yo‘nalishi **reklama sohasidagi ijodiy faoliyatdan** iborat. Chunki reklama sohasidagi ijodiy faoliyat kreativ industriyaning muhim bir qismi hisoblanadi. Kreativ industriya bevosita iqtisodiy o‘zgartirishlarni, ijodiy faoliyat va samarali yangiliklarning yaratilishida muhim rol o‘ynayotgan sohalarni qamrab oladi. Reklama ushbu sohada bir qator yo‘nalishlarda amalga oshiriladi. Xususan, ulardan biri brending bo‘lib hisoblanadi. Reklama insonlar

uchun brendlarni aniqlash va identifikatsiya qilish imkonini beradi. Bugungi kunda jahonning turli davlatlaridan brendlarning kirib kelish va jonli raqobatda ishtirok etishi alohida kompaniyalarga yirik brendlarni yaratish imkonini bermoqda.

Reklama faoliyati ijodiy kontent yaratishga ham asoslangan. Kreativ kompaniyalar, animatsiya, videolar, grafikalar va o‘yinli konstruksiyalar reklamalarni samarali qilish va kreativ kontent yaratish uchun zarur bo‘ladi. Ushbu yo‘nalish korxonalarning marketing strategiyalari bilan ham uzviy bog‘liqlikda amalga oshiriladi. Ko‘rinib turibdiki, reklamalar hayotimizning turli jihatlarini qamrab oladi, jumladan, sog‘liqni saqlash, modalar, texnologiyalar va boshqalar. Kreativ indusriyalar reklamaga qarash xavfini mustaxkamlashi dasturlari va reklama strategiyalari orqali novatorlikning usullarini belgilaydi.

Kreativ reklama kompaniyalari insonlar e’tiborini jalb qilish va ularning munosabatini yaratuvchi va mustahkamlovchi yozuvlarni talab qiladi. Ijodlar reklamani boshqalaridan farqli darajada yodda qolarli va jozibador qilishga va o‘zgalarning e’tiborini jalb qilishga yordam beradi. Shuningdek, sotsial media va raqamli texnologiyalar ham zamonaviy reklama orqali ijodiy faoliyat raqamli platformalar, ijtimoiy tarmoqlar va interaktiv reklama formatlarini qamrab oladi, bu esa kreativ indusriyani rivojlantiradi. Pirovardida reklama sohasidagi ijodiy faoliyat kreativ industriyaning muhim komponentlaridan biri sifatida iqtisodiy rivojlanish, brendlarning ijobiy imidjini yaratish va ijtimoiy ta’sirni kuchaytirishda muhim rol o‘ynaydi.

Kreativ industriyaning yana bir yo‘nalishi **san’at ashyolari va madaniy meros obyektlarini asrashga** doir faoliyatlarni o‘z ichiga oladi. Zero, san’at ashyolari va madaniy meros obyektlarini asrashga doir faoliyatlar ham kreativ industriyaning muhim qismi hisoblanadi. Kreativ industriyalar, o‘z navbatida, odamlarning ijodiy potensialini amaldagi mahsulotlarga va xizmatlarga aylantirishga yo‘naltirilgan soha bo‘lib, bunda san’at, madaniyat va yangi texnologiyalar o‘rtasidagi aloqa katta ahamiyatga ega.

Madaniy meros obyektlarini asrash faoliyatlari, jumladan, muzeylar, galereyalar, ko‘rgazmalar, madaniy tadbirlar va boshqa harakatlar kreativ industriyadagi ijodiy jarayonlarni tashkil etadi. Bu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar, yangilanish va innovatsiyalarni ommalashtirishni ta’minlash bilan bir qatorda, madaniy an’analarni saqlashga, rivojlantirishga va ularni kelajak nasliga etkazishga ham xizmat qiladi.

Bunday faoliyatlar o‘zining ijodiy yo‘nalishlari, bepoyon imkoniyatlari bilan kreativ industriyalarda yaratilgan buyumlar va boshqa o‘xshash yo‘nalishlar bilan integratsiya qilingan holda, keng ijodiy va iqtisodiy faoliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Kreativ industriyalarda muhim o‘rin tutadigan madaniy meros, dunyoning turli joylaridagi xususiyatlarni va urf-odatlarni namoyon etadi, bu esa turizm, ijodiy ta’lim va texnologik inovatsiyalar kabi sohalar uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

Shu bois, san’at ashyolari va madaniy meros obyektlarini asrash bilan bog‘liq faoliyatlar kreativ industriyaning asosi bo‘lib hisoblanadi. Bu indisturiya jamiyatni rivojlantirish, iqtisodiy o‘sish va madaniy almashuvga muvaffaqiyat bilan xizmat qiladi.

14.4. Kreativ iqtisodiyot sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari va mehnat bozori transformatsiyasiga mosligini ta’minlash masalalari

Qonunchilik palatasi tomonidan 2024-yil 30 sentyabrda qabul qilingan, Senat tomonidan 2024-yil 30 sentyabrda ma’qullangan “Kreativ iqtisodiyot to‘g‘risida”gi qonunning 11-moddasida **kreativ iqtisodiyot sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari** berilgan. Bu yo‘nalishlar quyidagilardan iboratligi ham ko‘rsatilgan. Bular tarkibiga:

1. “Kreativ industriya sohalarida fuqarolarning o‘z ijodiy va intellektual salohiyatini namoyon etishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish.

2. Kreativ industriyani iqtisodiyotning faol tarmoqlaridan biriga aylantirish orqali kreativ mahsulotlar aylanmasini oshirish.

3. Kreativ industriya subyektlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashda teng imkoniyatlar yaratish.

4. Kreativ industriya sohalarini qo‘llab-quvvatlash orqali kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish.

5. Kreativ iqtisodiyot sohasida ilm-fan va ilmiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlash hamda kreativ g‘oyalarni va loyihalarni amalga oshirishda ko‘maklashish.

6. Kreativ industriya subyektlari uchun zarur infratuzilmani yaratish;

7. Kreativ mahsulotlar yaratishda ilm-fan va texnologiya yutuqlaridan va innovatsion yondashuvlardan foydalanilishini ta’minlash.

8. Mazkur sohadagi ko‘nikmalarni rivojlantirish maqsadida kreativ industriya sohalarida ta’lim tizimini takomillashtirish, zamonaviy ta’lim dasturlarini joriy etish.

9. Kreativ industriya subyektlarining ijodiy salohiyati va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish bo‘yicha cheklovlarni bartaraf etish.

10. Milliy madaniyat va milliy brendlarni xalqaro maydonda keng tanitilishini ta’minlash”[142] kabi masalalr kiritilgan..

Ushbu yo‘nalishlarning har biriga qisqacha to‘xtalamiz. Chunki bularga amal qilish uchun mazkur siyosatning har biri to‘g‘risida tegishli tushunchaga ega bo‘lini taqozo qiladi.

I-YO‘NALISh.

Bunda kreativ industriya sohalarida fuqarolarning o‘z ijodiy va intellektual salohiyatini namoyon etishi uchun kerakli shart-sharoitlarni yaratish bir necha tadbirlarni amalga oshirishni talab etishini ko‘rishimiz mumkin. Tadqiqotlar ko‘rsatdiki, har bir shaxs o‘z ijodiy salohiyatni yanada rivojlantirish uchun tizimli yondashuv va samarali

[142] Ўзбекистон Республикасининг 2024 йил 3 октябрда имзоланган “Креатив иқтисодиёт тўғрисида”ги ЎРҚ-970-сонли Қонуни. Қонунчилик палатаси томонидан 2024 йил 30 сентябрда қабул қилинган. Сенат томонидан 2024 йил 30 сентябрда маъқулланган. 3 октябрь куни имзоланган

mexanizmlardan foydalanish zarurligini his qilgan holda yondoshish lozim ekan. Buning uchun:

Birinchi galda, kreativ industriya sohasida faoliyat olib borish uchun maxsus ta'lim dasturlari, master-klasslar, seminarlar tashkil etish zarur. Bu dasturlar ijodiy bilimlarni va ko'nikmalarni oshirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Chunki, bu soha oldin mavjud bo'lsada iqtisodiyot sohasiga yangi yo'nalish sifatida kirib kelmoqda. Bu esa, o'z navbatida mazkur soha maqsadidan kelib chiqqan holda ta'limiy dasturlarini ishlab chiqishni taqozo qiladi.

Ikkinchidan, davlat siyosatining ushbu iqtisodiyotga doir yo'nalishlari bo'yicha ijodkorlar va aholi o'rtasida ijodiy muloqot platformalarini yaratishni taqozo qiladi. Fuqarolarning ijodiy loyihalarini o'rgatishi orqali yangi g'oyalarni ishlab chiqish uchun fikrlar shakllanadi. Bunda odamlar erkin holatda o'z fikr va g'oyalarini bir-biri bilan baham ko'rgan holda hamkorlikda ish olib borishlari ham mumkin.

Uchinchidan, kreativ iqtisodiyotning rivojlanishi, bu bo'yicha yangi g'oyalarning shakllanishi uchun davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash masalasi ham ustuvorlikni tashkil qiladi. Buni ijodkorlar uchun grantlar va ijodiy loyihalarni e'lon qilib shu yo'l bilan ularni rag'batlantirish ham muhim hisoblanadi. Bunda erishilgan yutuqlar, ilmiy tavsiyalar yaratilgan joyida qolib ketmasligi uchun, mazkur sohaga daxldor odamlarga seminarlar tashkil qilish ham ma'lum darajada samara beradi.

To'rtinchidan, kreativ iqtisodiyotni taraqqiy ettirish uchun qulay muhit yaratish, ya'ni ijodkorlar uchun qulay joylar va muhitni ta'minlash, mazkur sohada faoliyat olib borayotganlar o'rtasida turli hamkorliklar tashkil etish ham sohning rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Hozirgi sharoitda kreativ muhitni yaratish masalasi mamlakatimiz va uning har bir hududi dolzarb hisoblanadi. Chunki hamma joyning o'ziga xosligi bilan birga, o'sha joyda yashaydigan ijodkorlarning ham o'ziga xos jihatlari mavjud.

Beshinchidan, kreativ iqtisodiyotni o'rganishga bag'ishlangan ta'limning barcha turlarini tashkil qilish. Bunda bevosita muloqot

asosida auditoriyada, masoffaviy ta'limni onlayn kurslarasosida tashkil qilish, internetda tegishli resurslarni yaratish, uslubiy materiallar, va vebinarlar tanlash imkonini beruvchi platformalarni ta'minlash ham muhim hisoblanadi. Buning jadalligi va ommaviyligini ta'minlash uchun mavjud resurslardan ham bepul foydalanish imkoniyatini ham yaratish maqsadga muvofiq.

Oltinchidan, har bir ijodkor o'zining ijodiy ishlarini va g'oyalarini namoyish qilish uchun turli konferensiyalar, festivallar, ko'rgazmalarni mamlakatimiz miqyosida va xalqaro darajada o'tkazish ham kreativ iqtisodiyotning rivojlanishiga munosib hissa bo'ladi. Muhimi ushbu jarayonda kreativ iqtisodiyotning amaliyotini namoyish qilish bilan birga, uning nazariy jihatlariga ham to'xtalib o'tish lozim, deb hisoblaymiz. Bu esa o'z navbatida dual ta'lim prinsiplariga ham amal qilingan bo'linadi.

Yettinchidan, mazkur soha yangi bo'lganligi tufayli bir qancha muammolar paydo bo'lishi tayin. Ushbu ijodiy muammolarni hal qilishda ijodkorlarning mahalliy, milliy yoki xalqaro darajada ishtirok etishlari uchun platformalar tashkil qilish ham maqsadga muvofiq. Bunda o'rganish jarayonini onlayn va oflayn tarzda ham amalga oshirish lozim bo'ladi.

Sakkizinchidan, kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish jarayonida fuqarolarning mazkur soha bo'yicha davlat siyosatida ishtirok etishi ta'minlanadi. Buning uchun kreativ industriyani rivojlantirishni mamlakatdagi davlat siyosatida birinchi o'ringa qo'yish, shuningdek, uning rivojlanishida ijodkorlarning fikr-mulohazalari va takliflarini inobatga olishi lozim bo'ladi.

Ushbu tadbirlar orqali kreativ industriya sohalarida fuqarolar o'z ijodiy va intellektual salohiyatini namoyon etishi uchun narzur muhim sharoitlarni yaratish imkoni tug'iladi.

II-YO'NALISh.

Kreativ industriyani iqtisodiyotning faol tarmoqlaridan biriga aylantirish uchun, shubhasiz, davlat va xususiy sektor hamkorligini

mustahkamlab, uning unumdorligini oshirish muhim ahamiyatga ega. Kreativ mahsulotlar hajmi aylanmasi oshirilsa, iqtisodiyotdagi innovatsion va raqobatbardoshlik ko‘rsatkichlari ham ortishi mumkin. Bundagi yaratilgan mahsulotning muhim xususiyati moddiy ne’matlarni sarflab, qo‘l yoki texnika yordamida emas, balki aqliy mehnatga asoslangan ijodiy mehnat orqali yaratiladi. Shu tufayli kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish uchun bir qanch takliflarni amalga oshirish lozim bo‘ladi. Bular:

Birinchidan, yuqoridagi maqsadga erishish uchun albatta moliyaviy qo‘llab-quvvatlash lozim bo‘ladi. Bunda kreativ valyutalar, grantlar va subsidiyalarning taqsimlashuvi ijodkorlar uchun moliyaviy resurslarni osonlashtiradi. Moliyaviy resurslarning ko‘payishiga kreativ mahsulotlarni sotish ham katta ahamiyatga ega. Kadrlar ham shunga mos bo‘lishi kerak. Kreativ mahsulotlarni yaratish bilan birga uni sotish masalasi ham muhim bosqich hisoblanadi.

Ikkinchidan, kreativ iqtisodiyotni iqtisodiyotning faol tarmoqlaridan biriga aylantirish uchun bunda ham ta’limning o‘ziga xos o‘rni bor. Kreativ sohalarda ta’limni joriy qilish, uning ainiq yo‘nalishlarini ishlab chiqish mazkur sohadagi yosh mutaxassislarning komoloti uchun muhim hisoblanadi.

Uchinchidan, yaratilgan mahsulotlarni sotishda o‘ziga xos marketing yo‘nalishlaridan ham foydalanish lozim bo‘ladi. Bunda asosiy mexanizmlardan biri to‘g‘ri va o‘z vaqtida qilingan reklama bo‘lib hisoblanadi. Kreativ mahsulotlar uchun samarali marketing strategiyalarini ishlab chiqish, bozorni tadqiq qilish va to‘g‘ri auditoriyaga etib borishni ta’minlash masalasi ham samaradorlikni oshirishning muhim omillaridan biri sifatida qaralishi lozim.

To‘rtinchidan, mazkur sohaga ilg‘or texnologik innovatsiyalarni joriy qilish ham kreativ iqtisodiyotning rivojlanishiga ta’sir qiladi. Zamonaviy texnologiyalar, jumladan raqamli vositalar va platformalarni ishlatish, kreativ mahsulotlarning ta’sirini oshirish imkoniyatini yaratadi.

Beshinchidan, mazkur soha bo‘yicha xalqaro hamkorlik masalasi ham muhim. Chunki ushbu iqtisodiyot bizda endi joriy qilinmoqda,

biroq dunyoning ayrim mamlakatldarida mazkur iqtisodiyot shakllanib, mamlakat YalMga ancha hissa qo‘shmoqda. Xullas, kreativ soha tashkilotlari va mutaxassislari o‘rtasida xalqaro aloqa va hamkorlikni mustahkamlash, bir-biri bilan tajriba almashish, global miqyosda ham foyda olish imkoniyatini yaratadi.

Oltiinchidan, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari singari kreativ iqtisodiyot sohasida ham klastlarni rivojlantirish masalasi ham muhim ahamiyatga ega. Bunda biri qadrlar bilan ishlasa, ikkinchisi kreativ mahsulotlarni yaratish bilan, uchinchisi esa reklama qilib sotish bilan shug‘ullanadi. Xullas, ushbu klaster tarkibiga san’atkorlar, ijodkor rassomlar, yozuvchilar, shoirlar kirishi mumkin. Bularning mahsulotlarni sotish bilan shug‘ullanadigan tadbirkorlar o‘rtasida hamkorlikni o‘rnatish ham kreativ klasterlarni yaratish va ularning faoliyatini rivojlantirish imkonini beradi.

Yettiinchidan, ijodkorlarni rag‘batlantirish uchun kreativ mahsulotlar bo‘yicha turli ko‘rgazmalar va konkurslar tashkil etish ham mualliflarni moddiy va ma’naviy jihatdan rag‘batlantirishga xizmat qiladi. Odilona rag‘bat bor joyda odamlarda intilish uyg‘onadi. Bu esa ishning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, kreativ industriyani rivojlantirish natijasida iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta’minlab, madaniy merosni saqlashga va yashash sifatini yaxshilashga ijobiy ta’sir ko‘rsatish mumkin ekan. Bu ham mamlakatimizda amalga oshirilayotgan “O‘zbekiston - 2030” strategiyasida ko‘zda tutilgan maqsad va vazifalarning bajarilishiga xizmat qiladi.

III -YO‘NALISh.

Kreativ industriya subyektlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashda teng imkoniyatlar yaratish.

Kreativ industriyalar, ya’ni san’at, madaniyat, dizayn, reklama, mediabuzilish va boshqa sohalar mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda ahamiyatli rol o‘ynaydi. Davlat tomonidan kreativ

industriya subyektlarini qo‘llab-quvvatlashda teng imkoniyatlarni yaratish uchun quyidagi choralar amalga oshirilishi mumkin:

Birinchidan, mazkur sohaga qo‘shimcha mablag‘lar va grantlar ajratish ko‘zda tutilgan bo‘lishi lozim. Davlat kreativ sektorda faoliyat yurituvchi shaxslar va tashkilotlarga grantlar, subsidiyalar yoki qo‘shimcha moliyalashtirish tufayli ularning loyihalarini amalga oshirish imkoniyatlarini yaratish lozim.Ijodkorlar haqiqiy ijod bilan shug‘ullanishi uchun moddiy manfaatdorlik ham muhim hisoblanadi.

Ikkinchidan, hozirgi paytda kreativ industriyalarda faoliyat yurituvchi shaxslar aksariyati ushbu soha bo‘yicha tegishli ma’lumotga ega emas. Shuning uchun ushbu soha xodimlariga maxsus treninglar, master-klaslar va seminarlar tashkil etilishi lozim. Soha xodimlari bilan turli treninglar va seminarlar o‘tkazish, bularning malaka va bilimlarini oshirishga yordam beradi.

Uchinchidan, kreativ industriyalarga oid qonunlarni va tartiblarni yaxshilash, byurokratiyani kamaytirish, soliq imtiyozlari yoki erkin iqtisodiy zonalar ta’sis etish ham sohaning rivojlanishiga muhim turtki bo‘ladi. Shu yo‘l bilan turli to‘siqlarni bartaraf etishga erishish ham mumkin. Qonun amal qilgan joyda korrupsiya bo‘lmaydi. Shu tufayli mazkur masalaga jamoatchilik nazoratini ham jalb qilish ancha samara beradi.

To‘rtinchidan, boshqa sohalar singari kreativ iqtisodiyotni ham tarmoqlararo hamkorlik qilishga imkoniyat yaratib berilishi lozim. Kreativ sektor va boshqa iqtisodiy sektorlar orasida hamkorlikni rivojlantirish, qilinadigan loyihalarimizni ko‘p tomonlama amalga oshirish imkonini beradi.

Beshinchidan, ushbu yo‘nalishda ham infrastrukturani rivojlantirish lozim. Chunki kreativ soha faollariga maxsus markazlar, studiyalar va boshqa jamoatchilik majlislari tashkil etadiga joylardan erkin foydalanish imkoniyalarini ham yaratish maqsadga muvofiq. Ushbu holat bilan ularning faoliyatlarini osonlatirishga erishish mumkin.

Oltinchidan, tegishli tarzda madaniyat tadbirlari, festivallar, ko‘rgazmalar va musobaqalarni tashkil etish, kreativ faollarning o‘z

iqtidorini namoyon etishga tegishli sharoit yaratish orqali ularga yordam beradi ham sohaning rivojlanishiga ko‘maklashadi. Tegishli idoralar kreativ iqtisodiyotning yadrosi bo‘lgan madaniyatni qo‘llab-quvvatlashni yaxshi yo‘lga qo‘ysa, ushbu sohada ham katta muvaffaqiyatlarni qo‘lga kiritish mumkin.

Yettinchidan, mamlakatimizda va uning barcha hududlarida kreativ sohaga aloqador loyihalarni rivojlantirish uchun tegishli tadqiqotlar o‘tkazish, va yutuqlar va kamchiliklarni aniqlab, yutuqlarni ommalashtirish va kamchiliklarni bartaraf qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqishni taqozo qiladi.

Sakkizinchidan, sohadagi muvaffaqiyatlarga erishishning bir yo‘nalishi ijodiy faoliyat uchun mo‘ljallangan qulay maydonlarni yaratish ham muvaffaqiyatlarning bir yo‘nalishi hisoblanadi. Ijodiy jamoalar va shaxslar uchun qulay joylar, ishlab chiqarish va ijod qilish uchun tegishli sharitga ega xonalarini yaratish ham soha rivoji uchun muhim omil hisoblanadi.

Bu qayd etilgan choralar kreativ industriya subyektlariga teng imkoniyatlar yaratish va ularning rivojlanishi uchun ham tenglikni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

IV-YO‘NALISh.

Ushbu yo‘nalish o‘z ichiga kreativ industriya sohalarini qo‘llab-quvvatlash orqali kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish masalasiga qaratilgan.

Kreativ industriyalar – bu madaniyat, san’at, dizayn, reklama, filmlar, musiqa va boshqa faoliyatlarni o‘z ichiga oluvchi sohalar bo‘lib, ular ijod va innovatsiyalarni rag‘batlantirishga katta imkoniyat yaratadi. Kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishda kreativ industriyalarni qo‘llab-quvvatlash bir necha yo‘nalishda amalga oshirilishi mumkin:

Birinchidan, barcha yo‘nalishda eng avvalo moliyalashtirish lozim bo‘ladi. Chunki mablag‘ bo‘lmasa biror maqsadga erishib bo‘lmaydi. Kreativ biznes loyihalarini maqsadli moliyalashtirish uchun maxsus fondlar, grantlar va kredit programmalari tashkil qilish lozim bo‘ladi.

Bu kichik bizneslarning ijodiy loyihalarini amalga oshirish imkoniyatini yaratadi.

Ikkinchidan, kreativ soha mutaxassislarini tayyorlash, ularning kasbiy imkoniyatlarini oshirish, seminarlar, treninglar va o‘quv kurslarini tashkil qilish lozim bo‘lmoqda. Chunki kreativ sohada ham paydo bo‘lgan bizneslarning raqobatdoshligini oshirishga ham yordam beradi. Buning uchun soha vakillarini kreativ mahsulotlarni sotish jarayonlarini ham ko‘za tutilgan.

Uchinchidan, sohaga oid kichik bizneslarning mahsulotlari va xizmatlarini reklama qilish uchun yangi platformalar, ijro murojaatlari va ijodiy kompaniyalarni ham takomillashtirishni taqozo qiladi. Bu kompaniyalar kreativ mahsulotlarni bozorga olib chiqib o‘zlarini tinishtirishga ham yordam beradi. Ko‘rinib turibdiki, har bir yo‘nalishda marketing ishtiroki bor. Bu soha reklama bilan rivojlanadi. Demak kreativ mahsulotlarni reklamasini ham to‘g‘ri yo‘lga qo‘yib, turli brendlarni yaratishni taqozo qiladi.

To‘rtinchidan, sohaga yangi texnologiyalar, raqamli platforma va ijodiy yechimlardan foydalanish uchun kreativ bizneslarga alohida e’tibor berish ham lozimdir. Bular kreativ industriyalarda raqobatda ustunlikka erishishga yordam beradi. Shu tufayli innovatsiyalarni rag‘batlantirish masalasi ham kun tartibida bo‘lishlikni taqozo qiladi.

Beshinchidan, kreativ iqtisodiyotda ham hamjihatlik va hamkorlik muhim rol o‘ynaydi. Chunki kichik bizneslarning o‘rtasida hamkorlikni rag‘batlantirish, kreativ qishloqlarni tashkil qilish, ijodiy loyihalar va festivallarni o‘tkazish, aynan hamkorlikning hosilasi hisoblanadi. Bu jamoatchilikning e’tiborini jalb qilish va ko‘pchilik ijodkorlarni birlashtirishga ham yordam beradi.

Oltinchidan, ushbu yo‘nalishda ham qonunchilikka amal qilish va bu borada to‘g‘ri siyosat olib borish, kreativ industriyalarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan siyosatlarni ishlab chiqish, intelektual mulk huquqini muhofaza qilish va tadbirkorlik muhitini yaxshilashga ko‘maklashadi. Pirovardida, bu kichik bizneslarga huquqiy himoyani ta’minlash imkonini beradi.

Yettinchidan, texnologik infratuzilmani ham takomillashtirish lozim. Kreativ loyihalarni amalga oshirish uchun zamonaviy texnologiyalar va vositalarni ta'minlash. Innovatsion platformalar va elementlarni joriy qilish, kreativ bizneslarning samaradorligi oshirishga yordam beradi. Hozirgi innovatsion iqtisodiyot sharoitida barcha sohalar singari kreativ iqtisodiyotda ham ilg'or texnologik infratuzilmani tashkil etishni taqozo qiladi.

Kreativ industriyalarni rivojlantirish kichik va o'rta biznesning ijodiy sifatini oshirish, yangi loyihalarni amalga tadbiq etish va shu orqali mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Kreativ iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlaridan biri ijodkorlar o'zini o'zi ish bilan band qilish prinsipida ham faoliyat ko'rsatishlari mumkin. Chunki, har bir ijodkorning o'ziga xos yo'nalishlari mavjud.

Kreativ iqtisodiyotning mazmuni, uning tarifi, prinsiplari va industriyasining turlarini tadqiq qilish jarayonida bir qancha xulosalarga kelindi.

Birinchidan, "Kreativ iqtisodiyot" fanini yaratish va uni oliy o'quv yurtlarida darslik sifatida kiritish va amaliyotda qo'llash, ushbu darslik asosida kadrlarni tayyorlashga, qayta tayyorlashga va ularning malakasini oshirishga doir davlat ta'lim standartlarini hamda ta'lim dasturlarini takomillashtirish ham maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Ikkinchidan, kreativ iqtisodiyotning hisob-kitobini alohida tarmoqlari bo'yicha olib borish va uning mamlakat Yalpi ichki mahsulotidagi (YaIM) va hududiy mahsulotlar tarkibidagi hissasini aniq hisob-kitobini yuritish ham maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, kreativ iqtisodiyotga davlat, xususiy investitsiyalarni jalb qilish va davlat-xususiy sherikchilik asosida rivojlantirish yo'llarini ishlab chiqish va mazkur sohada tadbirkorlikning innovatsion raqamli iqtisodiyot imkoniyatlaridan foydalangan holda hamohang ravishda olib borish qoidalarini ham ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

To'rtinchidan, kreativ iqtisodiyotni tez va sifatli o'zlashtirish uchun mazkur sohaga dual ta'limni joriy qilish, bunda nazariy bilimlar

bilan birga amaliy ko‘nikmalarning uzviy bog‘liqligini ta’minlashga ham alohida e’tibor qaratish.

Beshinchidan, mazkur soha bo‘yicha jahon tajribasini o‘rganish va undan foydalanish uchun rivojlangan mamlakatlardagi yetakchi xalqaro ta’lim tashkilotlari bilan birgalikda sohaga oid ixtisoslashtirilgan qo‘shimcha ta’lim dasturlarini va bular asosida o‘quv-uslubiy, ilmiy va amaliy adabiyotlarni ham yaratish lozim, deb hisoblaymiz.

Xulosa qilib aytganda, kreativ iqtisodiyotning fanga kirib kelishi, uning oliy ta’lim da o‘qitilib, mutaxassislarga shu yo‘nalishda bilim berilishi, iqtisodiyotning bir muhim turi sifatida mamlakatlar iqtisodiyotining yuksalishiga, raqobatbardoshligining mustahkamlanishiga, aholining farovonligining oshishiga xizmat qiladi.

O‘zini-o‘zi nazorat qilish va takrorlash uchun savollar:

1. Mehnat bozori transformatsiyasida kreativ iqtisodiyotning prinsiplarini moslashtirish masalalari.
2. Kreativ industriyaning yana bir yo‘nalishi ommaviy axborot vositalari.
3. Kreativ iqtisodiyot industriyasini mehnat bozori transformatsiyasiga moslashtirish masalalari.
4. Adabiy ijod tarixiy va madaniy omillarga ham uzviy bog‘ligi.
5. Arxitektura kreativ industriya sifatidagi o‘rni.
6. Insonlar iqtisodiyotini va madaniyatini rivojlantirishda muhim roli.
7. Muzeylar kreativ industriya sifatidagi muhim xususiyatlari.
8. Kutubxonalar kreativ industriyasida hamkorlik yo‘nalishi sifatida.
9. G‘oya sinergiyasini yaratish va moslashuvchanlikni rag‘batlantirish.
10. Xodimlarni tayyorlash va rivojlantirishga sarmoya kiritish.
11. Zamonaviy jamiyatda mehnat bozori transformatsiyasini optimallashtirishda quyidagi kreativ yondashuvlar.

12. Mehnat bozori transformatsiyasini optimallashtirishda kreativ yondashuvlar.

13. Kreativ iqtisodiyot sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari.

14. Kreativ iqtisodiyotning mehnat bozori transformatsiyasiga mosligini ta’minlash masalalari.

15. Kreativ iqtisodiyotni o‘rganishga bag‘ishlangan ta’limning turlari.

XV BOB. MEHNAT BOZORI TRANSFORMATSIYASIDA (MBT) SWOT TAHLILIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

15.1. SWOT tahlil tushunchasi va uning MBTda qo‘llanilishi.

15.2. Iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlarga, xususan MBTga ham baho berishda SWOT tahlildan foydalanish.

15.3. Ko‘rilayotgan masalaning kuchli tomonlari.

15.4. Ko‘rilayotgan masalaning zaif tomonlari.

15.5. Ko‘rilayotgan masalaning imkoniyatlari.

15.6. Ko‘rilayotgan masala bo‘yicha tahdidlar.

15.7. MBTda SWOT tahlilni o‘tkazish bo‘g‘inlari va strategik maqsadlari.

15.1. SWOT tahlil tushunchasi va uning MBTda qo‘llanilishi

Hozirgi sharoitda har qanday jarayonni tadqiq qilishda uning kuchli tomonlarini, imkoniyatlari, zaif tomonlari va tahdidlarini o‘rganish hayotiy zaruratga aylanib qoldi. Ushbu masalani yoritish uchun asosan SWOT tahlilning imkoniyatlaridan foydalaniladi. Chunki, har bir jarayonni takomillashtirishda, uning samaradorligini oshirishda, tabiiyki, shu holatlar bir vaqtning o‘zida mujassam bo‘ladi. Ularni bilmasdan, tahlil qilmasdan turib, u yoki bu jarayonni takomillashtirish borasidagi takliflar yetarli darajada asoslanmagan hisoblanadi.

Shuni nazarda tutish kerakki, SWOT tahlilda mehnat resurslari transfarmatsiyasini (MRT) rivojlantirishda uning kuchli (Strengths – S) va zaif (Weaknesses – W) tomonlari bevosita bog‘liq bo‘ladi va ularni MBTda o‘z kuchi bilan boshqarishi mumkin bo‘ladi. Ammo uning imoniyatlari (Opportunities – O) va tahdidlari (Threats – T) aksariyat holda tashqi omillar bo‘lib, ularni boshqarish va bartaraf qilishda ancha tadbirlarni qo‘llashiga to‘g‘ri keladi. Buning o‘zbek tilidagi tarjimasining bosh harflari KZIT (kuchli va zaif hamda imkoniyatlar va tahdidlar) tahlili sifatida namoyon bo‘ladi. Shunday qilib, MBTda amalga oshirilayotgan SWOT tahlilda mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish bilan birga tahdidlarni bartaraf qilish

mexanizmlarini ham ishlab chiqilishi lozim bo‘ladi. Bu jarayon SWOT tahlildan keyingi bosqich bo‘lib hisoblanadi. Ushbu tahlilni amalga oshirishning bir qancha afzalliklari mavjud:

Birinchidan, ushbu tahlilda dalillar (faktlar) bilan birga mantiqiy tahlil usullaridan ham keng foydalaniladi.

Ikkinchidan, mahalliy sharoitning imkoniyatlarini, ichki va tashqi omillarning ta’sirini hisobga olishda cheklanmagan sabablarni keltirish mumkin bo‘ladi.

Uchinchidan, shu tariqa ushbu tahlilda barcha mutaxassislar va mutasaddilarning ham fikrlarini inobatga olish mumkin bo‘ladi va ularning tajribasi, ilmiy imkoniyatlaridan keng foydalanish ham mumkin.

SWOT tahlilning yana bir muhim xususiyati, MBTning ahvolini chuqur tahlil qilish jarayonida nimalarga ahamiyat berish lozimligi ayon bo‘ladi. Kuchli tomonlarini yanada kuchaytirish, zaif tomonlarini bartaraf qilib, ularni kuchlantirish, imkoniyatlari-dan to‘liq foydalanish va tahdidlarning oldini olish uchun tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyati ham keng bo‘ladi.

Bulardan kelib chiqib SWOT tahlil tushunchasining ta’rifini ishlab chiqish mumkin. Bizning fikrimizcha, unga quyidagicha ta’rif berish mumkin. **SWOT tahlil deyilganda, tahlil qilinayotgan Obyektning kuchli va zaif tomonlarini, imkoniyatlari va tahdidlarini keng miqyosda aniqlab beradigan tahlilning shakli tushuniladi.** Ushbu ta’rifda mazkur tahlilning o‘ziga xos jihatlari to‘liq ifodalangan va shu jihatdan uning nazariy talablariga to‘liq javob beradi, deb o‘ylaymiz.

Ko‘rinib turibdiki, SWOT tahlil boshqa tahlillar singari boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun asosiy axborotlar bazasini tayyorlab beradigan eng samarali mexanizmlardan biri hisoblanadi. Shu tufayli har qanday MBTning strategik rejasini ishlab chiqishdan oldin albatta SWOT tahlilni o‘tkazish zarurati ekanligini inobatga olish lozim. Chunki MBTning rivojlanish imkoniyatlari juda katta va keng bo‘lishi mumkin. Ammo ularni SWOT tahlil yo‘li bilan aniqlab olinmasa, shu imkoniyatlarni hisobga olish va ulardan foydalanish o‘ta mushkul.

Ko‘rinib turibdiki, MBT faoliyatida SWOT tahlildan foydalanish uning strategik yo‘nalishini aniqlash va unga to‘liq erishish uchun tegishli kurash maydonini aniqlab berar ekan.

SWOT tahlilning yana bir muhim jihati, tahlil qilinayotgan MBTning barcha kuchli va zaif tomonlari, imkoniyat va tahdidlari tegishli jadvalga bandma-band kiritilib, barcha mutaxassislar va mutasaddilarga tarqatiladi. Bunda har birining o‘rni belgilanadi va ular ushbu tahlil orqali nimaga, qachon va qaerda ahamiyat berish kerakligini biladi va tegishli vazifasini bajarish orqali MBT faoliyatining yaxshilanishiga tegishli xizmatlarni qilib boradi.

SWOT tahlilning yana bir muhim xususiyatlaridan biri, uning iqtisodiy-ijtimoiy hayotimizning barcha jabhalarida keng ko‘lamda qo‘llanilishi bilan ham xarakterlanadi. Jumladan, u ishlab chiqarish sohasida qanday foydalansa, xizmat ko‘rsatish sohasida ham xuddi shunday foydalanilishi mumkin. Hatto oilaviy hayotning ham hamma sohasida, biznesning barcha turlarida, strategik rejalashtirishning hamma yo‘nalishlarida ham undan samarali foydalanish mumkinligiga amin bo‘ldik. Shu tufayli har bir mutaxassis ushbu tahlilni puxta o‘zlashtirib olishi lozim. Bu ayniqsa MBTda o‘ta muhim.

15.2. Iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlarga, xususan MBTga ham baho berishda SWOT tahlildan foydalanish

Jamiyatda turli iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlar tizimli ravishda va dialektik tarzda sodir bo‘lib boraveradi. Ushbu jarayonlarga baho berishda SWOT tahlil usullari va imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Sodir bo‘lib turadigan, bugungi kun talabidan kelib chiqadigan turli iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlar tizimda yuqori texnologik xizmatlar muhim ahamiyatga ega. Chunki iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayoni pirovardida yuqori texnologik xizmatlarni amaliyotga joriy qilishga olib keladi. Shu tufayli, yuqori texnologik xizmatlarni rivojlantirishning ham SWOT tahlilini ishlab chiqishni maqsadga muvofiq, deb topdik. Bunga yana bir sabab, yuqori texnologik xizmatlarning ayrim elementlari MBTda ham qo‘llaniladi.

Bularni inobatga olib, biz Samarqand viloyatida yuqori texnologiya asosida xizmat koʻrsatish bilan shugʻullanayotgan mehmonxona xoʻjaliklarining faoliyatini oʻrganish, ularning shahar va qishloq joylaridagi holatini tadqiq qilish va bunday sub'ektlarga rahbarlik qilayotgan mutaxassislar orasida bir necha bor sotsiologik soʻrovlar oʻtkazish asosida MBTda yuqori texnologik xizmatlarni (YuTX) rivojlantirishning SWOT tahlilini ishlab chiqishga muyassar boʻldik. Buning mazmunini ochib berish uchun uning ta'rifiga diqqatni qaratish lozim, degan xulosaga kelindi.

Tadqiqotlar natijasida YuTXga quyidagicha ta'rif berishni maqsadga muvofiq, deb topdik. **"Yuqori texnologik xizmat deyilganda, insonning, xoʻjalik yurituvchi sub'ektlar, davlat va jamiyatning ma'lum bir ehtiyojlarini qondirishga yoʻnaltirilgan kishilarning an'anaviy xizmatlardan ortiq darajali usullar, vositalar, operatsiyalar majmuini oʻz ichiga olgan insonlar ishtiroki minimallashtirilgan xizmat jarayonlari bilan bogʻliq naf keltiradigan ongli faoliyati tushuniladi".** Ushbu ta'rifning afzalligi shundaki, unda keltirilgan toʻrtta soʻz birikmasidan (yuqori, texnologiya, xizmat, minimallashtirilgan inson ishtiroki) iborat boʻlgan gapning mazmuni toʻliq qamrab olingan. Bundan tashqari, yuqori texnologiyalar asosan texnika yordamida amalga oshiriladi. Shu tufayli unda insonlarning ishtiroki bir muncha kam boʻladi. Shu tufayli ushbu ta'rif oʻrganilayotgan atamaning mazmunini toʻliq qamrab oladi, degan umiddamiz. Buning nazariy jihatlarini oʻtgan konferensiya nashrlarida O.M.Pardaev tamonidan asoslangan ekan[143]. Hozirgi sharoitda innovatsion va raqamli iqtisodiyot sharoitida YuTX rivojlanishi tabiiy hol. Chunki shunday texnologiyalar boʻlmasa, hozirgi jadal rivojlanish davom etayotgan sharoitda korxonalarning, hududlar va mamlakatlarning raqobatbardoshligini ta'minlash murakkablashib qoladi. Shu tufayli hozirgi paytda qilinayotgan barcha tadqiqotlar YuTXni oʻrganishga qaratilishi maqsadga muvofiq. Mazkur ishda

[143] Пардаев О. Юқори технологик хизматларнинг моҳияти ва таърифи.// Бухгалтерия ҳисоби, таҳлил, аудит ва иқтисодиётнинг долгарб муаммолари. РИАК материаллари.2011 йил 15-16 июнь. (2-қисм). Самарқанд, 2011. – 68-72.

SWOT tahlilning mazmunini YuTXga mos holda ochib berish uchun quyidagi jadvalni tuzishni tavsiya qilamiz (15.1-jadval).

15.1-jadval

Yuqori texnologik xizmatlarni (YuTX) rivojlantirishning SWOT tahlili[144]

Kuchli tomonlari	Zaif tomonlari
• YuTXni rivojlantirish-ning Obyektiv zarurat ekanligi; • YuTXni amalga oshirish uchun texnika va texnolo-giyalarni xarid qilish (xorijdan bo‘lsada) imkoni-yatining mavjudligi; • YuTXni amalga oshira-digan milliy kadrlarning shakllanayot-ganligi; • YuTXga potensial iste’mol-chilarning yildan-yilga oshib borayotganligi; • YuTXni ko‘rsatishga qaratilg-an tadbirkorlarning shakllangan-ligi va mazkur tadbirkorlikning rivojlanayotganligi; • mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkor-likni rivojlantirishda asosiy e’tibor-ni yuqori texnologik xizmatlarni rivojlantirishga ham qaratilayotganligi; • YuTXni rivojlantirish masalasining davlat dasturiga kiritilganligi kabilar.	• YuTXni amalga oshiradigan kadrlarning to‘liq yetishmasligi; • YuTXni amalga oshiradigan kichik mutaxassislarni tayyorlashning ommaviy tarzda yo‘lga qo‘yilmagan-ligi; • YuTXni amalga oshiradigan texnika va texnologiyalarning o‘zimizda kam miqdorda ishlab chiqilayotganligi tufayli ularning asosiy qismini xorijdan keltirishga majbur bo‘layotganligimiz; • YuTXdan foydalanishga odamlar o‘rtasida ommaviy tarzda ko‘nikma hosil bo‘lmaganligi; • YuTXga hamma joyda (qishloqlarda, tuman markaz-lari va shaharlarda) bir xil talabning shakllanmagan-ligi; • litsenziya olib faoliyat ko‘rsatishga mo‘ljallangan tadbirkorlikda hali ancha byurakratik to‘siqlarning mavjudligi.
Imkoniyatlari	**Tahdidlar**
• aholi turmush daraja-sining osh-ib borishi, ushbu xizmatga bo‘lgan ehtiyojni o‘stirish mumkinligi; • YuTX bo‘yicha kadrlar tayyorlash zarur bo‘lgan taqdirda mamlakat-imizning barcha hududlarida kasb-hunar kollejlarining barpo etilganligi; • tadbirkorlikni ro‘yxatga olish-ning ixchamlashtirilganligi va uning “bitta darcha” tamoyili asosida shakllanayotganligi; • YuTXni ko‘rsatishda xusu-siy sek-torning rivojlanishi uchun katta imkoniyatlarning mavjudligi; • joriy yildan boshlab oilaviy biznesning rivojlanishi uchun tegishli me’yoriy hujjatlarning qabul qilinishi va ushbu sohaning rivojlanishi uchun keng yo‘lning	• qishloq joylarda YuTXni ko‘rsatish uchun uni harakatga keltiruvchi elektr energiyasining barqaror emasligi; • qishloq joylarda YuTXga bo‘lgan ehtiyojning o‘sishiga va uni rivoj-lantirishga sharoitning yetarli emasligi; • yuqori texnologik xizmatlarning uzluksizligini ta’minlash uchun gaz bosimining hamma joyda yetarli emasligi bilan bog‘liq sharoitning yo‘qligi; • hamon tadbirkorlikni rivojlanti-rishda, uning tarkibiy qismi bo‘lgan YuTXni ham taraqqiy ettirishda byurakratik to‘siqlar-ning barham topmaganligi; • xorijiy mamlakatlardan YuTXni ko‘rsatuvchi texnologiyalarni olib kelishda konvertatsiya masalasining hamon murakkabligicha qolayotgan-ligi kabilar.

[144] Вилоятда фаолият кўрсатаётган хизмат кўрсатиш корхоналарининг ҳолатини тадқиқ қилиш ва бир неча бор улар фаолиятини кузатиш ҳамда корхоналар раҳбарлари орасида социологик сўровлар ўтказиш асосида муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.

ochib berilishi;	

Mazkur jadvalda keltirilgan yuqori texnologik xizmatlarni (YuTX) rivojlantirishning SWOT tahliliga sharhni har bir yo‘nalishi bo‘yicha ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq, deb topdik.

15.3. Ko‘rilayotgan masalaning kuchli tomonlari

Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, YuTXni ko‘rsatishning bir qancha **kuchli tomonlari** ham mavjud ekan. Bunday kuchli tomonlarning mavjudligi, uni rivojlantirishning istiqboli borligidan, kelajakda ushbu jarayonning barqaror taraqqiyotini ta’minlash mumkinligidan dalolat beradi. Bular jumlasiga, masalan, YuTXni rivojlantirishning Obyektiv zarurat ekanligini kiritish mumkin. Bu Obyektivlik sohani rivojlantirish imkoniyatlarini qidirishga, shunga mos tadbirkorlikni rivojlantirishga undaydi. Shuningdek, MBTda ham muhim ahamiyat kasb etidi. Chunki yangi innovayion iqtisodiyotga mos kadrlarni tayyorlashni taqozo qiladi.

Bunday tadbirlardan biri, hozirgi paytda iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayoni bilan bevosita bog‘liqdir. Yana bir jihat, YuTXni amalga oshirish uchun texnika va texnologiyalarni xarid qilish (xorijdan bo‘lsada) imkoniyatining mavjudligidir. Biroq ulardan samarali foydalanish uchun bularni ishlata oladigan kadrlar zarur bo‘ladi. Bu Obyektiv zaruriyat uni rivojlantirishga da’vat etishi tayin. Ammo bunday texnika yoki texnologiya bo‘lmasa, har qanday istak orzuligicha qolib ketaveradi. Biroq, turli mamlakatlar integratsiyalashuv jarayonini o‘tayotgan hozirgi sharoitda istalgan texnika va texnologiyani xorijiy mamlakatlardan bo‘lsada xarid qilish imkoniyati mavjud. Bu esa, o‘z navbatida, YuTXni ko‘rsatishga mo‘ljallangan texnika va texnologiyalar ta’minotini yo‘lga qo‘yish imkoniyatini beradi.

Hozirgi sharoitda YuTXni amalga oshiradigan kadrlarning MBT uchun kam bo‘lsada mavjudligi ham sohani rivojlantirish uchun katta umid bag‘ishlaydi. Chunki bularda turli o‘quv kurslarini tashkil qilib, ustoz-shogird tamoyiliga asoslangan holda faoliyat ko‘rsatib, xohlovchilarni o‘rgatish imkoniyatlarini yaratishga e’tiborqaratilmoqda. Shuni ta’kidlash joizki istiqbolli faoliyatni o‘rganishga hamisha ishtiyoq

mavjud va u so‘nmaydi. Chunki buning zamirida ish bilan bandlik masalalari, iqtisodiyotni rivojlantirish orqali mamlakatimiz aholisining farovonligini va uning raqobatbardoshligini oshirish masalalari yotibdi.

Mazkur sohaning kuchli tomonlari qatoriga YuTXga potensial iste’molchilarning yildan-yilga oshib borayotganligini ham misol keltirish mumkin. Chunki aholining intellektual saviyasi o‘sib bormoqda. Bu esa, o‘z navbatida hayot sifatini yaxshilash zaruratini tug‘dirmoqda. Bu zaruriyat, tabiiyki, YuTXdan foydalanishni va unda MBTni joriy qilishni taqozo qiladi. Ushbu jarayon o‘z-o‘zidan YuTXga potensial iste’molchilarning yildan-yilga oshib borishiga olib keladi.

YuTXni ko‘rsatishga qaratilgan tadbirkorlarning shakllanganligi va mazkur tadbirkorlikning rivojlanayotganligi ham ushbu sohaning kuchli tomonlariga kiritish lozim. Chunki tadbirkorlar MBTda hozirgi sharoitda ko‘r-ko‘rona faoliyat ko‘rsatmaydilar. Bozor nimani talab qilsa, asosiy e’tiborni shunga qaratmoqdalar. Tabiiyki, bugungi kunda va kelgusi istiqbolda ham mamlakatimizda YuTXga bo‘lgan ehtiyoj oshib boraveradi. Bu esa, o‘z navbatida shunga mos tadbirkorlikning rivojlanishiga va MBTning takomillashuviga olib keladi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda asosiy e’tiborni yuqori texnologik xizmatlarni rivojlantirishga qaratilayotganligini alohida ta’kidlash joiz. Chunki mamlakatimizning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganidek: “Bugungi kunda biz kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda faqat savdo-sotiq, mayda hunarmandchilik bilan cheklanib qolmasdan, birinchi navbatda, zamonaviy texnologiya va asbob uskunalar asosida sanoat mahsulotlari ishlab chiqaradigan, ichki va tashqi bozordagi o‘zgarishlarga tez moslashadigan xususiy tadbirkorlik sohasini taraqqiy ettirishga alohida ahamiyat berilmoqda”[145], degan bo‘lsa, ushbu jarayon bugungi kunda yanada takomillashmoqda. Ko‘rinib turibdiki, YuTXga talab bugun paydo bo‘lgan emas. Zamonaviy texnologiya va asbob uskunalar asosida

[145] Каримов И.А. Бизнинг йўлимиз – демократик ислоҳотларни чуқурлаштириш ва модернизация жараёнини изчил давом эттириш йўлидир.//Президент Ислом Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 19 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси.- “Халқ сўзи” газетаси, 2011 йил 8 декабрь. – Б. 2.

sanoat mahsulotlari ishlab chiqaradigan sohaning rivojlanishi tabiiy ravishda YuTXning ham rivojlanishini taqozo qiladi. Hozir YuTXlar barcha sohalarda ham qo‘llanilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev aytganlaridek “...tibbiy, ekologik, gastronomik, etno, ekstremal va boshqa turizm yo‘nalishlarini rivojlantirish bo‘yicha olib borayotgan ishlarimiz hisobidan kelgusida kamida 1 millionta yangi ish joylari yaratishni maqsad qilganmiz” degan so‘zlari mazkur sohaning, shu bilan birga YuTXning ham qanchalik muhimligini ko‘rsatib turibdi.

Yangi O‘zbekistonda MBTni turizm sohasiga qaratadigan bo‘lsak, Bu bo‘yicha rivojlangan davlatlar qatoriga kirishimiz uchun yetarli asoslari mavjud. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining ma’lumotlari bo‘yicha O‘zbekistonga qayta kelishni hohlaganlar 82,1%ni, shularning 54,3 %i bir yil muddatlarga qayta kelishini, **turistlarning 39,3% dam olish va sog‘lomlashtirish** maqsadlarida kelganligini bildirgan. Chunki, turizm sohasining zamonaviy infratuzilmarini yaratish jadal tezlikda davom ettirilib, hozirgi kunga kelib mamlakatimizda bu sohaning rivojlanishiga e’tibor davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlash maqsadida “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot straregiyasi” ishlab chiqildi[146].

Yuqoridagi nazariy xulosalarga tayangan holda turizm sohasining ustuvor tarmog‘i bo‘lgan **mehmonxona xo‘jaliklari**ni rivojlantirishning kuchli tomonlariga e’tiborni qaratamiz. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- turizm sohasidagi mehmonxona xo‘jaliklarining xususiy mulkka asoslanganligi:
- turizmning rivojlanish strategiyasining mavjudligi;
- soha uchun maxsus kadrlarning tayyorlanayotganligi;
- sohada malakali va tajribali kadrlarning shakllanganligi;

[146] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январда “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сонли Фармони.

- sohada raqobat muhitining yaratilganligi va sof raqobatning shakllanganligi;
- mehmonxonalar tarmog‘ining zamon talablariga javob beradigan darajada tashkil qilinganligi;
- mehmonxonalarning reklamani yo‘lga qo‘yganligi;
- mehmonxonalarda yuqori darajadagi xizmat sifatini ko‘rsatilib kelinayotganligi;
- mehmonxona narxining unchalik baland emasligi va h.k.

Ushbu kuchli tomonlarini saqlab turish va yanada kuchaytirish uchun MBTda kurashish lozim bo‘ladi. Shunday holatda, ya’ni MBT xodimlari ishtirokida mazkur xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar o‘zlarining raqobatbardoshligini ta’minlay oladi. Bunday holat har bir mehmonxona xo‘jaligini o‘z sohasida yetakchilardan biriga aylanishini ta’minlaydi. Demak, ushbu holat MBga zamonaviy talablarga javob beradigan kadrlarning kirib kelishi lozimligini taqozo qiladi.

15.4. Ko‘rilayotgan masalaning zaif tomonlari

Tadqiqotlarimiz ko‘rsatdiki, YuTXni rivojlantirishda hali uning **zaif tomonlari** ham anchagina. Bunday masalalardan biri sifatida, uni amalga oshiradigan kadrlarning mamlakatimizda to‘liq yetishmasligida, deb baholash mumkin. Chunki yuqori texnologik xizmatlarni amalga oshiradigan asbob-uskunalar va jihozlarning ko‘pchiligini xorijdan olib kelishimizga to‘g‘ri kelmoqda. Biroq, uni ishlatish va tegishli tarzda ta’mirlash masalasi uchun malakali kadrlar shakllangan bo‘lishi kerak. Ammo bunday kadrlarni oldindan kasb-hunar kollejlarida tayyorlashni yo‘lga qo‘yishga ulgurmagan bo‘lamiz. Chunki dunyoda fan va texnika shu darajada tez rivojlanmoqdaki, ularning barcha yangiliklarini kuzatib, unga tayyor bo‘lib borish masalasi ancha murakkab bo‘lmoqda. Shu tufayli hozirgi sharoitda dunyodagi barcha yangilanish va o‘zgarishlarni, yangilik va ixtirolarni kuzatib borishga va shunga mos kadrlarni shakllantirib borishga, mehnat bozoriga talabga mos kadrlarning izchillik bilan kirishish ta’minlashga kirishishni taqozo qiladi.

MBTda ushbu holat bilan bog‘liq yana bir jihat, YuTXni amalga oshiradigan kichik mutaxassislarni tegishli o‘quv muassasalarida tayyorlashning ommaviy tarzda yo‘lga qo‘yilmagan-ligidadir. Hozirgi sharoitda barcha sohalarda katta-kichik kadrlarni tayyorlashning yo‘lga qo‘yilganligi, ularning takomillashib borayotganligi quvonarli hol. Ammo yuqori texnologik xizmatlarni ko‘rsatishga mo‘ljallangan kadrlar, tan olib aytish kerak, hali yetarli emas. Odamlarimizning ko‘pi shunday xizmatlarni amalga oshirmoqda, lekin hammasi o‘zi o‘rganish evaziga kasbni egallamoqda. Haqiqiy o‘qib, ma’lum darajada hujjatga ega bo‘lib, faoliyat ko‘rsatgan kadr kam yanglishadi.

YuTXni rivojlantirishning zaif tomonlaridan biri, ularni amalga oshiradigan texnika va texnologiyalarning o‘zimizda kam miqdorda ishlab chiqilayotganligi tufayli ularning asosiy qismini xorijdan keltirishga majbur bo‘layotganligimizdir. Juda ko‘p tadbirkorlarimiz, deyarli barcha sohalarda har qanday texnika va texnologiyalarni xorijdan olib kelishga tayyor. Ammo ular bilan o‘tkazilgan so‘rovlarimizdan ayon bo‘ldiki, hamon xorijiy firmalar bilan pul o‘tkazishni amalga oshirishda bir qancha qiyinchiliklar mavjudligini qayd etdilar. Bu holat ham umuman tadbirkorlikni, uning tarkibiy qismi bo‘lgan YuTXni ko‘rsatish bilan bog‘liq ishlarni jadal rivojlantirishga bir muncha salbiy ta’sirini ko‘rsatadi.

Hozirgi sharoitda xizmatlar bozori mamlakatimizda jadal rivojlanmoqda. Uning tarkibiy qismi bo‘lgan YuTX bilan bog‘liq bozor ham barqaror taraqqiyot bosqichiga kirdi. Ammo ulardan foydalanishga odamlar o‘rtasida ommaviy tarzda ko‘nikma hosil bo‘lmaganligi ham masalaning zaif tomonlaridan biridir. Juda ko‘p hududlarda ushbu xizmatlar turini amalga oshirish va rivojlantirish borasida ham, yuqorida ta’kidlanganidek, elektr energiyasi va gaz ta’minoti bilan bog‘liq muammolar mavjud. Shu tufayli mamlakatimizning barcha hududlarida kommunal siyosatni o‘nglash borasida ancha ishlarni amalga oshirish lozim ekan.

YuTXni rivojlantirishdagi zaif tomonlardan biri, unga hamma joyda (qishloqlarda, tuman markazlari va shaharlarda) bir xil talabning shakllanmaganligidir. Hozirgi paytda xizmatlarning asosiy

iste'molchilari aholi o'rtasida ham, ishlab chiqaruvchi sub'ektlarda ham shahar bilan qishloqni taqqoslaganda, shahar bo'lib qolmoqda. Ammo aholining yashash sifatini ta'minlash uchun ushbu xizmatlarni imkon qadar qishloqda ham, shaharda ham bir xilda rivojlantirishga erishish lozimdir. Buning uchun juda katta tashkiliy tadbirlarni amalga oshirishni, uning rivojlanishini ta'minlash borasida bir qancha kuchlarni birlashtirishni, YuTXni rivojlantirish klasterini tashkil qilishni yo'lga qo'yish lozim.

Litsenziya olib faoliyat ko'rsatishga mo'ljallangan tadbirkorlikda hali ancha byurakratik to'siqlarning mavjudligini ham masalaning zaif tomonlaridan biriga kiritish mumkin. Chunki, bunday faoliyat bilan shug'ullanishni maqsad qilib qo'ygan tadbirkorning juda ko'p viloyat va respublika tashkilotlari eshiklarini qoqishiga to'g'ri kelmoqda. Achinarlisi, viloyatdan bir tashkilot tekshiruvidan o'tilsa, uning respublikadagi tashkilotidan ham o'tilishiga to'g'ri keladi. Hammasining o'ziga yarasha boj to'lovlari bor. Bundan tashqari, viloyat tashkiloti sinchikovlik bilan tekshirib, barcha javobgarlikni bo'yniga olib, ruxsat beradi. Ammo uning respublika tashkiloti aynan yana shuni takrorlaydi. Bunday holatlar ishning rivojlanishiga ancha to'sqinlik qiladi. Shu tufayli litsenziya beriladigan faoliyat turlari va ularning ixchamligini ta'minlash borasida ham tegishli tashkiliy ishlarni amalga oshirish lozimdir.

Mazkur ko'rgazmalarga asoslangan holda turizm sohasining mehmonxona xo'jaliklarini rivojlantirish strategiyasidagi mavjud imkoniyatlarni ham qarab chiqish maqsadga muvofiq, deb o'ylaymiz. Hozirgi paytda bunday imkoniyatlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- mehmonlarni kutib olish bo'yicha qo'shimcha imkoniyatlarning hamisha mavjudligi;
- raqobatchilarning raqobat maydonida aynan mazkur mehmonxonaga qarshi ishlamayotganligi;
- mehmonxona xo'jaliklari xizmatlariga ehtiyojning oshib borayotganligi;
- aholining turizmga qiziqishlarining ortib borayotganligi;

- mehmonxona xo‘jaliklari xizmatlarini ko‘paytirish bo‘yicha cheklovlarning yo‘qligi;
- mehmonxona xo‘jaliklari xizmatlarini ko‘paytirishning imkoniyatlari oshib borayotganligi;
- mamlakatimizda raqobat va tadbirkorlik muhitining yaratilganligi;
- mehmonxona xo‘jaliklari xizmatlarini rivojlantirishga beriladigan imtiyozlarning ma’lum vaqt mobaynida saqlanib turishligi;
- mehmonxona xo‘jaliklari xizmatlarini rivojlantirish bo‘yicha xalqaro tajribalarning mavjudligi va ularni o‘rganish imkoniyatining borligi kabilar.

Ushbu imkoniyatlar mehmonxona xo‘jaliklari xizmatlarini rivojlantirish uchun katta manba bo‘lib hisoblanadi. Shu tufayli mazkur sohani rivojlantirishning strategik rejasini ishlab chiqishda, ulardan foydalanish yo‘llarini aniq belgilashda MBTning yo‘nalishlaridan foydalanish lozim, degan xulosaga keldik.

15.5. Ko‘rilayotgan masalaning imkoniyatlari

YuTXni ko‘rsatishni rivojlantirishning bir qancha **imkoniyatlari** ham mavjud. Ulardan biri va eng asosiysi, aholi turmush darajasining oshib borishidir. Chunki, mazkur jarayon ushbu xizmatga bo‘lgan talabni oshiradi. Aholining turmush darajasi qanchalik oshib borsa, xizmatlarga bo‘lgan ehtiyoj shunchalik oshib boradi. Ular tarkibida YuTXga bo‘lgan ehtiyojning o‘sish darajasi umumiy xizmatga nisbatan jadalroq bo‘lishi mumkin. Chunki, endigi xizmat turlari asosan YuTXdan iborat bo‘lmoqda.

YuTXni ko‘rsatishni rivojlantirishning imkoniyatlaridan biri, YuTX bo‘yicha kadrlar tayyorlash zarur bo‘lgan taqdirda mamlakatimizning barcha hududlarida kasb-hunar kollejlari (KHK)ning barpo etilganligi bilan baholash mumkin. KHKlari asosan kasbga o‘qitadi. Joylardagi KHKga yuqori texnologik xizmatlarni amalga oshiradigan kadrlarni tayyorlashga bosqichma-bosqich zaruratdan kelib chiqqan holda, o‘tish lozimligini taqozo qilmoqda. Buning uchun eng

avvalo, shunday pedagoglarni tayyorlashni yo‘lga qo‘yish lozim, deb hisoblaymiz. Ehtimol, bunda xorijiy davlatlar tajribasini o‘rganish, zarur bo‘lsa, o‘sha davlatlarda malakasini oshirish lozimdir. Shu tufayli ushbu holatni davlatning nazoratida bo‘lgani ma’qul.

Mamlakatimizda juda katta tashkiliy ishlarni amalga oshirish natijasida tadbirkorlikni ro‘yxatga olishning “bitta darcha” tamoyili asosida ruxsat berish va ro‘yxatga olish jarayonlarining ixchamlashtirilganligi va uning keng miqyosda jadallik bilan shakllanayotganligini ushbu jarayonning rivojlanishida katta imkoniyat, deb baholash mumkin. Hozirgi sharoitda xususiy tadbirkorlik bilan shug‘ullanadigan odamlar bir joyga bir marta boradi, bir zumda hech qanaqa byurakratik to‘siqlarsiz masalasi hal bo‘ladi. Ammo ishlab chiqarish va litsenziya olish bilan bog‘liq tadbirkorlikni ochish va uni yo‘lga qo‘yishda hamon takomillashishi lozim bo‘lgan jihatlar talaygina.

YuTXni ko‘rsatishda xususiy sektorning rivojlanishi uchun katta imkoniyatlarning mavjudligini ijobiy baholash mumkin. Bu imkoniyat muttasil rivojlanib kelmoqda va kelajakda ham shunday bo‘lib qoladi. Chunki ushbu sohaga e’tibor va unga qo‘yiladigan investitsiyalar ham rivojlanib bormoqda. Jumladan, 2000-yilda tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlariga 200 mlrd. so‘m kredit ajratilgan bo‘lsa, 2011-yilda bu raqam 4 trilion so‘mdan oshib ketdi. Qishloq mulkdorlari 2000-yilda 150 mlrd. so‘m miqdorida kredit olgan bo‘lsa, 2011-yilda ularga berilgan kreditning miqdori 1 trln. so‘mdan oshib ketdi[147]. Ko‘rinib turibdiki, mustaqillik yillarida xususiy sektorga katta miqdorda kreditlar berilmoqda. Ammo uni nimaga yo‘naltirish muhim ahamiyatga ega. Agar davr talabidan kelib chiqadigan bo‘lsak, ularning asosiy qismini YuTXni rivojlantirishga yo‘naltirish maqsadga muvofiqdir.

Xizmatlar sohasi keskin rivojlanmoqda. 2023-yilda xizmatlarning umumiy hajmida yashash va ovqatlanish xizmatlari 22,2 % ni, savdo xizmatlari – 19,4 %, transport xizmatlari – 17,6 %, moliyaviy xizmatlar

[147] Абдурахманов М. Ижтимоий масъулият қандай меъзон билан ўлчанади. // XX1 ASR. 2012 йил 9 февраль. – Б. 3.

– 16,5 % ni, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari – 6,0 %, ta'lim sohasidagi xizmatlar – 3,8 % ni tashkil etgan[148]. Yana shuni ta'kidlash joizki, 2020-yilda mamlakat yalpi ichki mahsulotida xizmatlarning ulushi 41,6 %ni tashkil qilgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 47,4 %ni tashkil qildi[149]. Bu bormoq bilan sanarli davlatlar tarixida erishilgan natijadir. Hozirgi kunda ushbu ko'rsatkichning miqdori tizimli ravishda oshib bormoqda.

YuTXni rivojlantirishning imkoniyatlari qatoriga oilaviy biznesning rivojlanishi uchun tegishli me'yoriy hujjatlarning qabul qilinishi va ushbu sohaning rivojlanishi uchun keng yo'lning ochib berilishini ham kiritish mumkin. Chunki mamlakatimiz oila institutini rivojlantirishning huquqiy asosi yaratildi.

2018-yilning 27-iyun kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori qabul qilingan. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda "Oila institutlarini yanada rivojlantirish va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 820-son qarori qabul qilindi[150]. Tabiiyki bular tarkibida YuTXlar ham keskin o'sgan.

Yuqoridagilarning hammasi turizm sohasining asosiy tarmoqlaridan biri bo'lgan **mehmonxona xo'jaliklarida** ham rivojlanishning zaif tomonlari borlidan dalolat beradi va uni ham MBT jarayonida inobatga olish lozim bo'ladi. Mazkur sohaning zaif tomonlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- xizmatning tannarxi ancha balandligi, uning narxini oshirish imkoniyatining cheklanganligi;
- hamisha ham moliyaviy resurslarning yetarli emasligi;
- xizmat ko'rsatish sohasida hamma holatda ham yuqori darajaning ta'minlanmaganligi;

[148] Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Статистика агентлиги Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий-иқтисодий ҳолати. 2024 йил январь-декабрь. – Т.: 2025. – 149 бет.
[149] Ўша жойда. – 147 бет.
[150] https://lex.uz/docs/5193551

- mehmonxona xizmatlarini sotadigan iste'molchilarning boshqa joylardan kelishini kutishi;
- turizm sohasidagi uzulishlar bo‘yicha tasoddiflarning mavjudligi;
- turizmning mavsumiyligi;
- mehmonxona xo‘jaliklarining barchasida ham rivojlanish strategiyasining yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi;
- mehmonxona xodimlarining vaziyatni tezkor tarzda tahlil qilish ko‘nikmasi va malakaga ega emasligi;
- mehmonxona xo‘jaliklarining xalqaro miqyosda nufuzga ega emasligi;
- mehmonxona xizmatini ko‘rsatuvchi xodimlarning xorijiy tillarni yetarli darajada bilmasligi;
- mehmonxona xo‘jaliklarida ayrim xizmatlarning mavjud emasligi, borlarining ham sifati talab darajasida emasligi;
- xodimlarning malakasi hamon yetarli darajada emasligi kabilar.

Mehmonxona xo‘jaligining bulardan boshqa ham zaif tomonlari bo‘lishi mumkin. Kelajakda o‘zining raqobatbardoshligi va yashovchanligini ta'minlashni maqsad qilgan mehmonxona xo‘jaliklari ushbu zaif tomonlarni kuchli tomonga aylantirishga harakat qilib borishlari lozim. Shundagina har bir mehmonxona xo‘jaligi xizmat bozorida o‘zining o‘rnini topib borishi mumkin bo‘ladi. Buning uchun MBT yo‘nalishlaridan ham samarali foydalanishni taqozo qiladi.

15.6. Ko‘rilayotgan masala bo‘yicha tahdidlar

Mamlakatimizda yuqori texnologik xizmatlarni (YuTX) jadallik bilan rivojlantirishda **tahdidlar** ham yo‘q emas. Ulardan biri, qishloq joylarda YuTXni ko‘rsatish uchun uni harakatga keltiruvchi elektr energiyasining barqaror emasligidir. Tadqiqotlarimiz ko‘rsatdiki, qishloq joylardagi tadbirkorlar ham o‘z faoliyatini shaharlarda amalga oshirishga intilishmoqda, chunki, uni rivojlantirish uchun qishloqlarda tegishli sharoit yetarli emas ekan. Bu yerda bir tadbirkor bilan bo‘lgan suhbatning qisqacha mazmunini keltirishni maqsadga muvofiq, deb

topdik. U kishi qishloqda yashaydi. Ammo shaharda ishlab chiqarish va mehmonxona xo‘jaliklarini qurgan. Biroq asosiy xom ashyoni qishloqdan olib keladi, u yerda ishlaydigan xodimlarning ham asosiy qismi qishloqdan kelib ishlamoqda. Buning sababini surishtirdik. U kishining aytishicha, ushbu mehmonxona xo‘jaliklarini shahardan qurganligining asosiy sabablaridan biri, elektr energiyasidagi ta’minotning qishloqda barqaror emasligi, deb baholadi. Chunki mavsum paytida uzluksiz texnologiya bilan ishlaydigan mehmonxona xo‘jaliklariga uzluksiz elektr energiyasining ta’minot darkor. Shu tufayli ushbu masalaga ham jiddiy ahamiyat berishni talab qiladi. Endi mamlakatimizda qayta tiklanadigan energiya manbalariga (quyosh batareyasi, shamol energiyasi, kichik gidroenergiya manbalari kabilar) katta ahamiyat berish lozim.Yana bir tahdidlar qatoriga kiritiladigan masalalar sirasiga qishloq joylarda YuTXga bo‘lgan ehtiyojning o‘sishiga va uni rivojlantirishga sharoitning yetarli emasligi bilan bog‘liq jarayonlarni ham kiritish mumkin. Bunga yuqoridagi bandda keltirilgan dalillar yetarli, deb o‘ylaymiz. Asta-sekinlik bilan qishloqlarimizda ham YuTXlarga talab oshib boraveradi. Ammo ularga tegishli sharoit yaratilib berilmasa, Muhtaram Prezidentimizning aholini yashash sifatini yaxshilashga qaratilgan siyosatini amalga oshirishda sustkashlikka yo‘l qo‘yilgan bo‘ladi.

Mamlakatimizning juda ko‘p hududlarida yuqori texnologik xizmatlarni tashkil qilish va rivojlantirish uchun gaz bosimining uzluksizligini ta’minlash lozim bo‘ladi. Ammo hamma joyda ham bu muammoni to‘liq hal bo‘lgan, deb bo‘lmaydi. Ko‘pgina xususiy tadbirkorlar gaz bosimining yetarli emasligi tufayli qishloq joylarda shu bilan bog‘liq mehmonxona xo‘jaliklarini qurishdan biroz bosh tortmoqda. Xullas, kommunal siyosat bilan bog‘liq sharoitning yetarli emasligi tadbirkorlikni, xususan YuTXni rivojlantirshga ham ma’lum darajada to‘siq bo‘lmoqda.

Shuni alohida qayd qilish lozimki, hamon tadbirkorlikni rivojlantirishda, uning tarkibiy qismi bo‘lgan YuTXni ham taraqqiy ettirishda byurakratik to‘siqlarning barham topmaganligi ushbu sohaga oid tahdidlarga kiritish mumkin. Yuqorida ta’kidlanganidek, hamon

litsenziya olish masalasidagi tadbirkorlikda qog‘ozbozlik va u bilan bog‘liq muammolarni yanada ixchamlashtirish lozim, deb o‘ylaymiz.

YuTXni rivojlantirishdagi tahdidlardan biri sifatida, xorijiy mamlakatlardan YuTXni ko‘rsatuvchi texnologiyalarni olib kelishda konvertatsiya masalasining hamon murakkabligicha qolayotganligida ko‘rish mumkin. Samarqand viloyatida joylashgan tadbirkorlar bilan o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida, ularning ancha mablag‘lari xorijiy texnikalarni sotib olish uchun tijorat banklarida turganligi va ularning shu maqsad uchun kredit rasmiylashtirib qo‘yganligi, ammo ular yillab konvertatsiya masalasini kutayotganligi, banklarda turib qolgan mablag‘lar mehmonxona xo‘jaliklari oborotiga ishtirok etmayotganligi, ammo kreditlar uchun tadbirkorlarning foizni to‘layotganligi kabi hollar aniqlandi. Bulardan ham ko‘rinib turibdiki, hali bu borada o‘z yechimini kutayotgan muammolar talaygina.Hozirgi sharoitda johon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ikkinchi oqimining yuzaga kelishi ham barcha sohalar singari YuTXni rivojlantirishdagi tahdidlar qatoriga kiritish mumkin. Mamlakatimizning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganidek: “Bugungi zamonning talablari, taraqqiyot sur’atlarini yanada tezlashtirish vazifalari, hali-beri davom etayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozini yengish zarurati integratsiyalashuv jarayonlarini yanada kengaytirish kabi o‘tkir masalalarni kun tartibiga qo‘yganligini biz yaxshi anglaymiz. Ya’ni davlatlar o‘rtasida savdo-iqtisodiy va integratsion aloqalar, tovar almashish yo‘lidagi chegara va bojxona to‘lovlarini olib tashlash hozirgi kunda naqadar dolzarb ahamiyatga ega ekanligini tasavvur qilish qiyin emas”[151]. Ammo bu masalada “doim sezgir bo‘lishimiz darkor”[152]ligini alohida qayd etganligi, har bir tadbirni chuqur tahlillar asosida, puxta o‘ylangan tarzda amalga oshirishimiz lozimligidan dalolat berib turibdi.

Yuqori texnologik xizmatlarni rivojlantirishning SWOT tahlili ko‘zlangan marraga bekami-ko‘st erishishda, ushbu sohani

[151] Каримов И.А. Бизнинг йўлимиз – демократик ислоҳотларни чуқурлаштириш ва модернизация жараёнини изчил давом эттириш йўлидир.//Президент Ислом Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 19 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси.- “Халқ сўзи” газетаси, 2011 йил 8 декабрь. – Б. 2.

rivojlantirishda, kuchli tomonlarni ommalashtirishda, imkoniyatlardan to‘g‘ri foydalanishda, zaif tomonlarini va tahdidlarni bartaraf qilishda, eng muhimi, o‘rganilayotgan jarayonlarni takomillashtirish, rivojlantiish va samaradorligini oshirish borasida ta’sirchan boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim ahamiyatga ega. Shu tufayli hozirgi sharoitda har bir tadqiqot natijasi bo‘yicha SWOT tahlilini qilish va uning natijasi asosida tegishli tadbirlarni qo‘llash maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.Yuqorida ko‘rilgan masalalar barcha soha uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu jihatdan qaraydigan bo‘lsak, **mehmonxona xo‘jaliklari** xizmatlarini takomillashtirish va rivojlantirish borasida ham ayrim tahdidlar yo‘q emas. Bunday tahdidlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- mehmonlarning xizmat sifatiga bo‘lgan talabini qondira olmaslik;
- mehmonxonalarda turistlar uchun hamma xizmatlar yetarli emasligi, masalan, valyuta almashtirish shaxobchasining yo‘qligi;
- mehmonxona xo‘jaliklari xizmatlari bozorida jadallik bilan yangi raqobatchilarning ko‘payib borayotganligi;
- raqobatning keskinlashuvi;
- soliqlarning muntazam to‘lash lozimligi, ammo mehmonlarning mavsumiyligi;
- kommunal xizmatlar narxining oshib borayotganligi;
- mehmonxona xo‘jaliklari xizmatlarini cheklash bo‘yicha ayrim me’yoriy hujjat va tartiblarning to‘satdan joriy qilinishi;
- xorijiy reklama narxlarining qimmatliligi;
- turistlarning mamlakatga kelishining to‘xtab qolish xavfining mavjudligi kabilar.

Mehmonxona xo‘jaliklari xizmatlarini rivojlantirishda vududga keladigan tahdidlarga juda hushyorlik bilan qarash lozim bo‘ladi. Chunki ularning aksariyati mehmonxona faoliyatiga bog‘liq bo‘lmasdan tashqi omillarga bog‘liq bo‘ladi. Mehmonxona xo‘jaliklarini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishda ushbu

tahdidlarning paydo bo‘lishini va ularning oldini olish yo‘llarini ham ko‘zda tutish lozim bo‘ladi.

15.7. SWOT tahlilni o‘tkazish bo‘g‘inlari va strategik maqsadlari

SWOT tahlilni iqtisodiyotning hamma sohalariga tatbiq qilish mumkin. Chunki iqtisodiy ishlarning bir qismi sifatida barcha jarayonlarni o‘rganishda foydalaniladi.

SWOT tahlilni vertikal va gorizantal tarzda amalga oshirish mumkin. Masalan, kompaniyaning faoliyatini tahlil qilish lozim bo‘lsa, uni gorizantal tazda quyidagicha amalga oshirish mumkin:

- kompaniyaning besh yillik faoliyatini o‘zgarish tendensiyasi bo‘yicha;
- uning yillik faoliyati natijalari bo‘yicha;
- yilning har bir choragi bo‘yicha;
- chorakning har bir oyi bo‘yicha;
- har bir dekada bo‘yicha va kunlik faoliyatni ham tahlil qilish mumkin.

SWOT tahlilni gorizantal tarzda ham amalga oshirish mumkin. Bunda ushbu tahlil quyidagi yo‘nalishga ega bo‘ladi:

- butun kompaniya miqyosida;
- uning alohida bo‘g‘in va bo‘linmalarida;
- kompaniyaning biznes hamkorlari bo‘yicha

SWOT tahlilni zamon nuqtai nazaridan ham amalga oshirish mumkin. Bunda ham bir qancha yo‘nalishlarda bajariladi:

- joriy SWOT tahlil;
- qisqa muddatli tahlil;
- uzoq muddatli tahlil.

Ushbu tahlildan kompaniyaning, mazkur holatda mehmonxona xo‘jaliklarining strategik rejasini tuzishda ko‘proq foydalaniladi. Chunki ushbu tahlil bilan hozirgi holatning barcha yo‘nalishi belgilab olingandan keyin, ertangi kunda nimalarga ahamiyat berish lozimligi o‘z-o‘zidan ayon bo‘ladi.

SWOT tahlilni joriy davrda o‘tkazishning o‘zi, uning qanday vaziyatda ekanligiga to‘liq baho berish mumkin. Masalan, uning kuchli

tomonlari nimalardan iborat, zaif tomonlariga nimalarni kiritish mumkin. Kelajakda qanday imkoniyatlardan foydalanish lozim va qanday tahdidlar kutilmoqda, degan masala oydin bo‘lganda har qanday strategik rejani tuzish mumkin.Hozirgi paytda SWOT tahlildan foydalanish juda ko‘p imkoniyatlar eshigini ochib berishi tayin. Chunki aniq dalillar, aniq xulosa chiqarish uchun asos bo‘lsa, aniq xulosalar aniq boshqaruv qarorlarini chiqarish imkonini beradi. Aniq qaror bor joyda aniq ijrochilar belgilanadi va har bir jarayonni aniq so‘raydigan mutasaddilari bo‘ladi. Shu jihatdan mazkur tahlil o‘ta samarali tahlillardan biri bo‘lib hisoblanadi. Bunga misol qilib quyidagi tadbirlarni amalga oshirish mumkin (15.2-jadval).

15.2-jadval

SWOT tahlil natijalari asosida mehmonxona xo‘jaligining samaradorligini ko‘tarish bo‘yicha strategik maqsadlarini amalga oshirish yo‘llari

Omillar	Kelajakda amalga oshiriladigan tadbirlar	Mutasaddilar
Kuchli tomonlari	Har bir bandini qanday qilib yanada kuchlantirish kerak va saqlab turishga erishish kerakligi	Mehmonxona xo‘jaligi rahbarlari, menejerlar va boshqa mutaxassislar
Zaif tomonlari	1.Zaif tomonlarini qanday bartaraf qilish kerak? 2.Ularni qanday qilib kuchli tomonga aylantirish mumkin? 3.Har bir zaif masalani yechish orqali aynan shu soha bo‘yicha mazkur raqobatchilar o‘rtasida qanday qilib yetakchiga aylanish lozim? 4.Zaif tomonlarini bartaraf qilish mumkin bo‘lmagan taqdirda uni qanday qilib shu holatdan kuchaymaslik chorasini ko‘rish?	Mehmonxona xo‘jaligi rahbarlari, menejerlar, mutaxassislar va barcha mazkur mehmonxonaga daxldor kishilar. Birorta xodim chetda qolib ketmasligi kerak.
Imkoniyatlari	1.Qanday imkoniyatlarga egaligi va ulardan qay tarzda foydalanish mumkinligi. 2.Aniq imkoniyatlardan kimlar qanday aniq foydalanadi va kim ularni ishga soladi? 3.Ichki imkoniyatlarga kim mas’ul? 4.Tashqi imkoniyatlarga kim mas’ul va ulardan qanday foydalanish	Mehmonxona xo‘jaligi rahbarlari, mene-jerlar, mutaxassis-lar va barcha mazkur mehmonxonaga daxldor kishilar. Birorta xodim chetda qolib ketmasligi kerak. Har mutasaddiga vazifalar aniq taqsimlab beriladi.

	mumkin?	
Tahdidlar	1.Tashqi tahdidlar qanday tahdidlar? 2.Ichki tahdidlar qanday tahdidlar? 3.Ushbu tahdidlarni kamay-tirishda ko‘riladigan zarar-ni minimal darajada kamaytirishga kimlar mas’ul? 4.Tahdidlarni qanday qilib imkoniyatlarga almashtirish mumkinligi kabilar.	Mehmonxona xo‘jaligi rahbarlari, mene-jerlar, mutaxassis-lar va barcha mazkur mehmonxonaga daxl-dor kishilar. Birorta xodim chetda qolib ketmasligi kerak. Har mutasaddiga vazifa-lar aniq taqsimlab beriladi.

Mazkur jadval ma’lumotlari mehmonxona xo‘jaligining strategik rejasini ishlab chiqish uchun asos bo‘lib hisoblanadi. Bunda kuchli va zaif tomonlariga hamda imkoniyatlari va tahdidlarga qachon, qanday va kim tomonidan e’tibor qilinishi va bajarishi aniq belgilanadi. Bunda har bir bo‘lim bo‘yicha omillarni ichki va tashqi muhitga bog‘liqligini aniqlashni taqozo qiladi (15.3-jadval).

15.3-jadval

SWOT tahlil qirralarini aniq belgilash yo‘llari

Omillar	**Kimlarga va qanday bog‘liqligi**	**Qaysi holatlarni qamrab olishligi[153]**
Kuchli tomonlari	Ichki muhit	- - …
	Tashqi muhit	- - …
Zaif tomonlari	Ichki muhit	- - …
	Tashqi muhit	- - …
Imkoniyatlari	Ichki muhit	- - …
	Tashqi muhit	-

[153] Юқорида келтирилган ҳар бир бандни қайси гуруҳга (ички ёки ташқи) киритилиши аниқ белгиланади. Бу аниқлик кимларни масъул қилишликни, уларнинг қачон амалга ошириш лозимлигини аниқ белгилаш имконини беради ва уларнинг ҳар бирини назорат қилиш учун асос бўлади.

		- …
Tahdidlar	Ichki muhit	- - …
	Tashqi muhit	- - …

Ichki muhit bilan omillar uchun mutasaddilar asosan mutaxassislar va menejerlar bo‘lib hisoblanadi. Tashqi muhit uchun esa mutasaddilikni asosan rahbarlar o‘zlarining zimmasiga olishlari maqsadga muvofiq.

Ushbu qisqagina izohlardan ham ko‘rinib turibdiki, mehmonxona xo‘jaliklari o‘zining kelgusi strategik rejasini ishlab chiqishda SWOT tahlildan foydalanishi katta samara berishi mumkin ekan. Shu tufayli mazkur masalani sohaning har bir mutaxassisi o‘zlashtirib olishi maqsadga muvofiqdir.

O‘zini-o‘zi nazorat qilish va takrorlash uchun savollar:

1. SWOT tahlil tushunchasining mazmuni.
2. SWOT tahlilning ta’rifini yoddan aytib berish va asoslash.
3. Iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlarga baho berishda IRAda SWOT tahlildan foydalanish.
4. Ko‘rilayotgan masalaning kuchli tomonlari nimalardan iborat?
5. Ko‘rilayotgan masalaning zaif tomonlari nimalardan iborat?
6. Ko‘rilayotgan masalaning imkoniyatlari nimalardan iborat?
7. Ko‘rilayotgan masalaning tahdidlari nimalardan iborat?
8. SWOT tahlilning strategik maqsadlari

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida”gi O‘RF-549-son Qonuni. 2019-yil 18-iyul.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvarda “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvarda “Turizm tarmog‘ini jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5611-sonli Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 3-oktyabrda imzolangan “Kreativ iqtisodiyot to‘g‘risida”gi O‘RQ-970-sonli Qonuni. Qonunchilik palatasi tomonidan 2024-yil 30 sentyabrda qabul qilingan. Senat tomonidan 2024-yil 30-sentyabrda ma’qullangan. 3 oktyabr kuni imzolangan.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi, «O‘zbekiston — 2030» strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli farmoni. // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023 y., 06/23/158/0694-son.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2018-yil 28 dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // “Xalq so‘zi” gazetasi. 2018-yil 29-dekabr.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2018-yil 28 dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // “Xalq so‘zi” gazetasi. 2018-yil 29-dekabr
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-iyulda “O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3832-son qarori. // “Xalq so‘zi” gazetasi, 2018-yil 4-iyul.
9. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // Xalq so‘zi, 24.01.2020-yil.
10. O‘zbekiston Respublikasining “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni, 29-oktyabr 2019-yil.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son Farmoni

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Butunjahon turizm tashkiloti Bosh Assambleyasi 25-sessiyasidagi nutqi. 16.10.2023. // https://president.uz/uz/lists/view/6763

13. O‘zbekiston Respublikasining 2001-yilning 30-avgustida qabul qilingan “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risidagi 269-II-son Qonuni, https://lex.uz/.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. // https://president.uz/uz/lists/view/5774.

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi, «O‘zbekiston — 2030» strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli farmoni. // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023 y., 06/23/158/0694-son.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrda imzolangan “2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” to‘g‘risidagi PQ-4477-son qarori.

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentimizning 2023-yil 31-maydagi “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni.

18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020-yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // “Xalq so‘zi” gazetasi. 2020-yil 25-yanvar. 19-son. 1-4 betlar.

19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga 2022-yil 20-dekabrdagi Murojaatnomasi. // https://president.uz/uz/lists/view/5774

20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi // “Xalq so‘zi” gazetasi. 2022-yil 21-dekabr. – 1-3 betlar.

21. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6 iyulda “2022-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. // “Yangi O‘zbekiston” gazetasi, 2022-yil 7-iyul. 136-son. – 2 bet.

22. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi // “Xalq so‘zi” gazetasi. 2022-yil 21-dekabr. – 1-3 betlar.

23. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-fevralda “Ta’lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-54-sonli Qarori. uza.uz

24. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-fevralda “Ta’lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-54-son Qarori. II-bo‘lim, 14-bandi.

25. Prezident Shavkat Mirziyoevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26-yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi so‘zlagan “Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do‘stona hamkorlik esa taraqqiyot kafolatidir” mavzusidagi ma’ruzasi. 07 dekabr 2018-yil.

26. Sh.M. Mirziyoev. O‘zbekiston – 2030 strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023-yildagi PF-158-son.

27. Pardayev M.Q., Xoliqulov A.N., Yahyoyev T.I. Iqtisodiy tahlil. Darslik., SamISI, “Fan bulog‘i” nashriyoti, Samarqand.: 2024, 25,0 b.t.

28. Pardaev M.Q. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Darslik, T., “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2021. – 493-510-betlar.

29. Pardaev M.Q., Pardaev O., Xoliqulov A.N., Babanazarava S.A. Raqobatbardoshlikni mustahkamlashda klaster va sinargetik samaradorlik tahlili. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. Samarqand.: Samarqand iqtisodiyt va servis instituti bosmaxonasi, 2022. – 212 bet.

30. Pardaev M.Q., Xoliqulov A.N., Raximov H.A. Mehmonxona xo‘jaliklarida samaradorlikni oshirish muammolari. Monografiya. Iqtisodiyot. – Toshkent. 2013, 210-bet

31. Xoliqulov A.N., Usmanova D.Q., Raximov X.A. Korxonalarni raqobatbardoshligini baholash. O‘quv qo‘llanma. Samarqand.: “Turon nashr” nashriyoti, 2021. – 212-bet.

32. Xoliqulov A.N. Xizmat ko‘rsatish korxonalari samaradorligini tahlil qilishning metodologiyasini takomillashtirish yo‘nalishlari. Monografiya. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – Samarqand.: “STEP-SEL” MCHJ. Nashriyoti, 2023 - 274 bet. 17,12 b.t.

33. Pardaev M.Q., Gapparov A.Q. Jizzax viloyatida ekologik va rekreatsiya turizmni rivojlantirishning SWOT tahlili// «Obod turmushni ta’minlashda iqtisodiyotni va innovatsion faoliyatni takomillashtirish muammolari». 2013-yil 20-fevral. Respublika an’anaviy ilmiy-amaliy

konferensiya materiallari II-qism. Samarqand, SamISI, 2013, - 204-207-betlar.

34. Berdiqulova I.R. Turizm bozori strategiyasini belgilashda SWOT tahlildan foydalanish imkoniyatlari. “Servis” ilmiy-amaliy jurnali, 2015-yil 2-son, - 137-142 betlar.

35. Ochilov O.I., Odilova M.H. SWOT tahlil va uni marketingda qo‘llash yo‘nalishlari. // Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish istiqbollari / 2017-yil 24-25 fevral kunlari. Respublika an’anaviy ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari (I qism). Samarqand, SamISI, 2017. – 170-173-betlar.

36. Ochilova X.N. Oliy ta’limda ta’lim xizmatlarini rivojlantirishning SWOT tahlili (1-maqola). “Servis” ilmiy-amaliy jurnal 2022-yil 4/1-son. – 192-196 betlar.

37. Ochilova X.N. Oliy ta’limda ta’lim xizmatlarini rivojlantirish imkoniyatlari va zaifi tomonlari (2-maqola). “Servis” ilmiy-amaliy jurnal 2022-yil 4/2-son. – 189-194 betlar.

38. Pardaev Obid. Yuqori texnologik xizmatlarni rivojlantirishning SWOT tahlili. // Mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida iqtisodiyotni rivojlantirishning dolzarb muammolari mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 1-qism, 2012-yil 17-fevral, - 16-24 betlar.

39. Botir Usmonov, Nima uchun kreativ iqtisodiyot? 07. noyabr 2024. Telegramning “Xalq so‘zi” saytida.

40. Mirhabib Sayfullaev. Kreativ iqtisodiyot – barqaror rivojlanish garovi. //https://uza.uz/uz/posts/kreativ-iqtisodiyot-barqaror-rivozhlanish-arovi_644945.

41. Kreativ industriya: kreativ mahsulot va xizmatlar bozori rivojlanadi. O‘zA muxbiri Norgul Abduraimovaning Erkin Gadoev bilan suhbati. https://uza.uz/category/business.

42. Kreativ industriya: kreativ mahsulot va xizmatlar bozori rivojlanadi. // O‘zA muxbiri Norgul Abduraimovaning Erkin Gadoev bilan suhbati. https://daryo.uz/.

43. Madina Durman. O‘zbekiston uchun ijodiy iqtisodiyot juda muhimligi va buning sabablari aytildi. // https://daryo.uz/

44. Mamayunus Pardaev. KREATIV IQTISODIYoTNING TA’RIFI VA PRINSIPLARI. //https://telegra.ph/KREATIV-I%D2%9ATISODIYOT

NING-TARIFI-VA-PRINCIPLARI-11-10. SamTVR I MTRK/. 2024.11.10 540. 12:48. – 0,2 b.t.

45. Mamayunus Pardaev. KREATIV Industriya sohalari va ularning mazmuni. // https://telegra.ph/KREATIV-INDUSTRIYA-SO%D2%B2ALARI-VA-ULAR NING-MAZMUNI-11-11 SamTVR I MTRK/. 2024.11.11 552. 8:42. – 0,2 b.t.

46. Mamayunus Pardaev, Murod Muhammedov, Obid Pardaev. Iqtisodiyot-ning turlari va ta'riflari. // https://telegra.ph/I%D2%9Btisodiyotning-turlari-va-tariflari-07-08-2. 2666. 12.02. 7 avgust 2024-yil.

47. Pardaev M.Q. Raqamli iqtisodiyotning ta'rifi, maqsadi, ijobiy va salbiy tomonlari. // "Servis" ilmiy-amaliy jurnali. 2019 1-son. – 5 bet.

48. Tuxliev Iskandar Suyunovich. O'zbekistonda kreativ turizmni rivojlantirish xususiyatlari. https://telegra.ph/%D0%8EZBEKISTON_DA-KREATIV-TURIZMNI-RIVOZHLANTIRISH-HUSUSIYATLARI-11-11. SamTVR I MTRK/. 2024.11.11 161. 20:37. – 0,2 b.t.

49. Rizaev Nurbek. Yorqin kelajak uchun "Aqilli" texnologiyalar. // "Xalq so'zi" gazetasi. 224-yil 31 oktyabr. 223 son. – 1 va 4 betlar.

50. https://kun.uz/kr/news/2023/02/04/dunyoda-ishsizlar-soni-205-milliondan-oshdi.

51. https://darakchi.uz/uz/86268

52. https://daryo.uz/2022/08/12/ozbekistonda-2022-yilning-birinchi-yarmidagi-ishsizlik-darajasi-malum-qilindi/

53. Elmira Sirazieva. https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda_yangi/umumiy_mehnat_bozori_shakllantiriladi.

54. Schwab, K. (2017). The fourth industrial revolution. Currency.

55. Acemoglu, D., & Restrepo, P. (2017). Robots and jobs: Evidence from US labor markets. NBER Working Paper No. 23285.

56. Castles, S., Haas, H. de, & Miller, M. J. (2014). The age of migration: International population movements in the modern world. Palgrave Macmillan

57. World Bank. (2023). *Migration and Remittances Data*.

58. Rosstat. (2022). *Mehnat va bandlik*. UNESCO. (2021). *Global Flow of Tertiary-Level Students*.

59. Bloom, D. E., Canning, D., & Fink, G. (2010). Implications of population ageing for economic growth. Oxford Review of Economic Policy, 26(4), 583-612.

60. Statista Research Department. (2023). *Japan - labor force*.

61. Federal Employment Agency. (2022). *Job vacancies in Germany*.

62. Eurostat. (2023). Population structure and ageing. https://ec.europa.eu/eurostat/statistics-explained/index.php?title=Population_structure_and_ageing

63. World Bank. (2023). *Fertility rate, total (births per woman)*. https://data.worldbank.org/indicator/SP.DYN.TFRT.IN OECD. (2022). *International Migration Outlook 2022*.

64. World Economic Forum. (2020). The Future of Jobs Report 2020. http://www3.weforum.org/docs/WEF_Future_of_Jobs_2020.pdf

65. United States Bureau of Labor Statistics. (2021). *Job openings and labor turnover survey*. https://www.bls.gov/jlt/

66. Upwork. (2023). *Freelancing in 2023: An In-Depth Look at the Future of Work*.

67. LinkedIn. (2022). *The Power of Personal Branding*.

68. Fortune. (2023). *100 Best Companies to Work For*. https://fortune.com/best-companies/

69. Blanchard, O., & Diamond, P. (2011). The Euro zone crisis. *Brookings Papers on Economic Activity*, 2011(2), 207-281

70. European Commission. (2015). *Employment and Social Developments in Europe 2015*. Publications Office of the European Union

71. World Bank. (2020). *Small and Medium Enterprises (SMEs) Finance*.

72. Bundesagentur für Arbeit. (2023). *Unemployment insurance in Germany*.

73. World Bank. (2013). *World Development Report 2013: Jobs*.

74. World Economic Forum. (2019). *The Global Competitiveness Report 2019*.

75. International Organization for Migration. (2021). *World Migration Report 2022*.

76. The Economist. (2017). *Japan's lifetime employment system is breaking down*.

77. European Commission. (2022). *Digital Economy and Society Index (DESI) 2022*.

78. OECD. (2020). *OECD Economic Surveys: Sweden 2020*.

79. Transparency International. (2022). *Corruption Perceptions Index 2022*.

80. Li Kuan Yu. Uchinchi dunyodan birinchi dunyoga. – T.: "Akademnashr" 2023/ - 9 bet.

81. World Bank. (2023). *Vietnam Economic Monitor: June 2023*.

82. National Institute of Population and Social Security Research. (2021). *Population Projections for Japan (2017-2065)*.

83. Istochnik dannыx: OON, World Population Prospects (2024).

84. World Economic Forum. (2023). *Global Gender Gap Report 2023*.

85. Statistics Canada. (2023). *Immigration and ethnocultural diversity: Key results from the 2021 Census*.

86. Federal Ministry for Economic Affairs and Climate Action. (2022). *The German energy transition*.

87. McKinsey Global Institute. (2018). *Kelajakdagi ish: Avtomatlashtirish davrida ishchi kuchining o'zgarishi*.

88. Carnegie, D. (1936). *Do'stlar orttirish va odamlarga ta'sir o'tkazish*.

89. Goleman, D. (1995). *Emotsional intellekt*.

90. https://sputniknews.uz/20240907/ozbekiston-internet-abonentlar-45524808.html

91. De Stefano, V. (2016). The rise of the "just-in-time workforce": On-demand work, crowdwork, and labour protection in the "gig-economy". Conditions of Work and Employment Series No. 71. Geneva: ILO.

92. World Bank. (2022). *World Development Report 2022: Data for Better Lives*. World Bank.

93. European Commission. (2021). *Digital Economy and Society Index (DESI) 2021*.

94. Global Workplace Analytics. (2021). 2021 Remote Work Statistics. https://globalworkplaceanalytics.com/telecommuting-statistics

95. https://nrm.uz/contentf?doc=708244_masofadan_turib_ishlovchi_hodimlarni_rasmiylashtirish_va_ular_bilan_ishlash_tartibi_(nm_48-49-son_2022_yil_6_dekabr)&products=12_umnaya_podshivka

96. Primack, B. A., Shensa, A., Sidani, J. E., Whaite, E. O., Lin, L. Y., Rosen, D., ... & Miller, E. (2017). Social media use and perceived social isolation among young adults in the US. American journal of preventive medicine, 53(1), 1-8.

97. Schwab, K. (2016). *The fourth industrial revolution*. Currency.

98. Elektron mehnat birjasi orqali yaratilgan ish o'rinlari va ishga joylashgan fuqarolar soni: Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi. (2024). *Bandlik va mehnat bozori to'g'risida statistik ma'lumotlar*. [Ma'lumotlar to'plami]. Toshkent: Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi.

99. IT Park rezidentlari tomonidan olingan eksport tushumlari**:** IT Park. (2023). *Yillik hisobot*. Toshkent: IT Park.

100. Mansur Tangishov. 3/2018 (№ 00035) www.iqtisodiyot.uz.

101. https://kun.uz/news/2023/10/13/ozbekistonda-imkoniyati-cheklangan-insonlar-qanday-qollab-quvvatlanyapti

102. https://zarnews.uz/post/yashil-iqtisodiyot-nima

103. https://xs.uz/uzkr/122806

104. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 80000 dan ortiq so‘z va so‘z birikmasi. 3-tom. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 432 bet.

105. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 80000 dan ortiq so‘z va so‘z birikmasi.2-tom. T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 316 bet.

106. Marks, Karl. Ishchi kuchini sotib olish va sotish: 6-bob. Marxiss.org

107. Smit, Adam (1776). Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to‘g‘risida so‘rov. Mualliflik huquqi 2007 MetaLibre.

108. https://uza.uz/posts/551367

109. https://uza.uz/uz/posts/finlyandiyalik-maslahatchi-talimdagi-islohotlar-mazmuni-eng-quyi-tizimgacha-etib-bormayapti_420686

110. Nurbek Rizaev. Yorqin kelajak uchun “Aqilli” texnologiyalar. // “Xalq so‘zi” gazetasi. 2024-yil 31 oktyabr. 223-son. – 1 va 4 betlar.

111. Qalandar ABDURAHMONOV “Raqamli iqtisodiyot: Janubiy Koreya tajribasi va undan Uzbekistonda foydalanish istiqbollari” mavzusida katta maqolasi e’lon qilindi. 30.04.2018 | Nomer: №4 (124)-2018.

112. G‘ulomov S.S., Shermuhammedov A.T. Razvitie sifrovogo marketinga v Uzbekistane. // “O‘zbekistonda harakatlar strategiyasi samaradorligini oshirishda marketing konsepsiyalaridan foydalanish muammolari” mavzusida XIAK materiallari to‘plami. – T.: “Iqtisod-moliya” nashriyoti. 2019. – 24-29 betlar.

113. Ikromov M.A., Shermuhammedov A.T. Sifrovoy tovar: strategii proizvoditeley i prodovsov. / “O‘zbekistonda harakatlar strategiyasi samaradorligini oshirishda marketing konsepsiyalaridan foydalanish muammolari” mavzusida XIAK materiallari to‘plami. – T.: “Iqtisod-moliya” nashriyoti. 2019. – 100-103 betlar.,

114. Бабаназарова С.А. “Таълим хизматлари самарадорлиги ва сифатини оширишнинг ташкилий-иқтисодий механизмларини такомиллаштириш”. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа (PhD) диссертация. 2022.

M.Q.Pardayev, S.A.Babanazarova,
O.M.Pardayeva

MEHNAT BOZORI TRANSFORMATSIYASI

O‘quv qo‘llanma

Muharrir: Z.N. Bobodustov
Musahhih: M.O. Mardiyeva
Texnik muharrir: N. Ergashev

O‘quv qo‘llanma institut Kengashining 2025-yil 28-martdagi 8-sonli majlisda muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan. (Ro‘xatga olish raqami 249-28/03).

“STAP-SEL” MChJ nashriyoti, Samarqand - 2025

ISBN: 978-9910-587-05-4

Tasdiqnoma № 033337 (27.07.2022)
Nashrga ruxsat etildi: 22.08. 2025 y.
© “STAP-SEL” MChJ nashriyoti, Samarqand 2025 y.

1948

2025 yilda chop etildi.
Qog‘oz bichimi A5, 60x84 1/16, Ofset qog‘ozi.
“Times New Roman” garniturasi.
Nashr bosma tabog`i 21.12
Buyurtma № 0133A/25. Adadi 50 nusxa

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining matbaa bo`limida chop etildi.
LICENSE № 025316.
REESTR № X-119112.
Manzil: Samarqand shahar, Shoxrux ko`chasi 60-uy.

57425

ISBN: 978-9910-587-05-4

